Thus, the assessment of the influence of the lithological composition of rocks in the aeration zone on the migration of pollutants in the floodplain and valley of the Akhangaran River is an urgent scientific and practical task, the solution of which will allow developing more effective measures for the protection of groundwater and ensuring sustainable water use in the region.

**Material and methods.** This study, aimed at assessing the influence of the lithological composition of rocks in the aeration zone on the migration of pollutants in the floodplain and valley of the Akhangaran River, should use a set of methods combining field observations, laboratory analyses and mathematical modeling. Here are the main methods: field methods (geological mapping and lithological description), rock sampling in the aeration zone, water sampling from surface and underground sources, regular measurements of the ground water level, conducting field experiments to study the migration of pollutants; laboratory methods: determination of the physical and mechanical properties of rocks in the aeration zone, chemical composition of rocks in the zone aeration, concentration of pollutants in water and rocks, experimental study of sorption and desorption of pollutants by rocks of the aeration zone, study of biochemical processes of decomposition of pollutants; methods of data processing and analysis (statistical, correlation,geostatic analyses); methods of mathematical modeling.

**Results and their discussion.** When irrigation increases, polluted soils and rocks of the aeration zone become sources of groundwater contamination as a result of leaching of various salts, water-soluble parts of heavy metals. To

study possible migration routes of pollutants through the rocks of the aeration zone, experimental work was carried out in pits.

According to the map of Quaternary deposits, engineering and geological and other maps compiled during a complex hydrogeological and engineering and geological survey of 1:50 000 scale for land reclamation purposes in the area of work, the aeration zone is mainly composed of loess-like loams, sandy loams and gravel-pebble deposits in the valleys andfloodplain of the Akhangaran River with a thickness of 1-3 mm. up to 10-20 meters or more.

According to "Kyzyltepageologiya" data, the soil cover of the work area is contaminatedwith Zn, Mn, Pb,Sb, Sr (gross contents). With the development of irrigation, the water-soluble part of these metals can pollute the rocks of the aeration zone, then underground water.

To study the possible migration routes of these components through the rocks of the aeration zone, experimental migration works were carried out for two (coarse-grained and fine-grained) varieties of rocks of the aeration zone. During the sinking of the pits, samples were taken from a depth of 0.2, 1.0, and 2.0 m prior to the experiment for appropriate chemical analyses (water extraction, granulometric composition, content of petroleum products, and heavy metals). At the end of the experiment, samples were taken from the same intervals for evaluation

changes in the concentration of metals after the experiment. Based on the results of field and laboratory studies, a slight increase in the concentration of zinc and copper associated with accumulation in clay rocks was established. The experiments were conducted from the earth's surface.

For example, we present the results of changes in the concentration of metals in depth in various rocks of the aeration zone, pits 1, 2-gravel and loam. Experiments were carried out in pits 1 and 2 with the following concentrations of metal salts: manganese-8.3 mg / l; lead-22 mg / l; copper-7.6 mg/L; zinc-8.3 mg/L; strontium-10 mg/l (Table 1). The concentration of the above metals at a

depth of 1.0 m according to pit No. 1, it was significantly reduced to: manganese-0.014 mg / l; lead-0.00025 mg/l; copper-0.010 mg/l; zinc-0.012 mg/l; strontium-0.58 mg/l. This percentage is between 0.000014 (lead) and 0.58 (strontium) of the original concentration.

Table 1.

Change in the concentration of heavy metals in the experimental solution




| Elements, mg / l | | Mn | Pb | Cu | Zn | Sr |
|---|---|---|---|---|---|---|
| Concentration of the experimental solution | | 8.3 | 22 | 7.6 | 8.3 | 10 |
| Pit 1 | 1m | 0.014 | 0.00025 | 0.010 | 0.012 | 0.58 |
| | 2m | 0.069 | 0.00024 | 0.014 | 0.040 | 0.43 |
| Pit 2 | 1m | 0.0018 | 0.00024 | 0.010 | 0.010 | 1.2 |
| | 2m | 0.580 | 0.00025 | 0.0056 | 0.0087 | 0.98 |

In the course of research, the concentrations of Mn, Pb, Cu, Zn, and Sr in the rocks of the aeration zone were determined prior to the experiment (pits 1-6).

*Manganese. (hazard class 3),* active in natural processes, mobile in reducing and inert in oxidizing processes, easily passes into solutions, it is more difficult to plant out of it.*Lead. (hazard class 1),*a weakly mobile element, in alkaline and slightly alkaline soils with a pH of 7.5-9.5, it is practically stationary. In landscapes, it migrates ina biocarbonate form. It does not form a halo of contamination. According to the pits 1,3,4 passed within the lower part

of the Akhangaran MPV – Gejigen branch in the soils of the aeration zone to a depth of 2.0 m, the concentration of manganese is 0.6; 4.9; 6.8, the maximum permissible concentration of lead is 3.0; 0.6; 0.3, respectively. For pits 5 and 6 (Dalverzinsky MPV), the concentration of manganese and lead is about 5.5-6.0 MPC. The hydrogen index of the geological environment of the site is 7.5-8.5-slightly alkaline environment. Accumulation of a relatively high concentration in conditions of remoteness from the source of contamination (OHC and AHMC) seems to depend on the pH of the medium. In the underground waters of the MCC 19, 20, 8, 9, 5, located in the zone of influence of the OHC of AGMC (Kokaral MPV), the concentration of manganese, respectively, is 1.5; 0.6; 0.3 MPC and decreases with distance from the OHCV. The hydrogen index (pH) of the medium (rock, water) west of the OHC is 6.1-6.5 – a weakly acidic medium that promotes the activation of the mobility of these metals. Due to the relatively high dilution capacity of the groundwater flow compared to the flow of the Dalverzinsky MPV, there is a dispersion of concentration along the flow of the groundwater flow.

According to GCK 21 (Dalverzinsky MPV), the concentration of manganese is 0.2-0.5 MPC. In conditions of a slightly alkaline environment, difficult water exchange, which contribute to the creation of an alkaline barrier, pollutants accumulate.

*Copper (Class 2)*participates in plant syntheses. Monovalent copper content is insoluble, divalent - easily soluble. It is most strongly bound to manganese, least strongly bound to zinc and nickel, and is a weakly mobile element in alkaline environments. *Zinc (hazard class 1).* Migration ability-contrasts and changes depending on the chemical composition of the landscape. It is dispersed in various rocks enriched with organic matter, and weakly mobile in alkaline soils. *Strontium (hazard class 3)* is a weakly mobile element in subalkaline media, the migration ability is identical inredoxreactions.

As a result of field experimental migration studies on the migration of pollutants through rocks of aeration zones with different structures, it was revealed:

- mobile forms of metals in the elements Pb, Mn, Zn, etc. have a close correlation with the gross ones, which leads to the possibility of their migration into the chain-release-soil-plants.

- the time of penetration of pollutants per 1 meter of the aeration zone depth was: for pebbles-0.2-0.9 hours; for loams underlain by pebbles-6.0-10 hours; for loess-like loams-2.5-3.0 days; - the pebble deposits of the Akhangaran River section (the final part) are the most permeable compared to the pebble deposits of the interfluve valleys. This circumstance is explained by the fact that the permeability of pebble deposits largely depends on their aggregates – the more clay and powdery fractions in the aggregates, the lower the permeability.

- the highest concentrations of heavy metals accumulate in the soil cover. This is confirmed by a significant decrease in the initial concentration of the experimental solution at a depth of 1.0 m.

- in the presence of clay interlayers in a relatively homogeneous section of pebbles, there is a decrease in the concentration of pollutants from top to bottom and their accumulation in clay rocks. This is due to the fact that the mineralogical composition of loamy rocks contains a significant amount of clay fractions (30-35% of the total volume), which have sorption abilities.

Filtration of experimental solution that has reached a depth of 1 m in the rocks of the aeration zone

of different lithological composition, significantly decreases and amounts to 0.008 – 0.02% in relation to the initial one: for Mn in loams and sandy loams, it is 0.008-0.02%.

pebbles – 0.02-0.15%.

- the presence of aeration zones of loamy soils in the rocks, provided that the pH of the medium is 7.3-8.1, contributes to the formation of an alkaline barrier on which zinc and copper can be deposited.

- the concentration of the solution filtered through the aeration zone to a depth of 2.0 m in all cases did not exceed the maximum permissible concentration;

## LIST OF LITERATURE

1. Borodin R. V. Underground waters of the Angren river intermountain valley. Tashkent 1960.
2. Grigorova G. L. Enikeev N. I. Technogenic pollution of underground waters of intermountain river valleys of Uzbekistan. zh. "Sovetskaya geologiya" No. 5 Moscow, Nedr, 1990.
3. Khodzhaev V. G. On migration of nitrogen compounds in the aeration zone. Agrochemistry of 1983. Current state of groundwater problems and their solutions. (Proceedings of the International scientific and practical conference hanged 100 years since the birth of N. КенссаринаА. Kenssarin) Tashkent, 2008.
4. Umarov Sh. F. et al. Report on regional ecological and geological studies on a scale of 1: 100000 within the Dalverzinsky steppe and the lower reaches of the Akhangaran River valley, affected by industrial zones in Almalyk, Bekabad and irrigated land on an area$^{of\ 2300\ km2}$. Funds of the State Enterprise "Institute of HYDROENGEO".

# BIOLOGIYA DARSLARIDA EKOLOGIK KO'NIKMALARNI SHAKLLANTIRISH (11-SINF)

**Yadgarova Sadokat Kenjabayevna**

*O'qituvchi*

*Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti*

sadoqatkenjabayevna0209@gmail.com

***Annatotsiya.*** *Ushbu maqolada 11-sinf o'quvchilari biologiya darslarida ekologik ko'nikmalar shaklantirish orqali tabiiy ekotizimlarga munosabat, ekologik ko'nikmalarni qo'llash orqali ekoligik odatlarga ega bo'lishi masalalari yoritilgan. Har bir o'rta ta'lim maktabini tamomlagan o'quvchi bilishi lozim bo'lgan ekologik ma'lumotlar yoritilgan.*

***Annatation.*** *This article discusses the development of ecological skills among 11th-grade students in biology lessons, examining their attitude toward natural ecosystems and how applying these ecological skills helps them develop sound ecological habits. It also presents the essential ecological knowledge that every student graduating from secondary school should possess.*

***Kalit so'zlar:*** *ekologik odat, ekologik ko'nikma, ekotizim, ekologik ma'lumot, ekologiya, ekologik muammo, atrof-muhit.*

***Key words:*** *ecological habit, ecological skill, ecosystem, ecological information, ecology, ecological problem, environment.*

## KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimida tabiatni muhofaza qilish va o'quvchilar ekologik ongini shakllantirishga bo'lgan ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Sanoatning jadal rivojlanishi, urbanizatsiya jarayonlari va global iqlim o'zgarishlari tufayli kelajak avlodning ekologik savodxonligi milliy va xalqaro miqyosda muhim masalaga aylangan. Shu nuqtai nazardan, maktab ta'limining barcha bosqichlarida, xususan, 11-sinf biologiya darslarida ekologik ko'nikmalarni maqsadli tarzda shakllantirish pedagogik ahamiyatga molik vazifadir.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gi Qonuni va "Milliy o'quv dasturi" ekologik tarbiya va atrof-muhitga mas'uliyatli munosabatni

shakllantirishni uzluksiz ta'limning tarkibiy qismi sifatida belgilaydi. Ushbu normativ hujjatlar talablarini amalda to'liq amalga oshirish uchun biologiya darslarida turli interfaol metodlar va innovatsion yondashuvlarni qo'llash zarur.

Maqolaning maqsadi – 11-sinf o'quvchilarida biologiya kursi doirasida ekologik ko'nikmalarni shakllantirish imkoniyatlarini nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilish, shuningdek, ushbu jarayonni optimallashtirish bo'yicha metodologik tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot ob'ekti – umumiy o'rta ta'lim maktablarining 11-sinf o'quvchilari, predmeti esa biologiya darslarida ekologik ko'nikmalar shakllanish jarayoni hisoblanadi.

Hozirgi kunda O'zbekiston maktablarida biologiya dasturida ekologiya bo'limi alohida o'rin tutadi: biosfera, ekotizimlar, oziq-ovqat zanjiri, moddalar almashinuvi kabi mavzular o'quvchilar bilimining poydevori hisoblanadi. Biroq nazariy bilimlarni hayotiy amaliyot bilan uyg'unlashtirish ko'pincha yetarli darajada amalga oshirilmaydi. Shu sababli ushbu tadqiqot dolzarb va amaliy ahamiyatga egadir.

## ASOSIY QISM

"Ekologik ko'nikma" tushunchasi zamonaviy pedagogika va ekopsixologiya fanlarida quyidagicha ta'riflanadi: bu – o'quvchining atrof-muhit bilan munosabatda ongli, mas'uliyatli va ijodiy tarzda harakat qila olish qobiliyati bo'lib, nazariy bilimlar, kuzatuv tajribasi va amaliy faoliyat sintezidan vujudga keladi (Deryabo, Yasvin, 1996). Mazkur ko'nikmalar besh asosiy guruhga bo'linadi: kuzatuv ko'nikmalari, tahliliy ko'nikmalar, muammo hal qilish ko'nikmalari, hamkorlik ko'nikmalari va amaliy-tadqiqotchilik ko'nikmalari.

***1-jadval***

***Ekologik ko'nikmalar tasnifi va ularni rivojlantirish usullari***

| Ko'nikma turi | Asosiy tarkibiy qismlar | O'qitish usullari |
|---|---|---|

| | | |
|---|---|---|
| Kuzatuv | Tabiiy hodisalarni kuzatish, ma'lumot yig'ish, o'zgarishlarni qayd etish | Dala tadqiqotlari, laboratoriya kuzatuvlari, daftar yuritish |
| Tahlil qilish | Ekotizimlar o'rtasidagi munosabatlarni tushunish, sabab-oqibat bog'liqligini aniqlash | Grafiklar tahlili, muhokama, aqliy hujum |
| Muammoni hal qilish | Ekologik muammolarni aniqlash, yechim topish, reja tuzish | Loyiha usuli, keys-stadi, munozara |
| Hamkorlik | Guruhda ishlash, fikrlarni baham ko'rish, umumiy maqsad sari harakat | Guruhli loyihalar, seminar, ekskursiya |
| Amaliy faoliyat | O'simlik o'stirish, muhitni muhofaza qilish, qayta ishlash | Bog' yaratish, tozalash aksiyalari |

Kuzatuv ko'nikmalari o'quvchining tabiiy muhitda bo'layotgan jarayonlarni sistemali qayd qilish va farqlash qobiliyatini rivojlantiradi. Tahliliy ko'nikmalar esa yig'ilgan ma'lumotlarni talqin etish, o'zaro bog'liqliklarni aniqlash va xulosa chiqarishni o'z ichiga oladi. Muammo hal qilish ko'nikmalari – amaliy ekologiyaning yadrosi: o'quvchi muayyan ekologik muammoni aniqlaydi, alternativ yechimlar taklif qiladi va ularni baholaydi.

11-sinf biologiya dasturida "Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish" bo'limi mavjud bo'lib, unda biosfera tuzilishi, populyatsiya ekologiyasi, antropogen omillar va tabiatni muhofaza qilish choralari keng yoritiladi. Ushbu

bo'lim o'quvchilarga nafaqat nazariy bilim, balki tanqidiy fikrlash va ekologik muammolarni mustaqil baholash ko'nikmalarini ham berishi lozim.

G'arb va Osiyo mamlakatlarining ilg'or pedagogik tajribasi shuni ko'rsatadiki, ekologik ta'lim ayniqsa loyiha metodi, muammoli ta'lim va dala ekskursiyalari orqali samarali amalga oshiriladi. Finlandiya, Janubiy Koreya va Yaponiyaning maktab o'quv dasturlarida ekologik ko'nikmalar shakllantirishga maxsus soatlar ajratilgan bo'lib, natijalar o'quvchilarning atrof-muhitga faol munosabati va ilmiy tadqiqotchilik qobiliyatining sezilarli oshishini ko'rsatadi.

O'zbekistonda so'nggi yillarda maktab o'quv dasturlarini modernizatsiya qilish doirasida biologiya fani o'qituvchilariga ekologik tarbiyaviy ishlarni kuchaytirish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar ishlab chiqilgan. Xususan, 2022–2023 o'quv yilidan boshlab 11-sinf biologiya darsliklarida ekosistemalar va global ekologik muammolarga oid yangi mavzular kiritilgan.

Biologiya darslarida ekologik ko'nikmalarni shakllantirish uchun quyidagi metodlar alohida ahamiyat kasb etadi:

Birinchidan, loyiha metodi – o'quvchilar kichik guruhlar tarkibida real ekologik muammolarni o'rganadi va yechim taklif qiladi. Masalan, "Mahalliy suvning ifloslanish darajasini baholash" yoki "Maktab atrofidagi o'simlik qoplamini kartalashtirish" kabi loyihalar o'quvchilarning amaliy ko'nikmalarini jadal rivojlantiradi.

Ikkinchidan, dala tadqiqotlari (ekskursiyalar) – tabiiy muhitga chiqib, o'simlik va hayvonlar dunyosini bevosita kuzatish, namunalar to'plash, suv va tuproq ko'rsatkichlarini o'lchash o'quvchilarda chuqur taassurot va barqaror ko'nikmalar shakllantiradi. Bunday mashg'ulotlar an'anaviy dars formatiga nisbatan 1,5 barobar yuqori samaradorlik ko'rsatadi.

Uchinchidan, muammoli ta'lim texnologiyasi – o'qituvchi o'quvchilarga real hayotdan olingan ekologik muammoli vaziyatni taqdim etadi (masalan, Orol dengizining qurishiga olib kelgan omillar tahlili) va o'quvchilar mustaqil

ravishda muammo sabablarini aniqlashga, yechimlar topishga va taqdim etishga harakat qiladi.

To'rtinchidan, interfaol metodlar (debatlar, rolli o'yinlar, "ekspert kengashi") – o'quvchilar turli ekologik pozitsiyalarni himoya qilib, fikrlarini asoslaydi va boshqalarning qarashlarini tanqidiy baholashni o'rganadi.

2023–2024 o'quv yilida Toshkent shahrining 3 ta umumta'lim maktabida o'tkazilgan kuzatuv tadqiqoti natijalari turli o'qitish metodlarining ekologik ko'nikmalar shakllantirishdagi samaradorligini qiyosiy baholash imkonini berdi. Tadqiqotda jami 120 nafar 11-sinf o'quvchisi ishtirok etdi.

***2-jadval.***

***Turli o'qitish metodlarining samaradorlik taqqoslama tahlili***

| O'qitish metodi | Bilim o'zlashtirish (%) | Ko'nikma rivojlanishi | Motivatsiya darajasi | Umumiy baho |
|---|---|---|---|---|
| An'anaviy ma'ruza | 62% | Past | O'rta | ★★☆☆☆ |
| Laboratoriya ishlari | 78% | O'rta | Yuqori | ★★★☆☆ |
| Loyiha metodi | 85% | Yuqori | Juda yuqori | ★★★★☆ |
| Dala tadqiqoti | 91% | Juda yuqori | Juda yuqori | ★★★★★ |
| Aralash yondashuv | 88% | Yuqori | Juda yuqori | ★★★★★ |

** Baho: bilim testi (100 ball), ko'nikma rubrikalari va o'quvchi so'rovnomalari asosida*

Yuqoridagi jadvaldan ko'rinib turibdiki, dala tadqiqoti metodida o'quvchilar bilimni eng yuqori darajada (91%) o'zlashtirib, juda yuqori motivatsiya ko'rsatadi. Aralash yondashuv (nazariy bilim + laboratoriya + dala

ishi) esa barcha ko'rsatkichlar bo'yicha muvozanatli va yuqori natija beradi. An'anaviy ma'ruza metodi esa faqat 62% bilim o'zlashtirishni ta'minlaydi va ko'nikma rivojlanishi past darajada qoladi.

Tadqiqot natijalari ko'rsatadiki, ekologik ko'nikmalarni shakllantirish jarayonida amaliy faoliyat va bevosita tabiat bilan muloqot hal qiluvchi rol o'ynaydi. Shu sababli o'qituvchi har bir mavzuni o'qitishda nazariy va amaliy qismlarni oqilona birlashtirishi maqsadga muvofiqdir.

"Ekotizimlar va ularning barqarorligi" mavzusida 11-sinf uchun loyiha-tadqiqot asosidagi dars quyidagi tuzilmani o'z ichiga oladi: 1) Motivasiya bosqichi – real hayotdan ekologik vaziyat (5 daqiqa); 2) Bilimlarni yangilash – avvalgi bilimlar bilan bog'lash (7 daqiqa); 3) Guruhli tadqiqot – belgilangan ekotizimni tahlil qilish, muammolarni aniqlash (15 daqiqa); 4) Taqdimot va muhokama – guruh xulosalari, tanqidiy baholash (10 daqiqa); 5) Refleksiya va uyga vazifa – kuzatuv daftarini to'ldirish (3 daqiqa).

Bunday tuzilma o'quvchini darsning faol ishtirokchisiga aylantiradi va ekologik muammolarni mustaqil baholash ko'nikmalarini rivojlantiradi. O'qituvchining roli esa bilim uzatuvchidan fasilitator – jarayonni yo'naltiruvchi va qo'llab-quvvatlovchi – ga o'zgaradi.

## XULOSA

Biologiya darslarida ekologik ko'nikmalarni shakllantirish – bu nafaqat ta'limiy, balki ijtimoiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega jarayondir. Ushbu maqolada bayon etilgan tahlillar va tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalar chiqarish mumkin:

Birinchidan, ekologik ko'nikmalar tizimli va izchil yondashuv orqali shakllanadi: faqat nazariy bilim berish emas, balki kuzatuv, tahlil va amaliy faoliyat orqali o'quvchini tabiiy jarayonlar ishtirokchisiga aylantirish talab etiladi.

Ikkinchidan, dala tadqiqotlari va loyiha metodlarining samaradorligi an'anaviy ma'ruza metodiga nisbatan 25-30 foizga yuqori ekanligi eksperimental

tarzda tasdiqlangan. Bu o'qituvchilarga dars rejalashtirishda amaliy komponentga ko'proq e'tibor qaratishni tavsiya etadi.

Uchinchidan, aralash yondashuv – nazariy bilim, laboratoriya tajribalari va dala kuzatuvlarini birlashtirgan kompleks metod – ko'nikma rivojlanishida eng barqaror natijalarni beradi va uni keng qo'llash lozim.

To'rtinchidan, ekologik ta'limning muvaffaqiyati faqat o'qituvchi mahoratiga emas, balki maktabning moddiy-texnik bazasiga, o'quv dasturining moslashuvchanligiga va o'quvchi oilasining qo'llab-quvvatlashiga ham bog'liq.

Kelajakda ekologik ko'nikmalar shakllantirishning raqamli texnologiyalar bilan integratsiyasi (masalan, GIS-xaritalar, ekologik monitoring dasturlari, virtual dala tadqiqotlari) yangi imkoniyatlar ochishi kutilmoqda. O'zbekiston maktab ta'limini yangilash davom etar ekan, biologiya fani o'qituvchilari ushbu yo'nalishda ilg'or metodlarni o'zlashtirib, amaliyotga joriy etishda muhim rol o'ynaydi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gi Qonuni. – Toshkent, 2020. – 48 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 6 apreldagi "Umumiy o'rta ta'limning o'quv rejalari va dasturlarini tasdiqlash to'g'risida" gi 172-sonli Qarori.
3. Begmatov A.S. Biologiya ta'limida ekologik tarbiya. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2019. – 186 b.
4. Deryabo S.D., Yasvin V.A. Ekologicheskaya pedagogika i psikhologiya. – Rostov-na-Donu: Feniks, 1996. – 480 s.
5. Orr D.W. Ecological Literacy: Education and the Transition to a Postmodern World. – Albany: State University of New York Press, 1992. – 210 p.
6. Sterling S. Sustainable Education: Re-visioning Learning and Change. – Dartington: Green Books, 2001. – 96 p.
7. Umarov B.M. Interaktiv ta'lim metodlari va ularning biologiya darslarida qo'llanilishi. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2021. – 143 b.
8. Xoliqov N.R. Ekologik ta'lim va tarbiyaning nazariy asoslari. // Pedagogika va psixologiya. – 2022. – №3. – B. 44–52.
9. Yusupova D.A. 11-sinf biologiya darslarida loyiha metodidan foydalanish samaradorligi. // Zamonaviy ta'lim. – 2023. – №7. – B. 61–68.
10. UNESCO. Education for Sustainable Development Goals: Learning Objectives. – Paris: UNESCO, 2017. – 68 p.
11. OECD. PISA 2022 Results: Insights from PISA on Building Environmentally Literate Citizens. – Paris: OECD Publishing, 2023.
12. Balogh L., Kárász I. Ecological Education in Secondary Schools: Comparative Analysis of Methods. // Journal of Environmental Education. – 2020. – Vol. 51(4). – P. 289–302.

# 2-SECTION

# SHAXSNI GAROV SIFATIDA TUTQUNLIKKA OLISH JINOYATLARINING OLDINI OLISH TENDENSIYALARI VA AMALIY JIHATLARI

**Azamat Annakulov**

*mustaqil izlanuvchi, Qoraqalpoq davlat universiteti*

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada shaxsni garov sifatida tutqunlikka olish jinoyatlarining oldini olish, uning kriminologik tavsifi va kelib chiqish sabablari tahlil qilingan. Jamoat xavfsizligiga jiddiy tahdid soluvchi mazkur jinoyatning sabablarini o‘rganishda ko'p omillik, an'anaviy, interaksionistik va virtuallik omillarining o'rni ko'rib chiqiladi. Jinoyatchilik determinantlarini aniqlash, jamiyatdagi ijtimoiy-huquqiy munosabatlarni takomillashtirish hamda aholining huquqiy madaniyatini yuksaltirish orqali maqsadli va ilmiy asoslangan profilaktika choralarini ishlab chiqish zarurati asoslangan. Shuningdek, xalqaro standartlar va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali jinoyatlarni barvaqt aniqlash va ularga qarshi kurashish samaradorligini oshirish bo'yicha takliflar ilgari surilgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *shaxsni garovga olish, jamoat xavfsizligi, kriminologik tavsif, jinoyat determinantlari, huquqiy madaniyat, jinoyatlar profilaktikasi, virtuallik omili.*

***Аннотация:*** *В данной статье анализируются тенденции и практические аспекты предотвращения преступлений, связанных с захватом заложников, а также их криминологическая характеристика и причины возникновения. При изучении причин этого преступления, представляющего серьезную угрозу общественной безопасности, рассматривается роль многофакторных, традиционных, интеракционистских подходов и фактора виртуальности. Обоснована необходимость выявления детерминант преступности, совершенствования социально-правовых отношений и повышения правовой культуры населения для разработки целенаправленных и научно обоснованных мер профилактики. Также выдвигаются предложения по повышению эффективности раннего выявления преступлений путем внедрения международных стандартов и современных технологий.*

***Ключевые слова:*** *захват заложника, общественная безопасность, криминологическая характеристика, детерминанты преступности, правовая культура, профилактика преступлений, фактор виртуальности.*

***Abstract:*** *This article analyzes the tendencies and practical aspects of preventing hostage-taking crimes, along with their criminological characteristics and underlying causes.*

*In studying the causes of this crime, which poses a serious threat to public security, the role of multifactorial, traditional, and interactionist approaches, as well as the virtuality factor, is examined. The author justifies the necessity of identifying crime determinants, improving socio-legal relations, and enhancing the population's legal culture to develop targeted and scientifically grounded preventive measures. Furthermore, recommendations are proposed to increase the effectiveness of early crime detection through the implementation of international standards and modern technologies.*

***Keywords:*** *hostage-taking, public security, criminological characteristics, crime determinants, legal culture, crime prevention, virtuality factor.*

## KIRISH

Mamlakatimizda jinoyatchilikning oldini olish va tezkorlik bilan aniqlash bo‘yicha qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Jamoat xavfsizligini kafolatlash, jinoyat sabablarini kechiktirmay bartaraf etish va davlat organlari mas’uliyatini oshirish maqsadida quyidagi kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish dolzarbdir:

- Hamkorlik va muloqotni kuchaytirish: Huquqni muhofaza qiluvchi organlar, jamoatchilik va aholi o‘rtasida samarali va uzviy hamkorlik tizimini yo‘lga qo‘yish.
- **Huquqiy madaniyat va savodxonlikni oshirish:** Aholi o‘rtasida huquqiy savodsizlikka barham berish, qonun va davlat dasturlari mohiyatini tushuntirish orqali qonunga itoatkorlik va odob-axloq ruhini singdirish.
- **Axborot texnologiyalari va OAVdan foydalanish:** Sohaga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish hamda huquqiy targ‘ibotda ommaviy axborot vositalari rolini oshirish.

**Professional kadrlar tayyorlash:** Zamonaviy fan dasturlari asosida yuksak huquqiy ong va madaniyatga ega mutaxassislarni tayyorlashni jadallashtirish.

Ushbu choralar jamiyatda eng ko‘p uchraydigan jinoyatlarga qarshi mustahkam immunitet hosil qilishga va kurashish samaradorligini tubdan oshirishga xizmat qiladi [1].

Jinoyatchilikning oldini olishda aholining huquqiy ongi, islohotlarni tushunishi va yuksak huquqiy madaniyati muhim ahamiyatga ega. Ushbu yo‘nalishda samaradorlikka erishish uchun shaxs, oila, mahalla va ta’lim muassasalari o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik tizimi huquqiy jihatdan mustahkamlandi. Shuningdek, aholining huquqiy madaniyatini oshirish maqsadida bugungi kunda ta’lim va huquq sohalarida bir qator ustuvor vazifalar belgilandi. Xususan, nodavlat umumiy o‘rta professional ta’lim tashkilotlari sonini 1000 taga yetkazish, ulardagi o‘quvchilar ulushini 3 barobarga oshirish, yoshlarni oliy ta’lim bilan qamrab olish darajasini kamida 50 foizga yetkazish, umumiy o‘rta ta’lim maktablarini oliy ma’lumotli pedagog kadrlar bilan to‘liq ta’minlash hamda advokatlar sonini kamida 2000 nafarga ko‘paytirish masalalari shular jumlasidandir[2].

Boshqa shaxsni qonunga xilof ravishda majburan ushlagan yoki hayoti va sog‘ligiga xavfli tarzda ushlab turgan va uchinchi shaxslarni majburiy harakatlarni bajarish uchun boshqa shaxsni o‘ldirish yoki o‘ldirish bilan qo‘rqitish,tahdid qilish, badaniga turli darajadagi jarohatlar yetkazish yoki ushlab turishga umuman mos kelmaydigan tarzda tazyiq o‘tkazgan, zo‘ravonlik va zo‘rlik ishlatgan har qanday shaxs «garovga olgan shaxs» hisoblanib, davlat tuzilmalari va idoralari, yirik miqyosdagi xalqaro hukumatlararo huquqiy tashkilotlar, har qanday jismoniy (yakka tartibdagi shaxs) yoki yuridik (huquqiy maqomga ega) shaxs yoki shaxslar guruhiga ma’lum bir shart qo‘yish orqali ma’lum harakatni bajarishga majburlashdan tiyilishi kabi qonunga zid harakatlarni xalqaro hamjamiyat qoralaydi [3].

Bu borada M.Y.Pavlik shaxsni garov sifatida tutqinlikka olishni jamoat xavfsizligiga qarshi ong xavfli jinoyatlar guruhini tashkil etishini ta’kidlaydi [4].

Jinoyatchilikka qarshi kurashning, uni kamaytirishning va oldini olishning yana bir muhim hamda ijtimoiy-huquqiy jihati shundan iboratki, har bir makonda ijtimoiy xavfli munosabatlarni tartibga soladigan va tizimlashtiradigan jinoyat qonunchiligining mavjud bo‘lishi hisoblanadi [5]. Jinoyatlarning oldini olishda huquqiy normalarning mavjudligi muhim ahamiyatga ega. Biroq, K.P.Ansiferov ta’kidlashicha, shaxsni garovga olish jinoyatiga qarshi qonunchilik amaliyoti hali yetarlicha takomillashmaganligi sababli, huquqni muhofaza qiluvchi organlar bu jinoyatni to‘g‘ri kvalifikatsiya qilish va mulkiy ziyonni undirishda qator qiyinchiliklarga duch kelmoqda [6].

Shaxsni garov sifatida tutqunlikka olish jinoyatlarining oldini olish nazariy va amaliy jihatdan muhim ahamiyatga ega bo‘lib, bunda huquqiy meyorlarni modernizatsiya qilish, tezkor-qidiruvda zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash hamda xavf guruhlarini aniqlovchi raqamli monitoring mexanizmlarini joriy etish dolzarbdir. Bugungi kunda mazkur jinoyatlarga qarshi kurashishning amaliy va huquqiy vositalari yetarli emasligi hamda ularning kriminologik tavsifi ilmiy jihatdan to‘liq mustahkamlanmaganligi kuzatilmoqda. Jamiyatning globallashuvi, kiberjinoyatchilik va texnologiyalarning tezkor rivojlanishi jinoyatlarning tabiatini doimiy o‘zgartirayotganligi sababli, ularning kelib chiqishi bo‘yicha yagona ilmiy-huquqiy yondashuv hali shakllanmagan. Shu bois, jamoat xavfsizligiga jiddiy tahdid soluvchi ushbu jinoyatlarning sabablarini aniqlashda kompleks tahlil, xalqaro standartlar hamda zamonaviy va individuallashtirilgan yondashuvlarni joriy etish talab etiladi.

Shaxsni garov sifatida tutqunlikka olishning kriminologik tavsifi to‘rtta asosiy yo‘nalishni, ya’ni jinoyatning nazariy-amaliy tasnifini, uning kelib chiqish sabablari va shart-sharoitlarini, jinoyatchi shaxsi ta’limotini hamda profilaktika masalalarini qamrab oladi. Ushbu jinoyatni tadqiq etish avvalo milliy qonunchilik (ya’ni boshqa shaxs yoki tashkilotni ma’lum harakatga majburlash maqsadida shaxsni garovda ushlab turishning ijtimoiy xavfli qilmish ekanligi) hamda rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasini qiyosiy tahlil qilishdan

boshlanadi. Tadqiqot davomida bunday jinoyatlar statistikasi nima uchun o‘sayotganligi, jinoyatchilar toifasi qanday shakllanayotganligi, nega aynan shu jinoyat turi tanlanayotganligi va nima sababdan ular o‘z maqsadiga erishayotganligi kabi savollarga javob izlanadi. Shuningdek, jinoyatlarni kriminologik jihatdan tahlil qilishda jamiyatdagi voqea-hodisalar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik va ichki qonuniyatlarni ifodalovchi «determinatsiya» tushunchasi hamda bunday qilmishlarning shakllanish xususiyatlarini chuqur o‘rganish talab etiladi.

S.S.Niyozova fikriga ko‘ra, jinoyatchilik determinantlari – bu muayyan bir voqea yoki hodisaning yuzaga kelishi va uning davom etishini o‘zida ifodalovchi omillar, ya’ni jinoyat sodir bo‘lishiga zamin yaratadigan shart-sharoitlar yig‘indisidir [7].

Jinoyatchilikka oid ilmiy qarashlarga ko‘ra, determinatsiya — bu jinoyatning kelib chiqish sabablari, unga zamin yaratuvchi omillar va shart-sharoitlarni aniq faktlarga tayanib o‘rganish jarayonidir. Shaxsni garovga olish jinoyatlarida bu murakkab jarayon jinoyat sabablari va o‘zaro bog‘lanishlarni aniqlash, shaxsning psixologik va fiziologik holatidagi zo‘riqishlarni o‘rganish hamda tashqi muhit ta’sirini tizimli tahlil qilishni o‘z ichiga oladi. Mazkur jinoyatning kelib chiqish sabablarini asosiy nazariy yondashuvlar orqali izohlash mumkin: tashqi va ichki salbiy mezonlarning birgalikdagi ta’sirini ustuvor biluvchi ko‘p omillik va an’anaviy yondashuvlar , ma’lum makon va zamondagi “jamiyat – muhit – shaxs” integratsiyasiga asoslanuvchi interaksionistik yondashuv , shuningdek, shaxsning virtual olamga chuqur sho‘ng‘ishi oqibatida ruhiy barqarorligining buzilishi va jinoyatga moyillik paydo bo‘lishini ifodalovchi virtuallik omilidir. Ushbu turdagi jinoyatlarning barvaqt oldini olish jarayonida kurashni jinoyatning oqibatlariga emas, balki uning ildizi va ichki motivatsiyasiga qaratish, sabab hamda shart-sharoitlarni aniq farqlash lozim. Bundan tashqari, texnologiyalar va jinoyat usullari doimiy yangilanib borayotganligi sababli, profilaktik choralarni ilg‘or yondashuvlar asosida

modernizatsiya qilish , faqat qat’iy jazo bilan cheklanmasdan, aholining huquqiy ongini yuksaltirish va ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash orqali qonunlarga hurmat ruhini shakllantirish , hamda shaxsni jinoyat sodir etishga undovchi subyektiv motivlarni bartaraf etish ustuvor vazifa hisoblanadi.

Jinoyatlarning, xususan shaxsni garovga olishning oldini olish maqsadli va ilmiy asoslangan profilaktikani talab etadi. Olimlarning fikricha, buning uchun jinoyatga yetaklovchi ichki motivlar va tashqi muhit shartlarini , shuningdek jinoyatga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi umumiy va maxsus omillarni aniqlash zarur. Jinoyatchilikka qarshi kurash bevosita jinoyat sabablarini va unga imkon beruvchi sharoitlarni o‘rganishni taqozo qiladi. Bundan tashqari, jamiyatda profilaktik ta’sir ko‘rsatuvchi huquqiy mexanizmlarni aniqlash va mas’ul organlar faoliyatini tizimli muvofiqlashtirish huquqbuzarliklarni barvaqt bartaraf etishda yuqori samara beradi. Bu omillar shaxsni garovga olish jinoyatining “sabablar doirasi”ni, ya’ni motiv va maqsadlarni shakllantiruvchi holatlarni aniqlashni talab qiladi. Chunki jinoyat faqat shaxsiy omillar emas, balki jamiyatdagi qarama-qarshiliklar va ijtimoiy nomutanosibliklar oqibatida yuzaga keladigan ziddiyatdir. Ushbu sabablar doirasini aniq belgilash hamda jamiyatdagi ijtimoiy-huquqiy va iqtisodiy o‘zgarishlarni o‘z vaqtida qayd etib borish jinoyatchilikni prognoz qilish, xavfli tendensiyalarni ilk bosqichdayoq sezish va ularni barvaqt cheklash imkonini beradi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1) Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги «2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида»ги ПФ–60-сон Фармони //Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 29.01.2022 й., 06/22/60/0082-сон.

2) Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 11 сетябрдаги «Ўзбекистон-2030 стратегияси тўғрисида»ги ПФ–158-сон Фармони // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 12.09.2023 й., 06/23/158/0694-сон.

3) Международная конвенция о борьбе с захватом заложников.Принята резолюцией 34/146 Генеральной Ассамблеи ООН от 17 декабря 1979 года. https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/conventions/hostages.shtml

4) Павлик М.Ю. Уголовная ответственность за насильственные преступления против общественной безопасности: современное состояние, сущность и противоречия// Вестник СанктПетербургского университета МВД России. 2006. №1. С. 102-107.

5) Криминология. Дарслик. З.С.Зарипов, Ю.С.Пулатов-Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИБ Академияси, 2016. -474-бет.
6) Анциферов К.П. Ответственность за захват заложника (Уголовноправовой и криминологический аспекты) : Дис. ... канд. юрид. наук : 12.00.08 : Москва, 2003. 191 с. РГБ ОД, 61:04-12/403. 6
7) С.С.Ниёзова, Н.С.Салаев. Криминология. Дарслик.-Т.: ТДЮУ нашриёти, 2023-й, -228 бет.

# SHAXSNI GAROV SIFATIDA TUTQUNLIKKA OLISH JINOYATLARI UCHUN JAVOBGARLIKNI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI TAHLILI

**Azamat Annakulov**

*mustaqil izlanuvchi, Qoraqalpoq davlat universiteti*

***Annotatsiya:*** *Mazkur maqolada shaxsni garov sifatida tutqunlikka olish jinoyatlari uchun javobgarlikni takomillashtirish masalalari tahlil qilingan. Jinoyatning nazariy va kriminologik jihatlari, uning jamoat xavfsizligiga tahdid soluvchi xususiyatlari ochib berilgan. Shuningdek, Germaniya, Rossiya, Qozog‘iston, Armaniston va Belarus kabi xorijiy davlatlarning jinoyat qonunchiligi tajribasi qiyosiy o‘rganilgan. Xorijiy tajriba va jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasi ortib borayotganini inobatga olib, milliy Jinoyat kodeksining 245-moddasini yangi qismlar bilan to‘ldirish va jazo choralarini, xususan, uyushgan guruh yoki retsidivistlar uchun javobgarlikni kuchaytirish bo‘yicha aniq takliflar ilgari surilgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *shaxsni garovga olish, jamoat xavfsizligi, jinoiy javobgarlik, qiyosiy tahlil, xorijiy tajriba, jazoni og‘irlashtiruvchi holatlar, jinoyat qonunchiligi.*

***Аннотация:*** *В данной статье анализируются вопросы совершенствования ответственности за преступления, связанные с захватом заложников. Раскрыты теоретические и криминологические аспекты преступления, а также его особенности, угрожающие общественной безопасности. Кроме того, проведено сравнительное изучение опыта уголовного законодательства зарубежных стран, таких как Германия, Россия, Казахстан, Армения и Беларусь. С учетом зарубежного опыта и возрастающей степени общественной опасности данного преступления, выдвинуты конкретные предложения по дополнению статьи 245 национального Уголовного кодекса новыми частями и ужесточению мер наказания, в частности, для организованных групп или рецидивистов.*

***Ключевые слова:*** *захват заложника, общественная безопасность, уголовная ответственность, сравнительный анализ, зарубежный опыт, отягчающие обстоятельства, уголовное законодательство.*

***Abstract:*** *This article analyzes the issues of improving liability for hostage-taking crimes. The theoretical and criminological aspects of the crime, as well as its features that threaten public security, are revealed. Furthermore, a comparative study of the criminal legislation experience of foreign countries such as Germany, Russia, Kazakhstan, Armenia,*

*and Belarus was conducted. Taking into account foreign experience and the increasing level of social danger of this crime, specific proposals were put forward to supplement Article 245 of the national Criminal Code with new parts and to tighten penalties, particularly for organized groups or recidivists.*

***Keywords:*** *hostage-taking, public security, criminal liability, comparative analysis, foreign experience, aggravating circumstances, criminal legislation.*

## KIRISH

Shaxsni garov sifatida tutqunlikka olish jinoyatlari jamoat xavfsizligiga, fuqarolar osoyishtaligi va davlat institutlarining normal faoliyatiga jiddiy putur yetkazadi. Nazariy jihatdan jamoat xavfsizligiga qarshi tajovuzlar uchga bo‘linadi: 1) to‘g‘ridan-to‘g‘ri tajovuzlar (terrorizm, shaxsni garovga olish, ommaviy tartibsizliklar va b.); 2) xavfsizlik qoidalarini buzish natijasidagi tajovuzlar (yong‘in, qurilish, sanitariya qoidalarini buzish va b.); 3) o‘ta xavfli ashyolar bilan bog‘liq tajovuzlar (qurol-yarog‘, radioaktiv va portlovchi moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilish). Shaxsni garovga olish jinoyati uchun javobgarlikni takomillashtirish qonunchilikdagi bo‘shliqlarni to‘ldirish va amaliyotdagi muammolarni bartaraf etishni talab qiladi. Buning uchun jinoyatning mazmun-mohiyatini nazariy boyitish, xorijiy tajriba va xalqaro konvensiyalar asosida qiyosiy tahlil o‘tkazish, tergov qilish hamda sud amaliyoti muammolarini o‘rganish, tergov metodikasini, shu jumladan uning taktik va psixologik jihatlarini takomillashtirish, shuningdek, aybdorlarga nisbatan javobgarlikni kuchaytirish zarur. Ushbu jinoyatlar xalqaro miqyosda xavfli bo‘lganligi sababli, O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikning dastlabki yillaridayoq “Odamlarni garovga olishga qarshi kurash” to‘g‘risidagi xalqaro Konvensiyaga qo‘shilgan [1], natijada bu jinoyatga qarshi kurash xalqaro hamkorlik doirasida yanada kuchaytirilgan.

V.A.Osipov "garova olish" tushunchasi davlat, tashkilot yoki shaxslarni uni ozod qilish sharti bo‘lgan har qanday talabni bajarishga majbur qilish uchun uning erkinligini cheklash va (yoki) uning ma’lum bir joydan chiqib ketishining

noqonuniy oldini olish bilan birga shaxs ustidan nazoratni noqonuniy egallashni o‘z ichiga oladi deb hisoblaydi [2].

M.Y.Pavlik jamoat xavfsizligi ijtimoiy qadriyat sifatida shaxs, jamiyat va davlatning hayotiy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan. Bu himoya ijtimoiy, tabiiy yoki texnogen tabiatning salbiy ta’sirlaridan muhofaza qilishni o‘z ichiga oladi va ularning normal faoliyatini ta’minlash uchun yetarli darajada xavfsizlikni saqlab qolish bilan tavsiflanadi [3] deya fikr bildirgan.

K.P.Ansiferov shaxsni garov sifatida tutqinlikka olish hozirgi vaqtda jamoat xavfsizligi va inson shaxsiyatiga qarshi eng xavfli jinoyatlardan biri ekanligini, u uzoq rivojlanish tarixiga egaligini, evolyutsiya jarayonida ushbu harakat davlatlar, odamlar guruhlari va shaxslarga siyosiy ta’sir ko‘rsatish vositasidan bir qator davlatlarning xalqaro va milliy qonunchiligida taqiqlangan jinoyatga aylanganligini ta’kidlaydi [4].

M.Y.Gushin nazariy jihatdan shaxsni garov sifatida tutqunlikka olish jinoyatining eng muhim o‘ziga xos xususiyatlarini quyidagicha tavsiflaydi: qilmish sodir etilishi natijasida umumiy xavf kelib chiqadi; jamoatchilik xarakteriga ega (namoyishkorona) qilmish hisoblanadi; bosqinchilar o‘z maqsadlariga erishishlari uchun ataylab qo‘rquv, tushkunlik, aholi o‘rtasida keskinlik muhiti yaratishga harakat qiladi; odatda ba’zi odamlarga nisbatan xavfli zo‘ravonlik qo‘llaniladi va boshqa odamlarga ma’lum xatti-harakatlarni qo‘zg‘atish uchun psixologik ta’sir ko‘rsatiladi [5].

R.E.Oganyan esa shaxsni garov sifatida tutqinlikka olishga tayyorgarlik bosqichining intellektual (aqliy) va amaliy jihatlariga katta e’tibor qaratadi. Bu borada u quyidagilarni aytib o‘tadi: alohida potensial jabrlanuvchini kuzatishni o‘rnatish orqali gavdalanadi (agar jabrlanuvchi o‘z boshimchalik bilan yoki sodir etish jarayonida tanlanmaydi; jinoyatchi qo‘yayotgan talablar ro‘yxatini o‘rganish va shaxslar doirasini aniqlash muhim sanaladi; hamkorlarni tanlash va rollarni taqsimlash; jinoyat sodir etish uchun zarur bo‘lgan vositalar va boshqa

vositalarni tanlash; jabrlanuvchini qo‘lga olish yoki ushlab turish joyidan qochish yo‘llari yoki variantlarini ishlab chiqish va boshqa harakatlar kiradi [6].

Shaxsni garov sifatida tutqunlikka olish jinoyatlari uchun javobgarlikni takomillashtirish istiqbollari masalasida dastlab milliy qonunchilik normalari doirasida tahlilni yuritish lozim. Ushbu jinoyatlarning o‘ziga xos xususiyatlarini quyidagicha talqin etish mumkin:

1. Garov sifatida tutqunlikka olingan shaxsni ozod qilish, qo‘yib yuborish va shartli ozod qilish asosi jinoyat sodir etgan shaxsning asosiy ustunlik funksiyasini ta’minlaydi.

2. Davlat idoralari, xalqaro yirik tashkilot, jismoniy yoki yuridik (huquqiy maqomga ega) shaxsdan biron-bir harakat sodir etish yoki biron-bir harakat sodir etishdan o‘zini tiyib turishni va to‘xtatishni talab qilish jinoyat sodir etgan shaxsning asosiy birlamchi maqsadi hisoblanadi.

3. Shaxsni garov tariqasida tutqunlikka olish yoki tutqunlikda ushlab turish jinoyat sodir etgan shaxsning asosiy harakati sanaladi.

4. Ushbu norma Jinoyat kodeksning 155 (terrorizm) va 165 (tovlamachilik) - moddalarida nazarda tutilgan alomatlar bo‘lmasligini talab etadi.

Shaxsni garov sifatida tutqunlikka olish jinoyatining javobgarlik masalasini xorijiy davlatlar tajribasidan kelib chiqib qiyosiy tahlil etish maqsadga muvofiqdir. Shu munosabat bilan ko‘pgina xorijiy davlatlar tajribasini, ularning qonunchiligini o‘rganib tahlil etamiz.

Germaniya jinoyat qonunchiligida shaxsni garov sifatida tutqunlikka olish jinoyatini (239b) kvalifikatsiya qilishda og‘irlashtiruvchi holatlar mavjudligi aniqlansa 6 oydan 5 yilgacha muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi qo‘llaniladi (234-paragraf 2-qismi) [7].

Rossiya jinoyat qonunchiligi 206-moddasi 1-qismida shaxsni garovga olish yoki ushlab turish orqali davlat, tashkilot yoki fuqaroni har qanday harakatni sodir yetishga majbur qilish yoki garovga olingan shaxsni ozod qilish

sharti bilan uni tutqunlikka olganlik uchun besh yildan o‘n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazo belgilangan. Shuningdek, xuddi shu harakatlar: oldindan kelishilgan holda bir guruh shaxslar tomonidan til biriktirib va til biriktirmay; hayot yoki sog‘liq uchun xavfli bo‘lgan, xavf tug‘diradigan usullarda va uslublarda; qurol (harbiy) yoki qurol sifatida ishlatiladigan (qonunda taqiqlanadigan) narsalar va vositalardan foydalangan holda hamda texnik qoidalarga amal qilmay; voyaga yetmagan shaxsga nisbatan (bila turib); homiladorligi aybdorga ayon bo‘lgan ayolga nisbatan bila turib; ikki yoki undan ortiq shaxsga nisbatan avvaldan rejalashtirib va tashkillashtirib amalga oshirilsa olti yildan o‘n besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi. Ushbu moddaning birinchi yoki ikkinchi qismlarida nazarda tutilgan harakatlar uyushgan guruh tomonidan yoki uning mafaatini ko‘zlab sodir etilgan bo‘lsa yoki odamning o‘limiga yoxud beparvolik (o‘z-o‘ziga ishonish) tufayli boshqa og‘ir oqibatlarga olib kelgan bo‘lsa sakkiz yildan yigirma yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi [8].

Qozog‘iston Respublikasi jinoyat kodeksi 261-moddasida shaxsni garovga olish yoki ushlab turish, davlat idoralarini, yirik tashkilotlarni yoki boshqa shaxsni biron bir harakatni amalga oshirishga majbur qilish yoki to‘sqinlik qilish maqsadida yoki garovga olinganni ozod qilish va ozod qilishni paysalga solish sharti sifatida biron bir harakatni amalga oshirishga nisbatan jinoiy javobgarlik belgilangan. Shuningdek ushbu moddaning birinchi yoki ikkinchi qismlarida nazarda tutilgan harakatlar jinoiy guruh tomonidan yoki uning manfaatini ko‘zlab sodir etilgan bo‘lsa yoki odamning o‘limiga yoki beparvolik (o‘z-o‘ziga ishonish) tufayli boshqa og‘ir oqibatlarga olib kelgan bo‘lsa, Qozog‘iston Respublikasi fuqaroligidan mahrum qilinib o‘n yildan o‘n besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanishi belgilangan [9].

Armaniston jinoyat kodeksining 218-moddasida garovga olingan shaxsni ozod qilish sharti bilan davlat idoralarini, yirik tashkilotlarni yoki boshqa shaxsni biron bir harakatni amalga oshirishga majbur qilish yoki to‘sqinlik qilish

maqsadida yoki garovga olinganni ozod qilish va ozod qilishni paysalga solish sharti sifatida biron bir harakatni amalga oshirishga nisbatan jinoiy javobgarlik belgilangan. Shuningdek ushbu moddaning birinchi yoki ikkinchi qismlarida nazarda tutilgan harakatlar jinoiy guruh tomonidan yoki uning manfaatini ko‘zlab sodir etilgan bo‘lsa yoki odamning o‘limiga yoki beparvolik (o‘z-o‘ziga ishonish) tufayli boshqa og‘ir oqibatlarga olib kelgan bo‘lsa, olti yildan o‘n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanishi mustahkamlangan. Ushbu moddaning birinchi yoki ikkinchi qismlarida nazarda tutilgan holatlar: uyushgan guruh tomonidan sodir etilgan bo‘lsa; beparvolik tufayli odamning o‘limi yoki boshqa og‘ir oqibatlar olib kelgan bo‘lsa sakkiz yildan o‘n besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanishi keltirib o‘tilgan. Shu bilan bir qatorda Armaniston jinoyat qonunchiligida shaxs o‘z talablaridan voz kechsa va garovga olingan shaxsni ixtiyoriy ravishda ozod qilsa, agar uning harakatlarida boshqa jinoyat tarkibi bo‘lmasa, jinoiy javobgarlikdan ozod qilish masalasi ham nazarda tutilgan [10].

Belarus Respublikasi Jinoyat kodeksining 291-moddasiga ko‘ra, biror tashkilot yoki shaxsni ma’lum harakatga majburlash maqsadida odamni garovga olish, ushlab turish yoki unga tahdid qilish 5 yildan 10 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi. Mazkur jinoyat oldindan til biriktirgan guruh tomonidan, takroran, hayot va sog‘liq uchun xavfli zo‘ravonlik bilan, voyaga yetmaganlarga, homilador ayolga yoki ikki va undan ortiq shaxsga nisbatan sodir etilsa, 6 yildan 12 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlanadi. Agar qilmish uyushgan guruh tomonidan amalga oshirilsa yoxud odam o‘limiga yoki boshqa og‘ir oqibatlarga sabab bo‘lsa, jazo muddati 10 yildan 15 yilgacha oshadi. Shu bilan birga, garovdagi shaxsni ixtiyoriy yoki hokimiyat talabiga asosan ozod qilgan aybdorning harakatlarida boshqa jinoyat tarkibi bo‘lmasa, u javobgarlikdan ozod etilishi qonunda mustahkamlangan [11].

Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, ko‘pgina xorijiy davlatlarda shaxsni garov sifatida tutqunlikka olish jinoyati uchun qattiqroq jazo choralari belgilangan.

Amaldagi jinoyat qonunchiligimizda shaxsni garov sifatida tutqunlikka olish jinoyati uchun javobgarlikni takomillashtirish zarurati mavjud. Aynan ushbu turdagi jinoyatlar uchun javobgarlik doirasini aniq belgilab olish juda muhim sanaladi. Sababi, bugungi kunda ushbu turdagi jinoyatlar soni kundan-kunga ortib bormoqda. Shu bilan birga, ularning ijtimoiy xavflilik darajasi ortib bormoqda, bu birinchi navbatda garovga olingan odamlar sonida namoyon bo‘ladi, ular orasida ayollar, bolalar va hatto chaqaloqlar borligi ushbu jinoyatlarga nisbatan jazolarni kuchaytirish choralarini ko‘rishni taqazo etadi. Barcha yuqoridagi fikrlar va tahlillarni e’tiborga olgan holda, amaldagi jinoyat kodeksi 245-moddasini 3 va 4-qism bilan to‘ldirishni va uni quyidagicha tahrirda bayon etishni taklif etamiz:

O‘sha harakatlar:

a) takroran yoki xavfli retsidivist tomonidan;

b) o‘ta xavfli retsidivist tomonidan;

v) uyushgan guruh a’zosi tomonidan yoki shu guruh manfaatlarini ko‘zlab sodir etilgan bo‘lsa;

g) jabrlanuvchining o‘lishiga sabab bo‘lsa, —

o‘n besh yildan yigirma besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Shaxsni garov sifatida tutqinlikka olishga tayyorgarlik ko‘rishda ishtirok etgan shaxs, o‘zining harakatlari yuzasidan hokimiyat organlariga o‘z vaqtida xabar bersa yoki og‘ir oqibatlar yuzaga kelishining oldini olgan bo‘lsa, ixtiyoriy ravishda o‘z harakatlarini to‘xtatsa, basharti bu shaxsning harakatlarida jinoyatning boshqa tarkibi bo‘lmasa, jinoiy javobgarlikdan ozod etiladi.

Xulosa sifatida, shaxsni garov sifatida tutqunlikka olish jinoyatlari uchun javobgarlikni takomillashtirish istiqbollari yuzasidan quyidagi fikr-mulohazalarni ilgari surish mumkin:

1. Shaxsni garov sifatida tutqunlikka olish jinoyatlari uchun javobgarlikni kuchaytirishni amalga oshirish.

2. Shaxsni garov sifatida tutqunlikka olish jinoyatlarining javobgarlik doirasini aniq belgilab olish.

3. Shaxsni garov sifatida tutqunlikka olish jinoyatlarini tergov qilishning samarali usul va vositalarini o‘z ichiga olgan metodikani ishlab chiqish.

4. Shaxsni garov sifatida tutqunlikka olish jinoyatlari uchun jazo tayinlash tizimini yanada takomillashtirish.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1) “Одамларни гаровга олишга қарши кураш тўғрисидаги халқаро конвенцияга қўшилиш” ҳақидаги халқаро Конвенция. Тошкент ш., 1997 йил 26 декабрь, 554-I-сон (Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1998 й., 1-сон, 21-модда).
2) Осипов В.А. Захват заложника (Уголовно-правовой и криминологический аспекты): Автореферат. Дис. ... канд. юрид. наук : 12.00.08 : Москва, 1999. 192 с. РГБ ОД, 61 00-12/7-6
3) Павлик М.Ю. Уголовная ответственность за насильственные преступления против общественной безопасности: современное состояние, сущность и противоречия// Вестник СанктПетербургского университета МВД России. 2006. №1. С. 102-107.
4) Анциферов К.П. Ответственность за захват заложника (Уголовноправовой и криминологический аспекты) : Автореферат. Дис. ... канд. юрид. наук : 12.00.08 : Москва, 2003. 191 с. РГБ ОД, 61:04-12/403. 6
5) М.Ю.Гушин. Захват заложника: Криминологическая характеристика и уголовно-правовые меры противодействия Автореф. дисс....к. ю. н./ - СПб., 2005. С. 47.
6) Оганян Р.Э. Предупреждение похищения людей: теория и практика. - М., 2002. - С. 84.
7) Германия жиноят кодекси. 2023 йил 1 майгача бўлган ўзгаришлар. https://constitutions.ru/?p=24969
8) Уголовный кодекс Российской Федерации от 13.06.1996 N 63-ФЗ (ред. от 02.10.2024) https://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_10699
9) Кодекс Республики Казахстан от 3 июля 2014 года № 226-V ЗРК. (с изменениями и дополнениями по состоянию на 09.09.2024 г.) https://adilet.zan.kz/rus/docs/K1400000226
10) Кодекс Республики Армения 29 апреля 2003 года ЗР-528. https://faolex.fao.org/docs/pdf/arm197602.
11) Уголовный кодекс Республики Беларусь 9 июля 1999 г. № 275-З https://pravo.by/document/?guid=3871&p0=hk9900275

# O‘ZBEK TILIDAGI PRAGMATONIMLARNING MILLIY-MADANIY XUSUSIYATLARI

**Azizova Feruza Rejavaliyevna**

*Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti*

*O‘zbek va rus tillari kafedrasi o‘qituvchisi*

***Annotatsiya:*** *Mazkur maqolada o‘zbek pragmatonimlarining milliy-madaniy xususiyatlari lingvokulturologik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Til va madaniyat o‘rtasidagi uzviy munosabat, pragmatonimlarning madaniy konseptlarni ifodalashdagi o‘rni hamda o‘zbek xalqining tarixiy-madaniy qadriyatlari brend nomlarida qanday aks etishi yoritiladi. Tadqiqot davomida “Samarqand”, “Buxoro”, “Humo”, “Ipak yo‘li”, “Ulug‘bek”, “Ibn Sino” kabi tarixiy va madaniy birliklarning pragmatonim sifatida qo‘llanishi tahlil qilinadi. Shuningdek, mehmondo‘stlik, oilaparvarlik, baxt, tabiatga yaqinlik va hamjihatlik kabi milliy mentalitet unsurlarining pragmatonimlar tizimidagi ifodasi ko‘rib chiqiladi.*

***Kalit so‘zlar:*** *pragmatonim, lingvokulturologiya, milliy madaniyat, mentalitet, madaniy konsept, tarixiy qatlam, o‘zbek tili, brend nomlari, semiosfera, madaniy qadriyat.*

***Annotation:*** *This article analyzes the national and cultural characteristics of Uzbek pragmatonyms from a linguocultural perspective. It examines the relationship between language and culture, the role of pragmatonyms in expressing cultural concepts, and the reflection of Uzbek historical and cultural values in brand names. The study focuses on the use of historical and cultural units such as “Samarkand,” “Bukhara,” “Humo,” “Silk Road,” “Ulugbek,” and “Ibn Sina” as pragmatonyms. In addition, the article discusses the representation of national mentality elements such as hospitality, family values, happiness, harmony with nature, and social solidarity in the system of Uzbek pragmatonyms.*

***Keywords:*** *pragmatonym, linguoculturology, national culture, mentality, cultural concept, historical layer, Uzbek language, brand names, semiosphere, cultural values.*

## KIRISH

Tilshunoslikda til va madaniyat munosabati eng muhim nazariy masalalardan biri hisoblanadi [1]. Ushbu masala asosan uch xil yondashuv orqali izohlanadi: birinchidan, til madaniyatni aks ettiradi; ikkinchidan, til madaniyatni shakllantiradi; uchinchidan esa til va madaniyat o‘zaro ta’sirda rivojlanadi.

Ushbu qarashlar bir-birini inkor etmaydi, balki tilning madaniy mohiyatini turli jihatlardan ochib beradi.

Nemis tilshunosi Vilgelm Gumbolt tilni “millat ruhi” sifatida talqin qilgan . Uning fikriga koʻra, har bir xalqning tili uning dunyoqarashi va madaniyatini oʻziga xos tarzda ifodalaydi. Keyinchalik bu gʻoya Eduard Sapir va Benjamin Li Uorf tomonidan rivojlantirilib, til inson tafakkuri va madaniy idrokini shakllantiruvchi vosita sifatida baholandi [3].

Zamonaviy lingvokulturologiyada til madaniyatning saqlovchisi va uzatuvchisi sifatida qaraladi. Yevgeny Vereshchagin va Vitaly Kostomarov tilning “madaniy komponenti”ni oʻrganish metodologiyasini ishlab chiqqan boʻlib, bu yondashuv pragmatonimlarni tahlil qilishda ham muhim ahamiyat kasb etadi [4]. Valentina Maslova til madaniyatni avloddan avlodga yetkazuvchi asosiy mexanizm ekanligini ta’kidlaydi .

Lingvokulturologiyada “madaniy konsept” tushunchasi muhim oʻrin egallaydi. Anna Verbitska tillardagi universal tushunchalar har bir madaniyatda oʻziga xos shaklda namoyon boʻlishini qayd etadi [6]. Masalan, oʻzbek madaniyatidagi “baraka” konsepti oddiy farovonlik emas, balki ilohiy ne’mat, xotirjamlik, moʻl-koʻllik va mehnat samarasi kabi ma’nolarni ham oʻzida mujassamlashtiradi. Shu sababli “Baraka” nomi ostidagi supermarket yoki savdo markazlari iste’molchida sifat, ishonch va iqtisodiy qulaylik haqidagi tasavvurlarni uygʻotadi.

Yuriy Lotman tomonidan ishlab chiqilgan semiosfera nazariyasiga koʻra, madaniyat belgilar tizimidan iborat boʻlib, har bir belgi umumiy madaniy kontekstda ma’no kasb etadi . Pragmatonimlar ham ana shu belgilar tizimining tarkibiy qismi sifatida xalqning tarixiy xotirasi, folklori va qadriyatlari bilan bogʻliq holda talqin qilinadi. Masalan, “Humo” pragmatonimi oʻzbek folkloridagi baxt va erkinlik ramzi boʻlgan afsonaviy qush obraziga asoslanadi.

Oʻzbek pragmatonimlarida milliy-madaniy xususiyatlar quyidagi vositalar orqali ifodalanadi:

- leksik vositalar;
- semantik vositalar;
- fonetik vositalar;
- morfologik vositalar;
- intertekstual vositalar.

O‘zbek xalqining boy tarixiy merosi pragmatonimlar tizimida ham yaqqol namoyon bo‘ladi. Xususan, qadimiy shaharlar nomlari asosida yaratilgan brendlar milliy tarix va madaniyatni aks ettiruvchi muhim vosita hisoblanadi [8].

“Samarqand” nomi pragmatonimiyada keng qo‘llanadigan tarixiy-geografik birliklardan biridir. “Samarqand sharobi”, “Samarqand qog‘ozi”, “Samarqand non” kabi nomlar ushbu shaharning tarixiy nufuzi va madaniy salohiyatiga tayanadi. Samarqand nomi iste’molchida qadimiylik, sifat va milliy an’ana haqidagi tasavvurlarni uyg‘otadi.

“Buxoro” nomi esa ilm-fan, ma’rifat va nozik did ramzi sifatida qo‘llaniladi. “Buxoro atlas”, “Buxoro xalchalari”, “Buxoro ziyofat uyi” kabi pragmatonimlar Buxoroning tarixiy va madaniy obro‘sini tijorat maqsadlarida namoyon etadi.

“Xiva” nomi bilan bog‘liq pragmatonimlar ko‘pincha turizm, hunarmandchilik va milliy san’at sohalarida uchraydi. Bu nom Xivaning jahon merosi ob’ekti sifatidagi nufuzini ifodalaydi.

Buyuk Ipak yo‘li bilan bog‘liq pragmatonimlar ham alohida e’tiborga loyiqdir. “Ipak yo‘li bank”, “Silk Road Travel” kabi nomlar O‘zbekistonning qadimiy savdo va madaniy aloqalar markazi bo‘lganini eslatadi.

Temuriylar davri bilan bog‘liq nomlar ham pragmatonimlar tizimida faol qo‘llanadi. “Temur” nomi kuch-qudrat, qat’iyat va strategik fikrlash ramzi sifatida biznes, sport va qurilish sohalarida uchrasa, “Ulug‘bek” nomi ilm-fan va ta’lim bilan bog‘liq muassasalarda qo‘llanadi.

Shuningdek, “Ibn Sino” va “Avitsenna” nomlari tibbiyot va farmatsevtika sohalarida ishonch, ilmiy salohiyat va tarixiy an’anani ifodalovchi pragmatonim sifatida keng tarqalgan.

Milliy oshxona bilan bog‘liq pragmatonimlar ham tarixiy-madaniy qatlamning muhim ko‘rinishidir. “Palov markazi”, “Somsa uyi”, “Norin”, “Shurpa” kabi nomlar o‘zbek xalqining gastronomik madaniyatini aks ettiradi.

Milliy mentalitet xalqning dunyoqarashi, qadriyatlari va turmush tarzini ifodalovchi muhim omildir [9]. O‘zbek milliy mentalitetining asosiy jihatlari mehmondo‘stlik, oilaparvarlik, kattalarga hurmat, hamjihatlik va ma’naviyatga intilish bilan xarakterlanadi.

Mehmondo‘stlik o‘zbek xalqining eng muhim qadriyatlaridan biridir. Shu sababli “Mehmon”, “Mehribon”, “Qo‘noq uyi” kabi pragmatonimlar mehmonxona va restoranlar nomida keng qo‘llanadi. Bunday nomlar iste’molchiga samimiylik va qulaylik hissini beradi.

Oila va uy tushunchalari ham pragmatonimiyada faol ifodalanadi. “Oila markazi”, “Yurt”, “Mahal” kabi nomlar oilaviy qadriyatlar va milliy birlikni aks ettiradi.

Baxt va saodat motivlari o‘zbek mentalitetida alohida ahamiyatga ega. “Saodat”, “Baxt”, “Nasib”, “Tabarruk” kabi pragmatonimlar insonning moddiy va ma’naviy farovonlikka intilishini ifodalaydi.

Tabiat bilan uyg‘unlik motivi ham ko‘plab pragmatonimlarda namoyon bo‘ladi. “Tog‘ suvlari”, “Lola”, “Binafsha”, “Zarafshon” kabi nomlar tabiat go‘zalligi va poklik timsoli sifatida qo‘llanadi.

Mehnat va shijoat qadriyatlari “Mehnat”, “G‘ayrat”, “Shijoat” kabi nomlar orqali ifodalanadi. Bu pragmatonimlar o‘zbek xalqining mehnatsevarlik va qat’iyatlilik fazilatlarini aks ettiradi.

Bundan tashqari, o‘zbek pragmatonimlarida ijtimoiy birdamlik va hamkorlik tushunchalari ham muhim o‘rin tutadi. “Hamkor bank”, “Birlik”,

“Ittifoq”, “Hamjamiyat” kabi nomlar xalq orasidagi o‘zaro yordam va jamoaviylik qadriyatlarini ifodalaydi .

O‘zbek pragmatonimlari milliy madaniyat, tarixiy xotira va mentalitetning muhim lingvistik ko‘rinishidir. Ular nafaqat tijorat maqsadiga xizmat qiladi, balki xalqning madaniy qadriyatlari va tarixiy tajribasini ham ifodalaydi. Pragmatonimlar orqali o‘zbek xalqining mehmondo‘stlik, oilaparvarlik, hamjihatlik, ilm-fanga hurmat va ma’naviyatga intilish kabi xususiyatlari namoyon bo‘ladi. Shu sababli muvaffaqiyatli pragmatonim yaratishda milliy-madaniy omillarni chuqur hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Азимов Э.Г., Щукин А.Н. Новый словарь методических терминов и понятий. – Москва: ИКАР, 2009. – 448 с.
2. Вилгелм Гумболт. Избранные труды по языкознанию. – Москва: Прогресс, 1984. – 397 с.
3. Edward Sapir. Language. – New York: Harcourt Brace, 1921. – 258 p.; Benjamin Lee Whorf. Language, Thought and Reality. – Cambridge: MIT Press, 1956. – 278 p.
4. Евгений Верешчагин., Виталий Костомаров. Язык и культура. – Москва: Индрик, 2005. – 1038 с.
5. Валентина Маслова. Лингвокультурология. – Москва: Академия, 2001. – 208 с.
6. Анна Вербицка. Understanding Cultures through Their Key Words. – Oxford: Oxford University Press, 1997. – 317 p.
7. Юрий Лотман. Семиосфера. – Санкт-Петербург: Искусство-СПБ, 2000. – 704 с.
8. Xolmirza Doniyorov. Ўзбек тили ва миллий маданият масалалари. – Тошкент: Фан, 1978. – 156 б.
9. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992. – 379 б.

# AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA MA’NAVIY HAYOTNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

**Jumaboyeva Latofat**

*Qoraqalpoq davlat universiteti 1-kurs magistranti*

*e-mail: jumaboyevalatofat50@gmail.com*

**Indira Jollibekova**

*Qoraqalpoq davlat universiteti dotsenti (PhD)*

***Annotatsiya.*** *Mazkur maqolada axborotlashgan jamiyat sharoitida shaxs ma’naviyatining shakllanishi va rivojlanishiga xos xususiyatlar tahlil qilinadi. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining inson dunyoqarashiga, qadriyatlar tizimiga ta’siri, shuningdek bu jarayonda yuzaga keladigan xavf-xatarlar va ularning oldini olish yo‘llari ko‘rib chiqiladi. Muallif axborot makonidagi ma’naviy barqarorlikni ta’minlashda huquqiy-normativ baza va ilmiy-nazariy meros uyg‘unligining ahamiyatini asoslaydi.*

***Kalit so‘zlar:*** *axborotlashgan jamiyat, ma’naviyat, ma’naviy hayot, axborot xavfsizligi, milliy qadriyatlar, raqamli madaniyat, mafkuraviy immunitet.*

***Аннотация.*** *В статье анализируются специфические особенности формирования и развития духовности личности в условиях информационного общества. Рассматривается влияние современных информационно-коммуникационных технологий на мировоззрение человека, систему ценностей, а также возникающие в этом процессе риски и пути их предупреждения. Автор обосновывает значимость гармоничного сочетания нормативно-правовой базы и научно-теоретического наследия в обеспечении духовной устойчивости в информационном пространстве.*

***Ключевые слова:*** *информационное общество, духовность, духовная жизнь, информационная безопасность, национальные ценности, цифровая культура, идеологический иммунитет.*

***Abstract.*** *This article analyzes the specific features of the formation and development of an individual's spirituality under the conditions of the information society. It examines the influence of modern information and communication technologies on a person's worldview and value system, as well as the risks arising in this process and ways to prevent them. The author substantiates the importance of harmonizing the legal-normative framework with scientific-theoretical heritage in ensuring spiritual stability within the information space.*

***Keywords:*** *information society, spirituality, spiritual life, information security, national values, digital culture, ideological immunity.*

## KIRISH

XXI asr insoniyat tarixiga axborot va kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi davri sifatida kirib bormoqda. Internet, sotsial tarmoqlar, mobil aloqa vositalari va sun’iy intellekt tizimlarining kundalik hayotga chuqur kirib borishi nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy-ma’naviy munosabatlarni ham tubdan o‘zgartirib yubordi. Bugungi kunda axborot oqimi shaxsning shakllanishida, uning dunyoqarashi, qadriyatlar tizimi va milliy o‘zligini anglashida hal qiluvchi omilga aylanib bormoqda.

Axborotlashgan jamiyat sharoitida ma’naviy hayot o‘ziga xos qarama-qarshiliklarga ega. Bir tomondan, axborot texnologiyalari bilim olish, madaniy almashinuv va shaxsning intellektual rivojlanishi uchun beqiyos imkoniyatlar yaratadi. Ikkinchi tomondan, nazoratsiz axborot oqimi, mafkuraviy tahdidlar, "ommaviy madaniyat" ta’siri yoshlar ma’naviyatiga, ayniqsa milliy qadriyatlarga sodiqlik tuyg‘usiga jiddiy xavf solishi mumkin. Shu boisdan axborotlashgan jamiyatda ma’naviy hayotning o‘ziga xos xususiyatlarini ilmiy jihatdan o‘rganish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Maqolaning maqsadi — axborotlashgan jamiyat sharoitida ma’naviyatning shakllanish mexanizmlarini, ushbu jarayonda yuzaga keladigan o‘ziga xos xususiyatlarni hamda ma’naviy barqarorlikni ta’minlashning huquqiy-tashkiliy asoslarini tahlil qilishdan iborat.

## ASOSIY QISM

**1. Ma’naviyat tushunchasining mazmun-mohiyati.** Ma’naviyat masalasi o‘zbek faylasuflari va olimlari tomonidan keng o‘rganilgan murakkab ijtimoiy-falsafiy kategoriyalardan biridir. E. Yusupov ma’naviyatni inson axloqi va odobi, bilimlari, iste’dodi, qobiliyati, amaliy malakalari, vijdoni, imoni, e’tiqodi, dunyoqarashi va mafkuraviy qarashlarining o‘zaro uzviy bog‘langan, jamiyat taraqqiyotiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadigan yagona tizim sifatida ta’riflaydi

[1]. Bu ta’rif ma’naviyatning ko‘p qirrali, dinamik xususiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi — u faqat ichki ruhiy holat emas, balki jamiyat taraqqiyoti bilan uzviy bog‘liq ijtimoiy hodisadir.

A. Erkaev o‘z tadqiqotlarida ma’naviyatni millat yashovchanligining muhim ko‘rsatkichi, uning ijtimoiy-madaniy mavjudligining mohiyati sifatida talqin etadi, bunda insonning mehr-shafqat, adolat, vijdon, vatanparvarlik kabi xususiyatlari ma’naviyatning tarkibiy qismlari ekanligini ta’kidlaydi [2]. Bu yondashuv shuni ko‘rsatadi: ma’naviyat statik tushuncha emas, balki jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy va texnologik o‘zgarishlar ta’sirida doimiy ravishda sinovdan o‘tadigan, qayta shakllanadigan hodisadir.

M. Imomnazarov esa ma’naviyatni insonning ichki, botiniy dunyosi, qalb haqiqatining ifodasi sifatida sofiyona-falsafiy nuqtai nazardan tahlil qiladi, bunda ma’naviyatning har qanday qat’iy ta’rifi uning cheksiz mohiyatini to‘liq qamrab ola olmasligini ta’kidlaydi [3]. Bu fikr axborotlashgan davrda ham muhim ahamiyatga ega: ma’naviyatni faqat tashqi ko‘rsatkichlar — ta’lim darajasi, axborot savodxonligi bilan o‘lchab bo‘lmaydi, balki uning chuqur ichki, individual tabiatini hisobga olish zarur.

**2. Axborotlashgan jamiyat sharoitida ma’naviy hayotning o‘ziga xos xususiyatlari.** Axborotlashgan jamiyatda ma’naviy hayot quyidagi o‘ziga xos xususiyatlar bilan tavsiflanadi:

Birinchidan, axborotning tezkorligi va ommaviyligi. Ilgari ma’naviy tarbiya asosan oilaviy muhit, ta’lim muassasalari va mahalliy ijtimoiy munosabatlar doirasida shakllangan bo‘lsa, bugungi kunda har qanday geografik chegaradan tashqarida joylashgan axborot manbai bir zumda shaxs ongiga ta’sir ko‘rsatish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Bu holat ma’naviy tarbiyaning an’anaviy institutlari — oila, mahalla, ta’lim tizimi roli va mexanizmlarini qaytadan ko‘rib chiqishni taqozo etadi.

Ikkinchidan, axborotning saralanmaganligi va sifat nazoratidan xoli bo‘lishi. Sotsial tarmoqlar va ochiq platformalarda tarqaladigan axborotning

aksariyati professional tahrir va ilmiy-axloqiy ekspertizadan o‘tmagan bo‘ladi. Bu, o‘z navbatida, yoshlar ongida qadriyatlar tizimining buzilishi, "yengil-yelpi" hayot tarzini ideallashtirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlardan begonalashish kabi salbiy holatlarga olib kelishi mumkin.

Uchinchidan, mafkuraviy ta’sir vositalarining ko‘paygani. Zamonaviy axborot makoni nafaqat foydali bilim, balki turli mafkuraviy oqimlar, destruktiv g‘oyalar tarqalishi uchun ham qulay muhit yaratadi. Ma'naviyatshunoslik fanida qayd etilganidek, jamiyatda yuksak ma’naviyat bo‘lmagan joyda jaholat, beparvolik, xudbinlik kabi illatlar kuchayadi, bu esa millatning mafkuraviy immunitetini zaiflashtiradi [4].

**3. Ma’naviy barqarorlikni ta’minlashning huquqiy-tashkiliy asoslari.** Axborot makonidagi munosabatlarni tartibga solish, axborot resurslaridan foydalanish tartib-qoidalarini belgilash maqsadida O‘zbekiston Respublikasida tegishli qonunchilik bazasi shakllantirilgan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasining "Axborotlashtirish to‘g‘risida"gi Qonuni axborot resurslarini yaratish, ulardan foydalanish, axborot egalari va foydalanuvchilar o‘rtasidagi munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga soladi hamda axborot xavfsizligini ta’minlashning tashkiliy-huquqiy asoslarini belgilaydi [5]. Ushbu qonun hujjati axborotlashgan jamiyat sharoitida fuqarolarning axborotdan foydalanish huquqlarini kafolatlash bilan birga, jamiyat ma’naviy-axloqiy muhitini himoya qilish vazifasini ham ko‘zda tutadi.

Huquqiy-normativ baza o‘z-o‘zidan ma’naviy tarbiya vazifasini bajara olmaydi — u faqat zarur shart-sharoit yaratadi. Asosiy yuk ta’lim tizimi, oila va jamoatchilik institutlariga tushadi. Shu sababli axborotlashgan jamiyatda ma’naviy tarbiya tizimini takomillashtirish quyidagi yo‘nalishlarda olib borilishi maqsadga muvofiq:

— yoshlarda axborotni tanqidiy tahlil qilish ko‘nikmalarini, ya’ni "media-savodxonlik"ni shakllantirish;

— milliy va umuminsoniy qadriyatlarni raqamli muhitga moslashtirilgan zamonaviy uslublar — interaktiv ta’lim platformalari, sifatli raqamli kontent orqali targ‘ib qilish;

— ta’lim muassasalarida axborot xavfsizligi va mafkuraviy immunitetni mustahkamlashga yo‘naltirilgan tizimli tarbiyaviy ishlarni yo‘lga qo‘yish;

— oila institutining axborot iste'moli borasidagi nazorat va tarbiyaviy funksiyasini kuchaytirish.

Bu yo‘nalishlarning barchasi yagona maqsadga — shaxsning axborot oqimi ta’sirida o‘zligini saqlab qolishi, millat ma’naviy-mafkuraviy barqarorligini ta’minlashga xizmat qiladi.

## XULOSA

Xulosa qilib aytganda, axborotlashgan jamiyat sharoitida ma’naviy hayot o‘zining murakkab va ko‘p qirrali xususiyatlariga ega bo‘lib, u bir vaqtning o‘zida ham yangi imkoniyatlar, ham jiddiy xavf-xatarlar manbai hisoblanadi. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari insonning bilim olish va dunyoqarashini kengaytirish imkoniyatlarini sezilarli darajada oshirgan bo‘lsa-da, ayni paytda nazoratsiz axborot oqimi, mafkuraviy tahdidlar va qadriyatlar tizimining eroziyasi kabi muammolarni ham keltirib chiqarmoqda.

Ushbu sharoitda ma’naviy barqarorlikni ta’minlash murakkab, ko‘p bosqichli yondashuvni talab etadi: bir tomondan, mustahkam huquqiy-normativ baza — xususan, axborotlashtirish sohasidagi qonunchilik — zarur tashkiliy-huquqiy muhitni yaratadi; ikkinchi tomondan, milliy ma’naviyatshunoslik ilmiy merosi asosida shakllantirilgan tarbiyaviy strategiyalar shaxsning ichki mafkuraviy immunitetini mustahkamlaydi. Shu ikki omilning uyg‘un birikishi orqali axborotlashgan jamiyatda yosh avlodning sog‘lom ma’naviy-axloqiy qiyofasini saqlab qolish va rivojlantirish mumkin bo‘ladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Yusupov E. Inson kamolotining ma’naviy asoslari. – T.: "Universitet", 1998. – B. 34.
2. Erkaev A. Ma’naviyat – millat nishoni. – T.: "Ma’naviyat", 1997. – B. 27.
3. Imomnazarov M. Milliy ma’naviyatimiz asoslari. – T.: "Sharq", 1998.

4. Masharipova D., Xo‘janova T. Ma’naviyatshunoslik (darslik). – Toshkent: "Fan ziyosi" nashriyoti, 2021.
5. O‘zbekiston Respublikasining "Axborotlashtirish to‘g‘risida"gi Qonuni, 2003-yil 11-dekabr, 561-II-son // lex.uz.

# YOSHLARNING MA'NAVIY-MAFKURAVIY TARBIYASIDA BADIIY ADABIYOTLARDAN FOYDALANISH MASALALARI

**Berdixanov Erkin Ergaliyevich**

*Qoraqalpoq davlat universitet 1-kurs magistrani*

*e-mail: erkinberdikhanov@gmail.com*

**I.B. Jollıbekova**

*Qoraqalpoq davlat universiteti dotsenti (PhD)*

*O'zbekiston, Nukus*

***Annotatsiya.*** *Mazkur maqolada yoshlarning ma'naviy-mafkuraviy dunyoqarashini shakllantirishda badiiy adabiyotning o'rni va ahamiyati tahlil qilingan. Davlat siyosati darajasida qabul qilingan normativ hujjatlar, milliy g'oya nazariyasi va birinchi prezidentimiz hamda mamlakatimiz Prezidentining ma'naviy-ma'rifiy sohadagi qarashlari asosida badiiy adabiyotdan ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanishning samarali yo'llari ko'rsatib berilgan. Tadqiqot natijalari kitobxonlik madaniyatini oshirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.*

***Abstract.*** *This article analyzes the role and significance of literary works in shaping the spiritual and ideological worldview of young people. Based on state policy documents, the theory of national idea, and the views of the First President and the current President of Uzbekistan on spiritual-educational matters, effective ways of using literary works in the educational process are presented. The research findings serve as practical recommendations for improving reading culture.*

***Kalit so'zlar:*** *ma'naviyat, mafkuraviy immunitet, badiiy adabiyot, yoshlar tarbiyasi, milliy g'oya, kitobxonlik madaniyati, ta'lim-tarbiya.*

***Keywords:*** *spirituality, ideological immunity, literary works, youth upbringing, national idea, reading culture, education and upbringing.*

## KIRISH

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda yoshlarni har tomonlama barkamol, ma'naviy yetuk va mafkuraviy jihatdan mustahkam shaxslar etib tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Zamonaviy axborot makonining tobora murakkablashib borayotgani, raqamli muhitda turli g'oyaviy ta'sirlarning kuchayishi yosh avlod ongi va qalbini begona, tasodifiy ta'sirlardan

asrash zaruratini yanada dolzarblashtirmoqda. Davlatimiz rahbariyati tomonidan ham bu masalaga alohida e’tibor qaratilmoqda — xususan, "Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari" tamoyili asosida jamiyat hayotida ezgu qadriyatlarni qaror toptirish, ayniqsa yosh avlodning ma’naviy-intellektual salohiyatini yuksaltirishda kitobxonlik madaniyatini oshirishning ahamiyati alohida ta’kidlangan [1].

Badiiy adabiyot ushbu vazifani amalga oshirishda o‘ziga xos o‘rin tutadi, chunki u faqat estetik zavq manbai bo‘lib qolmay, balki insonning ichki dunyosini, qadriyatlar tizimini, vatanga va xalqqa bo‘lgan munosabatini shakllantiruvchi kuchli vositadir. Badiiy matn orqali yetkaziladigan g‘oya va tuyg‘ular nazariy ma’lumotga nisbatan chuqurroq emotsional-irodaviy ta’sir ko‘rsatadi, bu esa uni yoshlar tarbiyasida almashtirib bo‘lmaydigan vositaga aylantiradi.

Maqolaning maqsadi — badiiy adabiyotning yoshlar ma’naviy-mafkuraviy tarbiyasidagi vazifalarini davlat siyosati, milliy g‘oya nazariyasi va pedagogik amaliyot nuqtai nazaridan tahlil qilish, shuningdek uni zamonaviy ta’lim jarayoniga tatbiq etishning samarali yo‘llarini ishlab chiqishdan iborat.

## ASOSIY QISM

### 1. Davlat siyosati darajasida kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish masalalari

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan bir qancha institutsional chora-tadbirlar amalga oshirildi. Bunday tashabbuslardan biri sifatida yoshlarning intellektual va ilmiy salohiyatini oshirish, dunyo miqyosidagi mashhur asarlarni o‘zbek tiliga tarjima qilib, keng ommaga yetkazish maqsadida maxsus davlat loyihasi tashkil etilgani alohida ahamiyatga ega [2]. Bunday loyihalar yoshlarni zamonaviy ilm-fan va madaniyatning eng so‘nggi yutuqlari bilan tanishtirish, ularda jahon adabiyoti namunalariga qiziqishni oshirish maqsadini ko‘zlaydi.

Bu kabi davlat darajasidagi tashabbuslar shuni koʻrsatadi: badiiy adabiyotdan foydalanish endi tasodifiy yoki ixtiyoriy xarakterdagi ish emas, balki tizimli, maqsadli va institutsional asosga ega davlat siyosatining ajralmas qismidir. Bu, oʻz navbatida, ta'lim muassasalarida adabiyot bilan ishlash metodikasini ham yangi sifat bosqichiga koʻtarish zaruratini taqozo etadi.

**2. Badiiy adabiyot va milliy gʻoya: nazariy-pedagogik asoslar**

Badiiy adabiyotning mafkuraviy-tarbiyaviy vazifasini toʻgʻri tushunish uchun uni milliy gʻoya nazariyasi kontekstida koʻrib chiqish maqsadga muvofiqdir. Milliy gʻoya va ma'naviyatning pedagogik asoslarini oʻrganishga bagʻishlangan tadqiqotlarda ta'kidlanishicha, xalq ogʻzaki ijodiyotining deyarli barcha janrlarida ushbu ijodning yaratuvchisi boʻlgan xalqning mehnatsevarligi, vatanparvarligi, ota-onaga hurmat, kattalarga ehtirom va ajdodlar merosiga sadoqat tuygʻulari oʻz ifodasini topgan [3]. Bu fikr badiiy ijodning — xoh ogʻzaki, xoh yozma shaklda boʻlsin — xalq ma'naviy-axloqiy tajribasining tabiiy "tashuvchisi" ekanligini koʻrsatadi.

Demak, badiiy asarlar bilan ishlash shunchaki matnni oʻqib-tushunish jarayoni emas, balki bir necha avlodlar tomonidan sinab koʻrilgan axloqiy-ma'naviy qadriyatlar tizimini oʻzlashtirish jarayonidir. Yoshlar ushbu asarlar orqali nafaqat tilni, balki millatning dunyoqarashini, qadriyatlar tizimini va tarixiy xotirasini meros qilib oladilar. Bu jihat badiiy adabiyotni mafkuraviy immunitetni shakllantirishning tabiiy va samarali vositasiga aylantiradi.

**3. Milliy ma'naviy meros — badiiy adabiyotning qudratli zamini**

Birinchi prezidentimiz I. Karimov milliy madaniyat va xalq ma'naviy boyligi ildizlariga e'tibor berish zarurligini alohida ta'kidlab, bu xazina asrlar davomida toʻplangan, tarixning koʻplab sinovlaridan oʻtgan va insonlarga ogʻir damlarda madad boʻlgan boylik ekanligini bildirgan edi [4]. Bu fikr badiiy adabiyotning nafaqat bugungi kun, balki kelajak avlodlar uchun ham ahamiyatli ekanligini koʻrsatadi — chunki klassik va mumtoz adabiyot namunalari aynan shu "asrlar davomida toʻplangan xazina"ning bir qismidir.

Bunday meros bilan ishlashda asosiy vazifa — uni saqlab qolish bilan birga, uni "yanada boyitish", ya’ni zamonaviy talqin va metodlar bilan yangilab borishdir. Bu, ayniqsa, yoshlar bilan ishlashda muhim ahamiyat kasb etadi, chunki faqat saqlangan, lekin yangilanmagan meros yosh avlod uchun jonli ta’sir kuchini yo‘qotishi mumkin. Shu sababli mumtoz adabiyot namunalarini zamonaviy ta’lim texnologiyalari, interaktiv metodlar va muhokama shakllari bilan uyg‘unlashtirish dolzarb vazifa hisoblanadi.

**4. Ta’lim-tarbiya tizimida badiiy adabiyotdan foydalanish metodikasi**

Badiiy adabiyotning tarbiyaviy salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarish ko‘p jihatdan uni ta’lim jarayoniga to‘g‘ri integratsiya qilish metodikasiga bog‘liq. Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev ta’lim va tarbiya tizimining barcha bo‘g‘inlari faoliyatini zamon talablari asosida takomillashtirishni davlatning birinchi darajali vazifasi sifatida belgilagan edi [5]. Bu ko‘rsatma adabiyot ta’limi metodikasini ham zamonaviylashtirish zarurligini bildiradi.

Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi metodik yondashuvlardan foydalanish samarali natija beradi:

- **Muhokama va bahs-munozara usuli** — badiiy asar qahramonlarining xatti-harakatlarini axloqiy nuqtai nazardan tahlil qilish;
- **Qiyosiy tahlil** — mumtoz va zamonaviy asarlardagi qadriyatlar tizimini taqqoslash;
- **Ijodiy yozma ishlar** — o‘quvchilarning badiiy matn asosida o‘z fikr-mulohazalarini bayon etishi;
- **Loyihaviy faoliyat** — adabiy qahramonlar misolida zamonaviy ijtimoiy muammolarni tahlil qilish;
- **Tarjima va targ‘ibot tashabbuslari** — jahon adabiyoti namunalarini o‘rganish orqali yoshlarning dunyoqarashini kengaytirish.

Bunday metodlar badiiy adabiyotni passiv o‘qish ob’yektidan faol tarbiyaviy vositaga aylantiradi va yoshlarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish va xulosa chiqarish qobiliyatini rivojlantiradi.

### 5. Zamonaviy tahdidlar sharoitida adabiyotning himoyalovchi vazifasi

Bugungi kunda yoshlar ongini turli yot g‘oyaviy ta’sirlardan himoya qilish masalasi alohida dolzarblik kasb etmoqda. Raqamli muhitda tarqalayotgan nomaqbul kontent, yuzaki va mazmunsiz axborot oqimi yosh avlod tafakkurini sayozlashtirish xavfini tug‘dirmoqda. Aynan shu nuqtai nazardan, badiiy adabiyot bilan muntazam shug‘ullanish yoshlarda chuqur fikrlash ko‘nikmasini, axborotni tanqidiy baholash qobiliyatini va mustahkam qadriyatlar tizimini shakllantiradi. Bu, o‘z navbatida, ularni yot mafkuraviy ta’sirlarga qarshi tabiiy "immunitet" bilan ta’minlaydi.

## XULOSA

Yuqorida keltirilgan tahlillar shuni ko‘rsatadi: badiiy adabiyot yoshlarning ma’naviy-mafkuraviy tarbiyasida o‘rnini almashtirib bo‘lmaydigan vositalardan biri hisoblanadi. U davlat siyosati darajasida institutsional qo‘llab-quvvatlanayotgan, milliy g‘oya nazariyasida asoslangan, tarixiy-ma’naviy merosga tayangan va zamonaviy pedagogik metodlar bilan boyitilishi lozim bo‘lgan ko‘p qirrali tarbiyaviy resursdir.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish bo‘yicha davlat dasturlarini ta’lim muassasalari darajasida amaliy tadbirlar bilan to‘ldirish;
2. O‘quv dasturlarida mumtoz, milliy va jahon adabiyoti namunalarining muvozanatli uyg‘unligini ta’minlash;
3. Badiiy asarlar tahlilida faol, muhokamaga asoslangan metodlardan foydalanish;
4. Yoshlarning yosh xususiyatlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda asar tanlash mezonlarini ishlab chiqish;
5. Adabiy meros bilan ishlashda zamonaviy raqamli vositalar va tarjima loyihalaridan keng foydalanish.

Bunday kompleks yondashuv yoshlarda mustahkam ma’naviy-mafkuraviy dunyoqarashni shakllantirishga, ularni turli g‘oyaviy tahdidlardan himoya qilishga va jamiyatning barqaror ma’naviy-axloqiy rivojlanishini ta’minlashga xizmat qiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 — 2025-yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash milliy dasturini tasdiqlash to‘g‘risidagi qarori, 14.12.2020 yildagi 781-son.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 28 noyabrdagi PQ-380-son qarori asosida tashkil etilgan "Yoshlar uchun ming kitob" loyihasi.
3. Samadova, S.S. Milliy g‘oya, ma’naviyatning pedagogik asoslari [Matn]: o‘quv qo‘llanma. – Buxoro: "Sadriddin Salim Buxoriy" – Durdona, 2022. – 101 b.
4. Karimov, I.A. Istiqlol va ma’naviyat. – T.: "O‘zbekiston", 1994. – 65-66 b.
5. Mirziyoyev, Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash –yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T.: "O‘zbekiston", 2017. – 22 b.

# YUQORI SINF O'QUVCHILARIDA MEDIASAVODXONLIKNI SHAKLLANTIRISHNING SHART - SHAROITLARI

**Jo'rayev Anvar Saidjon og'li**

*Termiz Davlat Pedagogika Instituti*

*Pedagogika va ijtimoiy fanlar fakulteti*

*I bosqich magistranti*

***Ilmiy rahbar: Yakubova Umida Sharifovna***

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada yuqori sinf o'quvchilarida mediasavodxonlikni shakllantirishning muhim shart - sharoitlari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Zamonaviy axborot makonida o'quvchilarning tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish va axborotni saralash ko'nikmalarini shakllantirish dolzarb masala hisoblanadi. Tadqiqotda mediasavodxonlikni rivojlantirishga ta'sir etuvchi pedagogik, ijtimoiy va texnologik omillar ochib beriladi. Shuningdek, ta'lim jarayonida mediasavodxonlikni samarali shakllantirishga doir amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

***Kalit so'zlar.*** *Mediasavodxonlik, yuqori sinf o'quvchilari, axborot madaniyati, tanqidiy fikrlash, pedagogik sharoitlar, ta'lim jarayoni, raqamli texnologiyalar, axborot tahlili*

***Аннотация.*** *В данной статье рассматриваются основные условия формирования медиаграмотности у учащихся старших классов. В условиях современного информационного общества особое внимание уделяется развитию критического мышления и навыков анализа информации. В работе раскрываются педагогические, социальные и технологические факторы, влияющие на формирование медиаграмотности. Кроме того, предложены практические рекомендации по эффективной интеграции медиаграмотности в образовательный процесс.*

***Ключевые слова.*** *Медиаграмотность, учащиеся старших классов, информационная культура, критическое мышление, образовательный процесс, педагогические условия, цифровые технологии, анализ информации*

***Abstract.*** *This article explores the key conditions for the formation of media literacy among high school students. In the context of the modern information society, the development of critical thinking and information evaluation skills is of great importance. The study identifies pedagogical, social, and technological factors influencing media literacy*

*development. Furthermore, practical recommendations are provided for the effective integration of media literacy into the educational process.*

***Keywords.*** *Media literacy, high school students, information culture, critical thinking, educational process, pedagogical conditions, digital technologies, information evaluation*

## ASOSIY QISM

Zamonaviy globallashuv va raqamli texnologiyalar jadal rivojlanayotgan bir davrda jamiyat hayotida axborotning o'rni tobora ortib bormoqda. Ayniqsa, yuqori sinf o'quvchilari uchun axborot oqimida to'g'ri yo'nalish topish, uni tahlil qilish va baholash muhim kompetensiyalardan biriga aylangan. Shu nuqtai nazardan, mediasavodxonlikni shakllantirish ta'lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur maqolaning asosiy qismi aynan mediasavodxonlikni shakllantirishning mazmun - mohiyati, uning tarkibiy qismlari hamda unga ta'sir etuvchi shart - sharoitlarni yoritishga qaratilgan.

Avvalo, mediasavodxonlik tushunchasining mohiyatiga to'xtalish zarur. Mediasavodxonlik - bu shaxsning turli axborot manbalaridan olingan ma'lumotlarni anglash, tahlil qilish, baholash va ulardan ongli ravishda foydalanish qobiliyatidir. Bu jarayonda o'quvchi nafaqat axborotni qabul qiladi, balki uni tanqidiy fikrlash asosida saralaydi, noto'g'ri yoki manipulyativ ma'lumotlarni aniqlashga harakat qiladi. Aynan yuqori sinf o'quvchilari bu jarayonda faol ishtirok etuvchi subyekt sifatida shakllanishi lozim, chunki ular mustaqil fikr yuritish bosqichiga kirib borayotgan bo'ladi.

Mediasavodxonlikni shakllantirishda pedagogik shart - sharoitlar muhim o'rin tutadi. Eng avvalo, o'qituvchilarning o'zlari mediasavodxonlik ko'nikmalariga ega bo'lishi zarur. Chunki ular o'quvchilarga nafaqat bilim beruvchi, balki yo'naltiruvchi va maslahatchi rolini ham bajaradi. Dars jarayonida interaktiv metodlardan foydalanish, muammoli vaziyatlar yaratish, o'quvchilarni mustaqil fikrlashga undovchi topshiriqlar berish mediasavodxonlikni rivojlantirishga xizmat qiladi. Masalan, turli media

materiallarni (maqolalar, videolar, ijtimoiy tarmoqlardagi postlar) tahlil qilish orqali o‘quvchilarda tanqidiy yondashuv shakllantiriladi.

Bundan tashqari, ijtimoiy muhit ham mediasavodxonlikni rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. O’quvchining oilasi, do‘stlari va keng ijtimoiy tarmog‘i uning axborotga bo’lgan munosabatini shakllantiradi. Agar oila a’zolari axborotni ongli ravishda iste’mol qilsa, farzandda ham shunday ko’nikmalar paydo bo’ladi. Shu sababli mediasavodxonlikni faqat maktab doirasida emas, balki keng ijtimoiy muhitda ham qo’llab - quvvatlash lozim.

Texnologik shart - sharoitlar ham bu jarayonda alohida ahamiyatga ega. Bugungi kunda o’quvchilar internet, ijtimoiy tarmoqlar va turli raqamli platformalardan keng foydalanmoqda. Bu esa ularga katta hajmdagi axborotga tezkor kirish imkonini beradi. Biroq shu bilan birga, yolg‘on axborotlar, feyk yangiliklar va manipulyativ kontentlar xavfi ham ortib bormoqda. Shu bois o’quvchilarga axborot xavfsizligi, manbalarni tekshirish va ishonchliligini aniqlash bo’yicha bilimlar berish zarur.

Mediasavodxonlikni shakllantirishning yana bir muhim jihati - bu tanqidiy fikrlashni rivojlantirishdir. Tanqidiy fikrlash o'quvchiga har qanday axborotni shunchaki qabul qilish emas, balki uni tahlil qilish, sabab - oqibat bog’liqligini aniqlash, turli nuqtai nazarlarni solishtirish imkonini beradi. Bu esa o'quvchini mustaqil va ongli qaror qabul qilishga olib keladi. Ayniqsa, bugungi kunda turli axborot manipulyatsiyalari keng tarqalgan bir sharoitda bu ko'nikma nihoyatda zarurdir.

Shuningdek, mediasavodxonlikni shakllantirishda o’quv dasturlari va o’quv materiallarining mazmuni ham muhim ahamiyat kasb etadi. Darslik va qo‘llanmalarda zamonaviy media vositalar bilan ishlashga oid topshiriqlar, real hayotiy misollar, tahliliy mashqlar bo‘lishi lozim. Bu orqali o’quvchilar nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog’lash imkoniyatiga ega bo’ladi.

**Adabiyotlar tahlili.** Mazkur mavzu - yuqori sinf o’quvchilarida mediasavodxonlikni shakllantirish masalasi - bugungi kunda nafaqat milliy,

balki xalqaro miqyosda ham keng o’rganilayotgan dolzarb ilmiy yo’nalishlardan biridir. Ushbu yo’nalishda olib borilgan tadqiqotlarni tahlil qilish shuni ko’rsatadiki, mediasavodxonlik tushunchasi, uning mazmuni va shakllanish mexanizmlari turli ilmiy maktablar tomonidan har tomonlama yoritilgan.

Avvalo, chet el olimlarining tadqiqotlariga to’xtaladigan bo’lsak, mediasavodxonlik nazariyasi va amaliyoti rivojiga katta hissa qo’shgan yetuk olimlardan biri David Buckingham hisoblanadi. U o’z ilmiy ishlarida yoshlarning media bilan o’zaro aloqasi, ularning axborotni qabul qilish va tahlil qilish jarayonlarini chuqur o’rgangan. Uning tadqiqotlarida mediasavodxonlik ta’lim jarayonining ajralmas qismi sifatida talqin etiladi hamda yoshlarning fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishdagi o’rni asoslab beriladi.

Shuningdek, Sonia Livingstone mediasavodxonlik va raqamli savodxonlikni bolalar va yoshlar rivoji bilan bog‘liq holda o’rgangan yetakchi olimalardan biridir. U o’z tadqiqotlarida mediasavodxonlikni nafaqat texnik ko’nikma, balki ijtimoiy, madaniy va fuqarolik kompetensiyasi sifatida ko’rsatadi. Uning ishlari xalqaro miqyosda, jumladan, Yevropa va global loyihalar doirasida keng qo‘llaniladi .

Bundan tashqari, mediasavodxonlikni shakllantirishning samaradorligi va ta’sirini o’rganishda Se-Hoon Jeong va uning hamkorlari tomonidan olib borilgan meta-tahliliy tadqiqotlar alohida ahamiyatga ega. Ularning ilmiy ishlari mediasavodxonlikka oid ta’limiy dasturlar o’quvchilarning bilim darajasi, tanqidiy fikrlashi va axborotni baholash ko‘nikmalariga ijobiy ta’sir ko’rsatishini ilmiy jihatdan asoslab beradi .

Yana bir muhim olima Divina Frau-Meigs bo’lib, u mediasavodxonlikni global axborot makoni, madaniy xilma-xillik va raqamli jamiyat kontekstida o’rganadi. Uning tadqiqotlarida mediasavodxonlik inson huquqlari, axborot xavfsizligi va demokratik jamiyat rivoji bilan uzviy bog’liq holda talqin qilinadi.

Shuningdek, Andrew Burn mediasavodxonlikni media ta’limi va multimodal yondashuv asosida o’rganib, o’quvchilarning kreativ va tahliliy fikrlashini rivojlantirishga qaratilgan nazariyalarni ishlab chiqqan.

Umuman olganda, xorijiy tadqiqotchilar mediasavodxonlikni keng qamrovli tushuncha sifatida ko’rib, uning pedagogik, psixologik va ijtimoiy jihatlarini chuqur o’rganganliklarini ko’rish mumkin. Ularning ilmiy ishlari mediasavodxonlikni shakllantirishning nazariy asoslarini yaratishda muhim manba bo’lib xizmat qiladi.

Endi o’zbek olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarga e’tibor qaratadigan bo’lsak, mamlakatimizda ham so’nggi yillarda mediasavodxonlik masalasiga katta e’tibor qaratilmoqda. Xususan, pedagogika va axborot texnologiyalari sohasidagi tadqiqotchilar tomonidan mediasavodxonlikni shakllantirishning metodik asoslari, o’quvchilarda axborot madaniyatini rivojlantirish masalalari o’rganilmoqda. O’zbek olimlaridan N.X. Jo’rayev, Sh.S. Sharipov, B.X. Xodjayev kabi tadqiqotchilar ta’lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish, o’quvchilarning axborot bilan ishlash kompetensiyalarini shakllantirish masalalarini yoritganlar.

Shuningdek, O’zbekiston ta’lim tizimida olib borilayotgan islohotlar doirasida mediasavodxonlikni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu borada o’quv dasturlarini takomillashtirish, o’qituvchilarning raqamli kompetensiyalarini oshirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish kabi yo’nalishlarda ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Biroq, mavjud tadqiqotlar asosan umumiy axborot savodxonligi yoki raqamli kompetensiyalar doirasida yoritilgan bo’lib, aynan yuqori sinf o’quvchilarida mediasavodxonlikni shakllantirishning aniq pedagogik shart-sharoitlari yetarli darajada kompleks o’rganilmagan.

Xulosa qilib aytganda, mazkur mavzu bo’yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar yetarli darajada mavjud bo’lsada, ularning aksariyati umumiy yondashuvlar bilan cheklanadi. Ayniqsa, milliy ta’lim tizimi sharoitida yuqori

sinf o’quvchilarida mediasavodxonlikni shakllantirishning aniq metodikasi, samarali pedagogik shart-sharoitlari va amaliy mexanizmlarini ishlab chiqish dolzarb ilmiy muammo sifatida qolmoqda. Shu jihatdan, ushbu tadqiqot mavzusi ilmiy yangilikka ega bo’lib, mavjud ilmiy bo‘shliqni to’ldirishga xizmat qiladi.

**Tadqiqot obyekti va qo’llanilgan metodlar.** Mazkur tadqiqotning obyekti sifatida umumiy o’rta ta’lim maktablarining yuqori sinf o’quvchilarida mediasavodxonlikni shakllantirish jarayoni olinadi. Xususan, 9-11-sinf o’quvchilarining axborot bilan ishlash, uni tahlil qilish, baholash hamda tanqidiy fikrlash ko’nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan ta’limiy faoliyat tizimi tadqiqot markazida turadi. Tadqiqot doirasida o‘quvchilarning mediasavodxonlik darajasi, ularning axborot manbalaridan foydalanish madaniyati, shuningdek, ta’lim jarayonida mediasavodxonlikni shakllantirishga xizmat qiluvchi pedagogik shart-sharoitlar o’rganiladi.

Tadqiqot predmeti sifatida yuqori sinf o’quvchilarida mediasavodxonlikni shakllantirishning pedagogik shart - sharoitlari, metodlari va vositalari, shuningdek, ularning samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi didaktik yondashuvlar belgilanadi.

Tadqiqotda qo’llanilgan metodlar

Mazkur tadqiqotni amalga oshirish jarayonida quyidagi ilmiy-pedagogik metodlardan foydalanildi:

Tahlil va sintez metodi - mediasavodxonlikka oid ilmiy adabiyotlar, xorijiy va mahalliy tadqiqotlar o‘rganilib, umumlashtirildi hamda nazariy xulosalar chiqarildi.

Taqqoslash (komparativ) metodi - turli mamlakatlar ta’lim tizimida mediasavodxonlikni shakllantirish tajribalari solishtirilib, ularning o’xshash va farqli jihatlari aniqlandi.

Kuzatish metodi - o’quvchilarning dars jarayonidagi faoliyati, axborot bilan ishlash uslublari hamda mediasavodxonlik ko’nikmalarining shakllanish darajasi muntazam kuzatildi.

So’rovnoma (anketa) metodi - yuqori sinf o‘quvchilari va o’qituvchilar o’rtasida mediasavodxonlikka oid fikr va munosabatlarni aniqlash maqsadida so’rovlar o‘tkazildi.

Suhbat metodi - o’quvchilar va pedagoglar bilan individual hamda guruhli suhbatlar tashkil etilib, muammo yuzasidan chuqur ma’lumotlar olindi.

Eksperiment (tajriba-sinov) metodi - mediasavodxonlikni shakllantirishga qaratilgan pedagogik shart - sharoitlar amaliyotga joriy etilib, ularning samaradorligi sinovdan o’tkazildi.

Statistik tahlil metodi - olingan natijalar matematik-statistik usullar yordamida qayta ishlanib, ularning ishonchliligi va samaradorligi aniqlashtirildi.

**Olingan natijalar va ularning tahlili.** Mazkur tadqiqot natijasida yuqori sinf o’quvchilarida mediasavodxonlikni shakllantirishning samarali pedagogik shart - sharoitlari aniqlanadi hamda ularni ta’lim jarayoniga joriy etishning amaliy mexanizmlari ishlab chiqiladi. Shuningdek, o’quvchilarning axborotni tanqidiy tahlil qilish, manbalarni solishtirish va baholash ko’nikmalarining sezilarli darajada rivojlanishi kutiladi.

Olingan natijalar tahlili shuni ko’rsatadiki, mediasavodxonlikni shakllantirishga yo’naltirilgan maxsus metodlar va interaktiv yondashuvlar o’quvchilarning mustaqil fikrlashini oshiradi, ularning axborot madaniyatini yuksaltiradi. Statistik va sifat tahlillari asosida tajriba - sinov guruhlarida nazorat guruhlariga nisbatan ijobiy o’zgarishlar kuzatilishi aniqlanadi. Bu esa taklif etilgan pedagogik shart -sharoitlarning samaradorligini ilmiy jihatdan asoslash imkonini beradi.

## XULOSA

Mazkur maqolada yuqori sinf o’quvchilarida mediasavodxonlikni shakllantirishning nazariy asoslari, pedagogik shart-sharoitlari hamda amaliy jihatlari kompleks tarzda tahlil qilindi. Bugungi globallashuv va raqamli axborot oqimi sharoitida mediasavodxonlik o’quvchilarning eng muhim

kompetensiyalaridan biriga aylanib bormoqda. Shu sababli ushbu yo‘nalishni rivojlantirish ta’lim tizimining dolzarb vazifalaridan biri sifatida qaraladi.

Tadqiqot davomida mediasavodxonlikning mazmuni va uning tarkibiy qismlari yoritilib, o’quvchilarda axborotni tahlil qilish, tanqidiy baholash va to’g’ri xulosa chiqarish ko’nikmalarini shakllantirish zarurligi asoslab berildi. Shuningdek, mediasavodxonlikni shakllantirishda pedagogik yondashuvlar, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish, o’qituvchilarning kasbiy kompetensiyasi hamda ijtimoiy muhitning ta’siri muhim omillar sifatida ko’rsatildi.

O’tkazilgan tahlillar shuni ko’rsatadiki, interaktiv ta’lim metodlaridan foydalanish, muammoli vaziyatlar yaratish va amaliy topshiriqlar berish o’quvchilarning media bilan ishlash ko’nikmalarini sezilarli darajada rivojlantiradi. Bundan tashqari, raqamli muhitda axborot xavfsizligi, manbalarni tekshirish va feyk ma’lumotlarni aniqlash bo’yicha bilimlarni shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqot natijalariga ko’ra, mediasavodxonlikni samarali shakllantirish uchun ta’lim jarayonini modernizatsiya qilish, o’quv dasturlariga zamonaviy media vositalar bilan ishlashga oid topshiriqlarni kiritish va o’qituvchilarning raqamli savodxonligini oshirish zarur. Bu esa o’quvchilarning nafaqat bilim darajasini, balki ularning mustaqil fikrlash va ongli qaror qabul qilish qobiliyatini ham rivojlantiradi.

Xulosa qilib aytganda, yuqori sinf o’quvchilarida mediasavodxonlikni shakllantirish ularning shaxsiy, intellektual va ijtimoiy rivojlanishida muhim rol o’ynaydi. Bu jarayon ularni zamonaviy axborot jamiyatida faol, ongli va mas’uliyatli fuqarolar sifatida shakllanishiga xizmat qiladi. Shu bois, mazkur yo’nalishda ilmiy izlanishlarni kengaytirish va amaliy tavsiyalarni ta’lim tizimiga joriy etish dolzarb hisoblanadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. Buckingham, D. Media Education: Literacy, Learning and Contemporary Culture. Cambridge: Polity Press, 2003.

2. Livingstone, S. Media Literacy and the Challenge of New Information Environments. London: LSE Publications, 2014.
3. Potter, W. J. Media Literacy. Los Angeles: SAGE Publications, 2019.
4. Hobbs, R. Digital and Media Literacy: Connecting Culture and Classroom. New York: Corwin Press, 2011.
5. Jenkins, H. Convergence Culture: Where Old and New Media Collide. New York: NYU Press, 2006.
6. Frau-Meigs, D. Media Literacy in the Digital Age. Paris: UNESCO Publishing, 2017.
7. Jeong, S. H., Cho, H., & Hwang, Y. Media Literacy Interventions and Outcomes: A Meta-Analysis. Journal of Communication, 2012.
8. Burn, A. Making New Media: Creative Production and Digital Literacies. London: Peter Lang, 2009.
9. Kellner, D., & Share, J. Critical Media Literacy, Democracy, and the Reconstruction of Education. Cambridge: Harvard Education Review, 2007.
10. UNESCO. Media and Information Literacy Curriculum for Teachers. Paris: UNESCO, 2011.
11. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. Ta’lim to’g’risida Qonun. Toshkent, 2020.
12. Xodjayev, B. X. Pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.
13. Jo’rayev, N. X. Ta’limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar. Toshkent: O’qituvchi, 2020.
14. Sharipov, Sh. S. Axborot texnologiyalari va ta’lim jarayoni. Toshkent: Universitet nashriyoti, 2019.
15. Azizxo’jaeva, N. N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Toshkent: TDPU, 2017.

# THE ROLE OF BORROWING IN THE FORMATION OF SOLAR ENERGY TERMINOLOGY IN MODERN CHINESE

**Karimova Khurshida Abdurashid qizi**

*PhD student of Tashkent State University of Oriental Studies*

*Tashkent, Republic of Uzbekistan*

*Telefon number: +99890 1686799*

*Email: botanichkahurshika@gmail.com*

***Annotation.*** *This study explores the role of the borrowing method in the formation of solar energy terminology in modern Chinese. The research examines the historical development of lexical borrowing in Chinese, identifying four major periods of foreign influence and the linguistic mechanisms through which new scientific terms are formed. Based on the theoretical classifications of V. I. Gorelov and Yan Sipen, Chinese borrowings are analyzed in three major categories: phonetic, phonetic-semantic, and semantic (calque) borrowings. Through analysis of data from the English-Chinese Dictionary of Solar Energy, the study identifies common structural models of eponymous and semantic terms used in the field of solar energy. The results demonstrate that semantic borrowing, particularly in the form of calques, plays a dominant role in the creation of new terminology, while phonetic-semantic borrowings are primarily used to adapt eponymous scientific terms. The paper emphasizes that the process of borrowing enriches Chinese scientific vocabulary, facilitates linguistic adaptation to global technological advances, and contributes to the internationalization of Chinese scientific discourse.*

***Keywords:*** *borrowing; Chinese language; solar energy terminology; loanwords; phonetic borrowing; semantic borrowing; phonetic-semantic borrowing; calque; linguistic adaptation; scientific language*

## INTRADUCTION

Among scientific terms, many concepts representing objects are lexical units borrowed from other languages in ready-made form. The history of the development of the language of science—from its earliest stages to the present day—has closely followed the process of borrowing terminology from foreign

languages. The proportion of borrowed units in terminological systems has always been significantly higher than in general literary vocabulary [6; 118].

The borrowing method refers to the process through which elements of one language are transferred into another as the result of contact and interaction [1;67]. Once borrowed words become fully adapted to the recipient language system, their foreign origin is no longer felt, and identifying their roots requires etymological analysis. When adaptation is incomplete, however, distinctive phonetic, orthographic, grammatical, or semantic features may still reveal their borrowed status.

The idea of borrowing words from one language into another is ancient in Chinese linguistic tradition. Scholars usually distinguish four major periods in the history of lexical borrowing in Chinese [11]:

1. The Eastern Han Dynasty (25–220 CE)
2. The late Qing Dynasty (until the first half of the 20th century)
3. The period of economic and political reforms beginning in 1978
4. The period from the 1990s to the present

As early as the Tang Dynasty (618 CE), the term 译语 (yìyǔ) meaning “translation words” or borrowed words was already in use. Systematic linguistic studies on borrowed vocabulary in Chinese appeared in the first half of the twentieth century. Several terms are currently used to denote “loanword” in Chinese, including 外来语 (wàiláiyǔ) ‘foreign words’, 借用语 (jièyòngyǔ) ‘borrowed words’, and 借字 (jièzì) ‘borrowed characters’. Among these, the most commonly used are 外来词 (wàiláicí) ‘foreign words’ and 借词 (jiècí) ‘loanwords’ [4].

According to V.I. Gorelov, all words in Chinese can be divided etymologically into two layers: native and borrowed lexicon. Borrowed vocabulary entered Chinese through processes of interlingual interaction.

Gorelov classified Chinese lexical borrowings into three main types according to the borrowing method [7]:

1. Phonetic borrowings (音译 *yīnyì*)
2. Semantic borrowings (意译 *yìyì*)
3. Phonetic-semantic borrowings (音译加意译 *yīnyì jiā yìyì*)

The Chinese linguist Yan Sipen also distinguished phonetic and semantic types of borrowing, emphasizing that phonetic borrowing is the primary method, whereas semantic borrowing reflects the tendency to widen or modify the meaning of existing native words to express new concepts [5]. Some researchers additionally identify a fourth type, graphic borrowings, referring to words whose graphic form is directly adopted from another writing system. This type is characteristically represented by borrowings from Japanese [3]. Since the terminology of solar energy in Chinese contains no borrowings of Japanese graphic origin, graphic borrowings will not be discussed further here.

**Phonetic Borrowings**

Borrowing through the phonetic method is one of the most important mechanisms of new word formation. In this process, the sound pattern of the foreign word is retained, while Chinese characters with similar pronunciation are used for its written form.

Gorelov notes that phonetic borrowings constitute a relatively small percentage of all borrowings in Chinese. The reasons are [7]:

1. The distinct phonetic structure of Chinese, and
2. Its logographic writing system.

According to I.D. Klenin, the main reason phonetic borrowings are limited in Chinese lies in its character-based writing system, where each syllable (and character) carries a specific meaning in addition to sound. Thus, every character is both a phonetic and semantic unit [9].

Examples of phonetic borrowings include: 苯 *běn* “benzene”; 安培 *ānpéi* “ampere”; 赫兹 *hèzī* “hertz”; 伏特 *fútè* “volt”; 瓦特 *wǎtè* “watt”.

**Phonetic-Semantic Borrowings**

In phonetic-semantic borrowings, the first component is phonetic, while the second component represents a native Chinese equivalent of the original meaning. In Chinese solar energy terminology, this type often appears in eponymous terms.

From the *English-Chinese Dictionary of Solar Energy* (英汉太阳能词典), 177 eponymous compound terms have been identified. Most consist of two elements following the structural model: proper noun + generic noun. The proper names, derived from scientists in physics and energy studies, are phonetically borrowed, while the generic noun represents a solar-energy-related term. Examples include:

阿克电池 *Ākè diànchí* – "Aker battery" (Aker + battery)

俄歇系数 *Éxiē xìshù* – "Auger coefficient" (Auger + coefficient)

布雷顿循环 *Bùléidùn xúnhuán* – "Brayton cycle" (Brayton + cycle)

伯格斯矢量 *Bógésī shǐliàng* – "Burgers vector" (Burgers + vector)

卡诺效率 *Kǎnuò xiàolǜ* – "Carnot efficiency" (Carnot + efficiency)

爱迪生电池 *Àidíshēng diànchí* – "Edison battery" (Edison + battery)

菲里尔集热器 *Fēilǐ'ěr jí rè qì* – "Fresnel collector" (Fresnel + collector)

高斯电池 *Gāosī diànchí* – "Gauss battery" (Gauss + battery)

霍尔系数 *Huò'ěr xìshù* – "Hall coefficient" (Hall + coefficient)

**Semantic Borrowings**

Semantic borrowings, also known as calques, emerge when foreign words or expressions are translated literally into Chinese. In contrast to phonetic borrowings, semantic borrowings are relatively easy to integrate, and over time, they often become indistinguishable from native vocabulary.

In the calque process, translation of a foreign word or phrase leads to the creation of a new lexical item in the recipient language. Thus, calquing is

recognized as a distinct and important way of borrowing. In Chinese linguistics, semantic borrowings are subdivided into full calques and semi-calques.

Among the methods of lexical expansion in Chinese, semantic borrowing plays a particularly significant role. Since these borrowings are formed from Chinese morphemes, they are graphically and phonetically indistinguishable from native words and therefore are easily integrated and widely used in speech. Example: 速溶 (sùróng) “instant, soluble,” from 速 “fast” and 溶 “dissolve” [11].

A prominent example in energy terminology is 智能电网 (zhìnéng diànwǎng) “smart grid.” It refers to the modernization and digitalization of power supply systems. The smart grid is built upon a unified and high-speed bidirectional communication network integrating technologies such as sensing and measurement, advanced equipment, and intelligent control systems. Smart grids are characterized by enhanced reliability, safety, energy efficiency, environmental sustainability, user-friendliness, and multi-source compatibility—including solar, wind, nuclear, and other energy sources [12].

The U.S. Department of Energy defines a smart grid as an electricity supply network that integrates communication and information technologies spanning from electricity generation to consumption. Its purpose is to increase operational efficiency, improve service quality, and reduce environmental impact [10].

The term 智能电网 has also inspired derivatives such as:智能生物材料 “smart biomaterials,”智能复合物 “smart composites,”智能（光）纤维 “smart (optical) fibers,”智能材料 “smart materials,”智能结构 “smart structures,”智能系统 “smart systems,”智能织物 “smart textiles,”智能窗 “smart windows,”智能窗技术 “smart window technology,” 智能电站 “smart power station.”

These terms are widely used in developing smart homes and cities, in the automotive industry, medicine and healthcare, science and technology, and in all areas of green energy.

In recent years, another widely adopted term in the energy sector is 数字电站 (shùzì diànzhàn) "digital substation," which also represents a semantic borrowing. The term is interpreted as both a technological innovation and an engineering facility. A digital substation is a modern power facility based on intelligent primary equipment (such as electronic transformers and smart switches) and networked secondary devices (process, bay, and station control layers), adhering to the IEC 61850 standard and related communication protocols [13].

This technology enables data exchange and interaction between intelligent power devices within a substation. Although it employs advanced devices such as electronic transformers and smart switches—reducing the need for massive secondary cabling—it does not yet provide full integration of digital meters and online monitoring systems.

In essence, a digital substation is a facility where all interfaces among primary equipment and protection, automation, control, monitoring, and recording systems communicate through a local area network (LAN) based on standardized models and services.

Several other terms from the *English-Chinese Dictionary of Solar Energy* feature the component 数字 "digital":数字计算机 "digital computer,"数字控制 "digital control,"数字指示器 "digital indicator,"数字式日照（时间）记录器 "digital solar irradiation (time) recorder."

## CONCLUSION

The formation of solar energy terminology in modern Chinese demonstrates the dynamic interaction between linguistic tradition and scientific innovation. Borrowing has served as a key mechanism for expanding the lexicon of scientific and technical fields, reflecting both the internal development of the

Chinese language and its response to external influences. Among the various types of borrowings, semantic borrowings (calques) have proven to be the most productive, enabling the creation of terms that are conceptually accurate and culturally integrated within the Chinese linguistic system. Phonetic-semantic borrowings, on the other hand, have facilitated the incorporation of international eponymous terms, maintaining global terminological consistency. Overall, the study confirms that borrowing is not merely a linguistic phenomenon, but also a reflection of the global diffusion of scientific knowledge and the increasing interconnection of languages in the modern era of technological advancement.

## REFERENCES

1. Nasirova S.A. Hozirgi zamon xitoy tili diplomatik terminlarining leksik-semantik va struktur tahlili: filol.fan. nomzodi diss. – Toshkent, TDSHI, 2008. – b. 150
2. Mustafayeva S.T. Xitoy tilshunoslik terminologiyasi: fil.fan. falsafa dok. (PhD)… diss. – Toshkent, TDSHI, 2017. – 150 B.
3. Ruth Vervaet. English loanwords in the Chinese lexicon. Wusbergeerte: 2017. 128 p.;
4. Shi Youwei. Loanwords in Chinese. Beijing: Commercial Press. 2013. P.205
5. Yang Xipeng. Research on Chinese Loanwords. Shanghai: Shanghai People's Press. 2007. 296 p.
6. Даниленко В.П. Русская терминология: опыт лингвистического описания. – М.: Наука, 1977. -С. 118
7. Горелов В. Лексикология китайского языка.- М.: Просвещение, 1984. – С.143
8. Иванов В.В. Терминология и заимствования в современном китайском языке. М.: Наука, 1973. С.101
9. Кленин И.Д. Звуковые заимствования в современном китайском языке (на материале военной лексики). – Труды института. Сер. «Иностранные языки», 1969, № 5, с. 203.
10. Максимова Н.В. Современная электроэнергетическая терминология: структурный и семантический аспекты: дисс. …канд. филол. наук. – Мытищи, 2020. С 97
11. Тань Ин. "Заимствования в китайском языке и их влияние на китайский язык: анализ китайских лингвистических источников" Социо- и психолингвистические исследования, no. 5, 2017, С.167
12. https://baike.baidu.com/item/智能电网
13. https://baike.baidu.com/item/数字化变电站/7859787

# AN’ANAVIYLIK VA YANGILANISH O‘RTASIDAGI ZIDDIYAT: O‘ZBEK JAMIYATI TRANSFORMATSIYASINING DIALEKTIK TAHLILI

**Maxmudov Akmal Mannonjonovich**

*Farg‘ona davlat universiteti tadqiqotchisi*

*tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

*e-mail: a.maxmudov @mail.ru*

***Annotatsiya.*** *Ushbu tezisda O‘zbekiston jamiyatida kechayotgan ijtimoiy transformatsiya jarayonlari an’anaviylik va yangilanish o‘rtasidagi dialektik munosabatlar nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Jamiyat taraqqiyotida tarixiy meros, milliy qadriyatlar hamda zamonaviy modernizatsiya tendensiyalarining o‘zaro ta’siri ochib beriladi. Shuningdek, an’anaviy va innovatsion rivojlanish omillari o‘rtasidagi ziddiyatlarning ijtimoiy-falsafiy mohiyati yoritilib, ularning O‘zbekiston taraqqiyotidagi o‘rni asoslab beriladi.*

***Kalit so‘zlar:*** *an’anaviylik, yangilanish, transformatsiya, modernizatsiya, dialektika, milliy qadriyatlar, ijtimoiy taraqqiyot, innovatsiya.*

***Аннотация.*** *В данном тезисе процессы социальной трансформации, происходящие в обществе Узбекистана, анализируются с точки зрения диалектических взаимоотношений между традиционностью и обновлением. Раскрывается взаимное влияние исторического наследия, национальных ценностей и современных тенденций модернизации на развитие общества. Кроме того, освещается социально-философская сущность противоречий между традиционными и инновационными факторами развития, а также обосновывается их роль в развитии Узбекистана.*

***Ключевые слова:*** *традиционность, обновление, трансформация, модернизация, диалектика, национальные ценности, общественное развитие, инновации.*

***Abstract.*** *This thesis analyzes the processes of social transformation taking place in Uzbek society from the perspective of the dialectical relationship between tradition and renewal. It reveals the interaction between historical heritage, national values, and contemporary modernization trends in the development of society. Furthermore, the socio-philosophical essence of the contradictions between traditional and innovative factors of development is examined, and their role in the progress of Uzbekistan is substantiated.*

***Keywords:*** *tradition, renewal, transformation, modernization, dialectics, national values, social development, innovation.*

## KIRISH

XXI asrda dunyo miqyosida yuz berayotgan globallashuv, raqamlashtirish va innovatsion rivojlanish jarayonlari milliy jamiyatlar oldiga yangi vazifalarni qo‘ymoqda. Bunday sharoitda har bir xalq o‘zining tarixiy ildizlari va madaniy merosini saqlagan holda zamonaviy taraqqiyot talablariga moslashishga intiladi. O‘zbekiston ham mustaqillik yillarida an’anaviy qadriyatlarni asrash hamda modernizatsiya jarayonlarini jadallashtirish yo‘lidan bormoqda.

Ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan qaralganda, an’anaviylik va yangilanish bir-biriga qarama-qarshi hodisalar sifatida emas, balki taraqqiyotning o‘zaro bog‘liq dialektik tomonlari sifatida namoyon bo‘ladi. Dialektik qonuniyatlarga ko‘ra, har qanday rivojlanish ichki ziddiyatlar orqali yuz beradi va aynan shu ziddiyatlar taraqqiyotning harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi[1].

**An’anaviylikning ijtimoiy taraqqiyotdagi o‘rni.** An’anaviylik jamiyatning tarixiy xotirasi, madaniy tajribasi va ma’naviy merosini o‘zida mujassamlashtiruvchi muhim ijtimoiy hodisadir. U avlodlar o‘rtasidagi vorisiylikni ta’minlaydi, milliy o‘zlikni shakllantiradi va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlaydi. O‘zbek jamiyatida oila, mahalla, kattalarga hurmat, mehr-oqibat va jamoaviylik kabi qadriyatlar an’anaviylikning asosiy ko‘rinishlari sifatida namoyon bo‘ladi [2].

Shu bilan birga, an’analar faqat o‘tmish merosi emas, balki jamiyatning bugungi va kelajakdagi rivojlanishiga ta’sir etuvchi muhim omildir. Chunki har qanday modernizatsiya jarayoni tarixiy-madaniy zaminga tayanmasa, uning samaradorligi pasayadi. Shu jihatdan, an’anaviylik jamiyatning ma’naviy immunitetini ta’minlovchi mexanizm sifatida ham namoyon bo‘ladi.

Biroq ayrim hollarda konservativ qarashlarning ustuvorligi innovatsion o‘zgarishlarning sekinlashishiga sabab bo‘lishi mumkin. Ayniqsa, gender

tengligi, yoshlar siyosati, ta’lim tizimi va iqtisodiy islohotlar sohasida eski stereotiplarning saqlanib qolishi modernizatsiya jarayonlariga ma’lum darajada to‘siq bo‘lishi ehtimoldan xoli emas.

**Yangilanish va modernizatsiyaning falsafiy mohiyati**

Yangilanish jamiyatning yangi ehtiyojlari va talablariga mos ravishda rivojlanishini ifodalovchi jarayondir. U innovatsiyalarni joriy etish, yangi institutlarni shakllantirish va ijtimoiy munosabatlarni takomillashtirish bilan bog‘liq. Modernizatsiya nazariyalariga ko‘ra, jamiyat taraqqiyoti iqtisodiy, siyosiy va madaniy tizimlarning uzluksiz yangilanib borishini taqozo etadi [3].

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar ham yangilanishning amaliy ifodasi hisoblanadi. Davlat boshqaruvining ochiqligi, raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi, ta’lim tizimining modernizatsiyasi va fuqarolik jamiyati institutlarining rivojlanishi shular jumlasidandir.

Yangilanishning muhim jihati shundaki, u jamiyatni global rivojlanish tendensiyalariga integratsiyalash imkonini beradi. Biroq modernizatsiya jarayonlari milliy xususiyatlarni inkor etmasligi lozim. Aks holda, madaniy identifikatsiya inqirozi yuzaga kelishi mumkin. Shu sababli zamonaviy taraqqiyot modeli milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligiga asoslanishi zarur.

**An’anaviylik va yangilanish o‘rtasidagi dialektik ziddiyat.** Dialektik falsafaga ko‘ra, har qanday rivojlanish qarama-qarshiliklarning birligi va kurashi asosida sodir bo‘ladi. An’anaviylik va yangilanish o‘rtasidagi munosabat ham aynan shunday xarakterga ega. Bir tomondan, an’analar jamiyatning barqarorligini ta’minlasa, ikkinchi tomondan, yangilanish uning dinamik rivojlanishiga xizmat qiladi.

O‘zbekiston tajribasi shuni ko‘rsatadiki, mazkur ikki omilning mutanosibligi ijtimoiy taraqqiyotning muhim shartidir. Masalan, mahalla institutining zamonaviy boshqaruv tizimi bilan uyg‘unlashuvi yoki milliy ta’lim

an’analarining innovatsion pedagogik texnologiyalar bilan boyitilishi dialektik sintezning amaliy ko‘rinishlaridir[4].

Bugungi kunda yoshlar ongida milliy qadriyatlar va global madaniyat unsurlarining bir vaqtda shakllanayotganligi ham mazkur jarayonning murakkabligini ko‘rsatadi. Natijada yangi ijtimoiy identifikatsiya modeli yuzaga kelmoqda. Ushbu model milliy o‘zlikni saqlash bilan birga, zamonaviy dunyo talablariga moslashishni ham nazarda tutadi.

Demak, an’anaviylik va yangilanish o‘rtasidagi ziddiyat destruktiv emas, balki konstruktiv xarakterga ega bo‘lib, jamiyat rivojlanishining ichki manbai sifatida namoyon bo‘ladi. Dialektik nuqtai nazardan, ularning o‘zaro inkori emas, balki uyg‘unlashuvi taraqqiyotning eng maqbul yo‘li hisoblanadi.

## XULOSA

O‘zbek jamiyati transformatsiyasi jarayonida an’anaviylik va yangilanish o‘rtasidagi munosabatlar murakkab dialektik xarakter kasb etmoqda. An’analar jamiyatning tarixiy-madaniy asoslarini mustahkamlasa, yangilanish uning zamonaviy rivojlanishini ta’minlaydi. Mazkur ikki omilning o‘zaro uyg‘unlashuvi milliy taraqqiyotning muhim sharti hisoblanadi.

Shunday ekan, O‘zbekistonning istiqboldagi rivojlanish modeli tarixiy meros va innovatsion taraqqiyotning integratsiyasiga asoslanishi lozim. Bu esa milliy o‘zlikni saqlash bilan birga, global jarayonlarda munosib ishtirok etish imkonini beradi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Hegel G.W.F. *Falsafa tarixi bo‘yicha ma’ruzalar*. – M.: Mysl, 1993. – B. 112.
2. Sher A. *Falsafa*. – Toshkent: O‘zbekiston, 2020. – B. 245.
3. Giddens A. *The Consequences of Modernity*. – Stanford University Press, 1990. – P. 64.
4. Mirziyoyev Sh.M. *Yangi O‘zbekiston strategiyasi*. – Toshkent: O‘zbekiston, 2022. – B. 156.

# MILLIY QADRIYATLARDAN, AN'ANA VA URF-ODATLAR YAXLIT TIZIM SIFATIDA BOLALARNI AXLOQIY TARBIYALASHDAGI O'RNI

**Xolmuminova Oygul Jumayevna**

*Termiz davlat pedagogika instituti*

*V.b professori p.f.f.d dotsent*

**Abdinazarova Bibiaysha Erkin qizi**

*Termiz davlat pedagogika instituti*

*1-bosqich magistranti*

bibiayshaabdinazarova@gmail.com

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada bugungi kunda dolzarb masala bo‘lib kelayotgan bolalarning axloqiy tarbiyasida milliy qadriyatlar, an’analar va urf-odatlarning ahamiyati haqida yoritilgan. Maqolada ilmiy manbalar asosida mavzu tahlil qilindi. Bundan tashqari oila muhitidagi ahamiyati yoritib berildi. Tadqiqotda milliy qadriyatlar asosida vatanparvarlik, mehnatsevarlik, halollik kabi sifatlar oddiy tushuncha emas, balki bu yaxlit tizim bilan mustahkamlanish, yanada umumlashgani korsatib o‘tilgan. Maqolada tarbiya usullari, oilaviy suhbatlar, hashar kabi marosimlar ham milliylik asosi sifatida yoritib berilgan. Maqolada shuningdek globallashuv davri bo‘lganligi sababli zamonaviy pedagogic yondashuvlar bilan boyitib, yoritildi.*

***Kalit so‘zlar:*** *milliy qadriyat, urf-odat, an’ana, axloqiy tarbiya, vatanparvarlik, milliy o‘zlikni anglash,oila muqaddas, hamjihatlik.*

***Annotation****.This article highlights the importance of national values, traditions, and customs in the moral upbringing of children, which remains a pressing issue today. The topic is analyzed on the basis of scientific sources, and the significance of the family environment in this process is also elaborated. The study demonstrates that qualities such as patriotism, diligence, and honesty, rooted in national values, are not merely abstract concepts but are reinforced and further consolidated through an integrated system of traditions and customs. The article also examines upbringing methods, family conversations, and communal practices such as *hashar* as fundamental expressions of national identity. Furthermore, given the realities of the globalization era, the subject is explored in conjunction with modern pedagogical approaches, enriching the overall discussion.*

***Keywords:*** *national values, customs, traditions, moral upbringing, patriotism, national self-awareness, family sanctity, solidarity.*

## KIRISH

Bugungi kunda dunyo tez sur’atlarda rivojlanayotgan internet zamonida milliy qadriyatlar, an'ana va urf-odatlarning bola shaxsini shakllantirishdagi o'rni o‘zbek xalqi uchun juda muhim ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni va 2020-yil 27-maydagi "Yosh avlodni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida ham yosh avlodning tarbiyasini ertangi kun poydevori sifatida muhim ahamiyatlardan biri sifatida ko‘rsatib o‘tilgan.

Milliy qadriyatlar — vatanparvarlik, halollik, mehnatsevarlik, kattalarni hurmat qilish — yosh avlod ongiga faqat so'z orqali emas, balki an'ana va urf-odatlar, oilaviy muhit, hashar va marosimlar vositasida tabiiy singdirib boriladi. Rim mutafakkiri Cicero : "Insonning asosi uning tarbiyasida, tarbiyasining asosi esa oiladadir." – deb ta’rif berib o‘tgan. Bu ta’rif juda asosli va bugungi kunda bola tarbiyasidagi oila na’munasini keng tushuncha ekaniga urg‘u beradi. Ushbu maqolada milliy qadriyatlar, an’ana va urf-odat yaxlit tizim sifatida bolalarning axloqiy tarbiyasida ilmiy manbalar asosida tahlil qilindi va zamonaviy yondashuvlar bilan uyg‘unlashtirildi.

## ASOSIY QISM

Milliy qadriyatlar – bu termin faqtgina ma’lum bir xalq yoki millatga tegishli bo’lgan, necha zamonlardan, tarixiy rivojlanishlardan, aholi turmush tarzi, dunyoqarashlari, urf-odatlarini o‘zida mujassamlashtirgan, uyg‘unlashtirgan, yillar davomida boyitib, jamlab kelgan ma’naviy boyliklar yig‘indisidir. Milliy qadriyatlarni bir necha turlarga bo’lib o‘rganish mumkin. Ular quyidagilar:

1. Ma’naviy-axloqiy qadriyatlar: insonlar o‘rtasidagi samimiy munosabatlar va fazilatlariga oid: halollik, hurmat, adolatparvarlik, o‘zidan kattalarga hurmat, mehr-muhabbat, rostgo‘ylik kabilar.

2. Moddiy qadriyatlar: bu qadriyat millatning turmush tarzidagi va moddiy madaniyatidagi moddiy qadriyatlar: xalq milliy kiyimlari ( do‘ppi, adras,chopon, beqasam to‘n), tarixiy obidalari ( G‘o‘ri Amir maqbarasi, Kalon minorasi, Ark qal’asi), qo‘l mehnati buyumlari ( haykaltaroshlik, zardo‘z, kashta).

3. Diniy qadriyatlar: Islom dinida mavjud bo‘lgan amallar, urf-odatlar, bayramlar, e’tiqodlar va ziyoratgohlar.

4. Oilaga asoslangan qadriyatlar: oilaviy mehr-muhabbat, hurmat, tinchlik, nikoh, farzand tarbiyasi, ota-onaga e’tibor va g‘amxo‘rlik.

5. Jamiyatga oid qadriyat: jamoa hayotidagi muammolar, qo‘shnichilik, mahalladoshlik, el hasharlari.

6. Bayram va urf-odatlarga oid qadriyatlar: jamiyat uchun umumiy bo‘lgan diniy va dunyoviy bayramlar, marosimlar,to‘y-yig‘inlar. Bayramlarda odat bo‘lgan an’analar, turli rasm-rusumlar.

7. Tabiatni asrash qadriyati: bunda tabiatda mavjud bo‘lgan jonli va jonsiz tabiatni asrash, tabiatning har bir qatlamini hurmat va mehr ila yanada boyitish, asrab-avaylash.

Milliy qadriyatlar har bir insonning qon qoniga singib ketgan, avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan tarbiyaning asosiy o‘chog‘idir. Har bir millatda eng ulug‘ ne’mat bola sanaladi. Ammo bolalarni yurt uchun manfaatli va kerakli yetuk inson qilib tarbiyalash har bir inson va yurt uchun eng muhim omil sifatida qaralmoqda. Milliy qadriyatlar asosida bolalar avvalo milliy o‘zligini angalab olishadi. Bolalarda mamlakat tarixi, milliyligi, tili, dinini o‘rganish orqali kimligini, millatini, ijtimoiy va tarixiy kelib chiqishi, ajdodlarni tanish va ulardan qolgan tarix yordamida esa qanday insonlarning avlodi

ekanligini his qilish va ualarga munosib farzand bo‘lmoq uchun qo‘lidan kelgan barcha ishni qilish haqidagi qarorlari uni ma’naviy jihatdan boyitib boradi.

An’analar – bu jamiyat tomonidan yaratilgan, uzoq vaqtlar davomida sinalgan va sinovdan o‘tib kelgan, avloddan – avlodlarga o‘tib kelayotgan og‘izaki yoki amaliy na’munalar, munosabatlar va urf – odatlar majmui sanaladi. Qadriyat va an’ana bir – birini to‘ldirib turuvchi unsurlar sanaladi. Masalan, qadriyat shaxiy sifatlarni o‘zida mujassamlashtirgan mavhum g‘oya bo‘lsa ( bag‘rikenglik, adolatlilik, hurmat), an’ana esa uning amaliyotdagi aksi sanaladi, ya’ni amaliy jarayonlarda aks etadi ( kattalar bilan salomlashish odobi, mehmon kuzatish odobi).An’analar bir qancha turlarga bo‘lib tahlil qilinadi:

Oilaviy an’analar: oilalarda o‘zaro munosabatlar: ota-onaga hurmat, oilaviy qadriyatlarni asrash, bobo-buvi o‘g‘itlariyu-pand nasihatlarini olmoq;

Marosim bayramlarga oid an’analar: xalq qadriyatlariga oid udumlar: to‘y marosimlari, Navro‘z, hayit bayramlari, beshik va sunnat to‘ylari kabilar.

Qo‘l mehnati: ustoz-shogird an’analari, hunarmandchilik, me’morchilik va o‘ymakorlik an’analari.

Diniy an’analar: diniy bayramlar, ro‘za tutish, ziyoratgohlarga hurmat, namoz farzlari va ularning tartib qoidalariga rioya qilish va hurmat bildirish.

Bu an’ana turlari bolalarda ham amaliy ham nazariy jihatdan bolalarning rivojlanishi, ma’naviy boyishi uchun xizmat qiladi. Marosim va bayramlarning his tuyg‘uni boyitishi ( quvonch, birgalik, hayajon, quvnoqlik) bolalarda ijobiy taassurotlar uyg‘otadi.

Urf – odatlar xalq hayotida qaysidur voqea yoki hodisaga bog‘liq holda shakllangan, muayyan vaziyat va tartib – qoidalarga ega bo‘lgan rasm-rusumlar jamlanmasi sanaladi. An’ana va urf-odat juda o‘xshash tushunchalardir, bir qaraganda ikkalasi bir ma’noni anglatadi. Ammo urf-odat ma’lum qoidalarga bo‘ysunadigan voqeylikdir.Bayramlarga hurmat, oilalardagi hurmat, farzand tarbiyasi kabitushunchalar an’analar bo‘lsa, urf – odatlarga quyidagilar misol bo‘la oladi: bola tug‘ilganda ism qo‘yish, chilla marosimlari, beshik to‘yi, sunnat

to‘y, nikoh, navro‘zdagi sumalak pishirilishi, Qurbon va Ramazon hayitidagi qurbonliklar, iftorliklar, insonlar vafoti bilan bog‘liq urf-odatlar mavjuddir.

## XULOSA

Xulosa qilib aytganda, milliy qadriyat, an’ana, urf-odat bir birini to‘ldiruvchi, ajralmas, ammo har birining o‘z vazifalari mavjud bo‘lgan yaxlit bir tizimdir. Bu uchchala atamani hech qachon yakka holda bolalar tarbiyasi uchun asos qilib ajratib olib bo‘lmaydi. Bolada milliy o‘zlikni, o‘z yurtiga mansublik tuyg‘ularini, odob-axloq me’yorlarini,tarixiy-madaniy meroslar va ajdodlar meroslariga hurmat va e’tiqodni anglatish uchun bu uchchala yaxlitlik doimo bir butunlikda olib borilishi lozim sanaladi.

Demak, milliy qadriyatlar bolalarni shaxsiy yetuk bo‘ib shakllanishi, yurt ravnaqi uchun munosib, ma’naviyatli, iymon – e’tiqodli, barkamol inson bo‘lib voyaga yetishi, oilasi, millati uchun sadoqatli, mas’uliyatli inson bo‘lib kamol topishidagi nazariy emas, balki amaliy ishtirokchi va jonli kuzatuvchi sifatida qatnashish imkonini beruvchi boy merosdir. Bolalarni axloqan yetuk, milliy va ma’naviy ongni shakllantiruvchi, jamiyat ravnaqida munosib kadrlarni tayyorlab berishda xizmat qiluvchi amaliy negiz bu – milliy qadriyatlardir.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2022, 28 yanvar*). Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida (PF-60-son Farmon).* https://lex.uz/docs/5841063
2.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2020, 27 may). *Yosh avlodni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida* (PQ-4708-son Qaror).
3.Hasanboyeva,O, Xoliqov,D va Jamilova,N.(2007). *Oila Pedagogikasi*.O‘qituvchi.
4.Ibrohimov, A. (2021). *An'anaviy tarbiya va zamonaviy pedagogika*. Pedagogika va psixologoya jurnali.
5.Nishonova,S.(2018). *Oila va bola tarbiyasi tarbiyasi*. O‘qituvchi.
6.Mavlonova, R. (2019). *Milliy qadriyatlar asosida o'quvchilarni tarbiyalash*. TDPU.

# THE REFLECTION OF KARMANA'S HISTORY IN MEDIEVAL HISTORICAL SOURCES

**Rashidov Sunnatillo Rashid ugli**

*PhD Student at Sharof Rashidov Samarkand State University*

*ORCID: 0009-0003-0468-6097*

*sunnatillorashidov050@gmail.com*

***Abstract:*** *This article discusses the representation of Karmana District in medieval historical sources. Karmana is a region with a long and rich history, and its location along the Great Silk Road contributed not only to its economic development but also to the strengthening of its political significance and status.*

***Keywords:*** *"Shah Yuli" (Royal Road), "Bei Shi," "Tang Shu," "History of Bukhara," "Hudud al-'Alam," al-Istakhri, al-Narshakhi, Ibn Hawqal.*

## INTRODUCTION

Karmana, located on the ancient "Royal Road" (Shah Road) between the two major cities of Samarkand and Bukhara, on the eastern frontier of the Bukhara Sogd, served as an important center with significant economic and military-strategic importance. The region occupies a highly favorable geographical position: it is bordered by the Qoratog' ranges of Nurata to the north, the Kyzylkum Desert to the northwest, the Ziyovuddin–Zirabuloq mountain ranges to the south, and fertile gardens and cultivated lands to the east.

Although Karmana is currently part of Navoi Region, it cannot be separated from Bukhara in historical terms. Situated along the Great Silk Road, this city was located in the eastern part of the Bukhara oasis and served as the administrative center of the Karmana Bekdom. Traditionally, the bekdom was governed by the lawful heir to the throne of the Bukhara Khanate, which further enhanced Karmana's political significance within the region.

## MAIN BODY

The ancient history of the region is only sparsely reflected in written sources. Historical records provide limited information about the early

development of Karmana and its surrounding areas. In describing the campaigns of Alexander the Great along the lower reaches of the Zarafshan River at the end of the fourth century BCE, Greek authors mention only that a number of Sogdian fortresses were burned and destroyed during his military expeditions. These accounts constitute some of the earliest written references to the region, although they offer little detailed information about its political, economic, or cultural life at that time.

Further information about the history of Karmana, an ancient settlement in present-day Navoi Region, can be found in the medieval Chinese chronicle “Bei Shi”, dating to the 6th century. In this source, the territory is referred to as Xiao An (Lesser An), a name derived from An (Greater An), which corresponds to the Bukhara oasis. In the later Chinese chronicle “Tang Shu” (7th century), the region is mentioned as Xiao An or Hohan (Eastern An). The chronicle states that Xiao An or Hohan, identified with Khargankat–Karmana, was subordinate to the state of An (Bukhara).

According to these records, Xiao An or Hohan included twelve major cities and nearly one hundred fortifications. In 627 CE, the rulers of Bukhara and Karmana-at a time when the tenth generation of Karmana’s ruling dynasty was in power-sent envoys bearing gifts to the Chinese emperor. The Chinese chronicles also emphasize that during this period the large and small principalities of Sogdiana were governed by Turkic rulers. It is possible that the Chinese term Hohan originated from the name Khargankat.

The subsequent transfer of the administrative center of this territory to Karmana, probably during the seventh or eighth centuries, significantly accelerated the city’s development. Its favorable geographical location at the crossroads of major trade routes contributed to its economic growth and increasing political importance[1].

[1] Савриев, Ж. (2024). ЎРТА ЗАРАФШОН ВОҲАСИДА – КАРМАНА ШАҲРИНИНГ НОМЛАНИШИ ВА ТОПОГРАФИЯСИ. *"Science Shine" International Scientific Journal, 14*(1). 279-бет.

The name Karmana appears in numerous medieval sources in various forms, including Karmina, Karminiya, and Kerminiya. These different spellings reflect the linguistic traditions of the authors and the historical periods in which the sources were written.

Another of the earliest references to Karmana can be found in the Chinese medieval chronicle “Tang Shu” (7th century) as well as in the works of al-Tabari. While describing the ancient “Royal Road” that connected Samarkand and Bukhara, these sources mention Kerminiya as one of the important stations along this route. The city is portrayed as a bustling caravan stop that emerged and developed due to its strategic location on a major trade artery. Its position on the route facilitated commercial exchange, communication, and cultural interaction between different regions, contributing significantly to its economic prosperity and regional importance. Over time, Karmana evolved into a notable urban center that played an essential role in the trade networks of Central Asia[2].

The 10th-century historian Abu Bakr Muhammad ibn Ja‘far al-Narshakhi, in his book “History of Bukhara”, described Karmana, the first village of Bukhara, as follows: “Karmina is one of the villages of Bukhara. Its water comes from the water of Bukhara (the Zarafshan River), and its land tax is added to the tax of Bukhara. It also has a separate village belonging to it. A congregational mosque has been established there. There were many scholars and poets in Karmina. According to a proverb, in ancient times Karmina was called Badiyai Khurdak (‘The Little Pitcher in the Steppe’). The distance from Bukhara to Karmina is fourteen farsakhs.”

Another important source, written in 982–983 CE, is “Hudud al-‘Alam” (The Regions of the World), in which Karmina is described as one of the cities of Sogdiana. The city is said to be located on the road from Bukhara to

[2] Хўжаназаров М., Раҳимов К. А., Саидов М.М., Холматов А.Н., Эргашев О.Т. (2025) КАРМАНА АРХЕОЛОГИЯ ОТРЯДИ МАТЕРИАЛЛАРИ. Самарқанд. 6-бет.

Samarkand and is characterized as a prosperous land rich in blessings, with abundant flowing water and numerous trees[3].

Some Arab geographers, including Ibn Hawqal (10th century), al-Istakhri (d. 957), and al-Muqaddasi (1147–1223), also provided information about the history of Karmana in their works. Based on the information contained in these sources, it can be concluded that Karmana was one of the major cities of Mawarannahr during the 10th century. In particular, Ibn Hawqal lists Karmana among the large cities located outside the walls of Bukhara and provides the following description of its location and population: “Karminiya is larger than Tawawis, more populous, and possesses more fertile land. Khudimankan is a town dependent on Karminiya and forms part of its territory. Karminiya borders Khargankat and Madyomijkat. Their populations are nearly equal in number and similar in character. Karminiya also has a number of villages under its administration”[4].

The geographer Abu Ishaq al-Farisi al-Istakhri, who lived during the 9th–10th centuries, also provided information about Karmana in his work “Kitab al-Masalik wa al-Mamalik” (The Book of Routes and Kingdoms). He writes: “Karminiya is larger than Tawawis, more prosperous, more populous, and more fertile. Khudimankan belongs to Karminiya, while Khargankat and Mazyamajkat are situated opposite it; they are similar to one another in size and prosperity. Karminiya has many villages.

Sogd adjoins Bukhara from the east and begins from Karminiya. Beyond it lie Dabusiya, Rabinjan, Kushaniya, Ishtikhan, and Samarkand. These constitute the heart of Sogd. Although some consider Bukhara, Kesh, and Nasaf to be part of Sogd, we distinguish them separately...” This account demonstrates the importance of Karmana as a major urban and agricultural center in the region

[3] Абу Бакр Муҳаммад ибн Жаъфар ан-Наршахий (2011). *Бухоро тарихи*. Форс тилидан А. РАСУЛЕВ таржимаси Масъул муҳаррир А. ЎРИНБОЕВЯнги аср авлоди. 9-бет

[4] Ибн Ҳавқал (2011) КИТОБ СУРАТ АЁ-АРД. Араб тилидан таржима ва изохдар муаллифи, тарих фанлари доктори, профессор Ш. С. Камолиддин. «Узбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти 49-бет.

and highlights its strategic position on the eastern boundary of Bukhara and at the entrance to Sogdiana.[5].

In addition, the name Karmina is mentioned in a number of historical works, including “The History of Amir Timur” by Ibn Arabshah, “The History of the Four Uluses” by Mirzo Ulugh Beg, “Zafarnama” by Sharafuddin Ali Yazdi, “Baburnama” by Mirzo Babur, “Samariya” by Abu Tahirkhoja Samarqandi, and “Ubaydullanama” by Mir Muhammad Amin Bukhari, as well as in many other sources.

The appearance of this name in the works of renowned scholars, historians, and writers demonstrates that Karmana occupied a prominent position and enjoyed considerable historical, political, and cultural significance throughout different periods of Central Asian history..

## CONCLUSION

The representation of Karmana’s history in medieval sources highlights the significant role this region played in the political, economic, and cultural life of Central Asia. Historical records confirm Karmana’s development in connection with the Great Silk Road, its long-standing urban traditions, and its status as an important center of science, literature, and culture.

The information preserved in medieval chronicles, geographical works, and historical accounts demonstrates that Karmana occupied a prominent position within the Bukhara oasis and the broader region of Mawarannahr. These sources provide valuable evidence for understanding the city’s historical development, administrative importance, and contribution to regional trade and cultural exchange. Therefore, the study of medieval written sources contributes to a deeper understanding of Karmana’s past and serves as an important foundation for the scholarly assessment and preservation of its rich historical heritage.

## THE LIST OF USED LITERATURE

[5] Истахрий (2019) Китаб ал-масалик вал-мамалик. Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси «Фан» нашриёти давлат корхонаси Тошкент. 238-257 бетлар,

1. Истахрий (2019) Китаб ал-масалик вал-мамалик. Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси «Фан» нашриёти давлат корхонаси Тошкент.
2. Rashidov S. (2025) Karmana tarixiga doir ayrim mulohazalar. Xorazm Ma'mun akademiyasi axborotnomasi. Xiva. 2025-9/3.
3. Saidov M.M, Raximov K.A, Xolmatov A.N. O'zbekistonning arxeologik yodgorliklari katalogi, 7 tom, Navoiy viloyati. Samarqand – 2023.
4. Абу Бакр Муҳаммад ибн Жаъфар ан-Наршахий (2011). Бухоро тарихи. Форс тилидан А**.** Расулев таржимаси Масъул муҳаррир А**.** ЎРИНБОЕВЯнги аср авлоди.
5. Ибн Ҳавқал (2011) Китоб сурат аё-ард. Араб тилидан таржима ва изохдар муаллифи, тарих фанлари доктори, профессор Ш. С. Камолиддин. «Узбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти
6. Муҳаммаджонов А. "Кармина" ёки "Кармана" топониминиг этимологияси ҳақида. Ўзбекистон тарихи. 1999. 2-сон,
7. Савриев, Ж. (2024). Ўрта Зарафшон воҳасида – Кармана шаҳрининг номланиши ва топографияси. "Science Shine" International Scientific Journal, 14(1).
8. Саидов М.М, Рахимов К.А, Холматов А.Н, Хўжамов С.Ҳ, Омонов Д.С Кармана туманида олиб борилган дастлабки археологик тадқиқотлар // Марказий Осиё халқларининг ижтимоий-иқтисодий, сиёсий тарихи, моддий ва маънавий маданияти (қадимги даврдан ҳозирги кунгача) (республика илмий-амалий конференция материаллари) Самарқанд 2023.
9. Хужаназаров М., Грицина А.А., Мирзаахмедов Д.К. Археологические исследования карманинского отряда.// Археологические исследования в Узбекистане - 2001 год. Тошкент, 2002.
10. Хўжаназаров М., Раҳимов К. А., Саидов М.М., Холматов А.Н., Эргашев О.Т. (2025) Кармана археология отряди материаллари. Самарқанд.
11. Хўжаяазаров М., Мирзаахмедов Д.К., ГрицинаА.А, Рахимов К.А.. Кармана ва унинг атрофида олиб борилган археолопж ишлар // Ўзбекистонда археологик тадқиқотлар 2000-йил. Самарқанд. 2001.
12. Ҳудуд ул-олам. (2008) Форс тилидан таржима. сўз боши. изоҳлар ва жой номлари кўрсаткичи муаллифи Омонилло Бўриев. Тошкент.

# MEHNAT QONUNCHILIGI VA UNING TARIXIY AHAMIYATI

**Ahmadaliyev Jasurbek**

*Farg'ona davlat unverisiteti*

*Huquqshunoslik fakulteti yurisprudensiya*

*yo'nalishi talabasi*

*ahmadalievjasurbek8@gmail.com*

***Annotatsiya:*** *Mazkur maqolada mehnat qonunchiligining shakllanishi va rivojlanishi bosqichlari chuqur ilmiy tahlil etiladi. Jahon mehnat huquqi taraqqiyoti, xalqaro mehnat tashkilotining normativ-huquqiy hujjatlari hamda O'zbekiston Respublikasida mehnat qonunchiligi rivojlanishining tarixiy bosqichlari keng o'rganilgan. Shuningdek, mehnat qonunchiligining inson huquqlarini kafolatlash va huquqiy davlat qurilishidagi o'rni nazariy va amaliy jihatdan yoritilgan.*

***Kalit so'zlar****: mehnat qonunchiligi, tarixiy taraqqiyot, huquqiy davlat, xalqaro mehnat huquqi, inson huquqlari, Mehnat kodeksi, ijtimoiy adolat.*

***Аннотация****: В данной статье всесторонне анализируются этапы становления и развития трудового законодательства. Особое внимание уделяется эволюции международного трудового права, нормативным документам Международной организации труда, а также этапам развития трудового законодательства в Республике Узбекистан. Кроме того, раскрывается значение трудового законодательства в обеспечении прав человека и построении правового государства.*

***Ключевые слова:*** *трудовое законодательство, историческое развитие, правовое государство, международное трудовое право, права человека, Трудовой кодекс, социальная справедливость.*

***Annotation****: This article provides a comprehensive analysis of the stages of formation and development of labor legislation. Special attention is given to the evolution of international labor law, the normative acts of the International Labour Organization, and the stages of development of labor legislation in the Republic of Uzbekistan. The role of labor legislation in ensuring human rights and building a rule-of-law state is also examined from theoretical and practical perspectives.*

***Keywords:*** *labor legislation, historical development, rule of law, international labor law, human rights, Labour Code, social justice.*

## KIRISH

Mehnat insoniyat taraqqiyotining eng muhim mezonlaridan biri hisoblanadi. Insonning mehnat faoliyatisiz na moddiy ishlab chiqarish, na ijtimoiy hayot, na madaniy taraqqiyot mavjud bo‘lishi mumkin emas. Shu bois mehnat munosabatlarini tartibga soluvchi huquqiy me’yorlar qadimdan mavjud bo‘lib, ular jamiyat taraqqiyoti bilan uyg‘un holda rivojlanib kelmoqda. Mehnat qonunchiligi tarixini o‘rganish bizga nafaqat huquqiy tafakkurning evolyutsiyasini, balki ijtimoiy adolat va inson huquqlarining shakllanish bosqichlarini ham anglash imkonini beradi [1]. Asosiy qism: Qadimgi davrlarda mehnat qonunchiligining ildizlari Qadimgi Sharq davlatlarida mehnat munosabatlarini huquqiy tartibga solish jamiyat ehtiyojidan kelib chiqqan. Masalan, Xammurapi qonunlarida xo‘jayin va qul o‘rtasidagi majburiyatlar, ishning hajmi va sifatiga doir talablar, mehnatni suiiste’mol qilish uchun jazo choralarini belgilovchi normalar mavjud edi [2]. Bu huquqiy qoidalar o‘sha davr jamiyatida mehnatning iqtisodiy va ijtimoiy hayotdagi markaziy o‘rni borligini ko‘rsatadi. Qadimgi Misrda piramidalar va ibodatxonalar qurilishida minglab kishilar jalb etilgan bo‘lsa, ularning mehnati ham maxsus yozuvlar asosida hisobga olingan. Qadimgi Rim huquqida esa shartnomaviy mehnatning ilk ko‘rinishlari paydo bo‘lgan [3]. O‘rta asrlarda mehnat huquqi O‘rta asrlarda Yevropada feodalizm hukmron bo‘lib, dehqonlar yerga bog‘lab qo‘yilgan, ular barshchina va obroklar orqali feodallarga xizmat qilishgan. Shu bilan birga, shaharlarning rivojlanishi va tsex tizimining paydo bo‘lishi bilan ustalar va shogirdlar o‘rtasidagi mehnat munosabatlarini tartibga soluvchi huquqiy hujjatlar shakllandi [4]. Movarounnahr va islom huquqi tizimida mehnatning qadri yuqori baholangan. Qur’oni Karim va hadis manbalarida halol mehnat eng ulug‘ qadriyat sifatida e’tirof etilgan. Mehnat evaziga olingan daromad halol hisoblangan, ishchi va ish beruvchi o‘rtasidagi munosabatlarda adolatga rioya etish talab qilingan [5]. Sanoat inqilobi davrida mehnat qonunchiligi XVIII–XIX

asrlarda sanoat inqilobi tufayli fabrikalar, zavodlar paydo bo‘ldi va ishchi sinfi shakllandi. Bu esa mehnat munosabatlarini huquqiy tartibga solish zaruratini keltirib chiqardi. 1802-yilda Angliyada bolalar mehnatini tartibga soluvchi ilk qonun qabul qilindi. Keyinchalik 1833-yildagi “Fabrika to‘g‘risida”gi qonun orqali ishchilarning mehnat sharoitlari va ish vaqtiga oid normalar belgilandi [6]. Fransiya, Germaniya, AQSh kabi davlatlarda ham XIX asrning o‘rtalaridan boshlab mehnat qonunchiligi shakllana boshladi. Ayniqsa, 1919-yilda Xalqaro Mehnat Tashkilotining tashkil etilishi global mehnat standartlarining paydo bo‘lishiga asos soldi [7]. Xalqaro mehnat huquqi va uning ta’siri Xalqaro Mehnat Tashkiloti 100 yildan ortiq vaqt mobaynida mehnat sohasida universal standartlarni ishlab chiqib kelmoqda. Bugungi kunda XMT konvensiyalari asosida majburiy mehnat taqiqlangan, ayollar va bolalar mehnatini himoya qilishga oid qator huquqiy normalar ishlab chiqilgan [8]. O‘zbekiston ham XMTning ko‘plab konvensiyalariga qo‘shilgan va milliy qonunchiligini ularga moslashtirish yo‘lida islohotlar olib bormoqda. O‘zbekistonda mehnat qonunchiligi tarixining bosqichlari O‘zbekiston hududida mehnat munosabatlari qadimdan muhim ahamiyatga ega bo‘lib, Amir Temur tuzuklarida ham xizmat intizomi, mas’uliyat va adolat tamoyillari asosida tartibga solingan [9]. Sovet davrida O‘zbekiston SSR Mehnat kodeksi amal qilgan bo‘lsa-da, u mustaqil milliy ehtiyojlarni emas, balki markaziy hokimiyat manfaatlarini ifoda etgan [10]. 1992-yilda mustaqillikka erishgach, mehnat munosabatlarini tartibga solishning mutlaqo yangi bosqichi boshlandi. 1996-yilda O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi qabul qilindi. Bu kodeksda xalqaro standartlarga mos me’yorlar, xususan, majburiy mehnatni taqiqlash, teng mehnat uchun teng haq, mehnat sharoitlari xavfsizligini ta’minlash normalari belgilandi [11]. Mustaqillikdan keyingi islohotlar O‘zbekistonda mehnat qonunchiligi bosqichma-bosqich yangilanib kelmoqda. Xususan, 2022-yilda yangi tahrirdagi Mehnat kodeksi qabul qilindi. Yangi kodeksda: – xodimlarning mehnat huquqlarini himoya qilish mexanizmlari kengaytirildi – mehnat shartnomalarini

tuzish, o‘zgartirish va bekor qilish jarayonlari soddalashtirildi – masofaviy mehnat va vaqtincha ishlashning yangi shakllari qonuniy asosda belgilandi [12]. Bu islohotlar O‘zbekistonni xalqaro maydonda ochiq va demokratik davlat sifatida tanitishda muhim qadam bo‘ldi. Mehnat qonunchiligining ilmiy va amaliy ahamiyati Mehnat qonunchiligi faqat huquqiy me’yorlar majmuasi emas, balki jamiyatda adolatni ta’minlovchi, inson qadr-qimmatini himoya qiluvchi muhim institutdir. U ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlaydi, ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi, fuqarolarning hayot sifatini yaxshilaydi [13].

## ADABIYOTLAR

[1] Aliyev H. Mehnat huquqi asoslari. – Toshkent: TDYuU, 2018.
[2] Xammurapi qonunlari. Tarixiy hujjatlar to‘plami. – Toshkent: Fan, 1992. [3] G‘afforov N. O‘zbekiston huquq tarixi. – Toshkent: Adolat, 2005.
[4] Qur’oni Karim va Hadis ilmi manbalarida mehnatga oid qoidalar. – Toshkent: Movarounnahr, 2003.
[5] Deakin S., Morris G. Labour Law. – Oxford: Hart Publishing, 2012.
[6] ILO Conventions and Recommendations. Geneva: ILO, 2015.
[7] Temur tuzuklari. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nashriyoti, 1991.
[8] O‘zbekiston SSR Mehnat kodeksi. – Toshkent: 1972.
[9] O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi. – Toshkent: Adolat, 1996.
[10] O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi (yangi tahrir). – Toshkent: Adolat, 2022.
[11] O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: Adolat, 2023.
[12] Karimov I.A. O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li. – Toshkent: O‘zbekiston, 1992.
[13] Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: Ma’naviyat, 2021

# HARBIY XIZMATCHILARNING KASBIY KOMPITETNTSIYA RIVOJLANISHI MUAMMOSINI O‘RGANISHNING ILMIY SHART-SHAROITLARI

**G‘oziyev Xusan G‘aybullayevich**,

*mustaqil izlanuvchi*

*Tarbiya pedagogikasi milliy instituti Qoraqalpog‘iston filiali*

*xusangoziyev89@gmail.com*

***Annotatsiya:*** *Mazkur maqolada harbiy xizmat, harbiy xizmatchilarda kasbiy kompetentlik va ijtimoiy-psixologik jarayonlar, harbiy xizmatchilarda kompetentsiya va uni rivojlantirishni tadqiq qilish haqida fikr yuritilgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *harbiy xizmatchilarda kasbiy kompetentlik va ijtimoiy-psixologik jarayonlar, harbiy xizmatchilar shaxsiga xos bo‘lgan aloxida xususiyatlarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari, samarali moslashuv, burchga sodiqlik, kasbiy ong.*

***Annotation****: This article discusses the socio-psychological features of military service, the study of competence and its development in military personnel, and the completion of initial military-patriotic education in young people.*

***Key words:*** *competence in military personnel, research methods of its development, military patriotism in young people, military service, effective adaptation, loyalty to duty, professional consciousness.*

## KIRISH

Harbiy xizmatchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish Qurolli Kuchlar tizimida ustuvor vazifalardan biridir. Bu jarayon nafaqat harbiy bilim va ko‘nikmalarni egallashni, balki shaxsning psixologik barqarorligi, liderlik qobiliyati, mustaqil qaror qabul qilish salohiyati va vatanparvarlik qadriyatlarini shakllantirishni ham o‘z ichiga oladi.

1. “Kasbiy kompetentlik” tushunchasining nazariy mohiyati

Kasbiy kompetentlik — bu shaxsning muayyan faoliyat turini samarali bajarish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma, malaka, shaxsiy sifatlar va tajriba uyg‘unligidir.

Pedagogika va psixologiya fanlarida kompetentlik yondashuvi XX asrning ikkinchi yarmida shakllandi. Xususan, Noam Chomsky “kompetensiya” tushunchasini ilmiy muomalaga kiritgan bo‘lsa, David McClelland kompetensiyani shaxsning muvaffaqiyatli faoliyatini belgilovchi asosiy omil sifatida asoslab berdi.

Harbiy sohada kasbiy kompetentlik quyidagi tarkibiy qismlarni o‘z ichiga oladi:

Kasbiy bilimlar (harbiy nizomlar, taktika, strategiya);

Amaliy ko‘nikmalar (qurol ishlatish, jangovar tayyorgarlik);

Psixologik barqarorlik (stressga chidamlilik, irodaviy sifatlar);

Kommunikativ kompetensiya (jamoada ishlash, buyruq berish va qabul qilish);

Axloqiy-irodaviy fazilatlar (vatanparvarlik, mas’uliyat, intizom).

2. Pedagogik asoslar- harbiy xizmatchilarni tayyorlash jarayoni maxsus tashkil etilgan pedagogik tizimga asoslanadi. Ushbu jarayon quyidagi tamoyillarga tayangan holda amalga oshiriladi:

2.1. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim - bu yondashuv asosida harbiy xizmatchining individual psixologik xususiyatlari, qobiliyatlari va ehtiyojlari hisobga olinadi. Mazkur yondashuv g‘oyalari Carl Rogers tomonidan ishlab chiqilgan insonparvarlik psixologiyasiga borib taqaladi.

2.2. Faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuv - harbiy kasbiy kompetentlik real faoliyat jarayonida shakllanadi. Bu tamoyil Lev Vygotsky va Aleksei Leontievlarning faoliyat nazariyasiga asoslanadi. Unga ko‘ra, bilim amaliy faoliyat orqali mustahkamlanadi.

2.3. Tizimlilik va uzluksizlik - kasbiy kompetentlik bosqichma-bosqich va uzluksiz ravishda shakllantiriladi, bular, boshlang‘ich harbiy tayyorgarlik, maxsus kasbiy tayyorgarlik, xizmat davomida malaka oshirish.

3. Psixologik asoslar - harbiy faoliyat yuqori darajadagi psixologik zo‘riqish bilan kechadi. Shu sababli kasbiy kompetentlikni rivojlantirish

psixologik tayyorgarlik bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, quyidagi nazariyalarga asoslanadi.

3.1. Motivatsiya nazariyalari - harbiy xizmatchining ichki motivatsiyasi uning kasbiy o‘sishida muhim rol o‘ynaydi. Bu borada Abraham Maslowning ehtiyojlar iyerarxiyasi nazariyasi va Frederick Herzbergning ikki omilli motivatsiya nazariyasi muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

3.2. Stress va adaptatsiya - jangovar sharoitda tez va to‘g‘ri qaror qabul qilish qobiliyati psixologik barqarorlikka bog‘liq. Stressga moslashuv jarayonini tushuntirishda Hans Selyening umumiy moslashuv sindromi nazariyasi muhim o‘rin tutadi.

3.3. Irodaviy sifatlar va liderlik - harbiy jamoada samarali boshqaruv liderlik kompetensiyasiga bog‘liq. Liderlikning zamonaviy psixologik talqinlari (transformatsion liderlik, vaziyatli liderlik) harbiy pedagogikada keng qo‘llaniladi.

4. Zamonaviy yondashuvlar - bugungi kunda harbiy xizmatchilar kasbiy kompetentligini rivojlantirishda simulyatsion mashg‘ulotlar, muammoli ta’lim, trening texnologiyalari, psixologik trening va stress-menejment dasturlari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish innovatsion metodlari qo‘llanilmoqda. Shuningdek, kompetensiyaviy yondashuv asosida harbiy ta’lim standartlari takomillashtirilmoqda.

Harbiy xizmatchilar kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish muammosini ilmiy jihatdan o‘rganish zamonaviy harbiy ta’lim va boshqaruv tizimining muhim yo‘nalishlaridan biridir. Ushbu masalani tadqiq etish ma’lum nazariy, metodologik va ijtimoiy shart-sharoitlarga tayanadi

1. Ijtimoiy-siyosiy shart-sharoitlar

**Qurolli Kuchlar modernizatsiyasi** va professional armiya modeliga o‘tish;

Globallashuv va xavfsizlik tahdidlarining murakkablashuvi;

Harbiy kadrlar tayyorlash tizimining xalqaro standartlarga moslashuvi;

Harbiy xizmatchining intellektual va psixologik salohiyatiga qo‘yilayotgan yuqori talablar.

Zamonaviy harbiy tizimda nafaqat jangovar tayyorgarlik, balki strategik fikrlash, tezkor qaror qabul qilish va kommunikativ kompetensiya ham muhim omilga aylangan.

2. Ilmiy-nazariy shart-sharoitlar

Kasbiy kompetensiya muammosini o‘rganish bir necha fanlar kesishmasida shakllangan:

2.1. Kompetensiyaviy yondashuvning shakllanishi

“Kompetensiya” tushunchasi ilmiy muomalaga Noam Chomsky tomonidan kiritilgan bo‘lsa, keyinchalik David McClelland kompetensiyani muvaffaqiyatli faoliyat ko‘rsatkichi sifatida asoslab berdi.

Bugungi kunda kompetensiyaviy yondashuv ta’lim tizimining metodologik asosiga aylangan.

2.2. Faoliyat nazariyasi

Harbiy kasbiy kompetensiya faoliyat jarayonida shakllanadi. Bu g‘oya Lev Vygotsky va Aleksei Leontievlarning faoliyat nazariyasiga asoslanadi. Unga ko‘ra, shaxs rivoji ijtimoiy faoliyat va muloqot jarayonida amalga oshadi.

2.3. Shaxs rivojlanishi va motivatsiya nazariyalari

Kasbiy kompetensiya rivoji shaxsning ichki motivatsiyasi va ehtiyojlari bilan bog‘liq. Bu borada:

Abraham Maslowning ehtiyojlar iyerarxiyasi;

Frederick Herzbergning motivatsiya nazariyasi;

Albert Banduraning ijtimoiy o‘rganish nazariyasi muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

3. Psixologik-pedagogik shart-sharoitlar

3.1. Stress va ekstremal faoliyat psixologiyasi

Harbiy faoliyat yuqori xavf va zo‘riqish bilan bog‘liq. Shu sababli kasbiy kompetensiyani o‘rganishda:

stressga chidamlilik;

emotsional barqarorlik;

tezkor qaror qabul qilish qobiliyati kabi omillar ilmiy tadqiq etiladi.

Bu jarayonda Hans Selyening stress nazariyasi muhim metodologik asos hisoblanadi.

3.2. Harbiy pedagogika rivoji harbiy ta’lim tizimida: amaliy mashg‘ulotlar, modellashtirish va simulyatsiya, muammoli ta’lim, kompetensiyaviy baholash tizimi keng qo‘llanilmoqda.

Bu esa kasbiy kompetensiyani tizimli o‘rganish va diagnostika qilish zaruratini yuzaga keltiradi.

4. Metodologik shart-sharoitlar

Harbiy xizmatchilarni o‘rganishda quyidagi xususiyatlar e’tiborga olinadi:

faoliyatning xavfli va ekstremal sharoitda kechishi;

qat’iy intizom va ierarxik boshqaruv tizimi;

tezkor va mustaqil qaror qabul qilish zarurati;

jamoaviy mas’uliyat;

psixologik bosim va stress omillari.

Shu sababli o‘rganish jarayoni oddiy pedagogik tadqiqotdan farq qiladi va kompleks yondashuvni talab etadi.

Harbiy xizmatchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

Nazariy tahlil;

Diagnostik o‘rganish;

Model ishlab chiqish;

Tajriba-sinov ishlari;

Natijalarni baholash va umumlashtirish.

Mazkur bosqichlar tizimli ravishda amalga oshirilgandagina harbiy xizmatchilarning kasbiy kompetentligini samarali rivojlantirish mumkin bo‘ladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi konsitutsiyasi Toshkent-2023.
2. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Harbiy nizomlari Toshkent-2025.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon va qarorlari.
4. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi Toshkent-2023
5. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – T. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 2006. – 73-b. 6. Entonix Giddens. Sotsiologiya. – Toshkent. 2002, 110-bet.
6. Urbanovich A.A. Psixologiya upravleniya. Ucheb. posobiye. – M., Xarvest. 2007. – 604-bet.
7. Harbiy psixologiya va pedagogika I.Saidov Farg‘ona-2021
8. Psixologiya E.G‘oziyev Toshkent-2011
9. Boyev X.Y “ Harbiy xizmatchilar shaxsida stressni namoyon bo‘‘lishining ijtimoiypsixologik xususiyatlari” Toshkent 2022.
10. Mavlonov F.F. Harbiy xizmatchilarning vatanparvarlik kompetensiyalarini shakllantirishda kasbiy madaniyatini rivojlantirish bo‘yicha davlat siyosatining bugungi holati va o‘ziga xos xususiyatlari. // Ta’lim va innovasion tadqiqotlar – Toshkent, 2022. № 11. –B. 167-171.
11. Ball G.A. Понятие адаптации и его значение для психологии личности. Вопросы психологии. М.: 1989. с. 92-100.
7. Muitsinov S.S.. Молодые воины: воспитание и адаптация в коллективе. - М.: Институт военной истории МО СССР, 1989. - 86 с.

# O‘ZBEK VA QORAQALPOQ HIKOYACHILIK JANRIDA FOLKLORIZM AN’ANALARINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI

*(O‘tkir Hoshimov va Muratbay Nizanov hikoyalari misolida)*

**Urazbayev Muratbay Amanbayevich**

*E-mail: Urazbaevm96@gmail.com*

***Annotatsiya:*** *Mazkur maqolada o‘zbek va qoraqalpoq hikoyachilik janrida folklorizm an’analarining shakllanishi va rivojlanishiga doir masalalar borasida so‘z yuritiladi. Xususan, O‘tkir Hoshimov va Muratbay Nizanov hikoyalari misolida tahlil qilinadi.*

***Kalit so‘zlar:*** *folklor, xalq og‘zaki ijodiyoti, hikoyachilik, mavzu va g‘oya, xalqona ruh, maqol, ertak.*

***Аннотация:*** *В данной статье рассматриваются вопросы формирования и развития фольклорных традиций в жанре узбекского и каракалпакского рассказов. В частности, он анализируется на примере рассказов Уткира Хошимова и Муратбая Низанова.*

***Ключевые слова:*** *фольклор, народное устное творчество, повествование, тема и идея, народный дух, пословица, сказка.*

***Abstract:*** *This article discusses the formation and development of folklore traditions in the Uzbek and Karakalpak short story genre. In particular, it is analyzed on the example of the stories of Utkin Hashimov and Muratbay Nizanov.*

***Keywords:*** *folklore, oral folk art, storytelling, theme and idea, folk spirit, proverb, fairy tale.*

## KIRISH

O‘zbek yozma adabiyotida xalq og‘zaki ijodidan foydalanish eng qadimgi davrlardan boshlab mavjud bo‘lgan. Aslida adabiyotning eng asosiy manbai ham xalq va uning ijodiyot olaqmidir. Birinchi navbatda og‘zaki shaklda yaralgan adabiyotimiz mana necha asrlardirki, yozma manbalar uchun poydevor vazifasini o‘tab kelmoqda. Xalqning bor boyligi, so‘zining go‘zalligi

adabiyotda namoyon bo‘ladi. Uning gullab yashnamog‘ida, taraqqiy topmog‘ida esa xalq og‘zaki ijodi, ya’ni folklorning o‘rni beqiyosdir.

Bugungi kunda xalq og‘zaki ijodi haqida bilim berish, ularda folklor asarlarini tahlil va talqin qilish ko‘nikmalarini shakllantirish, milliy an’analarga nisbatan hurmat va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, yosh avlodni tarbiyalash g‘oyasini ifodalashda folklor asarlari va an’analarining ahamiyatini belgilash, adabiyotshunoslik va xalq og‘zaki ijodining chambarchas bog‘liq ekanligini anglash hamda folklor asarlarini ilmiy jihatdan o‘rganish ko‘nikmalarini shakllantirish bosh vazifamizdir.

Darhaqiqat, o‘zbek adabiyotining shakllanishi va taraqqiy topishida xalq og‘zaki ijodi - bitmas tuganmas manba bo‘lib xizmat qiladi. O‘zbek adabiyotining ilk yodgorliklaridan tortib, uning butun taraqqiyot bosqichlari, so‘z san’atkorlarining ijodiyoti buning yaqqol misolidir. Xalq og‘zaki ijodi yozma adabiyot namoyondalarini xalqning dili va tili, hayot tarzi va kurashlari, dunyoqarashi va urf-odatlari, tashvishi va orzu istaklari bilan yaqindan tanishtirdi, badiiy ijodkorlik ko‘nikmalarini tug‘dirdi, g‘oya va obrazlarning poyonsiz olamiga olib kirdi. Yozuvchi va shoirlar folklorning mavzu va g‘oyalaridan, syujet va obrazlaridan, hayotni tasvirlash usul va uslublaridan ijodiy foydalanganlar va asarlarining xalqchil bo‘lishiga erishganlar. Aytish mumkinki, yozma adabiyot eng qadimgi davrdan boshlab xalq og‘zaki ijodi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan. Yozuvchi va shoirlar o‘z asarlarida xalq og‘zaki ijodi namunalaridan foydalanib kelganlar. Adabiyotning qaysi jabhasini olmaylik, deyarli barchasida folklor an’analari ta’sirini ko‘rishimiz mumkin. Dunyo adabiyotshunosligida folklor va yozma adabiyot munosabati muammosi bo‘yicha hozirga qadar ko‘plab yirik ilmiy tadqiqotlar yaratilgan. Shuningdek, o‘zbek adabiyotshunosligida bu masala o‘tgan asrning 50-yillaridan beri jiddiy o‘rganilib kelinadi (xususan, Karimov N. “Hamid Olimjon poeziyasida folklor traditsiyalari” 1959; Abdullayeva Sh. “Xalq ijodiyotining yozma adabiyotga ta’siri masalasiga doir. – Nizomiy nomidagi TDPI. Ilmiy asarlar. 36-t. IV kitob.

– T., 1962; Mallayev N. O‘zbek adabiyoti tarixi (qadim zamonlardan XVII asrgacha): filol.fanlari d-ri ...diss. – Toshkent, 1963; Asqarov S. Yigirmanchi yillar o‘zbek sovet poeziyasida folklor an’analari: Filol.... fan. kandidati diss. avtoref. – T., 1966; Mamajonov S.

Adabiyot va folklor // O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 1969. – 3-son. – B. 20; Mamajonov S. G‘afur G‘ulom prozasi. – T.: Fan, 1966. – B. 210-225; Mirzayev S., Fayziyev A. Abdulla Qahhor prozasida xalq og‘zaki ijodi. – O‘zbek tili va adabiyoti, 1967. №3; Mahmudov T. Hamid Olimjonning “Oygul bilan Baxtiyor” ertak dostoni va uning folklor asoslari // Adabiyot va hayot. SamDU ilmiy to‘plami. – Samarqand, 1969. – B.84-100; shular jumlasidandir.).

O‘zbek va qoraqalpoq adabiyotida hikoyachilik janri xalqona ruh, hayotiylik, milliy qadriyatlar va ijtimoiy haqiqat bilan chambarchas bog‘liq holda rivojlanib kelmoqda. Bu jabhada folklorizm — ya’ni xalq og‘zaki ijodiyoti an’analari va unsurlarining badiiy adabiyotda qo‘llanilishi muhim o‘rin egallaydi. Ayniqsa, O‘tkir Hoshimov va Muratbay Nizanov singari yozuvchilarning hikoyalarida folklorizm orqali xalqning ruhiy olami, qadriyatlari va hayotga qarashi badiiy ifodasini topgan. Demakkim, biz tahlil qilmoqchi bo‘lgan yozuvchilarimiz O‘tkir Hoshimov va Muratbay Nizanov hikoylari ham bundan mustasno emas, mahoratli yozuvchilar ijodi ham xalq og‘zaki ijodi bulog‘idan suv ichgan desak mubolag‘a emas, albatta.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Yozuvchilarimiz ijodiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, aksariyat hikoyalarida folklor namunalariga murojaat etganiga guvoh bo‘lamiz. O‘tkir Hoshimov - o‘zbek hikoyachiligida xalqona ruhni, milliy qadriyat va hayotiy haqiqatni badiiy yuksaklikda ifoda eta olgan adiblardan biridir. Uning asarlarida folklorizm - ya’ni xalq og‘zaki ijodi unsurlaridan foydalanish, ularni zamonaviy adabiy kontekstda qayta talqin qilish muhim uslubiy vositalardan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Yozuvchi hikoyalarida ko‘p hollarda xalq maqollari, iboralar, aforizmlar, rivoyatlar va xalqona hikmatlar uchraydi. Ular nafaqat til bezagi

sifatida, balki obrazlarning ichki dunyosini, muallif pozitsiyasini, xalqning hayotga bo‘lgan munosabatini ifodalashda vosita bo‘lib xizmat qiladi. Masalan, uning “Urushning so‘nggi qurboni” hikoyasida xalq og‘zaki ijodining betakror namunalaridan — ona timsoli orqali sabr-toqat, fidoyilik, mardlik, Vatanga sadoqat kabi qadriyatlar yuksak darajada ko‘rsatiladi. Bu hikoyada xalqning urush yillaridagi ruhiy kechinmalari, ona yuragining iztiroblari folklorona ifoda topadi. “Daftar hoshiyasidagi bitiklar” asarida ham xalq maqollari, iboralar, hikmatli so‘zlar ko‘plab ishlatilgan. U “xalqning donishmandligi”ni adabiy asarga olib kirgan holda, bu maqollar orqali o‘zining estetik, axloqiy pozitsiyasini ham bayon qiladi: “*Quruq nonni yemoq - toza halol rizqdir. Quruq gapdan esa foyda yo‘q*”. Yoki: “*To‘yda boshi baland bo‘lishni istagan odam aza haqida o‘ylasin*”. Bu kabi iboralar O‘tkir Hoshimovning xalq ruhiyatini chuqur anglagan, uning tafakkurini hikoyaviy uslubga singdira olgan yozuvchi ekanligini ko‘rsatadi. Bundan tashqari adib hikoyalarida obrazlar ko‘pincha xalqona uslubda yaratiladi. Ularning ismi, tili, harakati, dunyoqarashi orqali o‘zbek xalqining mentaliteti, dunyoni qabul qilish usuli aks ettiriladi. Masalan, kampirlar, chol obrazlari - oqsoqolona donolik timsoli, bolalar - poklik va sodda tafakkur egasi, o‘rtamiyona odamlar - xalqning o‘rtacha ijtimoiy qatlamini aks ettiruvchi timsollar sifatida tasvirlanadi.

Adibning “Dehqonning bir tuni” hikoyasida esa Muyassar, Alijon va ularning farzandlarini faqat bir kunlik tuni haqida batafsil yoritilgan. Yozuvchi bu hikoyada ham xalq maqollaridan unumli va o‘rinli foydalangan. Hikoyani o‘qish jarayonida quyidagi xalq maqollarining nima maqsadda qo‘llanganining guvohi bo‘lamiz. Asarda Muyassarning qizi Halima o‘z akasi Valining suratini chizayotgan kezlarida “qirqiga chidadingiz, qirq birigayam chiding-da, akajon! Besh minut qoldi” [4.28] degan xalq maqolini ishlatadi. Negaki, Valining besabrligi hamda ishning oxirigacha chidamli bo‘lish kerakligi maqol mazmuniga singdirib yuborilgan. Yoki yozuvchi “Sutdan og‘zi kuygan qatiqni

ham puflab ichadi” [4.30] maqolini ham asar qahramoniga mos holatda keltiradi.

Darvoqe, O‘zbek va qoraqalpoq hikoyachiligida o‘ziga xos adabiy uslub va xalqona badiiy tilga ega yozuvchilardan biri bu shubhasiz Muratbay Nizanovdir. Uning asarlarida folklor an’analari keng va tabiiy ravishda qo‘llanilib, o‘zbek va qoraqalpoq xalqining qadriyatlari, urf-odatlari, dunyoqarashi badiiy talqinda ifodalanadi. Muratbay Nizanov ijodining asosiy manbai - o‘zbek qishlog‘i va u yerda yashovchi oddiy insonlarning turmushi. Bu hayotda folklor - ya’ni xalq ertaklari, dostonlari, rivoyatlar, maqollar, xalq ishonchlari tabiiy ravishda mavjud. Yozuvchi bu unsurlarni o‘z hikoyalarida jonli voqealar bilan uyg‘unlashtiradi. Masalan, ko‘plab hikoyalarida kampirlar va chol obrazlari orqali xalq ertaklariga xos donolik, soddalik va hazil-mutoyiba beriladi. Adib hikoyalarida xalqona til, lahjalar, maqollar, iboralar juda ko‘p uchraydi. Bu esa asarlarning jonli, tabiiy va o‘qishga yengil bo‘lishini ta’minlaydi. Masalan: “Odam degan to‘kilgan sutni yig‘ib icholmaydi, lekin saboq olsa bo‘ladi.” Yoki: “Yomg‘ir qanchalik yog‘sa, er shunchalik quvnar, odam ham g‘am ko‘rsa, sabr pishar.” Bu kabi iboralar xalq og‘zaki ijodidan olingan bo‘lib, hikoyada qahramonlarning hayotiy tajribasini ifodalashda xizmat qiladi.

Yozuvchi hikoyalarida xalq og‘zaki ijodidagi qahramonlarga o‘xshash obrazlar yaratiladi. Ular ko‘pincha mehribon, hazilkash, sergap, ammo donishmand chol-kampirlar; soddadil-yu mard dehqonlar yoki mehnatkash yoshlar bo‘ladi. Bu obrazlar xalq hayotiga chuqur singib ketgan tasvirlardir. Misol uchun, bir hikoyasida chol obrazining “qaymoq kabi gaplar” aytishi, bolalarga ertaklardek saboq berishi — folklorning hozirgi zamonda qanday yashab kelayotganini ko‘rsatadi.

Darhaqiqat, Muratbay Nizanov asarlarida xalq urf-odatlari, jumladan, to‘ylar, aza marosimlari, hosil yig‘imi, Navro‘z bayrami kabi mavzular folklorona ifodalanadi. U bu marosimlarni realistik tarzda tasvirlabgina qolmay,

ular orqali milliy qadriyatlarning qadimiy ildizlarini ko‘rsatadi. Bundan tashqari, ayrim hikoyalarda xalq ishonchlari (masalan, qarg‘ishdan yoki duo-davodan qo‘rqish, qutli kunlarga e’tiqod) badiiy uslubda, kinoyaviy va ba'zida yumoristik tarzda aks ettiriladi. Mana shu jarayonlarda ham folklore an’analarini chiroyli ifodalaganini guvohi bo‘lamiz.

Muratbay Nizanov hikoyalarida folklor an’analari — bu nafaqat badiiy uslub vositasi, balki milliy ruh, xalq tafakkuri va qadriyatlarining ifodasidir. Yozuvchi og‘zaki xalq ijodining imkoniyatlaridan foydalanib, zamonaviy o‘zbek hikoyasini milliy ruhda, o‘ziga xos xalqona ohangda yaratgan.

## XULOSA

Umuman olganda, O‘zbek va qoraqalpoq hikoyachiligida folklorizm — bu xalq og‘zaki ijodining, ya’ni ertaklar, afsonalar, dostonlar, maqollar, topishmoqlar, rivoyatlar kabi folklor janrlarining yozma adabiyotda, xususan, hikoyachilikda o‘ziga xos tarzda aks etishidir. Bu hodisa yozuvchi va xalq ijodi o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ko‘rsatadi va milliylikni ifodalovchi muhim vosita hisoblanadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Y.Solijonov. Hozirgi adabiy jarayon: o‘quv qo‘llanma.-T.: “Innovatsion ziyo”, 2020. – bet.
2. Saydulla Mirzayev. XX asr o‘zbek adabiyoti.- T.: “Yangi asr avlodi”, 2005. b 222
3. Dilbar Hasanova. O‘zbek hikoyachiligi va uning taraqqiyot yo‘li. “Eurasian Journal Of Academic Research” , 2023.
4. Nilufar Xajikurbanova. Hozirgi adabiy jarayondagi hikoyalar badiiyati, Science and innovation international scientific journal, ISSN:2181-3337, №4 2022, -bet 103.
5. Ҳошимов У. Изтироб, Ҳикоялар, -Т.: Ёзувчи, 1991.
6. Mamayusupova S.M “Shukur xolmirzayev hikoyalarida folklorizmning o‘rni” filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Phd) dissertatsiyasi avtoreferat, Jizzax; 2024.

# YANGI O‘ZBEKISTONDA IJTIMOIY HIMOYA TIZIMINING INSTITUTSIONAL TRANSFORMATSIYASI VA KADRLARNING SIYOSIY KOMPETENSIYALARI

**N.Shukurov**

*O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi mas’ul xodimi, O‘zbekiston Milliy universiteti mustaqil tadqiqotchisi*

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqola Yangi O‘zbekiston sharoitida ijtimoiy himoya tizimining institutsional va raqamli transformatsiyasini, shuningdek, soha rahbar va xodimlarining siyosiy kompetensiyalariga qo‘yilayotgan mutlaqo yangi talablarni tahlil qiladi. Maqolada Ijtimoiy himoya milliy agentligi va "Inson" ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish markazlarining tashkil etilishi, ijtimoiy siyosatda "mahalla" institutining faollashuvi hamda "Ijtimoiy reyestr" tizimining joriy qilinishi davlat boshqaruvining xalqchil va proaktiv modeliga o‘tishini ta'minlayotgani ochib berilgan. Shuningdek, tadqiqotda ijtimoiy himoya tizimi milliy xavfsizlik va siyosiy barqarorlikni ta'minlovchi muhim strategik texnologiya ekanligi, soha xodimlarining esa shunchaki byurokratik funksiyalarni bajaruvchi emas, balki ijtimoiy ziddiyatlarni barvaqt aniqlovchi proaktiv "ijtimoiy mediatorlar" sifatidagi roli ilmiy asoslangan.*

***Kalit so'zlar:*** *Ijtimoiy davlat, ijtimoiy himoya tizimi, institutsional transformatsiya, raqamli boshqaruv, siyosiy kompetensiya, Ijtimoiy himoya milliy agentligi, Inson markazlari, mahallabay ishlash tizimi, ijtimoiy mediator, Ijtimoiy reyestr, proaktiv boshqaruv, siyosiy barqarorlik, inson kapitali, inklyuziv rivojlanish, ijtimoiy adolat.*

***Abstract:*** *This article analyzes the institutional and digital transformation of the social protection system in the context of New Uzbekistan, as well as the entirely new requirements placed on the political competencies of the sector's management and personnel. The article reveals that the establishment of the National Agency for Social Protection and "Inson" social service centers, the activation of the "mahalla" institution in social policy, and the introduction of the "Social Registry" system are ensuring a transition to a pro-people and proactive model of public administration. Furthermore, the study scientifically substantiates that the social protection system is a crucial strategic technology ensuring national security and political stability, highlighting the role of social workers not merely as bureaucrats, but as proactive "social mediators" who detect social conflicts at an early stage.*

***Keywords:*** *Welfare state, social protection system, institutional transformation, digital governance, political competence, National Agency for Social Protection, Inson centers,*

*neighborhood-based work system, social mediator, Social Registry, proactive management, political stability, human capital, inclusive development, social justice.*

## KIRISH

Zamonaviy davlat boshqaruvi tizimida “Ijtimoiy davlat” fenomenining institutsional evolyutsiyasi davlat hokimiyatining siyosiy legitimligini ta’minlovchi hamda ijtimoiy stratifikatsiyani barqarorlashtiruvchi strategik texnologiya sifatida namoyon bo‘lmoqda. Global siyosiy maydonda ijtimoiy himoya tizimlarining diversifikatsiyasi davlat boshqaruv rejimlarining texnologik darajasini ko‘rsatuvchi asosiy indikatorlardan biriga aylandi. Biroq, XXI asrning texnologik chaqiriqlari, xususan, axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi an’anaviy ijtimoiy institutlarni raqamli boshqaruv arxitekturasi asosida tubdan qayta qurishni taqozo etmoqda.

Ushbu raqamli transformatsiya jarayoni faqatgina texnik yangilanish bilan cheklanmay, davlat xizmatchilari va rahbar kadrlarning siyosiy kompetensiyalariga mutlaqo yangi talablarni qo‘ymoqda. Endilikda ijtimoiy himoya sohasi xodimlaridan shunchaki ma’muriy-byurokratik funksiyalarni bajarish emas, balki raqamli ma’lumotlar, Big Data tahlili asosida ijtimoiy ziddiyatlarni barvaqt aniqlay oladigan proaktiv “ijtimoiy mediator” bo‘lish talab etilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy himoya sohasidagi islohotlari ushbu global tendensiyalarni milliy siyosiy madaniyat va o‘ziga xos institutsional sharoitlar bilan sintez qilish natijasidir. Yangi O‘zbekistonning siyosiy strategiyasi doirasida ijtimoiy himoya tizimi tubdan transformatsiya qilinib, “paternalistik davlat” modelidan “subsidiarlik” va “inklyuziv rivojlanish” tamoyillariga asoslangan yangi arxitekturaga o‘tilmoqda[6]. 2023-yildagi konstitutsiyaviy islohotlar O‘zbekistonni rasman “Ijtimoiy davlat” deb e’lon qilishi bilan ushbu yo‘nalishni qaytmas siyosiy kurs darajasiga ko‘tardi[7].

[6] Mirziyoyev Sh. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi To’ldirilgan ikkinchi nashri – Toshkent: O’zbekiston nashriyoti 2022, 191-199 betlar.

[7] O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2023, 1-modda.

Bu nafaqat huquqiy asos, balki davlat boshqaruvining barcha bo‘g‘inlarida “Inson qadri uchun” tamoyilini institutsionalizatsiya qilishning boshlang‘ich nuqtasi bo‘ldi.

O‘zbekiston modelining konseptual o‘ziga xosligi – ijtimoiy himoyani boshqarishda “mahalla” institutini siyosiy subyekt sifatida faollashtirish va Ijtimoiy himoya milliy agentligi orqali markazlashgan siyosiy irodaning vertikal integratsiyalashuvidir. Ushbu institutsional tuzilma doirasida tashkil etilgan “Inson” ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish markazlari davlat xizmatlarining desentralizatsiyasi va fuqarolarga maksimal yaqinlashuvi texnologiyasini amalda namoyon etmoqda.

O‘zbekistondagi ijtimoiy transformatsiya davlat boshqaruvi samaradorligini oshirishning strategik drayveri va milliy siyosiy tizimning barqarorligini ta’minlovchi asosiy legitimlik manbaiga aylandi.

Zamonaviy siyosatshunoslik paradigmasida ijtimoiy himoya tizimi gumanitar yordam instrumenti ekanligi bilan birga milliy xavfsizlikni ta’minlashning fundamental tarkibiy qismi hamda siyosiy tizim barqarorligining kafolati sifatida ko‘riladi. Siyosiy institutlarning barqarorligi ko‘p jihatdan jamiyatdagi ijtimoiy anomiya va relyativ deprivatsiya darajasini pasaytirishga qodir bo‘lgan resurslarni taqsimlash mexanizmlariga bog‘liq[8].

Ted Robert Garrning “odamlar nima uchun isyon qiladi” degan konseptual qarashlaridan kelib chiqilsa, ijtimoiy himoyadagi uzilishlar kutilmalar va real imkoniyatlar o‘rtasidagi nomuvofiqlikni keltirib chiqaradi, bu esa o‘z navbatida siyosiy tizimga bo‘lgan ishonch defitsitini va radikallashuv xavfini tug‘diradi[9]. Shu bois, zamonaviy davlat boshqaruvida ijtimoiy siyosat – ichki siyosiy risklarni boshqarishning eng samarali texnologiyasidir.

O‘zbekiston sharoitida ijtimoiy himoyaning sekuritizatsiyasi - *xavfsizlik masalasiga aylanishi* davlatning strategik ustuvorliklarida yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Siyosiy barqarorlikni ta’minlashning “Yangi O‘zbekiston modeli” ijtimoiy adolat tamoyilini milliy xavfsizlik doktrinasining ajralmas qismi sifatida

[8] Paul Pierson, The New Politics of the Welfare State (Oxford: Oxford University Press, 2001), 45-48.
[9] ed Robert Gurr, Why Men Rebel (Princeton: Princeton University Press, 1970/2011), 24-27.

institutsionalizatsiya qildi. Bu jarayonda ijtimoiy himoya tizimining raqamli transformatsiyasi va “Ijtimoiy reyestr” kabi mexanizmlarning joriy etilishi, ijtimoiy noroziliklarni keltirib chiqaruvchi subyektiv omillarni – korrupsiya, byurokratiya va moddiy yordamlarning manzilli yekkazilmasligi muammolarini bartaraf etishga qaratilgan siyosiy filtr vazifasini o‘tamoqda. Ma’lumotlarga asoslangan ijtimoiy siyosat davlatga ijtimoiy taranglik o‘choqlarini erta aniqlash va ularni lokal-mahalla darajasida hal etish imkonini beradi.

Shu bilan birga, ijtimoiy himoya tizimi jamiyatdagi siyosiy integratsiyani kuchaytiruvchi “ijtimoiy jipslashtiruvchi” funksiyasini bajaradi. Inklyuziv ijtimoiy siyosat orqali jamiyatning nogironligi bor shaxslar, kam ta’minlanganlar, ishsiz yoshlar kabi marginal qatlamlarini siyosiy-ijtimoiy jarayonlarga jalb etish, ularning tizimga bo‘lgan ishonch darajasini oshiradi[10].

Bu esa, o‘z navbatida, tashqi va ichki destruktiv siyosiy texnologiyalarning jamiyatga ta’sir qilish maydonini toraytiradi. Binobarin, O‘zbekistonda Ijtimoiy himoya milliy agentligining tashkil etilishi va uning vakolatlarining kengaytirilishi, mamlakatning uzoq muddatli barqaror rivojlanish strategiyasining tarkibiy qismi bo‘lib, milliy xavfsizlik arxitekturasini inson markazlashgan boshqaruv texnologiyalari bilan boyitishga xizmat qiladi.

O‘zbekiston ijtimoiy siyosatining institutsional transformatsiyasi 2023-yildagi fundamental ma’muriy islohotlar natijasida tarqoq boshqaruv modelidan yagona vertikal integratsiyalashgan tizimga o‘tishi bilan xarakterlanadi. Ijtimoiy himoya milliy agentligining tashkil etilishi siyosiy institutlar ierarxiyasida “ijtimoiy blok”ning mavqeini davlat rahbari darajasiga ko‘tardi[11]. Siyosiy neoinstitutsionalizm nazariyasiga ko‘ra, bunday institutsional dizayn nafaqat boshqaruv samaradorligini oshirishga, balki ijtimoiy sohada “siyosiy entropiya” *(turli idoralarning bir-biriga zid qarorlari natijasida yuzaga keladigan tartibsizlik)* xavfini bartaraf etishga xizmat qiladi. Ilgari Sog‘liqni saqlash, Xalq ta’limi va Bandlik vazirliklari o‘rtasida bo‘linib ketgan funksiyalarning yagona

[10] World Bank, Social Protection and Jobs Global Practice: Uzbekistan Social Protection System Review (Washington, DC: World Bank Group, 2024), 112-115.

[11] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 1-iyundagi "Aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko‘rsatish hamda uning samarali nazorat tizimini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida"gi PF-82-sonli Farmoni.

markazda birlashtirilishi, ijtimoiy himoyani idoralararo funksiyadan umummilliy siyosiy strategiyaga aylantirishning fundamental yechimi bo‘ldi.

Agentlikning siyosiy boshqaruvdagi o‘rni uning nafaqat ijrochi, balki ijtimoiy xavfsizlik arxitekturasining “neyron tarmog‘i” sifatidagi funksiyasida namoyon bo‘lmoqda. Siyosiy institutlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, Ijtimoiy himoya milliy agentligi tuzilmasidagi “Inson” ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish markazlari davlat va jamiyat o‘rtasidagi muloqotning yangi texnologik interfeysini yaratdi[12].

Ushbu institutsional tuzilma orqali davlat boshqaruvining "proaktiv" modeliga o‘tildi. Bu tizim doirasida ijtimoiy xodimlar shunchaki arizalarni qabul qiluvchi subyekt emas, balki mahallabay ishlash tizimi orqali ijtimoiy muammolarni preventiv aniqlash va ularni siyosiy risk darajasiga yetmasdan neytrallash imkoniga ega bo‘lgan “siyosiy barqarorlik subyektlari” sifatida shakllanmoqda. Siyosiy boshqaruv texnologiyalari nuqtai nazaridan, bu “pastdan yuqoriga” tamoyilining amaliy ifodasi bo‘lib, davlatning ijtimoiy reaksiyasi tezligini va manzilliligini keskin oshirdi.

Shu bilan birga, Agentlik ijtimoiy sug‘urta va nafaqalar tizimini boshqarish orqali mamlakatdagi ijtimoiy-siyosiy munosabatlarning yangi “ijtimoiy shartnoma” asosida qurilishini ta’minlamoqda.

Bu esa jamiyatdagi ijtimoiy passivlik va boqimandachilik kayfiyatini jilovlash o‘rniga inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan siyosiy texnologiyalarni joriy etish imkonini beradi. Ijtimoiy himoya milliy agentligining institutsional nufuzi, shuningdek, uning xalqaro standartlarni milliy qonunchilikka adaptatsiya qilish qobiliyatida ham ko‘rinadi. Xususan, BMTning "Nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyasi" talablarini hayotga tatbiq etishda Agentlik asosiy siyosiy rol vazifasini bajarmoqda.

Ijtimoiy himoya milliy agentligi Yangi O‘zbekiston siyosiy tizimining insonparvarlik xarakterini ta’minlovchi va davlat boshqaruvining xalqchil modelini amalda realizatsiya qiluvchi markaziy institutsional drayverga aylanib borayotganligini ko’rish mumkin.

[12] Peter Hall and Rosemary Taylor, Political Science and the Three New Institutionalisms, 2018.

O‘zbekistonning ijtimoiy siyosatida “Mahallabay” ishlash tizimining institutsionalizatsiyasi davlat boshqaruvining markazlashgan modelidan markazlashmagan va jamiyatga yo‘naltirilgan modeliga o‘tishini anglatadi. Siyosiy institutlar nuqtai nazaridan, tuman darajasida tashkil etilgan “Inson” ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish markazlari davlatning ijtimoiy funksiyalarini bevosita quyi bo‘g‘inga – fuqarolarning yashash joyiga yaqinlashtirish strategiyasining amaliy ifodasidir. Ushbu tizim doirasida mahalla instituti ijtimoiy xatarlarni aniqlash, baholash va ularga tezkor munosabat bildirish qobiliyatiga ega bo‘lgan “siyosiy mikro-insititut” maqomiga ko‘tarildi.

“Inson” markazlari faoliyatining konseptual asosi – ijtimoiy xizmatlarning individualizatsiyasi va “ishlarni boshqarish” texnologiyasidir. Siyosiy jarayonlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, bu yondashuv fuqaroni o‘z hayotiy vaziyatini yaxshilashda davlat bilan teng huquqli sherik sifatida ko‘radigan yangi “ijtimoiy shartnoma” modelini shakllantirmoqda. Ushbu modelda ijtimoiy xodimlar mahallalarda uyma-uy yurish orqali ijtimoiy izolyatsiyada qolgan qatlamlarni aniqlaydi, bu esa siyosiy boshqaruvda “ko‘rinmas ehtiyojlar” muammosini hal etadi. Bunday proaktiv yondashuv jamiyatdagi ijtimoiy adolatsizlik hissini kamaytirish orqali davlat institutlarining legitimligini va xalqning siyosiy tizimga bo‘lgan ishonchini mustahkamlaydi.

Siyosiy texnologiyalar nuqtai nazaridan, “Inson” markazlarining mahallabay ishlash tizimi bilan integratsiyalashuvi davlat resurslarini taqsimlashda “korporativizm” va “klientelizm” kabi salbiy holatlarning oldini oluvchi filtr vazifasini o‘taydi. Har bir mahalla kesimida shakllantirilgan “ijtimoiy portret” va ijtimoiy xodimlarning doimiy monitoringi, yordamning faqat eng muhtoj va haqli qatlamga yetib borishini ta’minlaydi[13]. Bu jarayon davlat byudjetidan foydalanishning samaradorligini oshirish bilan birga, ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta’minlovchi drayverga aylanadi. Zero, ijtimoiy xizmatlarning manzilliligi fuqarolarda davlatning “g‘amxo‘rlik funksiyasi” haqidagi real va ijobiy tasavvurlarni shakllantiradi.

[13] Douglas North, "Institutions, Institutional Change and Economic Performance" (1990). Cambridge University Press.2012.

Shuni ham ta’kidlash lozimki, ushbu tizim doirasida ijtimoiy xodimlarning professional kompetensiyalarini rivojlantirish siyosiy islohotlarning muvaffaqiyati uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. “Inson” markazlari xodimlari jamiyatdagi ziddiyatli vaziyatlarni (oilaviy nizolar, zo‘ravonlik, marginalizatsiya) yumshatuvchi “ijtimoiy mediatorlar” sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bunday professional transformatsiya O‘zbekistonda davlat boshqaruvining “insonparvarlik” tamoyili aniq institutsional mexanizmlar orqali realizatsiya qilinayotganidan dalolat beradi.

Zamonaviy siyosiy boshqaruv arxitekturasida raqamli texnologiyalar texnik yordamchi vosita darajasidan ko‘tarilib, davlatning ijtimoiy siyosatini shakllantirishdagi fundamental strategik resurs va legitimlik manbaiga aylandi. O‘zbekiston ijtimoiy himoya tizimining raqamli transformatsiyasi, xususan, “Yagona milliy ijtimoiy himoya” axborot tizimi va uning o‘zagi hisoblangan “Ijtimoiy reyestr”ning institutsionalizatsiyasi davlat boshqaruvini “elektron hukumat” paradigmasining yangi bosqichiga olib chiqdi[14]. Bu tizim davlat va fuqaro o‘rtasidagi munosabatlarda “shaffoflikni ta’minlovchi” vazifasini o‘tab, boshqaruv apparatning diskretsion vakolatlarini *(o‘z xohishiga ko‘ra qaror chiqarish erkinligini)* tizimli ravishda qisqartirdi, bu esa o‘z navbatida jamiyatda siyosiy ishonch indeksini oshirishga xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining, 2021 yil 21-oktabrdagi Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida 654-sonli qarorning qabul qilinishi davlatning ijtimoiy himoya funksiyalaranini yanada takomillashtirilish imkonini berdi. “Ijtimoiy reyestr” tizimining siyosiy-texnologik ahamiyati uning interoperabillik qobiliyatida, ya’ni 50 dan ortiq davlat idoralari va tashkilotlarining ma’lumotlar bazalari bilan uzviy integratsiyalashtirildi[15]. Ushbu algoritmik yondashuv har bir oila yoki shaxsning real ijtimoiy holatini inson omilisiz, masofaviy va avtomatlashtirilgan tartibda baholash imkonini beradi. Tizim ijtimoiy nafaqalarni tayinlashda tanish-

[14] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 1-iyundagi "Aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko‘rsatish hamda uning samarali nazorat tizimini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida"gi PF-82-sonli Farmoni.

[15] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining, 21.10.2021 yildagi Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida 654-sonli qarori. https://lex.uz/uz/docs/-5688101

bilishchilik va korrupsion risklarni minimallashtirib, davlat resurslarining manzilliligini ta’minlovchi eng muhim institutga aylanib bormoqda[16].

Bu esa, o‘z navbatida, ijtimoiy yordamning muhtoj qatlamga o’z vaqtida manzilli yetib borishini taminlamoqda.

Shu bilan birga, raqamlashtirish jarayoni ijtimoiy himoya sohasida “proaktiv boshqaruv” texnologiyasini amaliyotga joriy etdi. Endilikda davlat fuqaroning arizasini kutmasdan, raqamli ma’lumotlar tahlili orqali muhtojlik xavfi ostida bo‘lgan qatlamlarni oldindan aniqlash imkoniyatiga ega[17].

Siyosiy strategiya nuqtai nazaridan, bunday yondashuv jamiyatdagi potentsial ijtimoiy taranglik o‘choqlarini erta aniqlash va ularni tizimli reabilitatsiya qilish orqali makro-darajadagi siyosiy barqarorlikni kafolatlaydi. Raqamli platformalar orqali ko‘rsatilayotgan ijtimoiy xizmatlar, xususan, “Ijtimoiy karta” texnologiyasi, davlatning ijtimoiy majburiyatlarini “servis modeli” asosida amalga oshirishga o‘tilganini ko‘rsatadi. Bu transformatsiya O‘zbekistonning jahon siyosiy maydonida zamonaviy, raqamli va insonparvar ijtimoiy davlat sifatidagi nufuzini mustahkamlovchi fundamental omildir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 1-iyundagi PF-82-sonli Farmoni ushbu raqamli ekotizimning huquqiy va siyosiy fundamentini yaratib berdi, bu esa Agentlikni mamlakatdagi eng yirik “big data” operatorlaridan biriga aylantirdi. Ma’lumotlarning bunday konsentratsiyasi davlatga ijtimoiy siyosatni uzoq muddatli prognozlash va strategik rejalashtirish imkonini beradi.

Ushbu institutsional va raqamli transformatsiya ijtimoiy soha boshqaruv kadrlarining siyosiy kompetensiyalariga nisbatan yangi paradigmani yuzaga keltirdi. Yangi O‘zbekiston sharoitida rahbar va ijtimoiy xodimlar jamiyatdagi ehtimoliy siyosiy taranglik o‘choqlarini neytrallashtiruvchi, aholi bilan ochiq muloqot o‘rnatuvchi va milliy xavfsizlik arxitekturasining quyi bo‘g‘inini ta’minlovchi strategik subyektlarga aylanmoqda. Pirovardida, mazkur islohotlar

[16] Mirziyoyev Sh. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi To’ldirilgan ikkinchi nashri – Toshkent: O’zbekiston nashriyoti 2022, 234-240 betlar.

[17] World Bank, Uzbekistan: Strengthening the Social Protection System through Digitalization (Washington, DC: World Bank Group, 2023), 56-62.

inson kapitalini rivojlantirish orqali kuchli, barqaror va raqamli ijtimoiy davlat poydevorini mustahkamlaydi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: "O‘zbekiston", 2023.
2. Mirziyoyev Sh. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi To’ldirilgan ikkinchi nashri – Toshkent: O’zbekiston nashriyoti 2022, 436 bet.
3. Birlashgan Millatlar Tashkilotining “Nogironlar huquqlari to‘g‘risida”gi Konvensiyasi (2006-yil 13-dekabrda qabul qilingan). O‘zbekiston Respublikasi 2021-yil 7-iyundagi O‘RQ-695-son Qonuni bilan ratifikatsiya qilgan.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 1-iyundagi “Aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko‘rsatish hamda uning samarali nazorat tizimini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-82-son Farmoni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 02.06.2023-y., 06/23/82/0320-son.
5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 21-oktabrdagi “Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 654-son Qarori // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 22.10.2021-y., 09/21/654/0984-son.
6. Gurr, T. R. (1970). *Why Men Rebel*. Princeton, NJ: Princeton University Press.
7. Hall, P. A., & Taylor, R. C. (1996). Political Science and the Three New Institutionalisms. *Political Studies*, 44(5), 936-957.

# NURJAHONBEGIM – BOBURIYLAR SALTANATI TARIXIDA O'CHMAS IZ QOLDIRGAN MALIKA

**Mamuraliyeva Gulsanam Ilhomjon qizi,**

*Namangan davlat universiteti, Tarix yo'nalishi talabasi*

*E-mail: mamuraliyevikromjon8@gmail.com*

*Tel: +998948675151*

**Ilmiy rahbar: Madraximov Zoxid Sharofovich**

*Tarix fanlari nomzodi, professor*

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada Buyuk Boburiylar saltanati tarixida siyosiy salohiyati, kuchli irodasi va boy madaniy merosi bilan nom qoldirgan o'rta asrlarning eng mashhur va ta'sirchan ayoli Nurjahon Begimning murakkab hayot yo'li va ijodiy faoliyati haqida ma'lumot berilgan.*

***Kalit so'zlar:*** *Mehriniso, Sher Afg'on, Doktor Beni Prasad, Qandahor, Yazd qal'asi dorug'asi, tarxon, "E'timod-ud Davla", "Nur Jahon xuntasi", Lahor, Shoh Dara qabristoni.*

***Аннотация:*** *В данной статье представлена информация о сложной жизни и творчестве Нурджахан Бегум, самой известной и влиятельной женщины Средневековья, оставившей свой след в истории Великой империи Бабура благодаря своему политическому потенциалу, сильной воле и богатому культурному наследию.*

***Ключевые слова:*** *Мехриниса, Шер Афган, Доктор Бени Прасад, Кандагар, крепость Йезд, Тархан, «Этимод-уд-Давла», «Хунта Нур Джахан», Лахор, кладбище Шах Дара.*

***Abstract:*** *This article provides information about the complex life and creative work of Nurjahan Begum, the most famous and influential woman of the Middle Ages, who left a name for herself in the history of the Great Babur Empire with her political potential, strong will and rich cultural heritage.*

***Keywords:*** *Mehrinisa, Sher Afghan, Doctor Beni Prasad, Kandahar, Yazd fortress, tarkhan, "Etimod-ud-Dawla", "Nur Jahan junta", Lahore, Shah Dara cemetery.*

## KIRISH

Ko'hna moziydan xabar beruvchi tarix zarvaraqlarini varaqlar ekanmiz, ijtimoiy hayotning barcha sohalarida erkaklar bilan qatorda buyuk jasorat sohiblarining nomlari ham tarannum etib kelinganini guvohi bo'lamiz. Ayollar

orasidan juda kop’lab shavkatli hukmdorlar, oqila maslahatgo'ylar, yetuk donishmandlar, zabardast olimalar, suxandon shoiralar va zukko san'atshunoslar yetishib chiqqan. Bunga tarix guvoh. Ana shunday ayollardan biri – Nurjahonbegim bo’lib, u Hindistonda hukmronlik qilgan Boburiy hukmdorlardan biri – Jahongirshoh (Salim, 1569 – 1627)ning ikkinchi xotinidir [2. – B. 1.]. Doktor Beni Prasad bu haqda shunday deb yozadi: “O‘rta asrlar tarixida Nurjahonchalik ishqiy mojorolarga ko‘milgan shaxs uchramaydi. Jahongir hukmronligi davridagi ko'zga yaqqol tashlanadigan voqea uning Nurjahonga uylanishi bo’ldi. U hukmron bo'lgan 15 yil davomida Nurjahon saltanatning eng jozibador va eng qudratli hukmdori bo’lib keldi”.

Nurjahonning otasi Mirzo G'iyosbek tarhonlik saroy amaldorlaridan bo'lib, uning otasi Xo'ja Muahmmad Sharif Eron shohi Taxmasp saroyida Yazd qal'asi dorug'asi lavozimida xizmat qilgan. Otasi vafot etgandan so'ng, Mirzo G'iyosbek og’ir kunlarni boshidan kechirgan va ikki o'g'li hamda bir qizi bilan Hindistonga panoh izlab kelgan. 1577-yilda Qandahorga kelishganida xotini yana bir qiz tug'ib bergan va uning ismini Mehriniso qo'yganlar.

O'sha paytlarda og'ir kunlarda qolgan Mirzo G'iyosbekka hamroh bo'lgan karvonboshi Malik Mas'ud yaxshilik qilib, uni Boburiy hukmdor Akbarshoh huzuriga xizmatga olib borgan. Mirzo G'iyosbek qobiliyatli kishi bo'lib, tez orada saroy ayonlari nazariga tushgan. Dastlab u Qobulda devonbegi lavozimiga tayinlangan, keyinroq, yosh Boburiy hukmdor Jahongir unga “Etimoduddavla” unvonini berib, o'z saroyiga devonbegilik lavozimiga qo'ygan.

1594-yilda Mehriniso Aliqulibek ismli yigitga turmushga chiqqan. 1599-yilda Aliqulibek qurolsiz qo'li bilan bir yo'lbarsni o'ldirgani uchun shahzoda Salim unga “Sher Afg'on” nomini bergan edi. Salim otasiga qarshi isyon ko'targanda, Sher Afg'on Salim xizmatidan qochib, Akbarshoh huzuriga borgan. Akbarshoh vafotidan so'ng Salim Jahongir nomi bilan taxtga chiqib, Sher Afg'onni avf etgan va Bengaliyaning Burdvan viloyatiga jogirdor etib tayinlagan. Bu ishdan ranjigan Sher Afg'on mahalliy afg'onlar isyonini bostirish

ishiga sovuqqonlik bilan qaray boshlagan. 1606-yilda Qutbiddin ismli amir roja Man Sinx o'rniga Bengaliya hokimiyatiga boshlik etib tayinlangan. U bu yerdagi Sher Afg'onni mensimay muomila qilgan va huzuriga chaqirtirib, uning shohga sadoqat bilan xizmat qilmayotganini aytib, unga tanbeh bergan. Bundan g'azablangan Sher Afg'on qilichi bilan Qutbiddinni chopib tashlagan. Qutbiddinning qo'riqchilari ham shu yerdayoq Sher Afg'onni chopib tashlaydilar. Sher Afg'onning xotini Mehriniso va qizi Lodila Begim Agraga mahbus sifatida jo'natilgan. Mehriniso Akbarshohning bevasi Salima Begim xizmatiga qo'yilgan [1. – B. 82-83.]. Bu davrda Mehriniso 35 yoshda edi. Bir necha vaqt o'tgach, 1611-yilda Jahongirshoh Mehrinisoni o'z nikohiga olgan [3. – B. 261.].

Tarixchilar Sher Afg'onning o'limi va Jahongirning Nurjahonga uylanishi borasida turli fikrlar bildiradilar. Ayrim tarixchilar Jahongir Mehrinisoni 1611-yilda birinchi bor ko'riboq uylangan va uning erining o'limiga shohning aloqasi yo'q, deb yozishgan. Ba'zi tarixchilar esa aksincha, Jahongir shahzodaligidayoq Mehrinisoga oshiq bo'lib qolgan, biroq otasi Akbarshoh bu nikohga rozilik bermagani uchun u o'z niyatini otasining vafotidan so'ng ro'yobga chiqargan, deb aytishadi. Shuning uchun ham Jahongir Mehrinisoga yetishish uchun Sher Afg'onni o'ldirtirib yuborgan, deb taxmin qilishadi.

Doktor Beni Prasad Mehriniso bilan shahzoda Salim o'rtasidagi ishqiy mojoro va Sher Afg'onning o'limida Jahongirning qo'li borligini rad etadi. Doktor Tripati va doktor Sharma ham bu fikrni ma'qullaydilar. Biroq doktor Ishvari Prasad bu fikrni ma'qullamaydi. Doktor Ishvari Prasadning ta'kidlashicha, Sher Afg'onning o'limida shohni ayblashga isbot bo'lmasa-da, uning o'limi tafsilotlari nihoyatda shubhalidir. Gollandiyalik sayyoh De Layetning mashhur "Hindiston ta'rifi va hind tarixchilaridan bir parcha" nomli mashhur asarida: "Mehriniso Sher Afg'onga unashtirilib qo'yilgani tufayli Akbarshoh Salimning unga uylanishiga ruxsat bermagan. Biroq Salim o'zining unga bo'lgan muhabbatini hech qachon unutmagan", deb yozgandi. Demak,

Jahongir Mehrinisoni qizligidayoq yaxshi ko’rgan, biroq u Sher Afg'onga unashtirilgani uchun Akbarshoh bu nikohga ruxsat bermagan. Atrofdagilarning shubhasini so’ndirish uchun uylanish marosimi Sher Afg'on o’limidan so’ng 4 yilga kechiktirilgan [1. – B. 85.].

“Muntahab ut-tavorix” asarining muallifi Hakimxon to‘ra Mehrinisoning Jahongirshoh nikohiga kirishi haqida oldindan bashorat qilingan bir qiziq tush tafsilotini keltiradi. Go‘yo Mehriniso tunlarning birida tush ko‘radi. Tushida osmondan quyosh tushib kelib, ko‘rpasi ichiga kiradi. Shunda u uyg‘onib ketadi va ko‘rgan tushini eri Sher Afg’onga so‘zlab, undan ta’birini so‘raydi. Sher Afg’on tush ta’biri bo‘yicha bilimdon bo‘lgani tufayli, darhol xotinining tushiga quyidagicha ta’bir aytadi: “Sening to‘shagingga podshoh kirar ekan”.

Mehriniso o‘z go‘zalligi, ziyrakligi, farosatli va tadbirkorligi tufayli faqat Jahongirshohnigina emas, balki saroy ahlini ham o‘ziga rom qiladi. Endilikda uni Mehriniso emas, Nurmahal (saroyning nuri) deb ataydilar. Keyinchalik esa jahonning nuri, ya’ni Nurjahon deb ataydilar. Nurjahon begim nozik ta’b shoira ham edi. U Maxfiy taxallusi bilan g‘azallar bitgan. Jahongirshoh saltanatida Nurjahonning otasi E’timod-ud Davla nomi bilan bosh vazirlik lavozimigacha ko‘tarilgan. Uning o‘g‘li, ya’ni Nurjahon begimning akasi Osafxon esa saroy boshqaruvchisi mansabida qoyim bo‘lgan [2. – B. 16.].

Nurjahonbegim Jahongirshoh saltanatida dono maslahatchi edi. Malika mamlakatning ijtimoiy, madaniy hayotiga doir ko‘pgina ezgu tadbirlarni bajargan. U ixtirochi ham edi, chunonchi, gulob va “atri Jahongiriy”ni kashf etgan. Shu bilan birga, bir necha xil xush ta’m, laziz taomlaru xona bezaklarini yaratgan. Saroy a’yonlari orasida uning hurmat e’tibori kun sayin oshib borgan. Tarixiy manbalarning bergan xabariga ko‘ra, Jahongirshoh suyukli xotini Nurjahon begim sharafiga “Nuri Jahonin” deb atalgan 12 grammli oltin tanga zarb ettirgan.

“Muntaxab ut-tavorix” muallifi Nurjahonbegimning shoh bilan qilgan mushoiralaridan (Jahongirshoh ham g‘azallar bitgan) bir nechasini ko‘rsatib

o‘tgan. Bu she’rlarni o‘qigan kishi Nurjahonbegim zamonasining iste’dodli shoirasi bo‘lganligiga shubha qilmaydi. G’azallardan biri quyidagidir:

*Hadisi holi gu dar noma sabt mekardam,*
*Sikandvor kuqat bar sari suxan meso‘xt.*

*Shahidi ishqi turo shab ba xob medidam,*
*Ki hamchu shu’layi fonus dar kafan meso‘xt.*

*Zi so‘zi sinayi Maxfiy shud on qadar ma’lum,*
*Ki hamchu xas, mijaash dar giriston meso‘xt.*

Mazmuni: Sening nomayi a’molingni yozarkanman, so‘z ustidagi nuqtalar isiriq donalaridek yonardi. Ishqingda shahid bo‘lganlarni kechalari tushimda ko‘rardim. Ular xuddi fonus shulasidek, o‘z kafanlari ichida yonardilar. Maxfiy qalbining yonishi shu qadar ediki, yig‘laganda kipriklari xuddi xasdek yonardi [4].

Nurjahon Jahongirga turmushga chiqishi bilanoq o’z ta’sirini kuchaytira boshladi. 1613-yilda Begim darajasiga ko’tarilib, saltanatdagi birinchi mavqedagi ayol o’rnini egallagan. Dastlab u shoh bilan katta qabul marosimlarida ishtirok eta boshladi. Ba’zi bir tanga pullarda uning ismiga ham zarb qilindi. Keyinroq shahning buyruqlariga o’zi imzo qo’ya boshladi. Muhtoz va kambag’al ayollarga yer berish uning ruxsatisiz amalga oshmasdi. Shunday qilib, amaliy jihatdan davlatni idora qilish ishlari Nurjahonbegim qo’liga o’ta boshlagan. Yoshi o’tib borayotgan Jahongir ham sog’ligidagi muammolar sabab bunga qarshilik qilmas edi va ko’p ishlarni aqlli, serg’ayrat rafiqasiga ishongan. Uning mayxo’rlikka kamroq berilishi va go’shtni kamroq iste’mol qilishi ham rafiqasi talabi bilan yuz bergan.

Nurjahonning siyosiy faoliyatini ikki davrga bo’lish mumkin:

Birinchi davr 1611 – 1622-yillarni o’z ichiga oladi. Bu davrda uning otasi va onasi hayot bo’lib, ular Nurjahonning haddan oshib ketishiga yo’l

qo’ymasdan unga yaxshi ta’sir ko’rsatib turar edilar. Bu paytda taxt vorisi shahzoda Xurram bilan ular hamkorlik qilar edilar.

Ikkinchi davr 1622 – 1627-yillarni o’z ichiga oladi. Uning onasi Asmat Begim 1621-yilda, otasi E’timoduddavla 1622-yilda vafot etganidan so’ng uning ishtiyoqini tizginlab turuvchi odam qolmadi. Jahongir esa sog’ligi yomonlashgani tufayli davlat ishini to’laligicha rafiqasiga topshirib qo’ygan, unga katta erkinlik bergan. Natijada, Nurjahonda taxtni to’la egallab, shohning vafotidan keyin ham hokimiyatni qo’ldan chiqarmaslik ishtiyoqi tug’ilgan. Bu esa Shoh Jahon – shahzoda Xurram bilan raqobatga olib kelgan.

Jahongirga turmushga chiqqandan so’ng Nurjahon atrofida uning maslahatchilaridan iborat bo’lgan “Nur Jahon xuntasi” deb atalgan guruh paydo bo’lgan. Bu guruhga uning onasi Asmat Begim, otasi E’timoduddavla hamda shahzoda Xurram kirardi. Taxt vorisi shahzoda Xurram Nurjahonning akasi Asafxonning qizi Arjumand bonu Begimga 1612-yilda uylangan edi. Unga taxtning o’ng tomonida o’tirish huquqi va “Shoh Jahon” unvoni, shuningdek, 30 ming piyoda va 20 ming suvoriyga sarkardalik qilish huquqi berilgan. O’sha davrda E’timoduddavla 7 ming piyoda va 7 ming suvoriyga (1619), Asafxon esa 6 ming piyoda va 6 ming suvoriy (1622) rahbarlik qilish huquqiga ega edilar. 1621-yilda Nurjahon Sher Afg’ondan bo’lgan qizi Lodila Begimni shahzoda Shahriyorga turmushga uzatgan. Bu bilan shahzodaga 8 ming piyoda va 4 ming suvoriyga rahbarlik qilish huquqi berilgan [1. – B. 86-87.]. 1622-yilda Nurjahon begimning otasi vazir E’timod-ud Davlat vafot etgach, Nurjahon begim bilan shahzoda Xurram orasida ayovsiz ziddiyat kuchaygan. Bu davrda kasalmand Jahongirshoh saltanat ishlariga qaramay qo‘ygan, binobarin, davlatni boshqarish asosan Nurjahon begim qo‘lida qolgan edi.

Shahzoda Xurram o‘z kelajagi haqida taraddudlanib, 1622-yilda otasi Jahongirshoh tomonidan o‘z qaramog‘iga topshirilgan nogiron (ko‘r qilingan) akasi – shahzoda Xusravni pinhona bo‘g‘ib o‘ldirtiradi, otasi Jahongirshohga esa “sanchiq azobidan vafot etdi”, deb xabar yuboradi. Shu zaylda saroy ichida

guruhbozlik avj olib, kundan-kun saltanatdan putur keta boshlaydi. Ana shunday qulay vaziyatni ko‘pdan beri kutib turgan Eron hukmdori Shoh Abbos to‘satdan Qandahorni qamal qiladi va qirq kunlik qamaldan so‘ng shaharni qo‘lga kiritadi. Jahongirshoh shaharni qaytarib olish maqsadida shahzoda Xurram boshchiligida katta qo‘shin to‘plab, Qandahorga yubormoqchi bo‘ladi. Lekin shahzoda Xurram saroydagi notinch vaziyatda taxtdan uzoqlashishii istamay, Qandahorga borishdan voz kechadi va tez kunda otasi Jahongirshohga qarshi qo‘zg‘olon ko‘taradi. Qo‘zg‘olon bostiriladi. Ammo saroydagi guruhbozlik, maxfiy fitnalar mamlakatning ichki va tashqi mavqeiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Saltanatni vaqtincha Nurjahonbegim boshqarardi. U o‘z niyatlarini amalga oshirish maqsadida Jahongirshohga sodiq lashkarboshi Mahobatxonni saroydan chetlatib, Bengaliyaga jo‘natadi va mol-mulkini ro‘yxatga oldiradi. Bundan norozi bo‘lgan Mahobatxon saltanatga qarshi bosh ko‘taradi. Shu voqeadan sal vaqt o‘tgach, Jahongirshoh Nurjahonbegim bilan birga poytaxtdan Qobulga qarab safarga chiqadi. Mahobatxon rajputli qo‘shini bilan yo‘lga chiqib, Shoh qofilasini (karvon) o‘rab oladi. Mahobatxonning barcha shartlari Jahongirshoh tarafidan noiloj qabul qilinadi. Nurjahonbegim Mahobatxonga qarshilik ko‘rsatmoqchi bo‘ladi, lekin kuchlar teng emasligiga ko‘zi yetgach, makr-xiyla yo‘lini qidiradi. Shoh karvoni Mahobatxon nazorati ostida Qobulga qarab yo‘l oladi. Qobulga kirilgach, Nurjahon begim Jahongirshohni Mahobatxon soqchilari qo‘lidan qutqarib oladi va Kobul qo‘shinini Mahobatxonga qarshi qo‘yadi. Endi Mahobatxon uchun kochishdan boshqa chora qolmaydi. U Qobuldan qochib Dekanga boradi va shahzoda Xurramga qo‘shiladi.

Ammo bu vaqtda shahzoda Xurramning ahvoli og‘irlashib, Eronga qochib o‘tish fikrida yurardi. Biroq, 1626-yilda oktyabr oyida akasi valiahd shahzoda Parvezning to‘satdan vafot etishi, uning so‘ngan umidlarini yana jonlantirib yuboradi. 1627-yilda Jahongirshoh Kashmir bo‘ylab sayohatga chiqadi.

Sayohatdan qaytayotib, xastalanib yo‘lda vafot etadi va Lahorda dafn etiladi. Bu xabarni eshitgan shahzoda Xurram taxtni egallash uchun Dekandan Agraga yo‘l oladi.

Shahzoda Xurram Agraga yetib kelgunga qadar uning qaynotasi Osafxon muvaqqat ravishda marhum shahzoda Husravning o‘g‘li Dovar Baxshni taxtga o‘tqazadi. Shahzoda Shahriyorni ushlatib, ko‘ziga mil torttirib, ko‘r qiladi. Kuyovi shahzoda Xurramning Agraga yaqinlashgani xabarini eshitgan Osafxon taxt sohibi qo‘g‘irchoq Dovar Baxshni turli-tuman vasvasalar bilan qo‘rqitib, taxtdan voz kechishi va o‘zini panaga olishini maslahat beradi. Dovar Baxsh taxtni tashlab qochadi va Eron shohi huzuriga panoh istab boradi.

Shahzoda Xurram 1628-yil fevral oyida Agraga kirib, aytarlik qarshiliksiz taxtga o‘tiradi Niyatlariga yeta olmagan malika Nurjahon begim 1645-yilda vafot etadi va qabri Lahorning Shoh Dara qabristoniga qo‘yiladi. “Tazkirat ul-havotin”da yozilishicha, Nurjahon begimning qabr toshiga o‘zi bitgan quyidagi bayt yozilgan ekan:

*Bar mazori mo g‘aribon na charog‘i,na guli,*

*Na par parvona yobi, na sadoyi bulbuli.*

Mazmuni: Biz g‘ariblarning mozorimizda, na chiroq, na gul, na bulbul sadosiyu, na biror parvonani topmaysan [5].

Nurjahonbegim siyosiy hayotdan tashqari, ijtimoiy sohalarda ham faol bo‘lgan. Xususan, u savdo bilan shug‘illangan. Bir qancha kemalarga egalik qilib, indigo va kiyim savdosini yo‘lga qo‘ygan. Bu ishlarda unga akasi Asafxon yordam bergan. Inglizlar bilan savdoni yaxshilashga harakat qilishgan, chunki portugallar bilan ularning munosabati yaxshi bo‘lmagan.

Nurjahonbegim qo’shni davlatlarning malikalari bilan ham yaxshi munosabatlar o‘rnatgan. Xususan, malika ashtarxoniy hukmdor Imomqulixonning onasidan maktub olib, javob tariqasida Nurjahon Xo‘ja Nosirni Samarqandga sovg‘a-salomlar bilan jo‘natgan. Shuningdek, Nurjahonbegim yaxshi shoira bo‘lgan va boy kutubxonaga egalik qilgan.

Kambag‘al qizlarning o‘qishi uchun pul ajratib turgan. San’atning rassomchilik turiga ham qiziqib, kiyimlarga va matolarga rasm chizgan.

Nurjahon ovga qiziqqan yagona malika bo‘lsa kerak. 1616-yilda u katta, qrisha degan qushni ovlagan. Ma’lumotlarga qaraganda, 1617-yilda Nurjahonbegim Jahongir bilan ovga chiqqanda, ularga 4 ta yo‘lbars hujum qilgan. Malika hukmdorning ruxsati bilan yo‘lbarslarni o‘ldirgan.

Nurjahon begim me’morchilik sohasiga ham alohida e’tibor bergan. Nursaroy bog‘i va hovlisini, Lahorda Doro Shukoh nomli, uning vakili Nur Saroy nomli bog‘lar qurdirgan, qurilish bitgach katta bayram uyushtirgan. Shuningdek, unga Jahongir tomonidan Zahiriddin Muhammad Bobur tomonidan Agrada qurilgan Gul Afshor nomli bog‘ sovg‘a qilingan va bog‘ga Nur Afshor nomi berilgan. Bobur tomonidan qurilgan yana bir bog‘ – Zahro yoki Zahara ham malikaga berilib, nomi Nur manzilga o‘zgartirilgan. Malikalarga o‘zlari uchun jogir tarzida yerlar hadya qilingan. Nurjahonning Ajmirda jogirlari bo‘lgan. 1617-yilda Xurramning Dekkandagi g‘alabasi sharafiga Todadan ham jogir berilgan. 1622-yilda otasi Etimod ud-davla vafotidan so‘ng, otasining barcha mol-mulki unga qoladi. Bundan tashqari, u Bengal va Butandan Iskandarobodga keladigan savdogarlardan boj olish huquqiga ham ega bo‘lgan [6].

## XULOSA

Xulosa qilib shuni aytishim mumkinki, Nurjahanbegimning murakkab, oz’ navbatida ziddiyatli hayot-faoliyati nafaqat Boburiylar imperiyasi, balki butun Sharq ayollarining siyosiy va madaniy hayotida o’ziga xos o’ringa ega. Uning siyosiy faoliyati va madaniy tashabbuslari bugungi kunda ham tarixchilar va tadqiqotchilar tomonidan katta qiziqish bilan o‘rganilmoqda. Nurjahonbegim o‘z davrining eng buyuk, ma’rifatli va ta’sirchan ayollaridan biri sifatida tarix sahifalarida abadiy nom qoldirgan.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sharma L. P. Boburiylar saltanati. – Toshkent: Ma’naviyat, 1998.

2. Fayziyev Turg'un. Temuriy malikalar. – T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1994.
3. Fayziyev Turg'un. Temuriylar shajarasi. – T.: Yozuvchi, 1995.
4. https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/tarix/temuriy-malikalar/nurjahon-begim
5. https://uz.wikipedia.org/wiki/Nurjahon_begim
6. https://oyina.uz/uz/article/3297

# THE HISTORY OF UZBEK NATIONAL SKULLCAPS AND THEIR MUSEUM EXHIBITION (A CASE STUDY OF THE STATE MUSEUM OF APPLIED ARTS AND HISTORY OF HANDICRAFT OF UZBEKISTAN)

**Nurullayeva Zulayho Ravshan qizi**

*Doctoral student (PhD)*

*National Institute of Fine Arts and Design named after Kamoliddin Behzod*

*zulayho9294@mail.ru*

***Abstract:*** *This article provides information on the history and origin of the do'ppi, the Uzbek national skullcap. It also notes that these skullcaps are preserved in the museums of Uzbekistan and displayed in exhibitions. The article discusses the do'ppis in the collection of the State Museum of Applied Arts and Handicraft History of Uzbekistan and provides their descriptions.*

***Keywords:*** *museum, collection, skullcap, decoration, pattern, ribbon, applied art, exposition*

## INTRODUCTION

Looking at the history of the Uzbek skullcap, it can be seen that it is an ancient and enduring headwear among national traditional garments. Initially, the skullcap was popular among Turkic peoples and entered Russia in the 13th century. The first information about the skullcap dates back to the 4th century BC. In one of the relief images of a man carved into the rock of Behustun in 519 BC, it can be seen that the headgear is very similar to the shape of the current skullcap. Headwear resembling a skullcap is also found in Oriental miniatures from the 15th–16th centuries.

In museums, skullcaps worn by different peoples and regions from different periods are widely exhibited. National headwear is preserved and exhibited in museum collections. When placing a skullcap in a collection, demonstrating it, and describing it, each of its characteristics is studied separately and meticulously. For each characteristic, the author, if the author is unknown, full information about the period and school, full name,

comprehensive description, signatures, dates, inscriptions, material and technique used, size, and storage condition is recorded in the scientific registration book.

## MAIN PART

Currently, ancient and vibrant examples of applied art, which have risen to the level of high art, are preserved in the museums of our republic. The Decree "On the Radical Improvement and Improvement of Museum Activities" dated January 12, 1998, emphasizes the need to "further improve the system of museums established in the territory of Uzbekistan since ancient times, increase their role in the spiritual and moral development of the people, carefully preserve, study, enrich, present to the world, and popularize the unique exhibits stored in museum collections that reflect the rich history of our people and the steps of our independence, and widely use them to strengthen feelings of national pride, independence, and devotion to the Motherland in the minds of our people." It should be noted that the activities of museums in Uzbekistan are improving.

Especially in recent years, a number of works have been carried out to preserve and exhibit ethnographic and applied art objects in museums. In particular, in accordance with Cabinet of Ministers Resolution No. 975 dated December 11, 2017, a number of local history museums were transformed into regional museums of culture and history, changes were made to the names of some museums, and their activities were expanded. In particular, the "Museum of Applied Arts" in Tashkent was reorganized under the name "State Museum of the History of Applied Arts and Crafts of Uzbekistan."

Today, the museum's treasury houses priceless masterpieces of applied art created by master craftsmen, spanning the period from the first half of the 19th century to the present day. The works of folk applied art stored in the museum's treasury can be divided into three artistic groups:

First, these are works of applied art related to schools, created on the basis of ancient traditions, reflecting the uniqueness of each region;

Secondly, since the second half of the 20th century, folk masters have not lost their traditional style, developing it with their creative memory and enriching it with more artistic decoration.

The third group, based on the development of applied art today, consists of mature works decorated with colorful, diverse patterns that meet the requirements of modern art.

The objects collected in the museum's reserve are kept in collections of twenty titles and are exhibited in expositions of these types. More than 50 types of the most unique masterpieces of folk applied arts, which are an integral part of our national culture, are exhibited. The museum has a unique collection of skullcaps, one of the most popular and widespread types of folk applied art, from our national headwear.

Among the skullcaps kept in the museum collection, you can see wonderful examples of all schools, such as Fergana, Tashkent, Namangan, Shakhrisabz, Bukhara, Boysun, made by advanced masters of the XIX-XX centuries. In 1960, a Shahrisabz skullcap made with "Iroqi" stitches was included in the museum's exposition. The upper part of this soft type of skullcap is conical in shape, with patterns consisting of red, pink, and green floral and geometric shapes. A thin ribbon with a pattern is sewn onto the lower part of the skullcap. This type of "Iroqi" skullcap was widespread in Shahrisabz, later spread to other places, and began to be created in the unique decorative style of each local place. In this type of skullcap, the fabric is sewn with colored silk or fine-fiber cotton thread in an iraki stitch.

The best examples of Iroqi skullcaps are made by skullcap makers from Shakhrisabz and Kitab. Collections of Shahrisabz skullcaps sewn in the "Iroqi" stitch are also present in the museum's collection and are called "Laylo" skullcaps.

Among the rare collections preserved in the museum, the "Iroqi" skullcaps of Tashkent and Margilan, which are the largest and rarest, continue

to attract the attention of art enthusiasts. The unique Margilan skullcaps of the 20th century were hand-stitched using the "iraqi" stitch. It is decorated with flowers, plants, and geometric patterns on a light turquoise background. The general appearance of the patterns resembles a flower garden. Separated from the center by black stripes into four sectors. The lower part is bordered by a black velvet ribbon 1.5 cm wide.

Additionally, the museum will exhibit finely composed Andijan skullcaps. In these skullcaps, velvet is decorated with beads, piston beads, and delicate beads. The cap, made in 1950, has a dark red base and is decorated with white beads. The patterns formed the image of flowers. Artistically beautiful colors are also bright and shiny, and beaded flowers of white color make the skullcap even more shiny. The rim is embroidered with dark black velvet.

Another local group, the "Chust" skullcaps, holds a special place in skullcap weaving. In the "Tus döppi," i.e., the only classical version of Chust skullcaps, eight jewelry stitching styles are used: chain stitch, straight stitch, chita, kungura, yetalatma, comb, ova, and pilpilrak are considered the main stitches. Among the skullcaps on display in the museum are Chust skullcaps restored by hand in the 1960s-1980s. These skullcaps are embroidered with white silk on a black background. The patterns are embroidered in pepper and almond patterns. The lower part is covered with a circular black ribbon. Pepper and almond patterns have their own meanings.

Boysun skullcaps are also present in the museum and differ from skullcaps from other regions.

The Boysun men's skullcap kept in the museum was made in 1960. Its shape at first glance resembles the appearance of a rib. The upper part is conical in completion. A combination of several colors, such as yellow, green, and white, was used to sew the skullcap. When viewed from above, an eight-pointed star is visible in the center of the skullcap. In general, geometric shapes are clearly visible on the skullcap. To date, there are modern varieties of such skullcaps.

Bukhara gold-embroidered skullcaps are also one of the museum's unique collections. These skullcaps mainly date back to the 1940s-1960s. Bukhara skullcaps are decorated with gold threads. In the collection, we find skullcaps for brides, young girls, and boys. Their difference is in the cuffs on the skullcap, that is, in the lines around the skullcap. Black-striped skullcaps were worn by men. A geometrically patterned ribbon was sewn into the lower part, completing the composition.

## CONCLUSION

The skullcaps in the museum differ from each other in appearance, pattern styles, and harmony of artistic symbols. The natural conditions of each region, the environment, the way of life of the population and the historical development of local traditions, and the development of general culture had a great influence on the production of skullcaps. For example, the Surkhandarya and Kashkadarya (especially Baysun) skullcaps in the museum are made with round, dome-shaped threads that differ from each other, while the Bukhara skullcaps are made with gold threads.

In conclusion, it can be said that the skullcap, which is a part of our national dress, is regaining value in social life and rising to the level of art, which is undoubtedly a joyful event. Skillfully handmade skullcaps are widespread not only in our country but also abroad. skullcaps created by Uzbek embroiderers decorate museum exhibitions in Uzbekistan, as well as foreign ones.

## REFERENCES:

1. President of the Republic of Uzbekistan. (January 12, 1998). On the fundamental improvement and direct management of museum production (Decree UP-1913). Tashkent, Uzbekistan.
2. Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan. (December 11, 2017). On the development of a program of comprehensive measures for the further improvement of production and the development of the material and technical base of state museums for 2017–2027 (Resolution No. 975). Tashkent, Uzbekistan.
3. Museum of Applied Arts of Uzbekistan. (n.d.). Retrieved June 25, 2026.
Muradova, D. (2004). Skullcaps of Uzbekistan. Tashkent: Uzbekistan.
4. Council of Arts of Uzbekistan. (1991). (No. 12, p. 29).
5. Fazili, M. (2005). This is not a skullcap cosmogony or an image of an almond. Art, (3-4).

6. Khakimov, A., and Fayzieva, V. (2014). From the unique treasury of the State Museum of Arts of Uzbekistan. Tashkent: State Museum of Arts of Uzbekistan.

# "ONA TILI" FANI DARSLARIDA O‘QUVCHILARNING IJODIY FIKRLASH KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI. (YUQORI SINFLAR MISOLIDA)

Magistr: **Xoldarova Sitora Shuhratjon qizi**

İlmiy raxbar: **Yakubova Umida Sharifovna**

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqola "Ona tili" darslarida o'quvchilarning ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishning dolzarb masalalariga bag'ishlangan. Unda yuqori sinf o'quvchilarining til o'rganish jarayonida ijodiy salohiyatini oshirishga qaratilgan samarali pedagogik texnologiya taklif etiladi. Maqolada ushbu texnologiyaning asosiy tamoyillari, bosqichlari va qo'llash usullari atroflicha yoritilgan. Taklif etilgan yondashuv o'quvchilarda mustaqil fikrlash, muammolarni ijodiy hal etish va nutq madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Natijada, o'quvchilarning "Ona tili" faniga bo'lgan qiziqishi ortib, ularning intellektual rivojlanishi ta'minlanadi.*

***Kalit so‘zlar:*** *Ona Tili, Ijodiy Fikrlash, Ko'nikmalarni Rivojlantirish, Pedagogik Texnologiya, Yuqori Sinf O'quvchilari, Til Ta'limi, Innovatsion Metodlar, Nutq Madaniyati*

***Abstract:*** *This article addresses the pressing issue of developing students' creative thinking skills in "Mother Tongue" (Uzbek language) lessons. It proposes an effective pedagogical technology aimed at enhancing the creative potential of high school students in the language learning process. The article thoroughly describes the main principles, stages, and application methods of this technology. The proposed approach contributes to fostering independent thinking, creative problem-solving, and speech culture among students. Consequently, students' interest in the "Mother Tongue" subject increases, ensuring their intellectual development.*

***Keywords:*** *Mother Tongue, Creative Thinking, Skills Development, Pedagogical Technology, High School Students, Language Education, Innovative Methods, Speech Culture*

***Аннотация:*** *Данная статья посвящена актуальным вопросам развития навыков творческого мышления учащихся на уроках "Родного языка" (узбекского языка). В ней предлагается эффективная педагогическая технология, направленная на повышение творческого потенциала старшеклассников в процессе изучения языка. В статье подробно описаны основные принципы, этапы и методы применения данной технологии. Предложенный подход способствует формированию у учащихся самостоятельного мышления, творческого решения проблем и культуры речи. В результате повышается интерес учащихся к предмету "Родной язык" и обеспечивается их интеллектуальное развитие.*

***Ключевые слова:*** *Родной Язык, Творческое Мышление, Развитие Навыков, Педагогическая Технология, Старшеклассники, Языковое Образование, Инновационные Методы, Культура Речи*

## KIRISH

Zamonaviy ta’lim tizimi o‘quvchilardan nafaqat ma’lumotlarni o‘zlashtirishni, balki ularni tahlil qilish, sintezlash va yangi g‘oyalar yaratish qobiliyatini ham talab etadi. Global raqobatbardoshlik va innovatsion iqtisodiyot sharoitida ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish har qanday ta’lim bosqichining ustuvor vazifalaridan biriga aylangan. O‘zbekiston Respublikasida ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar ham shaxsning har tomonlama kamol topishiga, jumladan, ijodiy salohiyatini yuzaga chiqarishga qaratilgan. Ona tili fani o‘quvchilarning ma’naviy-intellektual rivojlanishida, ularning dunyoqarashini kengaytirishda va ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi [2]. Ona tilida aniq va ravon muloqot qilish qobiliyati bilan bir qatorda, ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish o‘quvchilarning umumiy dunyoqarashini kengaytirish uchun asosiy omil hisoblanadi.

Shu nuqtai nazardan, ona tili darslarida ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan samarali pedagogik texnologiyalarni joriy etish dolzarb ahamiyatga ega. An’anaviy o‘qitish metodlari ko‘pincha grammatik qoidalar va adabiy matnlarni yod olishga urg‘u berib, o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, o‘z g‘oyalarini erkin ifodalash va ijodiy yondashuvlarini cheklab qo‘yishi mumkin. Holbuki, ijodiy pedagogik yondashuvlarni integratsiyalash

o‘quvchilarning mustaqil va tanqidiy fikrlash qobiliyatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi, ularga yangi g‘oyalarni shakllantirish va o‘z nuqtai nazarlarini cheklovlarsiz ifodalash imkoniyatini beradi [1]. Bu esa o‘quvchilarning akademik muvaffaqiyatini oshirish bilan birga, ularning kelajakdagi hayotiy ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi.

Mazkur maqola "Ona tili" fani darslarida, xususan, yuqori sinflar misolida, o‘quvchilarning ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan texnologiyalarni chuqur tahlil qilish va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishni maqsad qilgan. Tadqiqot ona tili ta’limida ijodiy fikrlashni rivojlantirishning nazariy asoslari, mavjud holati va muammolarini o‘rganadi, shuningdek, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va metodlarni qo‘llash bo‘yicha amaliy yechimlarni taklif etadi. Ushbu ish ona tili darslarida innovatsion yondashuvlarni joriy etish orqali o‘quvchilarning ijodiy salohiyatini to‘laqonli ro‘yobga chiqarishga ilmiy-metodik hissa qo‘shadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

So‘nggi yillarda ta’lim sohasidagi tadqiqotlarda o‘quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish masalasi markaziy o‘rinni egallamoqda. Xususan, ona tili ta’limi jarayonida bu ko‘nikmalarni shakllantirishga qaratilgan ilmiy izlanishlar tobora ortib bormoqda. Zamonaviy pedagogika ijodiy fikrlashni shaxsning innovatsion g‘oyalarni yaratish, muammolarni nostandart yechish va o‘ziga xos yondashuvlarni ishlab chiqish qobiliyati sifatida baholaydi. Bu borada, ona tili darslarida ijodiy fikrlashni rivojlantirishning nazariy asoslari va amaliy mexanizmlari ko‘plab olimlar tomonidan o‘rganilgan. Masalan, ayrim tadqiqotlar ijodiy fikrlashning lingvistik asoslarini, ya’ni til vositalari orqali g‘oyalarni shakllantirish va ifodalash jarayonlarini tahlil qiladi [3]. Boshqa ishlar esa ijodiy fikrlashni rivojlantirishda tilning kognitiv funksiyalari, metafora va metonimiya kabi nutqiy figuralarning ahamiyatini ko‘rsatadi [4]. Ushbu yondashuvlar ijodiy fikrlashni nafaqat psixologik, balki lingvistik hodisa sifatida ham ko‘rib chiqish zarurligini ta’kidlaydi.

Ona tili ta’limida ijodiy fikrlashni rivojlantirishning pedagogik asoslari chuqur o‘rganilgan. Jumladan, boshlang‘ich sinflarda ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida ijodiy fikrlashni shakllantirishning pedagogik asoslari, turli usullar, yondashuvlar va aniq texnikalar atroflicha yoritilgan [1]. Ushbu tadqiqotda ijodiy pedagogik yondashuvlarni integratsiyalashning chuqur ahamiyati, ularning o‘quvchilarning mustaqil va tanqidiy fikrlash qobiliyatiga sezilarli ta’siri batafsil ko‘rib chiqiladi. Garchi bu ish boshlang‘ich sinflarga qaratilgan bo‘lsa-da, unda ilgari surilgan ijodiy muhitni yaratish, o‘quvchilarga yangi g‘oyalarni shakllantirish va o‘z nuqtai nazarlarini cheklovlarsiz ifodalash imkoniyatini berish tamoyillari yuqori sinflar uchun ham universal ahamiyatga ega. Bu tamoyillar o‘quvchilarning akademik muvaffaqiyatini oshirish bilan birga, ularning kelajakdagi hayotiy ko‘nikmalarini ham rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ona tili darslarining o‘quvchilarning ma’naviy-intellektual rivojlanishidagi o‘rni va ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishdagi ahamiyati ko‘plab tadqiqotlarda alohida ta’kidlangan. Xususan, ona tili ta’limining shaxsning ma’naviy va intellektual rivojlanishiga ta’siri, ona tilida aniq va ravon muloqot qilish qobiliyati bilan bir qatorda, ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish o‘quvchilarning umumiy dunyoqarashini kengaytirish uchun asosiy omil ekanligi qayd etilgan [2]. Ushbu tadqiqot ona tili darslarini innovatsion fikrlash jarayonlarini rag‘batlantirish va og‘zaki nutq ko‘nikmalarini takomillashtirishga yo‘naltirilgan strategik metodologiyalar va pedagogik yondashuvlarni qo‘llash uchun asosiy mexanizm sifatida belgilaydi. Bu esa ona tili ta’limining nafaqat lingvistik bilim berish, balki kognitiv o‘sish va tasavvur ifodasini rivojlantirishdagi kompleks rolini ko‘rsatadi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ona tili darslarida ijodiy fikrlashni rivojlantirish uchun turli pedagogik texnologiyalar va metodlar taklif etilgan. Bularga loyiha asosida o‘qitish, muammoli ta’lim, evristik suhbatlar, ijodiy yozma ishlar (esse, hikoya, she’r yozish), rolli o‘yinlar, munozaralar, aqliy

hujum (brainstorming) usuli, klaster, Venn diagrammasi kabi grafik tashkilotchilar, shuningdek, zamonaviy raqamli vositalardan foydalanish kiradi [5, 6]. Ayniqsa, so‘nggi yillarda raqamli hikoya yaratish (digital storytelling), interaktiv platformalar va multimedia resurslari orqali ijodiy fikrlashni rag‘batlantirishga qaratilgan tadqiqotlar dolzarb hisoblanadi [7]. Bu metodlar o‘quvchilarni passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantirib, ularning mustaqil fikrlash, tahlil qilish va sintez qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Biroq, ko‘plab tadqiqotlar ushbu metodlarning umumiy samaradorligini o‘rgangan bo‘lsa-da, ularni yuqori sinflarda ona tili darslarining o‘ziga xos sharoitlarida qo‘llash bo‘yicha chuqur amaliy tavsiyalar va aniq misollar yetarli emas.

Shu bilan birga, ijodiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan pedagogik yondashuvlarni amaliyotga joriy etishda bir qator muammolar mavjudligi ham adabiyotlarda qayd etilgan. Bularga o‘qituvchilarning ijodiy ta’lim metodologiyalari bo‘yicha yetarli malakaga ega emasligi, o‘quv dasturlarining an’anaviy yondashuvlarga moyilligi, ijodiy ishlarni baholashning murakkabligi va darsliklardagi ijodiy topshiriqlarning cheklanganligi kiradi [8]. Ayniqsa, yuqori sinflarda o‘quvchilarning imtihonlarga tayyorgarlik ko‘rish zaruriyati ko‘pincha ijodiy faoliyatga ajratiladigan vaqtni cheklab qo‘yadi. Mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ona tili darslarida ijodiy fikrlashni rivojlantirishning nazariy asoslari va umumiy metodologiyalari yetarlicha o‘rganilgan bo‘lsa-da, yuqori sinf o‘quvchilarining yosh xususiyatlari va o‘quv dasturlari talablarini inobatga olgan holda, aniq texnologiyalar va ularni amaliyotga joriy etish bo‘yicha tizimli yechimlar, ayniqsa O‘zbekiston ta’lim tizimi kontekstida, hali to‘liq ishlab chiqilmagan. Mazkur tadqiqot aynan shu bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan bo‘lib, mavjud ilmiy bilimlarni umumlashtirgan holda, yuqori sinflarda ona tili darslarida ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish bo‘yicha samarali va amaliyotga tatbiq etiladigan texnologiyalarni taklif etishni maqsad qilgan.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot "Ona tili" fani darslarida o‘quvchilarning ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish texnologiyasini ishlab chiqishga qaratilgan bo‘lib, fundamental nazariy bilimlar va amaliy yechimlarni o‘zida mujassam etadi. Uning asosiy maqsadi ijodiy fikrlashning nazariy asoslarini chuqur tahlil qilish, ona tili ta’limidagi mavjud muammolarni aniqlash hamda yuqori sinflar uchun samarali pedagogik texnologiyalar va metodlarni taklif etishdan iborat. Tadqiqot sifatli (qualitative) yondashuvga asoslangan bo‘lib, mavjud ilmiy adabiyotlarni tanqidiy tahlil qilish, sintez qilish va umumlashtirish orqali yangi g‘oyalar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi. U deskriptiv, analitik va normativ (tavsiyaviy) xarakterga ega bo‘lib, ona tili ta’limi amaliyotini takomillashtirishga yo‘naltirilgan.

Tadqiqot obyekti umumta’lim maktablarining yuqori sinflarida "Ona tili" fanini o‘qitish jarayoni hisoblanadi. Tadqiqot predmeti esa "Ona tili" darslarida o‘quvchilarning ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar va ularni ta’lim amaliyotiga joriy etish mexanizmlaridir. Ushbu ishda o‘quvchilarning yosh xususiyatlari, kognitiv rivojlanish darajasi va ona tili fanining o‘ziga xos didaktik imkoniyatlari alohida e’tiborga olinadi.

Birinchidan, nazariy tahlil metodi keng qo‘llanildi. Bu metod pedagogika, psixologiya, lingvistika va metodika sohalaridagi ilmiy adabiyotlarni, jumladan, ijodiy fikrlash nazariyasi, pedagogik texnologiyalar, ona tili ta’limi metodikasi bo‘yicha manbalarni chuqur o‘rganish va tanqidiy tahlil qilishni o‘z ichiga oldi. Xususan, ijodiy fikrlashning lingvistik asoslari, til vositalari orqali g‘oyalarni shakllantirish va ifodalash jarayonlari, shuningdek, tilning kognitiv funksiyalari, metafora va metonimiya kabi nutqiy figuralarning ijodiy fikrlashni rivojlantirishdagi ahamiyati atroflicha ko‘rib chiqildi. Bu jarayonda mahalliy va xorijiy olimlarning ijodiy fikrlashni rivojlantirishga oid yondashuvlari, jumladan, boshlang‘ich sinflarda ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida ijodiy

fikrlashni shakllantirishning pedagogik asoslari [1] hamda ona tili darslari orqali o‘quvchilarning ijodiy sifatlarini rivojlantirish yo‘llari [2] bo‘yicha tadqiqotlar alohida e’tiborga olindi. Adabiyotlar tahlili ona tili darslarining o‘quvchilarning ma’naviy-intellektual rivojlanishidagi o‘rni va ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishdagi ahamiyatini tasdiqladi [2].

Ikkinchidan, qiyosiy-tahliliy metod yordamida ona tili darslarida ijodiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan turli pedagogik texnologiyalar va metodlar (masalan, loyiha asosida o‘qitish, muammoli ta’lim, evristik suhbatlar, ijodiy yozma ishlar, rolli o‘yinlar, munozaralar, aqliy hujum usuli, klaster, Venn diagrammasi, raqamli hikoya yaratish va boshqalar) qiyosiy tahlil qilindi. Bu tahlil ularning samaradorligi, afzalliklari va kamchiliklari, shuningdek, yuqori sinf o‘quvchilarining kognitiv ehtiyojlari va ona tili fanining o‘quv dasturlari talablariga mosligini baholash imkonini berdi.

Uchinchidan, sintez va umumlashtirish metodlari tahlil qilingan ma’lumotlar asosida ijodiy fikrlashni rivojlantirishning samarali texnologiyalarini birlashtirish, ularning umumiy tamoyillarini va ona tili darslariga tatbiq etish imkoniyatlarini umumlashtirish uchun qo‘llanildi. Bu metodlar orqali turli yondashuvlarning eng maqbul jihatlari ajratib olindi va yagona, yaxlit texnologik yechimlar tizimiga integratsiyalashtirildi.

To‘rtinchidan, sistematizatsiya va tasniflash metodlari aniq ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik texnologiyalarni tizimlashtirish va ularni ona tili darslarining turli bosqichlarida (masalan, yangi mavzuni o‘rganish, mustahkamlash, baholash) qo‘llash bo‘yicha tasniflash uchun xizmat qildi. Bu, o‘qituvchilar uchun amaliy qo‘llanma yaratishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Beshinchidan, pedagogik modellashtirish metodi ona tili darslarida ijodiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan texnologik modelni ishlab chiqish va uning komponentlarini asoslashda qo‘llanildi. Ushbu model yuqori sinf o‘quvchilarining kognitiv va ijodiy salohiyatini maksimal darajada oshirishga

qaratilgan bo‘lib, o‘quv jarayonining har bir bosqichida ijodiy faoliyatni rag‘batlantirishni nazarda tutadi.

Oltinchidan, prognostiklash metodi taklif etilayotgan texnologiyalarning kelajakdagi ta’lim jarayoniga ta’sirini, ularni yanada takomillashtirish yo‘nalishlarini va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish istiqbollarini bashorat qilish uchun ishlatildi. Bu, tadqiqot natijalarining uzoq muddatli ahamiyatini belgilashga yordam berdi.

Birinchi bosqich (muammoli-tahliliy): Bu bosqichda tadqiqot muammosining dolzarbligi asoslandi, mavzu bo‘yicha mavjud ilmiy adabiyotlar chuqur o‘rganildi, ona tili ta’limida ijodiy fikrlashni rivojlantirishning nazariy asoslari tahlil qilindi va amaliyotdagi mavjud muammolar aniqlandi.

Ikkinchi bosqich (metodologik-ishlab chiqish): Ushbu bosqichda ijodiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlar tanlab olindi, ularni yuqori sinflar uchun moslashtirish ishlari amalga oshirildi. Natijada, amaliy tavsiyalar, didaktik materiallar va dars ishlanmalari ishlab chiqildi.

Uchinchi bosqich (umumlashtiruvchi-tavsiyaviy): Yakuniy bosqichda ishlab chiqilgan texnologiyalar tizimlashtirildi, ularni amaliyotga joriy etish bo‘yicha yakuniy tavsiyalar berildi, tadqiqot natijalari umumlashtirildi va ilmiy xulosalar shakllantirildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi ona tili darslarida ijodiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan texnologiyalarni yuqori sinflar misolida O‘zbekiston ta’lim tizimi kontekstida tizimli ravishda ishlab chiqish va asoslashdan iborat. Mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, ona tili darslarida ijodiy fikrlashni rivojlantirishning nazariy asoslari va umumiy metodologiyalari yetarlicha o‘rganilgan bo‘lsa-da, yuqori sinf o‘quvchilarining yosh xususiyatlari va o‘quv dasturlari talablarini inobatga olgan holda, aniq texnologiyalar va ularni amaliyotga joriy etish bo‘yicha tizimli yechimlar, ayniqsa O‘zbekiston ta’lim

tizimi kontekstida, hali to‘liq ishlab chiqilmagan. Mazkur tadqiqot aynan shu bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati esa ishlab chiqilgan texnologiyalar, metodlar va tavsiyalarning ona tili o‘qituvchilari tomonidan bevosita o‘quv jarayoniga tatbiq etilishi, o‘quvchilarning ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini samarali rivojlantirishga xizmat qilishi bilan belgilanadi. Bu esa o‘quvchilarning nafaqat akademik ko‘rsatkichlarini oshirish, balki ularning kelajakdagi kasbiy faoliyatida va shaxsiy hayotida muvaffaqiyatga erishishlari uchun zarur bo‘lgan innovatsion va nostandart fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishga yordam beradi.

## XULOSA

Ushbu maqolada "Ona tili" darslarida yuqori sinf o‘quvchilarining ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishning nazariy asoslari chuqur tahlil etilib, amaliyotdagi dolzarb muammolar aniqlandi. Tadqiqot natijasida, O‘zbekiston ta’lim tizimi kontekstida, an’anaviy yondashuvlardan farqli o‘laroq, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlarni integratsiyalashga asoslangan tizimli yechimlar taklif etildi. Ishlab chiqilgan texnologiyalar o‘quvchilarda mustaqil, tanqidiy va innovatsion fikrlashni shakllantirishga qaratilgan bo‘lib, ularning akademik muvaffaqiyatini oshirish bilan birga, kelajakdagi hayotiy va kasbiy faoliyatida zarur bo‘lgan ijodiy salohiyatni to‘laqonli ro‘yobga chiqarishga xizmat qiladi. Ushbu ish ona tili ta’limida innovatsion yondashuvlarni joriy etish orqali o‘quvchilarning ijodiy salohiyatini to‘laqonli ro‘yobga chiqarishga ilmiy-metodik hissa qo‘shadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

[1] Yuldasheva N.A. Ona tili va adabiyot ta’limida o‘quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari // Pedagogik mahorat. – 2022. – № 1. – B. 124-128. – https://elib.buxdu.uz/index.php/journals/pedagogik-mahorat/issue/view/10

[3] Qodirova D.A. Ona tili darslarida innovatsion texnologiyalardan foydalanish orqali o‘quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish // Zamonaviy dunyoda ilmiy tadqiqotlar: muammo va yechimlar. – 2023. – № 1. – B. 24-27. – https://www.tadqiqot.uz/index.php/tadqiqot/article/view/100

[6] Raxmonova M.M. Ona tili darslarida o‘quvchilarning kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantirishning didaktik asoslari // Oriental Art and Culture. – 2023. – № 1. – B. 34-38. – https://orientalart.uz/index.php/oac/article/view/100
[9] Abdullayeva M.X. Ona tili ta’limida axborot texnologiyalaridan foydalanish orqali o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish // Pedagogika va psixologiya. – 2023. – № 1. – B. 123-127. – https://journal.samdu.uz/index.php/pedagogika/article/view/100

# “QO‘SHNAY” CHOLG‘U IJROCHILIGIDA INNOVATSION USLUBLAR

**Primov Sardor Islom o‘g‘li**

*O‘zbekiston davlat konservatoriyasi,*

*“Xalq cholg’ularida ijrochilik” kafedrasi o‘qituvchisi*

***Аннотация:*** *Человеческая жизнь всегда была тесно связана с музыкой. духовые инструменты тоже очень старые, то есть это первые музыкальные инструменты. Один из таких инструментов - Кошнай, звук которого близок сердцу, в сознании слушателей своей национальной мелодией. Эта статья о старинном узбекском национальном инструменте «Кошнай». С развитием аппликации, которая позволяла использовать хроматическую гамму и определять определенный диапазон на кошнае, возникла необходимость в предоставлении обучения игре на кошнае в консерватории. Стиль «Growl» использовался в джазовом мире, и та же техника была использована на инструменте кошнае в «I Feel Good» Джеймса Брауна.*

***Ключевые слова:*** *Духовность, музыкальный инструмент, диапазон, оркестр, инструменталисты, мелодия, гомофоническая музыка, ансамбль, стаккато*

***Abstract:*** *Human life has always been closely associated with music. wind instruments are also very old, that is, they are the first musical instruments. One of such instruments is Koshnai, the sound of which is close to the heart, in the minds of listeners with its national melody. This article is about the ancient Uzbek national instrument "Koshnai”. With the development of an appliqué that allowed the use of the chromatic scale and the identification of a specific range on the koshnay, the need arose to provide koshnay training at the conservatory. The "Growl" style was used in the jazz world, and the same technique was used on the koshnai instrument in James Brown's "I Feel Good".*

***Keywords:*** *Spirituality, musical instrument, diapason, orchestra, instrumentalists, melody, homophonic music, ensemble, staccato*

## “Qo‘shnay” cholg‘u ijrochiligida innovatsion uslublar

Yoshlarning e’tiborini faqat zamonaviy estrada emas, shu bilan birga milliy va an’anaviy, mumtoz qo‘shiqlarni kuylash, tinglash, o‘rganishga qaratish lozim. Zamonaviy badiiy madaniyatda esa milliy cholg‘u “Qo‘shnay cholg‘usining o‘rni va tarixi, texnik xususiyatlari va ijrochilarning mahoratlari

dunyo tan olishi bu Qo‘shnay cholg‘usi ijrochilariga birdek muhim va ahamiyatlidir. Musiqiy cholg‘ular insoniyat ma’naviyatini, turmush tarzini, ichki kechinmalarini ohanglar orqali nafaqat insoniyatga balki jamiiyki tirik jon va mavjudodlarga yetkazib beruvchi vosita hisoblanadi. Hatto o‘simliklar musiqa ta’sirida yuksak rivojlanishini biolog olimlar ta’kidlashmoqda. Bu mo‘jizaviy va ifodaviy cholg‘ular azal-azaldan omma orasida shakllanib, mohir cholg‘u ustalari tomonidan yasalib, tobora mukammallashmoqda. Xar bir xalqning cholg‘ularida o‘sha xalqning milliy g‘ururi, urf-odatlari an’anasi, qadriyatlari o‘z ifodasini topgan va ulardan taralayotgan ohanglarda buni his etish mumkin. Qadimdan musiqa cholg‘ulariga bo‘lgan etibor kuchli bo‘lishi bilan bir qatorda uning tarbiyaviy ahamiyatigaham alohida e’tibor berilgan. Zero, har bir komil inson tarbiyasida musiqa eng muhim orin tutadi, ya’ni insonlarni ruhiy hamda ma’naviy tarbiyasiga asos bo‘la oladigan omil sifatida qaraladi.

Odamzod hayoti azaldan musiqa bilan chambarchas bog‘liq. Damli cholg‘ular ham juda qadimgi ya’ni birinchi ohang taratuvchi musiqa cholg’ularidan hisoblanadi. Bu cholg‘ulardan biri, qo‘shnay cholg‘usi bo‘lib, ovozi qalbga yaqin, eshituvchilarning ongida o‘zining milliy ohangi bilan qalblardan joy olgan. Qo‘shnay cholg‘usi choponlar cholg‘usi hisoblanib ularning eng yaqin hamrohi hisoblangan . Har bir cholg‘u sodda ko‘rinishi oddiy odamlar tomonidan, keyinchalik sozandalarning tomonidan takomillashtirilishi natijasida nisbatan yangi ko‘rinish hamda mukammal cholg‘ular paydo bo‘ladi. Qo‘shnay ham sibizg‘a(**Sibizg**‘a, sibiziq, cho‘pon nay – tilchalipuflama o‘zbek xalq musiqa cholg‘u asbobi. Hozirda, asosan, cho‘ponlar orasida tarqalgan. Qamishdan yasaladi. Diametri, odatda, 5—6 mm, uz. 140—150 mm bo‘ladi. Ustki tomonida, puflanadigan uchining 10—15 mm pastrogida tilchasi, undan quyida uchta teshikchasi bo‘ladi. Diapazoni, odatda, seksta. Sibizg‘ada ko‘proq oddiy cholg‘u mashqlar, xalq qo‘shiqlari kuylari chalinadi) cholg‘usining takomillashi natijasida paydo bo‘lgan musiqa cholg‘usidir.

Cho‘ponlar qamishdan yasalgan bu cholg‘ularda o‘tlab yurgan poda, suvurlarni boshqarishgan.

O‘zbekistonda damli cholg‘ular tarixi uzoq o‘tmish borib taqaladi. “Qadimgi Farg‘ona sirlari” (Fan va turmush” jurnali, 1989-yil 1-soni) maqolada eramizning V-VII asrlarida yashagan farg‘onaliklar saga‘nalari topilganligi va u yerda qamishdan yasalgan qo‘shnay musiqa cholg‘usi ham borligi aniqlangan.

Toshkent, Farg‘ona, Buxoro, Surxandaryo, Xorazm va boshqa hududlarda qo‘shnay musiqa cholg‘u ustoz shogird an’analari saqlangan holda o‘tib kelmoqda. Qadimiy Xorazmda eramizdan oldingi V-VI asrlarda boy va taraqqiy topgan musiqa madaniyati yuzaga kelgan va tasviriy san’at maunalarida keltirilgan misiqiy sozlar orasida damli cholg‘u mavjud bo‘lganligini arxeologlar kashfiyotida ko‘rishimiz mumkin.

Qo‘shnayning paydo bo’lish tarixi ham uzoq o’tmishga borib taqaladi. Qo‘shnayning ilk namunalari to‘g‘risida Al-Forobiy o‘zining musiqiy risolasida ta’riflab o‘tgan. Qo‘shnay iborasi, fors tilidan olingan bo‘lib, qo‘sh-juft yoki ikki nay degan ma’noni bildiradi. Qo‘shnay musiqa cholg‘usini yakka tartibda, ansambl jo‘rligida va orkestr jo‘rligida ijro etadilar.

Qo‘shnay cholg‘usida xalq bayramlari, marosimlar, shodiyona kunlarida foydalanadilar. Qo‘shnay damli cholg‘ular orasi nafaqat ohangi bilan balki ijro etish murakkabligi bilan ajralib turadi. Bu cholg‘u faqat O‘zbekiston hududida emas, bizning qo‘shni davlatlarimiz bo‘lmish Tojikiston hamda Turkmaniston davlatlari ham mavjud. Ularning tuzilishi va ijro qilish holatlarida deyarli farq qilmaydi. Hozirda Toshkent, Xorazm, Farg‘ona, Samarqand, Qashqadaryo, Surxandaryo, Buxoro, Navoiy va boshqa viloyatlarda ustoz shogird an’analariga tayangan holda maktab, kasb-hunar kollejlari va oliy o‘quv yurtlarida o‘rgatilib kelinmoqda.

Hozirgi kunda cholg‘uning yangi bosqichga rivojlanish davri ketmoqda desam adashmagan bo‘laman. So‘z isboti bilan cholg‘uda ijro etib kelinayotgan va qo‘shnay uchun maxsus yaratilayotgan asarlar misolida ko‘rishimiz mumkin.

Tobora cholg‘uni xalq va ijrochilar orasida rivojlanayotgani quvonchli holat va bu cholg‘uning yanada ko‘proq yashashi uchun xizmat qiladi. Repertuar haqida so‘z olib borsak, cholg‘uda turli millat kuylari va ko‘plab janrlardagi asarni ijro qilinmoqda. Bular misolida Turk, Ozar, Arab, Koreys, Xitoy, janrlardan esa - jazz, klassika, zamonaviy musiqa, milliy estrada asarlari sekin astalik bilan qo‘shnay ijrochilari orasida mukammal ijro darajasiga olib chiqilmoqda. Ayniqsa 1946-yilga Coleman Randolph Hawkins (November 21, 1904 – May 19, 1969) tomonidan qo‘llangan **“growl”** uslubi jazz olamida o‘zgacha ko‘rinish berdi va shu usul qo‘shnay cholg‘usida James Brownning “I feel good” asarida qo‘llab ko‘rildi, tomoshabinlar orasida olqishlarga sazovor bo‘ldi.

Qo’shnay cholg‘usidagi tovushlarning hosil bo‘lish manbai o‘pkadan chiqadigan havo (nafas) dir, o‘pka havoni yuborib turadi, chiqqan havo (nafas) ikkita bronx va traxeya orqali o‘tadi. Chiqib kelayotgan nafasni tovush hosil qiluvchi holatga keltirishda qorin bilan ko‘krak qafasini ajratib turuvchi parda (diafragma) xizmat qiladi. Chiqayotgan jarang (ovoz), tovush naychalarining tebranishi natijasida yuzaga keladi. Tovush hosil qilishda nafas asosiy vositalardan hisoblanadi. Nafas olish uch turga bo‘linadi:

Tovushning balandligi – tovush naychalarining uzunligi, tarangligi va tebranish miqdoriga bog‘liq. Tebranish qancha ko‘p bo‘lsa, tovush shunchalik baland bo‘ladi, tovush naychalari qancha nozik bo‘lsa, u shuncha tez tebranadi, natijada tovush baland chiqadi. Tovushni paydo qiluvchi va kuchaytiruvchi vositalardan biri – rezonator (kuchaytirilgan ohang-tovushni kuchaytirib beruvchi moslama) deb ataladi. Tovush tembrining hosil bo‘lishida yuqori rezonator – og‘iz, burun bo‘shliqlari juda muhimdir, bunda til asosiy o‘rinni egallaydi.

Inson organizmining o‘sishida jismoniy mashqlar va nafas apparatining ahamiyati haqida so‘z yuritganda – “ijro nafasi” faqat ijro jarayoni natijasida rivojlanishini nazarda tutish kerak. Har qanday mashqlarni cholg‘usiz bajarilishi nafasni tashkil etishda o‘quvchiga hech qanday naf keltirmaydi. Nafas

chiqarishning ijro sifati - eshitish qobiliyati orqali nazorat etiladi, tovushni uqib olish shunday nafas chiqarishning natijasidir. Pedagogik amaliyotda gammalarni sekin sur'atda turli nyuanslar (tovush ohangdoshligi) bilan ijro etib foydalanish maqsadga muvofiqdir. Ayrim ijrochilar nafas chiqarayotgan paytda, havoning bir qismi burundan chiqib ketishi natijasida tovush bo'linib ketadi va ma'lum miqdorda *tovush tusi - tembr sifatini yo'qotadi*. Bunday kamchilik har doim bo'lmasada uchrab turadi.

**Nafas** – musiqiy ta'sir kuchining eng asosiy vositalaridan biridir. Ijrochida nafas qanchalik rivojlangan bo'lsa, tovush ohangdoshligi (nyuans) ham shunchalik xilma-xil bo'ladi. Lekin nafas olishda ijroning dinamik tomonlari tovush sifatigagina bog'liq emas, nafas yordami bilan musiqiy jumlalar bir-biridan ajratiladi. Nafasning tez-tez almashib turishi ba'zan hayajonlanishga olib keladi, natijada kuchli qisqa musiqiy jumlalar ifodalanishga sabab bo'lishi mumkin.

Qo'shnay ijrochiligini ustoz-shogird an'analariga tayangan holda andijonlik ustoz, O'zbekistonda xizmat ko'rtsatgan artist Ashurali Yusupov, toshkentlik Xayrullo Ubaydullayev, Adbuqayum Azimov, G'aybulla Ubaydullayev, Narzullo Ne'matov, Bahrom Sobirovlar, xorazmlik ustoz Quranboy Bobojonovlar ko'plab shogirdlarni yetqazib berganlar.

O'zbek ijrochilik amaliyotida qo'shnay ijrochilari unchalik ko'p bo'lmagan. Lekin Ahmadjon Umrzoqov (Farg'ona vodiysi) va uning shogirdi Quronboy Boboxonov (Xorazm) kabi ustoz va mohir san'atkorlar xalq orasida nom chiqargan qo'shnaychilardir.

Ayni paytda Yo'ldosh Tojiyev, Matrasul Matyoqubov, Saddin Saddinov, Olim Xudoyberganov, Ikrom Matanov, Nasriddin Ro'ziyev, Hamro Matnazarov kabi bir qator ijrochilar qo'shnay ijrochilik san'atini mohirona davom ettirib kelmoqdalar.

XIX asr boshlarida o'zbek xalq cholg'u ansambllari tarkibiga g'ijjak, tanbur, dutor, chang, rubob, nay, qo'shnay, va doyralar kiritilgan. 1926 yilda

tuzilgan 21 ijrochidan iborat bo‘lgan truppani atoqli Davlat arbobi Muhiddin Qoriyoqubov tuzgan va bevosita unga rahbarlik qilgan. Truppada Ahmadjon Umurzoqov qo’shnay chalgan.

Qo‘shnayda xromatik tovush qatordan foydalanish va muayyan diapozonni aniqlash imkonini beradigan aplikatura ishlab chiqilishi bilan konservatoriyada qo‘shnay ixtisosligi bo‘yicha ta‘lim berish zarurati tug‘ildi.

Toshkent Davlat konservatoriyasida 1948 yil qo‘shnay sinfi ochilgan bo‘lib, uning ilk bor bitiruvchilari N.Nig‘matov va K.Odilovlar bo‘lganlar.

1970 yildan boshlab qo‘shnay sinfini avval A.Odilov (changchi) boshqardi, keyinchalik esa M.Toyirov (naychi) boshqarib kelganlar.

Hozirgi kunda qo‘shnay cholg‘usi tobora ommalashib bormoqda. Ayniqsa ansambl va ko‘plab orkestrlar tarkibida qo‘shnay cholg‘usi borligi albatta quvonarli hol. Bulardan “So‘g‘diyona” xalq cholg‘ulari kamer orkestri, To‘xtasin Jalilov nomidagi O‘zbekiston Davlat Akademik xalq cholg‘ulari orkestri, Yunus Rajabiy nomidagi maqom ansambli va boshqa jamoalar tarkibida qo‘shnay cholg‘usi mavjud. Shu o‘rinda “So‘g‘diyona” xalq cholg‘ulari kamer orkestrida o‘z faoliyatini olib borayotgan, hayotining deyarli 40 yilini shu cholg‘u uchun baxshida etgan ajoyib ijrochi Nasriddin Ro‘ziyev yangi kuylar yaratib kelmoqdalar.

O‘zbekiston taxiri o‘z ichiga juda chuqur va yirik shaklda ma‘lumotlarni oladi. Tarixdan turli xil kasblar rivojlanishi bilan bir qatorda juda turli xil musiqa cholg‘ulariga va boy madaniyatga ega bo‘lgan musiqa san’ati ham rivojlanib kelgan. O’zbek xalqi orasida jozibador ovozi orqali keng tarqalgan, milliy damli cholg‘ulardan nay, qo‘shnay, surnay kabi musiqa cholg‘ular azaldan keng o‘rin egallab kelgan. So‘ngi yillarda o‘zbek xalqining qadimiy cholg‘ularidan qo‘shnay va bulamon kabi milliy cholg‘ularini targ‘ib qilish va uni mukammal o‘rganish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Chunki bu cholg‘u ko‘rinishi jihatidan sodda ko‘rinsada, ijro etish borasida boshqa sozlarga qaraganda anchagina murakkab soz hisoblanadi. Bunga asosiy sabab cholg‘u tilchali bo‘lib, ikkita

nayni qo‘shib chalish katta mashaqqiyat talab etadi. Cholg‘u soziga ahamiyat berish bilan bir qatorda, havo bosimini muntazam ravishda boshqarish kerak, aks holda ikki nay bir biriga qo‘shilmaydi. Cholg‘uning biror bir aniq o‘lchami yo‘q, ya’ni cholg‘uni yasash jaroyonida cholg‘u uzunligi va dastani qalin ingichkaligi, har bir ijro teshigining oralig‘i ma’lum bir o‘lchovga ega emas. O‘z o‘zidan savol tug‘ilishi mumkinki bularni hammasi cholg‘uning sozlanishiga tasir qiladi. Cholg‘uchi mukammal eshitish qobiliyatiga ega bo‘lishi lozim chunki xar bir tovush baland pastligi eshitilgan holda lab orqali olinadi. Cholg‘u dastasining uzun kalta, ingichka yoki yo‘g‘on bolishi bevosita cholg‘u ovoziga tasir ko‘rtasadi. Ingichka dastali cholg‘u kam nafas hamda nisbatan eshitish jihatidan ingichkaroq(keskinroq) eshitiladi. Qalin dastali cholg‘u esa havoni ko‘proq talab qiladi ya’ni ko‘p nafas bo‘lib, eshitilish jihatidan ovozi nisbatan biroz yo‘g‘onroq(mayinroq) bo‘ladi. Qo‘shnay sozini cholg‘uchi o‘ziga moslashtirib(qamishlarni axta qilib) olmagunicha biroz qiyinchilikka uchraydi. Yangi yasalgan cholg‘u har kuni ijro etish kerak bo‘ladi. Chunki cholg‘u qancha ko‘p ijro etilgani sari issiq havo oqimi ichiga kirib qamish ichi terlaydi va qamish axta bo‘la boshlaydi. Qamishning ichi terlashi natijasida uning tili yumshaydi va milliy melizmlarni ya’ni nola qilish uchun sekin astalik bilan mukammal darajada yetilib boradi. Shunday holatlar ham boladiki cholg‘uni issiq yoki iliq suvga solib qamishni tezroq axta qilish(yetiltirish) ham mumkin, ammo cholg‘uni ijro qilib axta qilgan maqsadga muvofiq bo‘ladi. Sababi tabiiy havo bosimi bilan cholg‘u ichi sekin astalik bilan sifatli yetiladi. Qo‘shnay cholg‘usida milliylik bilinib turadi va ko‘proq milliy kuylarni ijro qilish qulay. Albatta cholg‘uda boshqa xalqlar hamda akademik asarlarni ham ijro qilsa boladi. Lekin buning uchun ma’lum bir mashqlar; uzun nota cho‘zish, tovush sifati ustida alohida ishlash, **staccato** shtrixida ko‘proq mashqlar va yana bir qancha usullarda qilish kerak bo‘ladi.

Qo‘shnayning tuzilishiga kelsak: ikki qamish naychadan iborat bo‘lib, ulargamaxsus tilcha o‘rnatiladi. Qo‘shnayni chalish uchun ikkita naychaga bir

xil puflanadi va har ikkala naychada yondosh joylashgan yettita teshikchaning tegishlilari barmoq bilan bosiladi. Ovoz hajmi birinchi oktavadagi ***re*** dan ikkinchi oktavadagi ***sol*** gacha (ayrim mashhur qo‘shnaychilar ikkinchi oktava ***lya, si*** hatto bundan ham yuqori tovushlar hosil qiladilar). Qo‘shnayda o‘zbek musiqasi uchun xos bo‘lgan musiqiy bezaklar (melizmlar) ni chalish juda qulaydir. Qo‘shnayda kuy ijro etuvchi sozandani xalq orasida **«Qo‘shnaychi»** deb yuritiladi.

O‘zbekistonda mashhur qo‘shnaychilardan Ahmadjon Umurzoqov, Ashurali Yusupov, Matrasul Matyoqubov (1958 yil tug‘ilgan Urgench musiqa bilim yurtida o‘qituvchi, ikkinchi respublika maqom ijrochilari konkursining sovrundori birinchi mukofot), Bahrom Sobirov (1945 yil tug‘ilgan «Bahor» ansamblining sozandasi) Yo‘ldosh Tojiyev (1960 yil) Urganchda o‘qituvchi va boshqalar.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. M.Matyakubov “Qo‘shnay darsligi” 2004.
2. O.Ibrohimov “Qo‘shnay sadolari” 2003.
3. Matrasul Matyoqubov. SURNAY . Toshkent 2003.
4. O.Toshmatova. “Doni Zokirov o‘zbek xalq cholg‘ulari orkestri”. T., 2015.
5. G.Ergasheva. “Chang cholg‘u ijrochiligi tarixi” . T., 2022.

# RAQAMLI DALILLARNI SUD-EKSPERTIZA TEKSHIRUVIGA TAQDIM ETISHNING PROTSESSUAL-HUQUQIY MEXANIZMLARI: NAZARIYA VA AMALIYOT

**Maqola muallifi – Mansurov Oybek Olim o‘gli**

*X.Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertizasi markazi huzuridagi Sud ekspertlik ilmiy-tadqiqot instituti doktoranti*

*Elektron pochta: oybekoybek2237@gmail.com*

***Annotation:*** *This article provides a theoretical and practical analysis of the procedural and legal mechanisms for submitting digital evidence for forensic examination. The author identifies normative gaps in the current legislation of the Republic of Uzbekistan, systematizes procedural problems that arise during the formalization of digital evidence, and puts forward specific proposals for improving legislation based on international standards (ISO/IEC 27037, NIST SP 800-86) and the experience of foreign countries (Germany, Estonia, USA, Kazakhstan). Specifically, the article examines the features that distinguish digital evidence from traditional physical evidence, as well as the issues of legally consolidating hash-sums, write-blocker technologies, and the chain of custody principle. Within the framework of the criminal procedure legislation of the Republic of Uzbekistan, the article also analyzes current legal issues regarding the procedural formalization of objects of examination in forensic expertise*[18].

***Keywords:*** *digital evidence, digital trace, digital object, digital forensics, procedural mechanism, forensic examination, electronic evidence*

***Аннотация:*** *В настоящей статье проводится теоретический и практический анализ процессуально-правовых механизмов представления цифровых доказательств на судебную экспертизу. Автор выявляет нормативные пробелы в действующем законодательстве Республики Узбекистан, систематизирует процессуальные проблемы, возникающие при оформлении цифровых доказательств, и на основе международных стандартов (ISO/IEC 27037, NIST SP 800-86) и опыта зарубежных стран (Германии, Эстонии, США, Казахстана) выдвигает конкретные предложения по совершенствованию законодательства. В статье, в частности, рассматриваются особенности, отличающие цифровое доказательство от традиционного*

[18] ISO/IEC 27037 [10] standarti raqamli dalillarni aniqlash, to'plash va saqlash bo'yicha asosiy mezonlarni belgilaydi

*вещественного доказательства, а также вопросы законодательного закрепления хеш-суммы, технологий блокировки записи (write-blocker) и принципа непрерывности владения (chain of custody). Анализируются актуальные правовые проблемы процессуального оформления объектов исследования в судебной экспертизе в рамках уголовно-процессуального законодательства Республики Узбекистан.*

***Ключевые слова:*** *цифровое доказательство, цифровой след, цифровой объект, цифровая криминалистика, процессуальный механизм, судебно-экспертное исследование, электронное доказательство*

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada raqamli dalillarni sud-ekspertiza tekshiruviga taqdim etishning protsessual-huquqiy mexanizmlari nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Muallif O‘zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligidagi normativ bo‘shliqlarni aniqlaydi, raqamli dalillarni rasmiylashtirish jarayonida yuzaga keladigan protsessual muammolarni tizimlashtiradi hamda xalqaro standartlar (ISO/IEC 27037, NIST SP 800-86) va xorijiy davlatlar tajribasi (Germaniya, Estoniya, AQSh, Qozog‘iston) asosida qonunchilikni takomillashtirish bo‘yicha konkret takliflar ilgari suradi. Maqolada, xususan, raqamli dalilni an'anaviy ashyoviy dalildan farqlovchi xususiyatlar, xesh-summa, write-blocker texnologiyalari va zanjirli saqlash (chain of custody) tamoyilini qonuniy mustahkamlash masalalari ko‘rib chiqiladi. O‘zbekiston Respublikasi jinoyat-protsessual qonunchiligi doirasida sud ekspertizasida tekshiruv obyektlarini protsessual jihatdan rasmiylashtirishning dolzarb huquqiy muammolari tahlil qilinadi*

***Kalit so‘zlar:*** *raqamli dalil, raqamli iz, raqamli obyekt, raqamli kriminalistika, protsessual mexanizm, sud-ekspertiza tekshiruvi, sud-ekspertiza tekshiruvi, elektron dalil.*

## INTRADUCTION

The rapid development of digital technologies has fundamentally increased the importance of digital evidence at all stages of criminal proceedings. Today, computer files, SMS messages, social media posts, email, and other digital data serve as crucial evidence in a large portion of criminal cases. However, the lawful and procedurally correct submission of this evidence for forensic examination is creating numerous problems in practice.

The amendments and additions to Article $204^2$ of the Criminal Procedure Code of the Republic of Uzbekistan, introduced on November 21, 2024, are aimed at improving the system for handling digital evidence. However, a specific

procedural mechanism for submitting digital evidence for forensic examination has not yet been adequately developed. This negatively impacts the quality of expert conclusions and the reliability of the evidence base[19].

The urgency of this issue lies in the fact that digital evidence is fundamentally different from traditional physical evidence: it can be easily copied, modified, or destroyed, and traces of alteration are often invisible. Therefore, special technical requirements—such as hash sums, write-blockers, and audit logs—as well as procedural guarantees are necessary to properly document it.

In forensic science, the proper formalization of examination objects is one of the key factors determining the legal force of an expert's conclusion. An analysis of practice shows that in the majority of cases where an expert's opinion is rejected by the court or a re-examination is ordered, deficiencies in the formalization of the objects are cited as the primary reason. The purpose of this article is to theoretically and practically analyze the procedural and legal mechanisms for submitting digital evidence for forensic examination, identify existing regulatory gaps, and develop proposals to improve the legislation of Uzbekistan based on international standards.

The role of digital evidence in criminal proceedings has been extensively studied in foreign academic literature. S.Y. Skobelin notes that electronic devices (phones, smartphones, computers, payment systems) are actively used to commit crimes. The sequence of actions performed using these devices is often saved on them, which makes these digital traces an important source of evidence[20].

E.R. Rossinskaya identifies two main directions for the digitalization of forensic activities: first, the use of modern information technologies to solve various forensic tasks; second, the study of new objects of expert examination,

[19] O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi https://lex.uz/docs/-111460
[20] Skobelin S.Yu. Tsifrovye dokazatelstva v ugolovnom protsesse. — M.: Yurlitinform, 2021. — 224 s. / Скобелин, С.Ю. Цифровые доказательства в уголовном процессе. — М.: Юрлитинформ, 2021. — 224 с.

which represent information of forensic significance recorded in digital form on electronic media.

O.V. Flerov describes digital footprints as a reflection of a person's life and personality: based on them, it is possible to determine a user's interests, social status, and even their level of intellectual development. A.A. Bessonov, on the other hand, defines electronic traces as digitally recorded information that is causally linked to a criminal event and allows for the identification of the perpetrator[21].

Digital evidence is distinguished from traditional physical evidence by a number of key characteristics. These differences necessitate special procedural mechanisms when they are submitted for forensic examination.

1. It can be easily copied; an unlimited number of copies can be made from digital evidence, and a copy is technically indistinguishable from the original. 2. Easily alterable; the content, metadata, or file properties can be changed without leaving noticeable traces. 3. Traces of alteration are often invisible; visual inspection is insufficient, and a special technical analysis is necessary. 4. Not dependent on a carrier; the same information can be stored in multiple places simultaneously (cloud, local, disk, server). 5. Time-dependent properties; the creation, modification, and access date and time are automatically recorded. 6. Metadata is crucial evidence; invisible information within the file (author, device, location) has legal significance.

Due to these characteristics, the traditional procedure of seizure, sealing, and submission cannot be fully applied when presenting digital evidence for expert examination. This requires special technical and procedural mechanisms.

According to V.M. Abrosimova and a group of scholars, instances of loss or damage to expert examination objects do occur, which limits the possibility

[21] Bessonov A.A. O nekotorykh vozmozhnostyakh sovremennoy kriminalistiki v rabote s elektronnymi sledami. // Vestnik Universiteta imeni O.Ye. Kutafina (MGYUA). — 2019. — №3. — S. 47. / Бессонов, А.А. О некоторых возможностях современной криминалистики в работе с электронными следами // Вестник Университета имени О.Е. Кутафина (МГЮА). — 2019. — №3. — С. 47.

of conducting a re-examination. In practice, there are problems related to the preservation of examination objects and ensuring their integrity.

The loss of or damage to objects leads to the following negative consequences: the drawing of incorrect conclusions; the loss of the opportunity to conduct a repeat expert examination; and sometimes the suspension of a criminal case or the issuance of an acquittal. To resolve this issue, it is necessary to legally establish clear procedures for the preservation and integrity of these objects. As a result of the research, the following author's definition of the concept of a digital object is proposed:

A digital object is an object of forensic examination, composed of various digital traces located on a carrier object. It has a two-part structure consisting of the digital trace as information and its physical carrier. Unlike the concepts of "digital trace" and "digital evidence," it represents the direct physical subject of the expert investigation.

This definition is distinct from the concepts of digital evidence (Article $204^2$ of the CPC) and a digital trace. “Digital evidence” is a means of proof, a “digital trace” is an arbitrary mark, and a digital object is the direct subject of an expert examination.

The issue of digital evidence is being progressively regulated within our national legislation. Specifically, Law No. O'RQ-1003, adopted on November 21, 2024,[22] In accordance with the law, relevant amendments and additions have been made to Article 2042 of the Code of Criminal Procedure. An analysis of these changes reveals that "digital evidence" and "digital trace" are closely related yet conceptually distinct categories. Therefore, a need arises to separately study the legal significance of digital traces in judicial, investigative, and forensic practices.

[22] O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 21.11.2024 yildagi O‘RQ-1003-son https://lex.uz/docs/-7228758#-7229236

The concept of a digital footprint can be defined as follows: any data or trace, existing in the form of information, left in an electronic environment during the activity of a user or device.

Digital traces manifest in various forms and appearances. They can be recorded on the following media: standalone storage devices, such as hard drives and flash drives; computer systems and networks; mobile communication devices, tablets, servers, and cloud storage systems; in the form of electronic documents; digital images created using specialized software; data input, output, and processing devices; and sets of information transmitted through communication channels[23].

Based on the analysis above, we consider it appropriate to amend the first part of Article 175 of the Criminal Procedure Code (Objects of Examination) to read as follows: Objects of examination may include physical evidence, samples for expert analysis, material objects, corpses and their parts, documents, electronic data stored in electronic devices and information systems, digital objects (computer files, software, digital traces, large data arrays, etc.), as well as the materials of the case under examination. Expert examinations may also be conducted on a living person.

A detailed study of the properties, types, and forms of existence of digital traces allows for the formulation of an author's definition of the "digital object" concept, which will form the theoretical basis of the dissertation. According to the proposed definition: a digital object is an object recorded on a carrier medium, consisting of a set of interconnected digital traces, and serving as the direct subject of a forensic examination. It should be noted that it is appropriate to use the terms "digital object" and "object in digital form" interchangeably. The main criterion for defining a digital object as the unity of a digital trace and its

[23] Россинская, Е. Р., Семикаленова, А. И. 2020. Основы учения о криминалистическом исследовании компьютерных средств и систем как часть теории информационно-компьютерного обеспечения криминалистической деятельности / Е. Р. Россинская, А. И. Семикаленова // Вестник Санкт-Петербургского университета. Право 3. — 2020. — Том. 11. №3. С. 747.

physical carrier is the necessity of legally consolidating the two-component nature of this concept.

In the context of digitalizing forensic expert activities, E.R. Rossinskaya identifies two main strategic directions: the first is the enhancement of collecting, storing, processing, and presenting information during the examination process using modern information technologies; the second is the scientific research of new objects for expert examination, which contain forensically significant information recorded in the digital environment[24].

O.V. Flerov defines digital traces as a "digital portrait" that reflects a person's identity[25]" describes them as follows: based on them, it is possible to obtain information about a user's interests, worldview, social status, and even psychological state. A.A. Bessonov, however, defines electronic traces as information recorded in digital format that is directly causally linked to a criminal event and helps to identify the perpetrator[26]. Scientists from Kutafin Moscow State Law University (MSAL) expand upon this concept from a technological viewpoint: the fact that special software tools are required to convert a digital object into a human-perceptible format—whether graphic, text, or audiovisual proves that these traces possess a material nature[27]. The Society of American Archivists, in turn, defines a digital footprint as a set of data and its associated metadata expressed in a binary system, classifying them into simple (a single file) and complex (multiple interconnected files) types.

## REFERENCES

1. ISO/IEC 27037 [10] standarti raqamli dalillarni aniqlash, to'plash va saqlash bo'yicha asosiy mezonlarni belgilaydi
2. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi https://lex.uz/docs/-111460

[24] Россинская, Е. Р. Судебная экспертиза: типичные ошибки: 2-е издание, монография / под. ред. Россинской Е.Р. — М.: Проспект, 2024. С. 537.
[25] Флеров, О. В. Цифровой след человека в интернете: основные гуманитарные подходы / О. В. Флеров // Образовательные ресурсы и технологии. — 2018. — №4 (25). С. 80.
[26] Бессонов, А. А. О некоторых возможностях современной криминалистики в работе с электронными следами / А. А. Бессонов // Вестник Университета имени О.Е. Кутафина (МГЮА). — 2019. — №3. С.47.
[27] Кафедра судебных экспертиз // Официальный сайт Университета имени О.Е. Кутафина https://msal.ru/structure/kafedry-obshcheakademicheskie/kafedra-sudebnykh

3. Skobelin S.Yu. Tsifrovye dokazatelstva v ugolovnom protsesse. — M.: Yurlitinform, 2021. — 224 s. / Скобелин, С.Ю. Цифровые доказательства в уголовном процессе. — М.: Юрлитинформ, 2021. — 224 с.
4. Bessonov A.A. O nekotorykh vozmozhnostyakh sovremennoy kriminalistiki v rabote s elektronnymi sledami. // Vestnik Universiteta imeni O.Ye. Kutafina (MGYUA). — 2019. — №3. — S. 47. / Бессонов, А.А. О некоторых возможностях современной криминалистики в работе с электронными следами // Вестник Университета имени О.Е. Кутафина (МГЮА). — 2019. — №3. — С. 47.
5. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 21.11.2024 yildagi O‘RQ-1003-son https://lex.uz/docs/-7228758#-7229236
6. Россинская, Е. Р., Семикаленова, А. И. 2020. Основы учения о криминалистическом исследовании компьютерных средств и систем как часть теории информационно-компьютерного обеспечения криминалистической деятельности / Е. Р. Россинская, А. И. Семикаленова // Вестник Санкт-Петербургского университета. Право 3. — 2020. — Том. 11. №3. С. 747.
7. Россинская, Е. Р. Судебная экспертиза: типичные ошибки: 2-е издание, монография / под. ред. Россинской Е.Р. — М.: Проспект, 2024. С. 537.
8. Флеров, О. В. Цифровой след человека в интернете: основные гуманитарные подходы / О. В. Флеров // Образовательные ресурсы и технологии. — 2018. — №4 (25). С. 80.
9. Бессонов, А. А. О некоторых возможностях современной криминалистики в работе с электронными следами / А. А. Бессонов // Вестник Университета имени О.Е. Кутафина (МГЮА). — 2019. — №3. С.47.
10. Кафедра судебных экспертиз // Официальный сайт Университета имени О.Е. Кутафина https://msal.ru/structure/kafedry-obshcheakademicheskie/kafedra-sudebnykh

# NIZOMIDDIN SHOMIY VA SHAROFIDDIN ALI YAZDIY “ZAFARNOMA”LARINING JAHON SHARQSHUNOSLIGIDA O‘RGANILISHI

**Sharifova Nazokat Olimboy qizi**

***Annotatsiya:*** *Amir Temur va Temuriylar davri davlatchiligi, harbiy san’ati hamda madaniy renessansi nafaqat mintaqa, balki jahon tarixining uzviy qismi hisoblanadi. Ushbu davr tarixini birlamchi manbalar asosida xolis o‘rganishda Nizomiddin Shomiy va Sharofuddin Ali Yazdiy tomonidan yozilgan “Zafarnoma” asarlari fundamental poydevor vazifasini o‘taydi. Ushbu tezisda har ikkala asarning xorijda xususan, Yevropa, Rossiya va g‘arb tarixnavisligida o‘rganilishi qiyosiy tahlil qilinadi.*

***Kalit so‘zlar:*** *Amir Temur, Temuriylar, Nizomiddin Shomiy, Sharofuddin Ali Yazdiy, “Zafarnoma”, jahon sharqshunosligi, manbashunoslik tahlili, Feliks Tauer, g‘arb tarixnavisligi.*

***Аннотация:*** *Государственность, военное искусство и культурный ренессанс в период правления Амира Тимура и Тимуридов являются неотъемлемой частью не только региональной, но и мировой истории. Работы Низамиддина Шами и Шарафуддина Али Язди «Зафарнома» играют основополагающую роль в объективном изучении истории этого периода на основе первоисточников. В данной статье представлен сравнительный анализ изучения обоих трудов за рубежом, в частности, в европейской, российской и западной историографии.*

***Ключевые слова:*** *Амир Темур, Темуриды, Низамуддин Шами, Шарафуддин Али Язди, «Зафарнама», мировое востоковедение, источниковедение, Феликс Тауер, западная историография.*

***Abstract:*** *The statehood, military art and cultural renaissance of the era of Amir Temur and the Temurids are an integral part of not only regional, but also world history. In the objective study of the history of this period based on primary sources, the works "Zafarnoma" written by Nizamiddin Shami and Sharafuddin Ali Yazdi serve as a fundamental foundation. This thesis provides a comparative analysis of the study of both works abroad, in particular in European, Russian and Western historiography.*

***Key words:*** *Amir Timur, Timurid dynasty, Nizam al-Din Shami, Sharaf al-Din Ali Yazdi, Zafarnama, western historiography, oriental studies, source criticism.*

## KIRISH

Amir Temur va Temuriylar davri davlatchiligi, harbiy san'ati hamda madaniy renessansi nafaqat mintaqa, balki jahon tarixining uzviy qismi hisoblanadi. Ushbu davr tarixini birlamchi manbalar asosida xolis o'rganishda Nizomiddin Shomiy va Sharofuddin Ali Yazdiy tomonidan yozilgan "Zafarnoma" asarlari fundamental poydevor vazifasini o'taydi. Ushbu ikki asar o'z davrining rasmiy va eng ishonchli xronikalari bo'lishi barobarida, asrlar davomida xalqaro sharqshunoslik va yevropalik tadqiqotchilar diqqat markazida bo'lib kelmoqda. Mazkur tezisda har ikki manbaning jahon tarixnavisligidagi o'rganilish darajasi, tarjimalari va ularga berilgan ilmiy baholar qiyosiy-manbashunoslik nuqtai nazaridan tahlil qilinadi.

Nizomiddin Shomiy va Sharofuddin Ali Yazdiyning fors tilida bitilgan "Zafarnoma" asarlari Amir Temur va temuriylar davlatchiligini, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy hamda madaniy-ma'naviy taraqqiyotini o'rganishda nafaqat o'zbek tarixnavisligi, balki, jahon sharqshunosligida, xususan, Yevropa, Rossiya va Osiyo mamlakatlarida eng ko'p o'rganilgan va tarjima qilingan Markaziy Osiyo tarixiy manbalaridan hisoblanadi.

Nizomiddin Shomiy 1393-1404-yillarda Amir Temur xizmatida bo'lib, uning harbiy yurishlarida voqeanavis va voiz sifatida ishtirok etgan. Amir Temur unga o'z tarixini aniq va sodda tilda yozib berishni buyurgan. Nizomiddin Shomiy "Zafarnoma" asarini 1402-1404 yillarda yozib tugatgan. Asar jahongirning hokimiyat tepasiga kelishidan (1370) to 1404-yilgacha bo'lgan voqealarni o'z ichiga oladi[28]. Chindan ham sodda tilda va ravon uslubda yozilgan "Zafarnoma" asari xorijiy sharqshunoslikda ham chuqur o'rganilgan. Shomiy "Zafarnoma"sining faqat 2 qo'lyozma nusxasi saqlanib qolgan. Birinchisi, Amir Temurga taqdim etilgan qo'lyozmaning 1425-yilda ko'chirilgan nusxasi bo'lib, Istanbulda Nuri Usmoniya masjidi kutubxonasida 3367 inventar raqam bilan saqlanadi. Ikkinchisi, muallifning o'zi tomonidan Amir Temurning nabirasi Mirzo Umar ibn Mironshohga taqdim etilgan

[28] A. Madraimov, G. Fuzailova. Manbashunoslik – Toshkent.: "Fan" nashriyoti,2007,107-bet.

qo‘lyozmadan 1434-yili ko‘chirilgan nusxasi bo‘lib, Londondagi Britaniya muzeyi kutubxonasida 23980 inventar raqam bilan saqlanadi.[29] Bu qo‘lyozmalarda ayrim kamchiliklar bo‘lganligi sababli chex olimi Feliks Tauer Hofizi Abruning “Zubdat-ut tavorix” asari bilan solishtirib, asarning 2 jilddan iborat ilmiy-tanqidiy matnini 2 marta Pragada 1937 va 1956 yillarda nashr etilgan, forscha matni esa Tehronda chop etilgan[30]. Asarning ikkinchi jildida noshirdan so‘zboshi, Hofizi Abrudan qo‘shimchalar va nusxalardagi farqlar berilgan. Asar so‘nggi yillarda g‘arb va sharq olimlari tomonidan turli tillarga tarjima qilindi. Jumladan, 1949-yil Anqarada Nejoti Lug‘ol Feliks Tauer nashri asosida qisqartirilgan holatda turk tiliga tarjima qildi.

Sharofuddin Ali Yazdiy “Zafarnoma” sining qimmati shundaki, unda Mo‘g‘ul imperiyasining tarkibida tashkil topgan Oltin O‘rda, Elxoniylar davlati, Chig‘atoy ulusi, shuningdek Movaraunnahrning Chingizxon zamonidan to Temur davlatining paydo bo‘lishigacha bo‘lgan ijtimoiy-iqtisodiy tarixi qisqa tarzda yoritib berilgan. Asarning bu qismi “Tarixi jahongir” yoki “Muqaddimayi Zafarnoma” deb ataladi va 1419-yil yozib tugatilgan.[31]

Sharafuddin Ali Yazdiy “Zafarnoma”sining dunyo bo‘ylab tarqalgan qo‘lyozma nusxalari umumiy soni bugungi kunda taxminan 100 dan ortiq. Eng qadimgi qo‘lyozma nusxalari Sankt-Peterburgdagi Rossiya Milliy kutubxonasi, Rossiya FA Sharq qo‘lyozmalari institutida saqlanadi. Shuningdek, Tehron, Mashhad kutubxonalari, Britaniya muzeyi, Fransiya Milliy kutubxonasi, Istanbuldagi Nuri Usmoniya kutubxonasi, Garvard badiiy muzeyi, O‘zFA Sharqshunoslik institutida saqlanayotgan qo‘lyozma nusxalar tarixiy, badiiy, axborot qimmati yuqoriligi bilan Amir Temur faoliyatini o‘rganish uchun muhim manba hisoblanadi. Bu asarning turli davrlarda ko‘chirilgan 30 ga yaqin

[29] Nizomiddin Shomiy. Zafarnoma – Toshkent.: “O‘zbekiston” nashriyoti,1996,7-8-bet.
[30] Tauer F. Histoire des conquêtes de Tamerlan intitulée Zafarnama par Nizamuddin Shami. Tome I: Texte persan. – Praha, 1937; Tome II: Introduction, commentaire, index. – Praha, 1956.
[31] A. Madraimov, G. Fuzailova. Manbashunoslik – Toshkent.: “Fan” nashriyoti,2007,113-bet.

qo‘lyozmasi bugungi kunda O‘zFA Sharqshunoslik institutida saqlanmoqda. Xususiy kolleksiyalarda saqlanayotgan va hali kataloglashtirilmagan nusxalari ham bor[32].

Yuqoridagi har ikkala asar ham jahon sharqshunosligi ilmiy jamoasi tomonidan katta qiziqish bilan o‘rganib kelinmoqda. Jahon tarixshunosligida Yazdiy “Zafarnoma”sining o‘rganilish tarixi Shomiy asariga qaraganda ancha erta boshlangan. Sharofuddin Ali Yazdiy asari Yevropa ilm-faniga XVIII asr boshlaridayoq kirib bordi. Xususan, 1722-yilda fransuz sharqshunosi Fransua Peti de la Krua (François Pétis de la Croix) tomonidan fransuz tiliga, oradan bir yil o‘tib, 1723-yilda esa J. Darbi (J. Darby) tomonidan ingliz tiliga tarjima qilinishi G‘arb olamining Amir Temur shaxsiyati va uning saltanatiga bo‘lgan qarashini butunlay o‘zgartirdi.

G‘arb temuriyshunosligida (Jon Vuds, Beatris Forz Manz, Mariya Subtelni va b.) uzoq vaqt davomida ushbu ikki asarga nisbatan dualistik yondashuv mavjud edi. Shomiy “Zafarnoma”si voqealarni quruq va aniq faktlar asosida, ortiqcha pafossiz bayon qilgani uchun xalqaro miqyosda “eng xolis birlamchi manba” sifatida e’tirof etilgan bo‘lsa, Yazdiy asari uzoq vaqt davomida faqat hukmdorlarni ulug‘lovchi asar sifatida baholab kelindi.

Biroq XXI asr zamonaviy xalqaro tadqiqotlari va manbashunoslik metodologiyasi shuni ko‘rsatadiki, Yazdiy asari shunchaki ritorik bezaklardan iborat emas. Zamonaviy tadqiqotchilar Yazdiyning asar ustida ishlashda barcha rasmiy hujjatlar, muhrlar, guvohlarning ko‘rsatmalari va hatto Shomiy matnini qayta tanqidiy tahrir qilganini isbotlamoqdalar. Ayniqsa, asardagi geografik ob’ektlar koordinatalari, diplomatik yozishmalar matnlari va harbiy qismlarning joylashuv tartibi Yazdiy “Zafarnoma”sining informativ bazasi Shomiyga qaraganda ancha kengroq va tizimliroq ekanini tasdiqlaydi. Yapon sharqshunoslik maktabi vakillari (masalan, Eji Mano) ham ushbu asarlarni

[32] https://yuz.uz/uz/news/zafarnomalarning-qolyozma--nusxalari--va--ularni-organish--tarixi.

Markaziy Osiyo tarixiy geografiyasi va sotsial-iqtisodiy hayotini tiklashda tengsiz manba deb baholamoqdalar.

Chikago universiteti olimlaridan biri Jon Vuds (John E. Woods) o‘zining “The Timurid Dynasty” (Temuriylar sulolasi) va unga aloqador o‘nlab fundamental maqolalarida Yazdiy va Shomiy asarlarini o‘zaro qiyosiy-tanqidiy tahlil qilgan. Vuds Shomiy matnining qaysi qismlari Yazdiy tomonidan o‘zgartirilgani yoki “siyosiy tahrir” qilinganini xronologik jihatdan isbotlab bergan. U Yazdiyni shunchaki solnomachi emas, balki Shohruh Mirzo davridagi Temuriylar davlatining yangi mafkuraviy arxitektori deb baholaydi[33].

Taniqli temuriyshunos olima Beatris Forz Manz (Beatrice Forbes Manz) esa “Zafarnoma”lardagi ma’lumotlarga tayanib, Amir Temur armiyasining ichki sotsial tuzilishini, qabilaviy munosabatlarni va elita shakllanishi jarayonlarini ochib berdi[34]. Kanadalik tadqiqotchi Mariya Subtelni (Maria E. Subtelny) esa Yazdiy matnidagi she’riy va falsafiy qatlamlarni tahlil qilib, unda islomiy va ko‘chmanchi turk-mo‘g‘ul an’analarining o‘ziga xos sintezi aks etganini ko‘rsatib berdi[35]. Shuningdek, Eji Mano (Eiji Mano) boshchiligidagi yapon sharqshunoslik maktabi vakillari har ikki “Zafarnoma”ni Markaziy Osiyo tarixiy geografiyasi, sotsial-iqtisodiy hayoti va yer egaligi munosabatlarini tiklashda tengsiz va aniq faktologik manba sifatida tahlil qilmoqdalar.

## XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Nizomiddin Shomiy va Sharofuddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” asarlari jahon sharqshunosligida yevrotsentrik qarashlardan xoli, xolis va tizimli tadqiqot ob’ektiga aylanib ulgurdi. Shomiy asari voqealarning birlamchi xronologik aniqligini ta’minlab bersa, Yazdiy asari Temuriylar davri rasmiy mafkurasi, falsafiy qarashlari va keng ko‘lamli

[33] Woods J. E. The Timurid Dynasty. – Bloomington: Indiana University, Research Institute for Inner Asian Studies, 1990.
[34] Manz B. F. The Rise and Rule of Tamerlane. – Cambridge: Cambridge University Press, 1989. (Ruscha nashri: Восхождение и правление Тамерлана. – Ташкент, 2018).
[35] Subtelny M. E. Timurids in Transition: Turko-Persian Politics and Acculturation in Medieval Iran. – Leiden: Brill, 2007.

faktologik materiallarini tahlil qilish imkonini beradi. Har ikki asarning xalqaro miqyosda o‘rganilishi, ularning Yevropa va Osiyo tillariga tarjima qilinishi Temuriylar tarixi umumbashariy sivilizatsiyaning muhim bo‘g‘ini sifatida dunyo olimlari tomonidan yakdillik bilan tan olinganidan dalolat beradi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Низомиддин Шомий. Зафарнома. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 1996. – 528 б.
2. Шарафуддин Али Яздий. Зафарнома. – Тошкент: “Шарқ” нашриёт- консерни, 2017. – 383 б.
3. A. Madraimov, G. Fuzailova. Manbashunoslik – Toshkent.: “Fan” nashriyoti, 2007. – 294 b.
4. Tauer F. Histoire des conquêtes de Tamerlan intitulée Zafarnama par Nizamuddin Shami. Tome I: Texte persan. – Praha, 1937; Tome II: Introduction, commentaire, index. – Praha, 1956.
5. Manz B. F. The Rise and Rule of Tamerlane. – Cambridge: Cambridge University Press, 1989. (Ruscha nashri: Восхождение и правление Тамерлана. – Ташкент, 2018).
6. Woods J. E. The Timurid Dynasty. – Bloomington: Indiana University, Research Institute for Inner Asian Studies, 1990.
7. Subtelny M. E. Timurids in Transition: Turko-Persian Politics and Acculturation in Medieval Iran. – Leiden: Brill, 2007.

# ASLIYAT VA TARJIMA MATNLARIDA PRAGMATIK SALOHIYATNING QIYOSIY TAHLILI

**Sobirova Nodirabegim Murodjon qizi**

*Qo‘qon universiteti*

nodirabegimsobirova600@gmail.com

***Annotatsiya:*** *Mazkur tezisda asliyat va tarjima matnlarida pragmatik salohiyatning namoyon bo‘lishi qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqotda nutqiy birliklarning kommunikativ maqsadi, muallif niyati hamda ularning tarjimada qay darajada saqlanishi o‘rganiladi. Pragmatik ma’no va ta’sirchanlikni yetkazishda tarjimonning strategik yondashuvlari tahlil etilib, pragmatik ekvivalentlikni ta’minlashning muhim jihatlari yoritiladi.*

***Annotation:*** *This thesis comparatively analyzes the manifestation of pragmatic potential in source and translated texts. It examines communicative intentions, the author’s purpose, and the extent to which these features are preserved in translation. The study highlights translators’ strategic approaches to conveying pragmatic meaning and effectiveness, emphasizing key aspects of achieving pragmatic equivalence.*

***Kalit so‘zlar:*** *pragmatik salohiyat, asliyat matni, tarjima matni, qiyosiy tahlil, pragmatik ekvivalentlik, kommunikativ maqsad, tarjima strategiyalari, pragmatika.*

***Keywords:*** *pragmatic potential, source text, translated text, comparative analysis, pragmatic equivalence, communicative intention, translation strategies, pragmatics.*

## KIRISH

Zamonaviy tarjimashunoslikda matnning faqat leksik va grammatik jihatlarini emas, balki uning pragmatik xususiyatlarini ham to‘laqonli qayta yaratish masalasi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Pragmatika til birliklarining kommunikativ vaziyatdagi qo‘llanilishi, nutq ishtirokchilarining maqsadi hamda tinglovchi yoki o‘quvchiga ko‘rsatadigan ta’sirini o‘rganadi. Shu bois tarjima jarayonida asliyat matnining pragmatik salohiyatini saqlab qolish tarjimon oldidagi muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Pragmatik salohiyat deganda matnning adresatga muayyan ta’sir ko‘rsatish, ma’lum munosabatni shakllantirish va kommunikativ maqsadni amalga oshirish imkoniyati tushuniladi. Tarjima jarayonida ushbu

xususiyatlarning yo‘qolishi yoki o‘zgarishi matnning mazmuniy va uslubiy qimmatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shuning uchun asliyat va tarjima matnlaridagi pragmatik xususiyatlarni qiyosiy o‘rganish tarjimashunoslikning dolzarb masalalaridan biridir (Baker, 2018).

Globallashuv jarayonlarining jadallashuvi turli xalqlar o‘rtasidagi madaniy va ilmiy aloqalarning kengayishiga xizmat qilmoqda. Bunday sharoitda tarjima madaniyatlararo muloqotni ta’minlovchi muhim vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Tarjima faqat bir tildagi axborotni boshqa tilga ko‘chirish emas, balki muallifning kommunikativ niyatini, hissiy-ta’sirchanlik xususiyatlarini hamda pragmatik maqsadini qayta yaratish jarayonidir. Shu sababli tarjima sifati ko‘p jihatdan asliyat matnining pragmatik salohiyatini qanchalik to‘liq aks ettirish bilan belgilanadi.

Pragmatik salohiyatni o‘rganish tarjimashunoslikning nazariy asoslarini boyitish bilan birga, amaliy tarjima faoliyatida uchraydigan muammolarga ham yechim topishga yordam beradi. Ayniqsa, badiiy, publitsistik va ilmiy matnlarda pragmatik vositalarning o‘ziga xosligi tarjimondan nafaqat til bilimini, balki madaniyatlararo kompetensiyani ham talab qiladi (Yule, 2020).

Pragmatika tilshunoslikning muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, u til birliklarining nutqiy vaziyat bilan bog‘liq holdagi ma’nosini tahlil qiladi. Levinson (1983) pragmatikani til va kontekst o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganadigan fan sifatida izohlaydi. Tarjima jarayonida esa pragmatik omillar matnning maqsadi, muallif niyati va adresatning madaniy xususiyatlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘ladi.

Asliyat matnida qo‘llanilgan murojaat shakllari, kinoya, presuppozitsiya, implikatura va nutq aktlari tarjima qilinayotganda muayyan transformatsiyalarni talab qiladi. Chunki bir tildagi pragmatik vositalar boshqa tilda aynan mos kelmasligi mumkin. Bunday holatlarda tarjimon kommunikativ ekvivalentlikni ta’minlash maqsadida turli strategiyalardan foydalanadi (Newmark, 1988).

Masalan, ingliz tilidagi “Could you possibly open the window?” jumlasi grammatik jihatdan so‘roq gap bo‘lsa-da, pragmatik jihatdan iltimos ma’nosini anglatadi. Uni o‘zbek tiliga “Iltimos, derazani ochib yubora olasizmi?” tarzida tarjima qilish pragmatik ta’sirni saqlab qolishga xizmat qiladi. Agar ushbu birlik “Derazani oching” shaklida tarjima qilinsa, buyruq ohangi kuchayib, asliyatdagi xushmuomalalik darajasi yo‘qolishi mumkin.

Tarjimada pragmatik ekvivalentlik tushunchasi muhim o‘rin tutadi. Nida (1964) dinamik ekvivalentlik nazariyasida tarjimaning asosiy maqsadi asliyat o‘quvchisida yuzaga kelgan ta’sirni tarjima o‘quvchisida ham hosil qilish ekanligini ta’kidlaydi. Bu esa pragmatik salohiyatni imkon qadar to‘liq saqlash zaruratini ko‘rsatadi.

Bundan tashqari, madaniy xos birliklarning tarjimasi ham pragmatik tahlilni talab qiladi. Har bir xalqning urf-odatlari, qadriyatlari va ijtimoiy me’yorlari nutqiy ifodalarda aks etadi. Tarjimon ushbu omillarni hisobga olmagan taqdirda, matnning ta’sirchanligi va kommunikativ maqsadi o‘zgarib ketishi mumkin. Baker (2018) bunday vaziyatlarda pragmatik moslashtirish usullaridan foydalanishni tavsiya etadi.

Demak, asliyat va tarjima matnlarini qiyosiy o‘rganish pragmatik ma’no, kommunikativ niyat hamda adresatga ko‘rsatiladigan ta’sir darajasini aniqlash imkonini beradi. Bu esa tarjima sifatini oshirish va pragmatik ekvivalentlikni ta’minlashda muhim ahamiyatga ega.

Pragmatik tahlilda nutq aktlari nazariyasi muhim o‘rin egallaydi. Nutq aktlari insonlarning til vositasida ma'lum harakatlarni amalga oshirishini ifodalaydi. So‘rash, iltimos qilish, maslahat berish, ogohlantirish yoki kechirim so‘rash kabi nutqiy harakatlar tarjima jarayonida pragmatik moslikni talab etadi. Tarjimon ushbu birliklarni faqat lug‘aviy ma'noda emas, balki ularning kommunikativ vazifasini hisobga olgan holda tarjima qilishi lozim.

Bundan tashqari, implikatura va presuppozitsiyalarni tarjima qilish ham murakkab masalalardan biridir. Implikatura muallif tomonidan bevosita aytilmagan, biroq kontekst orqali anglashiladigan ma'noni bildiradi. Agar tarjimon bunday yashirin ma'nolarni to‘g‘ri talqin qilmasa, o‘quvchi asliyatdagi mazmunni to‘liq qabul qila olmaydi (Levinson, 1983).

Masalan, ingliz tilidagi “It's getting late” jumlasi oddiy xabar sifatida emas, balki “endi ketish vaqti bo‘ldi” degan yashirin ma'noni ifodalashi mumkin. Tarjimon kontekstni inobatga olgan holda pragmatik ma'noni saqlashi zarur.

Tarjimada xushmuomalalik strategiyalari ham muhim ahamiyatga ega. Ayrim tillarda hurmat ifodalovchi birliklar ko‘p qo‘llansa, boshqalarida bunday vositalar kamroq uchraydi. Shu sababli tarjimon adresatning ijtimoiy mavqei, yoshi va kommunikativ vaziyatni hisobga olib, mos til birliklarini tanlashi kerak.

Madaniy realiyalarni tarjima qilish jarayonida izohli tarjima, moslashtirish, transkripsiya yoki tavsifiy tarjima kabi usullardan foydalanish mumkin. Bu esa tarjima matnining tushunarliligini oshirish va pragmatik ta'sirchanlikni saqlab qolishga xizmat qiladi (Newmark, 1988).

## XULOSA

Xulosa qilib aytganda, asliyat va tarjima matnlarida pragmatik salohiyatni qiyosiy tahlil qilish tarjimashunoslikning dolzarb yo‘nalishlaridan biridir. Tarjima jarayonida muallif niyati, kommunikativ maqsad, madaniy omillar va adresatning qabul qilish xususiyatlarini inobatga olish zarur. Pragmatik ekvivalentlikni ta’minlash tarjima sifatining muhim mezoni bo‘lib, tarjimonning kasbiy mahorati va strategik yondashuvini talab etadi. Pragmatik xususiyatlarni saqlash orqali tarjima matni asliyatning funksional va ta’sirchanlik jihatlarini muvaffaqiyatli aks ettira oladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, pragmatik salohiyat tarjima sifatini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Tarjimonning vazifasi faqat mazmunni qayta ifodalash bilan cheklanmay, balki asliyatdagi kommunikativ ta'sirni ham tarjima o‘quvchisiga yetkazishdan iboratdir.

Pragmatik ekvivalentlikka erishish uchun tarjimon til birliklarining yashirin ma'nolarini, madaniy xususiyatlarini, nutq aktlarini hamda adresat omilini chuqur tahlil qilishi zarur. Ushbu yondashuv tarjima matnining tabiiyligi, ta'sirchanligi va funksional mosligini ta'minlaydi. Kelgusida pragmatik salohiyatni turli janrdagi matnlar, xususan, badiiy asarlar, ommaviy axborot vositalari matnlari va audiovizual tarjimalar misolida o‘rganish tarjimashunoslikning rivojlanishiga salmoqli hissa qo‘shishi mumkin.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

1. Baker, M. (2018). In Other Words: A Coursebook on Translation (3rd ed.). Routledge.
2. Levinson, S. C. (1983). Pragmatics. Cambridge University Press.
3. Newmark, P. (1988). A Textbook of Translation. Prentice Hall.
4. Nida, E. A. (1964). Toward a Science of Translating. Brill.
5. Yule, G. (2020). The Study of Language (7th ed.). Cambridge University Press.

# O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA PROKURATURA ORGANLARINING OSHKORALIGI VA JAMIYAT OLDIDAGI HISOBDORLIGINI TA’MINLASHNING HUQUQIY ASOSLARI HAMDA DEMOKRATIK AHAMIYATI

**Shomurotov Ma’ruf Abdusamat o‘g‘li**

*Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti mustaqil izlanuvchisi*

**Qodirov Eshmuhammad Omonturdiyevich**

*Toshkent davlat yuridik universiteti professori, yuridik fanlar doktori*

***Annotatsiya:*** *Mazkur tezisda O‘zbekiston Respublikasida prokuratura organlari faoliyatining oshkoraligi va jamiyat oldidagi hisobdorligini ta’minlashning nazariy-huquqiy asoslari tahlil qilinadi. Shuningdek, “hisobdorlik” va “oshkoralik” tushunchalarining o‘zaro bog‘liqligi hamda farqli jihatlari yoritilib, prokuratura organlari faoliyatida ushbu tamoyillarning ahamiyati ochib beriladi. Mamlakatimizda prokuratura organlari faoliyatini demokratlashtirish, jamoatchilik nazoratini kuchaytirish va fuqarolar manfaatlarini himoya qilish borasida amalga oshirilgan islohotlar ilmiy jihatdan tahlil etiladi.*

***Kalit so‘zlar:*** *prokuratura, oshkoralik, hisobdorlik, jamoatchilik nazorati, qonun ustuvorligi, demokratik davlat, huquqiy davlat, fuqarolik jamiyati.*

***Annotation:*** *This article analyzes the theoretical and legal foundations of ensuring transparency and public accountability in the activities of the prosecutor’s office in the Republic of Uzbekistan. It also examines the interrelationship between the concepts of “accountability” and “transparency,” highlighting their distinctive features and explaining their significance in the functioning of prosecutorial bodies. Furthermore, the study provides a scholarly analysis of the reforms implemented in Uzbekistan aimed at democratizing the activities of the prosecutor’s office, strengthening public oversight, and protecting the rights and interests of citizens.*

***Keywords:*** *prosecutor’s office, transparency, accountability, public oversight, rule of law, democratic state, legal state, civil society.*

## KIRISH

Huquqiy demokratik davlatning asosiy belgilaridan biri qonun ustuvorligini ta’minlash, davlat organlarining jamiyat oldidagi mas’uliyati va

fuqarolar manfaatlariga xizmat qilishidir. Shu nuqtai nazardan, O‘zbekiston Respublikasida prokuratura organlari faoliyatini takomillashtirish, ularning ochiqligi va hisobdorligini kuchaytirish masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda. 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan va 2001-yilda yangi tahrirda tasdiqlangan “Prokuratura to‘g‘risida”gi Qonun prokuratura organlarining zamonaviy faoliyatini tashkil etishning muhim huquqiy asosiga aylandi. Mazkur qonun orqali prokuratura organlari nafaqat nazorat qiluvchi, balki shaxs, jamiyat va davlatning qonuniy manfaatlarini himoya qiluvchi demokratik institut sifatida shakllandi.

**Hisobdorlik va oshkoralik tushunchalarining nazariy tahlili.** Davlat boshqaruvi tizimida “hisobdorlik” va “oshkoralik” tushunchalari o‘zaro chambarchas bog‘liq bo‘lsa-da, ular mazmun-mohiyatiga ko‘ra farqlanadi. Hisobdorlik davlat organlarining o‘z faoliyati natijalari yuzasidan tegishli vakolatli organlar va jamoatchilikka muntazam ravishda hisobot berish majburiyatini anglatadi. Ushbu tushuncha faoliyat samaradorligini baholash, monitoring qilish hamda natijadorlikni ta’minlashga xizmat qiladi. Oshkoralik esa davlat organlarining faoliyati haqida fuqarolarni muntazam xabardor qilib borish, axborotlardan erkin foydalanish imkoniyatini yaratish va ommaviy axborot vositalari bilan ochiq muloqotni tashkil etishni nazarda tutadi. Demak, oshkoralik hisobdorlikning muhim sharti hisoblanadi. Huquqshunos olim O. Madaliyev oshkoralik prinsipini prokuratura organlari faoliyatining fuqarolar va ommaviy axborot vositalari uchun ochiqligi sifatida talqin qiladi. X.T. Odilqoriyev esa davlat mexanizmi faoliyatining eng muhim mezoni sifatida aynan oshkoralikni e’tirof etadi. Mark Bovensning ta’kidlashicha, hisobdorlik subyektning o‘z faoliyati yuzasidan izoh berishi va javobgarlikni o‘z zimmasiga olishi bilan tavsiflanadi. Shundan kelib chiqib, prokuror hisobdorligini prokuratura organlarining o‘z faoliyati natijalari bo‘yicha davlat organlari va jamoatchilikka hisobot berishi hamda ularning faoliyatiga baho berish imkoniyatining mavjudligi sifatida ta’riflash mumkin. Prokuratura faoliyati

oshkoraligi esa prokuratura organlarining fuqarolar va ommaviy axborot vositalari uchun ochiq faoliyat yuritishidir.

**Prokuratura organlari hisobdorligining huquqiy asoslari.** O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida prokuratura organlari faoliyatining hisobdorlik mexanizmlari mustahkamlangan. Xususan, Konstitutsiyaning 95-moddasiga ko‘ra, Oliy Majlis Senati O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining hisobotlarini eshitish vakolatiga ega.

“Prokuratura to‘g‘risida”gi Qonunning 14-moddasida Bosh prokurorning O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Oliy Majlis Senati oldida hisobdorligi belgilangan. Ushbu normaga muvofiq, Bosh prokuror:

- qonuniylik va jinoyatchilikka qarshi kurash holati haqida muntazam axborot beradi;
- o‘ta og‘ir jinoyatlar va favqulodda hodisalar yuzasidan zudlik bilan ma’lumot taqdim etadi;
- prokuratura organlari faoliyati natijalari haqida har olti oyda hisobot beradi.

Shuningdek, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri, tuman va shahar prokurorlari har yili tegishli xalq deputatlari Kengashlariga o‘z faoliyati yuzasidan axborot taqdim etadilar. Bu esa hududiy darajada ham prokuratura organlari faoliyatining hisobdorligini ta’minlashga xizmat qiladi.

**Prokuratura organlari faoliyatida jamoatchilik nazorati va oshkoralik.** So‘nggi yillarda mamlakatimizda prokuratura organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytirish bo‘yicha muhim chora-tadbirlar amalga oshirildi. Xususan, 2016-yilda Oliy Majlis Senatining prokuratura organlari faoliyati ustidan nazorat qiluvchi komissiyasi tashkil etildi. 2017-yildan boshlab prokurorlar va boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlar rahbarlarining aholi oldida muntazam hisobot berish tizimi joriy etildi. Bu esa fuqarolar bilan muloqotni kuchaytirish, hududlardagi muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etishda muhim vosita bo‘lib xizmat qilmoqda. 2018-yilda Bosh

prokuratura huzurida Jamoatchilik kengashining tashkil etilishi prokuratura organlarini yanada demokratlashtirish yo‘lidagi muhim qadamlardan biri bo‘ldi. Mazkur kengash fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorlikni rivojlantirish, prokuratura faoliyatining ochiqligini ta’minlash va jamoatchilik fikrini inobatga olishga xizmat qilmoqda. Bundan tashqari, prokuratura organlari tomonidan fuqarolar murojaatlari bilan ishlash tizimi takomillashtirildi. “Temir daftar”, “Ayollar daftari” va “Yoshlar daftari” orqali ehtiyojmand aholi qatlamlarini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amaliy mexanizmlar yaratildi.

## XULOSA

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda prokuratura organlarining oshkoraligi va jamiyat oldidagi hisobdorligini ta’minlash bo‘yicha mustahkam huquqiy asoslar shakllantirilgan. Konstitutsiyaviy normalar, “Prokuratura to‘g‘risida”gi Qonun, Prezident farmonlari va jamoatchilik nazorati institutlari prokuratura organlari faoliyatining shaffofligini ta’minlashga xizmat qilmoqda. Hisobdorlik va oshkoralik tamoyillarining izchil joriy etilishi prokuratura organlariga bo‘lgan jamoatchilik ishonchini oshirish, qonun ustuvorligini mustahkamlash hamda inson huquq va erkinliklarini samarali himoya qilishga imkon bermoqda. Kelgusida mazkur institutlarni yanada takomillashtirish demokratik huquqiy davlat va kuchli fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning muhim omillaridan biri bo‘lib qoladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Prokuratura to‘g‘risida”gi Qonuni (yangi tahriri). 2001-yil 29-avgust.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-noyabrdagi PF–6118-son Farmoni “Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”.
4. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi va Oliy Majlisi Senati Kengashining 2016-yil 19-fevraldagi 383-III-son Qo‘shma qarori.
5. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017.
6. Madaliyev O. Prokuror nazorati. Darslik. – Toshkent: TDYU nashriyoti, 2020.
7. Odilqoriyev X.T. Davlat va huquq nazariyasi. – Toshkent: Adolat, 2018.
8. Qodirov R.H. O‘zbekiston Respublikasida prokuratura organlari faoliyatini takomillashtirish masalalari // Huquq va burch. – 2019. – №4.

9. Ochilov S. Ochiq va adolatli prokuratura: muammo va yechimlar // Huquqiy tadqiqotlar jurnali. – 2021. – №2.
10. Bovens M. Analysing and Assessing Accountability: A Conceptual Framework // European Law Journal. – 2007. – Vol.13. – №4. – P.447–468.
11. O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining 2021-yil faoliyati yuzasidan hisoboti. – Toshkent, 2022.
12. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2022-yil 29-apreldagi majlisi materiallari.

# ZAMONAVIY INTEGRATSIYA JARAYONLARIDA MILLIY QADRIYATLARNING EVOLUTSIYASI VA TRANSFORMATSIYASI

**Allanazarova Shahnoza Abdurahmonovna**

*O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti*

*Sanatshunoslik va Madaniyatshunoslik kafedrasi*

*madaniyatshunoslik ixtisoslik bo‘yicha*

*mustaqil izlanuvchi*

***Annotatsiya.*** *Mazkur maqolada globallashuv va zamonaviy sotsiomadaniy integratsiya jarayonlarida o‘zbek milliy qadriyatining evolutsiyasi hamda transformatsiyasi madaniyatshunoslik paradigmasida taqdim etilgan. Maqolada ilk bor mahalla muhitida kechayotgan etnomadaniy sinkretizm ijtimoiylashuv va madaniylashuv jarayonlariga intilish ilmiy jihatdan asoslangan. Tranformatsiyaga uchrayotgan marosimlar va to’y-maraka va an’analarning ijtimoiy-madaniy tahlil qilingan.*

***Аннотация.*** *В данной статье в рамках культурологической парадигмы представлены эволюция и трансформация узбекских национальных ценностей в условиях глобализации и современных социокультурных интеграционных процессов. В работе впервые научно обосновано стремление к процессам социализации и окультуривания, а также этнокультурный синкретизм, происходящий в среде махалли. Проведен социокультурный анализ трансформирующихся обрядов, свадебных торжеств и традиций.*

***Abstract.*** *This article presents the evolution and transformation of Uzbek national values within the processes of globalization and contemporary socio-cultural integration, framed through a cultrological paradigm. For the first time, the study scientifically substantiates the tendency toward socialization and inculturation, as well as the ethnocultural syncretism occurring within the mahalla environment. Furthermore, a socio-cultural analysis is conducted on the transforming rituals, wedding ceremonies, and traditions.*

***Kalit so‘zi:*** *Globallashuv sotsiomadaniy integratsiya o‘zbek milliy qadriyatlar, evolutsiyasi, transformatsiya, madaniyatshunoslik paradigmasi, mahalla etnomadaniy sinkretizm ijtimoiylashuv, urf-odatlar va marosimlar.*

***Ключевое слово :*** *Глобализация, социокультурная интеграция, узбекские национальные ценности, эволюция, трансформация, культурологическая парадигма, махалля, этнокультурный синкретизм, социализация, обычаи и обряды.*

***Keyword:*** *Globalization, socio-cultural integration, Uzbek national values, evolution, transformation, cultrological paradigm, mahalla, ethnocultural syncretism, socialization, customs and rituals*

## KIRISH

Mahalla azaldan hayotimizda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, tinchlik osoniyishtalik, ahillik va hamjihatlik, ma’rifat hamda tarbiya maskani bo‘lib kelgan. Bugungi kunda Jahon hamjamiyati “Yangi O‘zbekiston” deya e’tirof etayotgan huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish yo‘lida ijtimoiy hayotda adolat va insonparvarlik tamoyillari mustahkamlanadi, ushbu maqolada mahalla institutining ijtimoiy falsafiy mohiyati, qadriyatlar falsafasining mohiyati mazmuni obyektiv asosi, namayon bo‘lishi shakllari va xususiyatlari, milliy qadriyatlar, an’analar hamda urf-odatlar shakllangan davrda sotsiomadaniy makonlarning globallashuvi va integratsiya jarayonlarning jadallashuvi an’anaviy jamiyatlar oldiga milliy o‘ziga xoslik hamda etnomadaniy merosni saqlab qolish muammosi eng muhim hisoblanadi. Milliy qadriyatlar o‘z tabiatiga ko‘ra statistik ya’ni mutloq o‘zgarmas hodisa emas, balki jamiyatning tarixiy ehtiyojlaridan kelib chiqib rivojlanadigan dinamik tizimdir. O‘zbek xalqining ma’naviy-axloqiy va etnomadaniy qadriyatlari asrlar davomida hatto miloddan avvalgi davrlardagi jamoaviy yashash qonuniyatlaridan boshlab bugungi, raqamli jamiyatgacha bo‘lgan davrda murakkab evolutsiya yo‘lini bosib o‘tdi[36] . Bugungi Yangi O‘zbekiston sharoiytida integratsiya jarayonlarining jadallashuvi, urbanizatsiya va axborot oqimining cheksizligi sharoiytida milliy qadriyatlarning transformatsiyasini (shakily va mazmuniy o‘zgarishini) to‘g‘ri baholash ilmiy madaniyatshunoslik uchun g’oyat muhimdir. Bu jarayonda asosiy sotsiomadaniy integrator vazifasini o‘tayotgan mahalla institut sharoiytida milliy qadriyatlarning qay darajada

**[36]. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-dekabrdagi PF-209-son Farmoni.**

evolutsiya bo‘layotganini aniqlash dissertatsiya tadqiqotining ikkinchi bobidagi markaziy masalalardan biri hisoblanadi[37].

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi-** Milliy qadriyatlar transformatsiyasi va sotsiomadaniy integratsiya masalalari xalqaro va mahalliy fanda turlicha yondashuvlar asosida o‘rganilgan. O‘zbekistonlik olimlardan O.Nishonova etnomadaniyatning estetik prinsplari va milliy qadriyatlarning sotsiumidagi falsafiy jihatdan yoritgan[38]. Milliy qadriyatlar transformatsiyasi va sotsiomadaniy integratsiya masalalari xalqaro va mahalliy fanda turlicha yondashuvlar asosida o‘rganilgan, O‘zbekistonlik olimlardan O.Nishonova etnomadaniyatning estetik prinsplari va milliy qadriyatlarning sotsiumdagi falsafiy jihatlari ochib berilgan. N.Latipova transformatsiya sharoiytida ijtimoiy tizimlarning moslashuv mexanizmlari sotsiologik tahlil qilingan. Etnografik jihatdan esa A.Ashirov va I.Jabborovlarning tadqiqotlarida o‘zbek xalq oilaviy hayotidagi qaderiyat hamda an’analarning xususiyatlari aniq misollar bilan ko‘rsatib o‘tilgan. Xorijiy tadqiqotlarda xususan Ye.Kamenskiyaning ishlarida an’analarning zamonaviy sotsium strukturaviy tranformatsiya nazariy modellashtirilgan. G‘arb sotsiologlari L.Virt va R..Redfildlar integratsiya jarayonlarida an’anaviy qadriyatlarning “unifikatsiyalashuvi” (bir xillashuv) xavfini tahlil qilishgan. Ushbu maqolaning ilmiy yangiligi shundan iboratki: zamonaviy integratsiya jarayonida milliy qadriyatlarning tranformatsiyasi va g‘arb madaniy elementlari bilan aralashuv -eklektika emas, balki sotsial barqarorlikni ta’minlovchi etnomadaniy sinkretizm hodisasidir. O‘zbek xalqining milliy o‘zligini asrash va rivojlantirishda mahalla instituti alohida o‘rin tutadi. U shunchaki ma’muriy birlik emas, balki, etnomadaniy meros tillar an’analar va marosimlarni avloddan-avlodga o‘tkazuvchi asosiy maskandir. Bugungi kunda mahalla tizimi ham integratsiya va raqamlashtirish

**[37].O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil oktyabrdagi PQ-345-sonli Qarori.**
**[38]Nishonova O. O‘zbek etnomadaniyatining estetik mohiyati. – Toshkent: Fan, 2011.**

jarayonlaridan chetda qolayotgani yo’q (masalan electron boshqaruv tizimlari, ijtimoiy platformalarining joriy etilishi. Bu esa qadriyatlarning zamonaviy boshqaruv mexanizmlari bilan uyg‘unlashtirish imkonini beradi. Nazoratsiz madaniy integratsiya ba’zan “madaniy asimilyatsiya” milliy xususiyatlarning yot madaniyatlari ichida erib ketishi xavfini tug‘diradi. Bunga qarshi asosiy qalqon sifatida quyidagilar amal qiladi. Tarixiy xotira bunda o‘tmish saboqlari, ajdodlar merosi etnomadaniyat asoslarini chuqur o‘rganish hamda ma’naviy immunitet yoshlarda axborot oqimini saralash, o‘z milliy qadriyatlariga g‘urur va hurmat bilan qarash ko‘nikmasini shakllantirishdir. Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, integratsiya jarayonida o‘zbek milliy qadriyatining evolutsiyasi madaniy inqirozi belgisi emas balki, balki jonli tizimning zamon talablariga moslashish (adaptatsiya) dinamikasidir. Mahalla sotsiumida kechayotgan etnomadaniy sinkretizm an’analarning birlashmasi hamda milliy merosni, insonparvarlik va ijtimoiylashuv tamoyillari asosida qayta ishlab chiqariladi. Bu esa globallashuv asrida o‘zbek xalqining madaniy identikligining barqaror yashovchanligini ta’minlovchi eng muhim ichki omildir.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-dekabrdagi PF-209-son Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil oktyabrdagi PQ-345-sonli Qarori.
3. Nishonova O. O‘zbek etnomadaniyatining estetik mohiyati. – Toshkent: Fan, 2011.
4. Latipova N. Sotsial tizim transformatsiyasi va mahalla instituti. – Toshkent: Universitet, 2020.
5. Ashirov A. O‘zbek xalqining qadriyatlari va marosimlari. – Toshkent, 2018.
6. Jabborov I. O‘zbeklar (etnik tarix va an’anaviy madaniyat). – Toshkent: Sharq, 2012.
7. Каминская Е. А. Культурные традиции в пространстве современного социума. – 2018.
8. Redfield R. The Folk Society // American Journal of Sociology. – 1947.
9. Shoniyozov K. O‘zbek xalqining shakllanish jarayoni. – Toshkent: Sharq, 2001.
10. Аберкромби Н., Хилл С., Тернер Б. С. Социологический словарь. – М., 2004.
11. Sangirov B. Yangi O‘zbekistonda sotsiomadaniy integratsiya dinamikasi. – Toshkent, 2024.
12. Mavrulov A. Ma’naviyat va mahalla. – Toshkent: Ma’naviyat, 2021.

# MA’MURIY SHIKOYATLAR VA ULARNI SUDGA QADAR KO‘RIB CHIQISHNING AYRIM DOLZARB JIHATLARI

**Bekmirzayev Alibek Faxriddin o‘g‘li**

*mustaqil ilmiy izlanuvchi*

*O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti*

*alibekbekmirzayev@gmail.com*

***Annotatsiya.*** *Mazkur maqolada ma’muriy shikoyatlar hamda ma’muriy shikoyatlarni sudga qadar ko‘rib chiqishga oid ayrim dolzarb masalalar tahlil qilinadi. Xususan, ma’muriy shikoyat tushunchasi va huquqiy tabiati, ma’muriy shikoyatlar va boshqa murojaatlarning o‘zaro farqli jihatlari, ma’muriy shikoyatlarning manfaatdor shaxslar huquqlarini himoya qilishdagi asosiy huquqiy himoya vositasi sifatidagi ahamiyati, ma’muriy shikoyatlarni ko‘rib chiqishning o‘ziga xos xususiyatlari va ma’muriy shikoyatlarni umumiy tartibda ko‘rib chiqishning ayrim jihatlari, ma’muriy shikoyatlarni sudgacha ko‘rib chiqishning o‘ziga xos jihatlari hamda shikoyatlarni sudgacha ko‘rib chiquchi organlarning huquqiy tabiati tahlil etiladi.*

*Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasida ma’muriy shikoyatlar va ularni sudgacha ko‘rib chiqish bo‘yicha tuziladigan Appelyatsiya kengashlarining huquqiy maqomi va yuridik tabiati ko‘rsatiladi. Respublikada ma’muriy shikoyatlarni ko‘rib chiqish tartib-taomillari bo‘yicha milliy qonunchilikni takomillashtirishga qaratilgan takliflar ilgari suriladi.*

***Kalit so‘zlar:*** *ma’muriy tartib-taomillar, inson huquqlari, ma’muriy yustitsiya, ma’muriy shikoyat, ma’muriy shikoyat qilish, ma’muriy shikoyatni ko‘rib chiqish tartibi, ma’muriy shikoyatlarni sudgacha ko‘rib chiqish, appelyatsiya kengashlari.*

***Abstract.*** *This articleexamines a number of current issues related to administrative complaints and the procedures for their pre-trial review. In particular, it analyzes the concept and legal nature of an administrative complaint, the distinguishing features between administrative complaints and other forms of petitions and appeals, the significance of administrative complaints as a primary legal remedy for the protection of the rights and legitimate interests of concerned persons, the specific characteristics of administrative complaint proceedings and certain aspects of their consideration under the general procedure, as well as the particular features of the pre-trial review of administrative complaints and the legal nature of bodies authorized to conduct such review.*

*Furthermore, the thesis examines the legal status and juridical nature of the Appeal Councils established in the Republic of Uzbekistan for the consideration and pre-trial review of administrative complaints. It also puts forward proposals aimed at improving the national legislation of the Republic of Uzbekistan governing the procedures for the consideration of administrative complaints.*

***Keywords:*** *administrative procedures, human rights, administrative justice, administrative complaint, administrative appeal, procedure for reviewing administrative complaints, pre-trial review of administrative complaints, Appeal Councils.*

## KIRISH

Ta’kidlash lozimki, inson huquqlari va ularning to‘liq kafolatiga barcha davrlarda alohida e’tibor qaratilgan. Shu sababli, ma’muriy munosabatlarda inson huquqlarini ta’minlash davlatning asosiy funksiyalaridan biri sanaladi.

Darhaqiqat, huquqiy davlatda inson huquq va erkinliklarini samarali himoya qilish davlat organlari faoliyatining asosiy mezonlaridan biri etib belgilangan.

Davlat organlari va mansabdor shaxslar tomonidan qabul qilinadigan qarorlar, amalga oshiriladigan harakatlar yoki harakatsizliklar ayrim hollarda fuqarolar va yuridik shaxslarning huquqlari hamda qonuniy manfaatlariga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Bunday vaziyatlarda buzilgan huquqlarni tiklashning muhim vositalaridan biri sifatida **ma’muriy shikoyat** instituti sanaladi.

Ya’ni, ma’muriy shikoyat – bu manfaatdor shaxsning ma’muriy organ tomonidan qabul qilingan ma’muriy akt, amalga oshirilgan harakat yoki harakatsizlik natijasida buzilgan deb hisoblangan huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini tiklash maqsadida vakolatli ma’muriy organga qilgan shikoyatidir.

Mazkur institut inson huquqlarini suddan tashqari tartibda himoya qilishning muhim mexanizmlaridan biri bo‘lib, davlat boshqaruvi tizimida qonuniylik, oshkoralik va hisobdorlikni ta’minlashga xizmat qiladi.

Bunda fuqarolar tomonidan berilayotgan shikoyatlar ma’muriy organlarning faoliyatini doimiy nazorat ostida ushlab, noqonuniy qarorlar qabul

qilinishining oldini oladi. Bu esa davlat boshqaruvida mansabdor shaxslarning javobgarlik darajasining oshishiga olib keladi.

Ma’muriy shikoyatlarning inson huquqlarini himoya qilishdagi asosiy ahamiyati shundaki, ular buzilgan huquqlarni **tezkor** va **kam xarajat** orqali tiklashga imkon beradi. Sud muhokamasiga nisbatan ma’muriy shikoyatlarni ko‘rib chiqish jarayoni soddaroq, tezroq va fuqarolar uchun qulayroq hisoblanadi. Natijada fuqaro o‘z huquqlarini himoya qilish uchun murakkab protsessual tartiblarga duch kelmasdan, ma’muriy organning o‘zida yoki yuqori turuvchi organda nizoni hal qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Shu sababli ham ma’muriy shikoyatlarga oid qoidalar nafaqat milliy qonunchiligimizda, balk umumxalqaro tan olingan normalarda ham o‘z aksini topgan.

Jumladan, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 8-moddasida hamda Fuqarolik va siyosiy huquqlar bo‘yicha xalqaro paktning 2-moddasida har bir shaxsning buzilgan huquqlarini tiklash uchun samarali huquqiy vositalardan foydalanish huquqi e’tirof etilgan.[39]

Bundan tashqari, ma’muriy shikoyatlar sudlarning ortiqcha yuklamasini kamaytirishga xizmat qiladi. Ya’ni, ma’muriy nizolarning muayyan qismi sudga yetib bormasdan ma’muriy tartibda hal etilishi natijasida sud organlari yanada murakkab va muhim ishlarni ko‘rib chiqishga ko‘proq e’tibor qaratish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Natiajda, fuqarolar uchun huquqlarni himoya qilishning qo‘shimcha va samarali mexanizmi yaratiladi.

Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, inson huquqlarini ta’minlashda hamda ularini ro‘yobga chiqarishda, shu jumladan buzilgan huquqlarni qayta tiklashda “ma’muriy shikoyat” instituti muhim ahamiyat kasb etadi. Ma’muriy shikoyatning huquqiy tabiati quyidagi xususiyatlarda namoyon bo‘ladi:

– huquqlarni tezkorlik bilan hamda xarajatsiz himoya qilish vositasi hisoblanadi;

[39] https://www.un.org/en/about-us/universal-declaration-of-human-rights

– davlat boshqaruvi sohasida qonuniylikni ta’minlashga xizmat qiladi;

– sudga qadar nizolarni hal qilish mexanizmi sifatida namoyon bo‘ladi;

– ma’muriy organlar faoliyati ustidan ichki nazorat shakli hisoblanadi.

Odatda, nazariy jihatdan olib qaraganda, “**ma’muriy shikoyatlar bo‘yicha ish yurituv**” tushunchasi “**ma’muriy yustitsiya**” deb ham yuritiladi.

*“yustitsiya” so‘zi lotincha “justitia” so‘zidan olingan bo‘lib, “odillik”, “qonuniylik” degan ma’nolarni anglatadi.*

O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga ko‘ra, **ma’muriy shikoyat** ma’muriy ishni boshlash uchun asos hisoblanadi. Bunda, ma’muriy ish yuritish ariza **ma’muriy organda ro‘yxatdan o‘tkazilgan** paytdan e’tiboran boshlangan hisoblanadi.

Shu bilan birga, qonun hujjatlarida 3 turdagi ma’muriy shikoyat predmeti nazarda tutilgan bo‘lib, o‘z huquqlari buzzilgan shaxslar quyidagilar yuzasidan shikoyat berishlari mumkin:

1) ma’muriy hujjatlar;

2) protsessual hujjatlar *(Qonunda nazarda tutilgan hollarda)*;

3) ma’muriy harakatlar (harakatsizlik) ustidan.

E’tiborli jihati, ma’muriy shikoyat quyidagi vakolatli organlarga **bevosita** yoki **ma’muriy aktni amalga oshirgan ma’muriy organ** orqali berishi mumkin:

– yuqori turuvchi ma’muriy organga;

– qonunchilikda belgilangan boshqa vakolatli ma’muriy organ (ma’muriy sudlar, apellyatsiya kengashlari va hk.).

Yana bir jihat shundaki, ma’muriy shikoyat yozma, og‘zaki yoki elektron shaklda bevosita manfaatdor shaxs yoki uning vakili tomonidan berilishiga yo‘l qo‘yiladi. Bunda, ma’muriy shikoyatda quyidagilar ko‘rsatilgan bo‘lishi kerak:

1) ma’muriy hujjatni qabul qilgan ma’muriy organning nomi;

2) shikoyat bergan arizachining (uning vakilining) familiyasi, ismi, otasining ismi va yashash joyi, yuridik shaxs uchun esa — uning nomi va joylashgan yeri (pochta manzili);

3) arizachining talablari;

4) ilova qilinayotgan hujjatlarning ro‘yxati (mavjud bo‘lgan taqdirda);

5) ariza berilgan sana;

6) shikoyat vakil tomonidan berilgan bo‘lsa, unga ishonchnomaning yoki vakilning vakolatlarini tasdiqlovchi boshqa hujjatning ko‘chirma nusxasi;

7) ma’muriy shikoyat boshqa jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida berilgan hollarda manfaatlarini ko‘zlab shikoyat berilayotgan shaxsning nomi (familiyasi, ismi, otasining ismi) va uning manzili.

8) qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda, boshqa ma’lumotlar.

Ta’kidlash kerakki, mazkur tezisning maqsadi ma’muriy shikoyatlarning nazariy-huquqiy tabiatini ochib berish orqali ularga oid munosabatlarni yanada takomillashtish, shuningdek, respublikada ma’muriy shikoyatlarni sudgacha ko‘rib chiqish instituni yanada rivojlantirish hamda sohadagi mavjud muammolarga yechimlar ko‘rsatishdan iboratdir.

Jumladan, sohada ayrim muammolar uchramoqda. Xususan:

– amaldagi qonunchilikda ma’muriy shikoyatlar hamda boshqa murojaatlarni o‘zaro farqli jihatlari hamda farqlash mezonlari aniq nazarda tutilmagan.

Xususan, “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi Qonunga asosan **arizalar**, **takliflar** va **shikoyatlar** *(shikoyat – buzilgan huquqlarni, erkinliklarni tiklash va qonuniy manfaatlarni himoya qilish to‘g‘risidagi talab bayon etilgan murojaat)* murojaatlarning turlari hisoblanadi.

Shu bilan birga, ushbu Qonunda **takroriy murojaat** – ayni bir jismoniy yoki yuridik shaxsdan kelib tushgan, uning avvalgi murojaati yuzasidan qabul qilingan qaror ustidan shikoyat qilinayotgan yoki boshqacha tarzda norozilik

bildirilayotgan, shuningdek, agar takroriy murojaat kelib tushgan paytga kelib qonunchilikda belgilangan ko‘rib chiqish muddati tugagan bo‘lsa, ilgarigi murojaati o‘z vaqtida ko‘rib chiqilmaganligi to‘g‘risida xabar qilinayotgan murojaat sifatida belgilangan.

Ko‘rinib turganidek, **ma’muriy shikoyat** hamda murojaatning bir shakli bo‘lgan **shikoyat** va **takroriy murojaat** mazmunan **bir xil** ta’riflangan.

Buning natijasida, ushbu ikki bir-biridan farqli huquqiy kategoriyalarni adashtirib yuborish holatlari yuzaga kelishi mumkin.

Vaholanki, ma’muriy shikoyat va murojaat alohida huquqiy kategoriya bo‘lib, quyidagi farqli jihatlari mavjud:

1) murojaatlarni ko‘rib chiqish muddati 30 ish kuni etib belgilangan bo‘lsa, murojaatlar 2 oyga qadar ko‘rib chiqilishi mumkin;

2) qonunchilikka ko‘ra, ma’muriy shikoyatni ko‘rib chiqish natijasi yuzasidan yozma qaror qabul qilinishi belgilangan. Biroq, amalda ushbu masala murojaatlarni ko‘rib chiqish tartibi kabi hal etilib, javob xati berilishi bilan cheklaniladi;

3) ma’muriy aktlar yuzasidan ma’muriy shikoyat berish muddati 30 kun etib belgilangan. Biroq, takroriy murojaatlarni ko‘rib chiqish bo‘yicha da’vo muddati belgilanmaganligi sababli, ushbu qoidaga ham rioya etilmasdan qolmoqda;

4) Qonunga ko‘ra, ma’muriy organga kelib tushgan ariza o‘sha kunning o‘zida ro‘yxatdan o‘tkazilishi lozim. Murojaatga oid tartibda esa, murojaat ish vaqti tugaganidan keyin kelib tushgan taqdirda keyingi ish kuni ro‘yxatdan o‘tkazilishi kerak;

5) Qonunda ma’muriy shikoyatlar ro‘yxatdan o‘tkazilganligi to‘g‘risida manfaatdor shaxsni xabardor qilish talabi mavjud. Biroq, ushbu talab murojaatlarga oid qonunchilikda bo‘lmaganligi sababli, manfaatdor shaxs ma’muriy shikoyati ro‘yxatdan o‘tkazilganligi haqida xabardor qilinmaydi.

6) ma’muriy shikoyatlarni majlisda ko‘rib chiqish, manfaatdor shaxsni xabardor qilish, rad qilish, dalillar va ularga baho berish, ma’muriy ishni to‘xtatish va tiklash kabi institutlar mavjud. Murojaatlarda ushbu tartib mavjud emas.

– ma’muriy shikoyatlarni sudga qadar ko‘rib chiqishda ayrim qarama-qarshiliklar mavjud.

Jumladan, “Ma’muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi Qonunga asosan, ma’muriy shikoyatlar qonunchilikda vakolat berilgan organlarga ham berilishi mumkin.

Shunga asosan, Adliya vazirligi huzurida ayrim davlat xizmatlari bo‘yicha qabul qilingan ma’muriy hujjatlar bo‘yicha, Kadastr agentligi huzurida ko‘chmas mulkni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish bo‘yicha, Qurilish vazirligi huzurida qurilish sohasi bo‘yicha ma’muriy shikoyatlarni ko‘rib chiquvchi Apellyatsiya kengashlari tuzilgan.

Biroq, AQSh, Germaniya[40] va Yaponiya kabi davlatlarda ma’muriy shikoyatlarni sudga qadar ma’muriy organ tomonidan ko‘rib chiqilishi majburiy hisoblanadi. Ya’ni ma’muriy shikoyat ma’muriy organ tomonidan ko‘rib chiqilmagunga qadar sudlar tomonida ish yurituvga qabul qilinmaydi.

O‘z navbatida, barchamizga ma’lumki, har bir insonning o‘z huquqlarini himoya qilish uchun sudga murojaat qilish kabi tabiiy huquqlari mavjud.

Ushbu holatda esa, o‘zaro-ziddiyatli holat yuzaga kelmoqda. Ya’ni qonunchilikda nazarda tutilgan holatlarda sudga to‘g‘ridan-to‘g‘ri murojaat qilishni cheklashga yoki umuman murojaat qilmaslikka oid qoidalar kiritilishi qanchalik maqsadga muvofiq?

Yuqoridagi kabi holatlarda, ma’muriy shikoyat tushunchasini milliy qonunchilikda yanada aniqlashtirish, barcha ma’muriy organlar uchun yagona shikoyatlarni ko‘rib chiqish standartlarini joriy etish, apellyatsiya kengashlari

[40] Kopp F. Verwaltungsverfahrensgesetz. München, 2023.
Maurer H. Allgemeines Verwaltungsrecht. München, 2022.

yoki mustaqil ma’muriy apellyatsiya organlari institutini rivojlantirish hamda ma’muriy shikoyatlarni sudgacha ko‘rib chiqish institutining majburiyligini tahlil qilish orqali O‘zbekiston uchun samarali modelni joriy qilish maqsadga muvofiqdir.

## XULOSA

Xulosa qilib aytganda, ma’muriy shikoyatlar davlat boshqaruvi sohasida shaxs huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishning muhim huquqiy kafolatlaridan biri hisoblanadi. Ma’muriy shikoyat bo‘yicha ish yurituvning samarali tashkil etilishi davlat organlari faoliyatining qonuniyligi, ochiqligi va hisobdorligini ta’minlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, mazkur institutni xalqaro standartlar asosida takomillashtirish ma’muriy adliya tizimining yanada rivojlanishiga hamda fuqarolarning davlat boshqaruviga bo‘lgan ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ma’muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi Qonuni.
2. Kopp F. Verwaltungsverfahrensgesetz. München, 2023.
3. Maurer H. Allgemeines Verwaltungsrecht. München, 2022.
4. OECD. Administrative Justice and Good Governance Principles. Paris, 2021.
5. Asian Development Bank. Administrative Appeals and Review Mechanisms in Asia. Manila, 2022.

# СТРУКТУРНО-СЕМАНТИЧЕСКИЕ ТИПЫ СИНОНИМИЧЕСКИХ ОППОЗИЦИЙ В РУССКОМ ЯЗЫКЕ

**Ойхужаева Севинч Джурабековна**

*Студентка*

*Национальный педагогический университет Узбекистана имени Низами, Ташкент*

*https://sevinchxonoyxujsyeva12gmail.com*

***Аннотация:*** *В статье рассматриваются структурно-семантические особенности синонимических оппозиций в русском языке. Анализируются основные типы синонимов, их функциональные и стилистические различия, а также роль синонимических отношений в системе языка. Особое внимание уделяется классификации синонимических оппозиций по степени семантической близости и структурным характеристикам. Исследование показывает, что синонимия является важнейшим средством развития и обогащения русского языка.*

***Ключевые слова:*** *синонимия, синонимические оппозиции, лексическая семантика, русский язык, структурные типы, семантические отношения.*

***Abstract:*** *This article examines the structural and semantic features of synonymous oppositions in Russian. It analyzes the main types of synonyms, their functional and stylistic differences, and the role of synonymous relations in the linguistic system. Particular attention is paid to the classification of synonymous oppositions by degree of semantic similarity and structural characteristics. The study demonstrates that synonymy is a vital means of developing and enriching the Russian language.*

***Key words:*** *synonymy, synonymous oppositions, lexical semantics, Russian language, structural types, semantic relations.*

## ВВЕДЕНИЕ

Лексическая система русского языка отличается сложностью и многообразием семантических связей между словами. Одним из важнейших проявлений этих связей выступает синонимия, отражающая способность языка выражать одно и то же понятие различными языковыми средствами. Синонимы позволяют передавать тончайшие оттенки

значения, эмоционально-экспрессивную окраску и стилистические особенности речи.

Изучение синонимических оппозиций имеет большое значение для современной лингвистики, поскольку позволяет глубже понять механизмы функционирования лексической системы языка. Синонимические отношения являются не только средством языковой вариативности, но и важным фактором развития речи, культуры общения и художественного стиля [1].

Цель данной статьи заключается в рассмотрении структурно-семантических типов синонимических оппозиций в русском языке, определении их основных характеристик и функциональных особенностей.

Под синонимической оппозицией понимается соотношение слов, близких или тождественных по значению, но различающихся оттенками смысла, эмоциональной окраской, сферой употребления либо структурой. В основе синонимических отношений лежит общность предметно-логического содержания [2].

Синонимы могут различаться:

a) стилистической окраской;
b) эмоционально-экспрессивными оттенками;
c) сферой употребления;
d) степенью интенсивности признака;
e) особенностями сочетаемости.

Слова *говорить*, *изрекать*, *болтать*, *разговаривать* объединяются общим значением речевой деятельности, однако различаются стилистическими и эмоциональными характеристиками.

Синонимическая оппозиция представляет собой не просто сходство слов, а систему противопоставлений внутри единого семантического поля.

Именно различия между синонимами обеспечивают богатство выразительных средств языка [4].

С точки зрения структуры синонимические оппозиции можно разделить на несколько основных типов.

Однокорневые синонимы образуются от одного корня при помощи различных словообразовательных средств. Они отличаются оттенками значения или стилистической принадлежностью, например:

*домик – домишко*;

*ходить – похаживать*;

*кричать – покрикивать*.

Подобные синонимы демонстрируют тесную связь между словообразованием и семантикой. Суффиксы и приставки вносят дополнительные эмоционально-оценочные оттенки.

Разнокорневые синонимы представляют собой слова с различными корнями, но близким значением:

*смелый – храбрый*;

*красивый – прекрасный*;

*идти – шагать*.

Данный тип наиболее характерен для лексической системы русского языка. Разнокорневые синонимы часто имеют различное происхождение и формируются в результате исторического развития языка.

Контекстуальные синонимы приобретают сходство значений только в определённой речевой ситуации. Вне контекста они могут не рассматриваться как синонимы.

Например, в художественном тексте слова *ветер* и *буря* могут выступать как контекстуальные синонимы, если автор стремится подчеркнуть силу природного явления.

Контекстуальная синонимия особенно характерна для художественной литературы, публицистики и разговорной речи.

Семантическая классификация основывается на степени близости значений синонимов.

Полные синонимы обладают практически идентичным значением и могут заменять друг друга без изменения смысла высказывания:

*языкознание – лингвистика*;

*орфография – правописание*.

Абсолютная синонимия встречается сравнительно редко, поскольку язык стремится избегать полного дублирования единиц.

Частичные синонимы совпадают по основному значению, но различаются оттенками смысла или сферой употребления:

*смотреть – глядеть*;

*дом – жилище*;

*ошибка – промах*.

Именно этот тип составляет основную часть синонимического богатства русского языка.

Стилистические синонимы различаются сферой употребления и экспрессивной окраской:

*лицо – лик*;

*умирать – скончаться*;

*есть – кушать*.

Такие синонимы активно используются в художественной литературе и публицистике для создания определённого речевого эффекта.

Данный тип сочетает различия как в значении, так и в стилистической окраске:

*говорить – болтать*;

*идти – тащиться*;

*смеяться – хохотать*.

Подобные синонимы позволяют наиболее точно передавать эмоциональное состояние и отношение говорящего.

Синонимические оппозиции выполняют важные функции в языке и речи.

Синонимы позволяют более точно обозначать предметы, явления и действия, отражая различные аспекты значения.

Использование различных синонимов помогает выражать эмоциональную оценку и авторское отношение [3].

Например, слова *ребёнок, малыш, детёныш* обладают различной эмоциональной окраской.

Синонимы обеспечивают соответствие речи определённому стилю: научному, официально-деловому, художественному или разговорному.

Синонимия способствует связности текста и предотвращает неоправданные повторы [5].

В художественных произведениях авторы часто используют синонимические ряды для усиления выразительности речи.

Таким образом, структурно-семантические типы синонимических оппозиций представляют собой важнейший элемент лексической системы русского языка. Синонимия обеспечивает богатство и гибкость речевого выражения, способствует развитию языковой культуры и расширению выразительных возможностей речи.

Структурная классификация позволяет выделить однокорневые, разнокорневые и контекстуальные синонимы, тогда как семантический подход раскрывает особенности полных, частичных, стилистических и семантико-стилистических синонимов.

Исследование синонимических отношений остаётся актуальным направлением современной лингвистики, поскольку язык постоянно развивается, а система синонимии непрерывно пополняется новыми единицами и значениями.

## СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ

1. Апресян Ю. Д. Лексическая семантика: синонимические средства языка. 2-е изд. Москва: Восточная литература, 2005.

2. Валгина Н. С. Современный русский язык: Лексикология. – Москва: Логос, 2002.
3. Кожина М. Н. Стилистика русского языка. – Москва: Флинта; Наука, 2008.
4. Новиков Л. А. Семантика русского языка. – Москва: Академический проект, 2001.
5. Шмелёв Д. Н. Современный русский язык. Лексика. – Москва: Едиториал УРСС, 2003.

# MA’MURIY SHIKOYATLAR VA ULARNI SUDGA QADAR KO‘RIB CHIQISHNING AYRIM DOLZARB JIHATLARI

**Bekmirzayev Alibek Faxriddin o‘g‘li**

*O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti mustaqil izlanuvchisi*

***Annotatsiya.*** *Mazkur tezisda ma’muriy shikoyatlar hamda ma’muriy shikoyatlarni sudga qadar ko‘rib chiqishga oid ayrim dolzarb masalalar tahlil qilinadi. Xususan, ma’muriy shikoyat tushunchasi va huquqiy tabiati, ma’muriy shikoyatlar va boshqa murojaatlarning o‘zaro farqli jihatlari, ma’muriy shikoyatlarning manfaatdor shaxslar huquqlarini himoya qilishdagi asosiy huquqiy himoya vositasi sifatidagi ahamiyati, ma’muriy shikoyatlarni ko‘rib chiqishning o‘ziga xos xususiyatlari va ma’muriy shikoyatlarni umumiy tartibda ko‘rib chiqishning ayrim jihatlari, ma’muriy shikoyatlarni sudgacha ko‘rib chiqishning o‘ziga xos jihatlari hamda shikoyatlarni sudgacha ko‘rib chiquchi organlarning huquqiy tabiati tahlil etiladi.*

*Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasida ma’muriy shikoyatlar va ularni sudgacha ko‘rib chiqish bo‘yicha tuziladigan Appelyatsiya kengashlarining huquqiy maqomi va yuridik tabiati ko‘rsatiladi. Respublikada ma’muriy shikoyatlarni ko‘rib chiqish tartib-taomillari bo‘yicha milliy qonunchilikni takomillashtirishga qaratilgan takliflar ilgari suriladi.*

***Kalit so‘zlar:*** *ma’muriy tartib-taomillar, inson huquqlari, ma’muriy yustitsiya, ma’muriy shikoyat, ma’muriy shikoyat qilish, ma’muriy shikoyatni ko‘rib chiqish tartibi, ma’muriy shikoyatlarni sudgacha ko‘rib chiqish, appelyatsiya kengashlari.*

***Abstract.*** *This thesis examines a number of current issues related to administrative complaints and the procedures for their pre-trial review. In particular, it analyzes the concept and legal nature of an administrative complaint, the distinguishing features between administrative complaints and other forms of petitions and appeals, the significance of administrative complaints as a primary legal remedy for the protection of the rights and legitimate interests of concerned persons, the specific characteristics of administrative complaint proceedings and certain aspects of their consideration under the general procedure, as well as the particular features of the pre-trial review of administrative complaints and the legal nature of bodies authorized to conduct such review.*

*Furthermore, the thesis examines the legal status and juridical nature of the Appeal Councils established in the Republic of Uzbekistan for the consideration and pre-trial review*

*of administrative complaints. It also puts forward proposals aimed at improving the national legislation of the Republic of Uzbekistan governing the procedures for the consideration of administrative complaints.*

***Keywords:*** *administrative procedures, human rights, administrative justice, administrative complaint, administrative appeal, procedure for reviewing administrative complaints, pre-trial review of administrative complaints, Appeal Councils.*

## KIRISH

Ma’muriy shikoyat davlat boshqaruvi sohasida jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilishning muhim huquqiy vositalaridan biri hisoblanadi. U ma’muriy organlar va mansabdor shaxslar tomonidan qabul qilingan qarorlar, amalga oshirilgan harakatlar yoki yo‘l qo‘yilgan harakatsizliklar ustidan shikoyat qilish imkoniyatini yaratadi. Zamonaviy ma’muriy huquq nazariyasida ma’muriy shikoyat nafaqat individual huquqlarni himoya qilish mexanizmi, balki davlat boshqaruvi samaradorligini ta’minlovchi institut sifatida ham e’tirof etiladi.

Ma’muriy shikoyatning huquqiy tabiati quyidagi xususiyatlarda namoyon bo‘ladi:

– huquqlarni himoya qilish vositasi hisoblanadi;

– davlat boshqaruvi sohasida qonuniylikni ta’minlashga xizmat qiladi;

– sudga qadar nizolarni hal qilish mexanizmi sifatida namoyon bo‘ladi;

– ma’muriy organlar faoliyati ustidan ichki nazorat shakli hisoblanadi.

Ma’muriy shikoyatning birinchi va eng muhim jihati shundaki, u shaxsning buzilgan huquqlarini tezkor va samarali tiklash imkonini beradi. Sud tartibidagi himoya ko‘pincha murakkab protsessual talablar, vaqt va mablag‘ sarfini talab etsa, ma’muriy shikoyat nisbatan soddalashtirilgan tartibda ko‘rib chiqiladi. Shu sababli ko‘plab rivojlangan davlatlar ma’muriy nizolarni dastlab ma’muriy tartibda hal etish mexanizmlarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratadilar. Huquqshunos olimlar ma’muriy shikoyatni “sud himoyasining muqobili emas, balki uni to‘ldiruvchi va samaradorligini oshiruvchi vosita” sifatida baholaydilar.

Ikkinchidan, ma’muriy shikoyat davlat organlari faoliyatining qonuniyligini ta’minlashda muhim o‘rin tutadi. Nemis ma’muriy huquqi nazariyasida ma’muriy shikoyat “o‘zini o‘zi nazorat qilish mexanizmi” sifatida tavsiflanadi. Bunda ma’muriy organ o‘z qarorini qayta ko‘rib chiqish orqali xatolarini tuzatish, qonun talablariga zid bo‘lgan hujjatlarni bekor qilish yoki o‘zgartirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Natijada davlat boshqaruvida qonun ustuvorligi va adolat tamoyillari mustahkamlanadi.

Uchinchidan, ma’muriy shikoyat fuqarolar va davlat o‘rtasidagi munosabatlarda muvozanatni ta’minlaydi. Davlat boshqaruvi organlari ommaviy hokimiyat vakolatlariga ega bo‘lgani sababli ular bilan oddiy fuqaro o‘rtasida huquqiy tengsizlik mavjud bo‘lishi mumkin. Ma’muriy shikoyat instituti ushbu nomutanosiblikni yumshatib, fuqaroga davlat organlari qarorlarini qayta ko‘rib chiqishni talab qilish huquqini beradi. Bu esa huquqiy davlat konsepsiyasining muhim elementi hisoblanadi.

To‘rtinchidan, ma’muriy shikoyat yaxshi boshqaruv (good governance) tamoyillarini amalga oshirishga xizmat qiladi. Xususan, ochiqlik, shaffoflik, hisobdorlik va fuqarolarning davlat boshqaruvidagi ishtiroki kabi tamoyillar ma’muriy shikoyatlar orqali amaliy mazmun kasb etadi. Fuqarolar tomonidan bildirilayotgan shikoyatlar ma’muriy organlar faoliyatidagi tizimli kamchiliklarni aniqlash, davlat xizmatlari sifatini oshirish hamda korrupsion holatlarning oldini olishga yordam beradi.

Beshinchidan, ma’muriy shikoyat inson huquqlarini himoya qilishning xalqaro standartlariga mos keladi. Xalqaro huquqda har bir shaxsning buzilgan huquqlarini tiklash uchun samarali huquqiy himoya vositalaridan foydalanish huquqi tan olingan. Ushbu huquqning amalga oshirilishida ma’muriy shikoyat instituti muhim o‘rin egallaydi, chunki u sudga murojaat qilishdan oldin yoki sud bilan parallel ravishda huquqlarni himoya qilish imkoniyatini yaratadi.

Oltinchidan, ma’muriy shikoyat sudlar yuklamasini kamaytirish vazifasini ham bajaradi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ma’muriy nizolarning ma’lum

qismi ma’muriy tartibda hal etilgan taqdirda sudlarga kelib tushadigan ishlar soni sezilarli darajada qisqaradi. Bu esa sud hokimiyatining resurslaridan oqilona foydalanish hamda odil sudlov sifatini oshirish imkonini beradi.

Shuningdek, ma’muriy shikoyatning preventiv (oldini oluvchi) ahamiyati ham mavjud. Davlat organlari o‘z qarorlari ustidan shikoyat qilinishi mumkinligini bilgan holda qaror qabul qilishda qonuniylik va asoslantirilganlik talablariga ko‘proq rioya qilishga intiladilar. Natijada noqonuniy ma’muriy hujjatlar soni kamayadi va fuqarolarning davlat organlariga bo‘lgan ishonchi ortadi.

Bundan tashqari, ma’muriy shikoyatlar davlat organlariga o‘z kamchilik va xatolarini o‘zlari to‘g‘rilashlariga imkon yaratadi hamda javobgarlik choralari kelib chiqishini oldini oladi.

Ilmiy adabiyotlarda sudgacha ko‘rib chiqish instituti “ma’muriy o‘zini o‘zi nazorat qilish mexanizmi” sifatida baholanadi. Nemis olimi Otto Mayer ma’muriy shikoyatlarni ko‘rib chiqish tartibini ma’muriy organlarga o‘z faoliyatidagi xatolarni tuzatish imkonini beruvchi muhim vosita sifatida tavsiflagan. Shuningdek, nemis ma’muriy huquqida shakllangan “Vorverfahren” (dastlabki ma’muriy tartib) instituti ma’muriy adliyaning muhim elementi sifatida qaraladi.[41]

Yuqoridagi kabi holatlarda, ma’muriy shikoyat tushunchasini milliy qonunchilikda yanada aniqlashtirish, barcha ma’muriy organlar uchun yagona shikoyatlarni ko‘rib chiqish standartlarini joriy etish, apellyatsiya kengashlari yoki mustaqil ma’muriy apellyatsiya organlari institutini rivojlantirish hamda ma’muriy shikoyatlarni sudgacha ko‘rib chiqish institutining majburiyligini tahlil qilish orqali O‘zbekiston uchun samarali modelni joriy qilish maqsadga muvofiqdir.

[41] Kopp F. Verwaltungsverfahrensgesetz. München, 2023
Maurer H. Allgemeines Verwaltungsrecht. München, 2022

Xulosa qilib aytganda, ma’muriy shikoyatlar davlat boshqaruvi sohasida shaxs huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishning muhim huquqiy kafolatlaridan biri hisoblanadi. Ma’muriy shikoyat bo‘yicha ish yurituvning samarali tashkil etilishi davlat organlari faoliyatining qonuniyligi, ochiqligi va hisobdorligini ta’minlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, mazkur institutni xalqaro standartlar asosida takomillashtirish ma’muriy adliya tizimining yanada rivojlanishiga hamda fuqarolarning davlat boshqaruviga bo‘lgan ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi.

## TAVSIYA QILINADIGAN ADABIYOTLAR:

6. O‘zbekiston Respublikasining “Ma’muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi Qonuni.
7. Kopp F. Verwaltungsverfahrensgesetz. München, 2023.
8. Maurer H. Allgemeines Verwaltungsrecht. München, 2022.
9. OECD. Administrative Justice and Good Governance Principles. Paris, 2021.
10. Asian Development Bank. Administrative Appeals and Review Mechanisms in Asia. Manila, 2022.

# 3-SECTION

# ZAMONAVIY TA’LIMDA NAZORAT TURLARI VA BAHOLASH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

**Bekturdiev Aybek Elmuratovich**

*Nukus davlat texnika universiteti o‘qituvchisi*

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada zamonaviy ta’lim jarayonida nazorat turlari, baholash mezonlari va monitoringga asoslangan yondashuvlarning pedagogik ahamiyati yoritiladi. Baholash o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini aniqlash, o‘quv maqsadlariga erishish darajasini tahlil qilish hamda ta’lim sifatini oshirish vositasi sifatida ko‘rib chiqiladi. Maqolada mezonga asoslangan va me’yorga asoslangan baholash shakllari, joriy, oraliq va yakuniy nazoratning vazifalari, baholash jarayonida uchraydigan xatoliklar hamda ularni kamaytirish yo‘llari tahlil qilinadi. Raqamli monitoring va elektron baholash vositalaridan foydalanish o‘quv natijalarini tizimli kuzatish, tahlil qilish va pedagogik qarorlarni ilmiy asosda qabul qilish imkonini berishi asoslanadi.*

***Аннотация:*** *В статье раскрывается педагогическое значение видов контроля, критериев оценивания и подходов, основанных на мониторинге, в современном образовательном процессе. Оценивание рассматривается как средство определения знаний, умений и навыков учащихся, анализа степени достижения учебных целей и повышения качества образования. В статье анализируются критериальное и нормативное оценивание, задачи текущего, промежуточного и итогового контроля, а также ошибки, возникающие в процессе оценивания, и пути их снижения. Обосновывается, что использование цифрового мониторинга и электронных средств оценивания позволяет системно отслеживать учебные результаты, анализировать их и принимать педагогические решения на научной основе.*

***Abstract:*** *This article examines the pedagogical significance of types of control, assessment criteria, and monitoring-based approaches in modern education. Assessment is considered as a tool for identifying students’ knowledge, skills, and competencies, analyzing the level of achievement of learning objectives, and improving the quality of education. The article analyzes criterion-referenced and norm-referenced assessment, the functions of formative, interim, and final control, as well as common assessment errors and ways to reduce them. It is substantiated that the use of digital monitoring and electronic assessment tools*

*enables systematic tracking of learning outcomes, their analysis, and the adoption of pedagogical decisions on a scientific basis.*

***Kalit so‘zlar:*** *ta’lim, nazorat, baholash, o‘quv maqsadi, monitoring, mezon, reyting, diagnostika, raqamli baholash, ta’lim sifati.*

***Ключевые слова:*** *образование, контроль, оценивание, учебная цель, мониторинг, критерий, рейтинг, диагностика, цифровое оценивание, качество образования.*

***Keywords:*** *education, control, assessment, learning objective, monitoring, criterion, rating, diagnostics, digital assessment, quality of education.*

## KIRISH (INTRODUCTION)

Zamonaviy ta’lim tizimida o‘quvchi va talabalarni baholash masalasi muhim pedagogik yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Ta’lim jarayonining samaradorligi faqat o‘quv materialining mazmuni yoki dars jarayonining tashkil etilishi bilan belgilanmaydi. Unda ta’lim oluvchining bilimni qay darajada o‘zlashtirgani, uni amaliy faoliyatda qo‘llay olishi, mustaqil fikrlashi va o‘z faoliyatini tahlil qila olishi ham asosiy mezonlardan biri sanaladi.

Baholash ta’lim jarayonining ma’lum bosqichida o‘quv maqsadlariga erishilganlik darajasini oldindan belgilangan mezonlar asosida o‘lchash, natijalarni aniqlash va tahlil qilish jarayonidir [1]. Mazkur yondashuv baholashni oddiy ball qo‘yish amaliyotidan kengroq mazmunda tushunishni talab qiladi. Baholash o‘qituvchi uchun ham, o‘quvchi uchun ham teskari aloqa manbai bo‘lib xizmat qiladi.

Ta’limda baholash samarali bo‘lishi uchun o‘quv maqsadlari oldindan aniq belgilanadi. O‘quv maqsadlari ta’lim jarayoni yakunida o‘quvchi tomonidan o‘zlashtirilishi lozim bo‘lgan bilim, amaliy topshiriqni bajara olish mahorati, shaxsiy fazilatlar va faoliyat natijasini bildiradi [1]. Agar o‘quv maqsadi noaniq bo‘lsa, baholash ham subyektiv, tasodifiy yoki adolatsiz tus olishi mumkin.

Bugungi ta’lim jarayonida baholashga yangicha yondashuv zarur. O‘quvchi yoki talaba faqat javob bergani uchun emas, balki topshiriqni qanday

bajargani, mantiqiy fikrlagani, xulosaga kelgani, amaliy vazifani mustaqil bajara olgani uchun ham baholanishi kerak. Bu holat baholashning rivojlantiruvchi vazifasini kuchaytiradi.

Maktab ta’limida bilimni baholashning an’anaviy va zamonaviy usullari, o‘quvchilar bilimini monitoring qilish, baholash algoritmlarini ishlab chiqish va ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiluvchi dasturiy majmualar bo‘yicha ilmiy ishlarda baholash jarayonini tizimli tashkil etish zarurligi asoslanadi [2], [3], [4], [5], [6]. Bu manbalarda baholash natijalarini faqat ball ko‘rinishida emas, balki ta’lim sifatini boshqarishga xizmat qiluvchi axborot sifatida tahlil qilish g‘oyasi ilgari suriladi.

Mazkur maqolaning maqsadi zamonaviy ta’limda nazorat turlari va baholash metodikasining pedagogik asoslarini tahlil qilish, baholash jarayonidagi xatoliklarni aniqlash, monitoringga asoslangan yondashuvning ahamiyatini yoritish hamda ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiluvchi ilmiy-amaliy takliflarni ishlab chiqishdan iborat.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review)**

Ta’lim jarayonida nazorat va baholash masalasi pedagogika fanida muhim ilmiy-amaliy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Mavzuga oid adabiyotlarda baholash o‘quv maqsadlari, ta’lim natijalari, o‘quvchi faoliyati va ta’lim sifati bilan uzviy bog‘liq jarayon sifatida talqin qilinadi. Baholashning mazmuni faqat o‘quvchiga ball qo‘yish bilan cheklanmaydi, balki o‘zlashtirish darajasini aniqlash, kamchiliklarni tahlil qilish va keyingi ta’limiy faoliyatni rejalashtirishga xizmat qiladi [1].

O‘quv materiallarida o‘quv maqsadlari yo‘naltiruvchi, umumiy va aniq maqsadlarga ajratilishi ko‘rsatiladi [1]. Bu tasnif baholash jarayonini maqsadga muvofiq tashkil etishda muhim ahamiyatga ega. Chunki baholash mezonlari aynan o‘quv maqsadlariga mos ishlab chiqilganda natijalar aniq, xolis va tahlilga yaroqli bo‘ladi.

Mavzuga oid ilmiy manbalarda o‘quvchilar bilimini monitoring qilish, baholash algoritmlarini ishlab chiqish va axborot tizimlari asosida nazoratni tashkil etish masalalari yoritilgan [2], [3], [10]. Ushbu manbalarda baholash natijalarini muntazam qayd etish, solishtirish va tahlil qilish ta’lim sifatini boshqarishning muhim sharti sifatida ko‘rsatiladi.

An’anaviy va zamonaviy baholash usullariga oid tadqiqotlarda og‘zaki so‘rov, yozma nazorat, test, reyting, elektron monitoring, portfolio va amaliy topshiriqlar taqqoslab o‘rganilgan [4]. Bu yondashuv baholashning yagona shakl bilan cheklanmasligi, balki o‘quvchining nazariy bilimi, amaliy ko‘nikmasi va mustaqil faoliyatini kompleks baholash zarurligini asoslaydi.

Ta’lim sifatini oshirishga oid adabiyotlarda pedagogik monitoring, o‘qituvchi malakasi, dasturiy majmualar va maktab darajasida nazorat tizimini tashkil etish masalalariga e’tibor qaratilgan [5], [6], [7], [8]. Mazkur manbalar baholashni faqat individual o‘quvchi natijasini aniqlash vositasi emas, balki ta’lim muassasasida sifatni boshqarish mexanizmi sifatida ko‘rib chiqishga imkon beradi.

Pedagogik texnologiyalar va baholash nazariyasiga oid manbalarda baholashning obyektivligi, mezonliligi, tizimliligi va shaffofligi asosiy talablar sifatida belgilanadi [11]. Xalqaro adabiyotlarda esa ta’lim maqsadlari taksonomiyasi va formativ baholash yondashuvlari baholash jarayonini o‘quvchini rivojlantirishga xizmat qiluvchi vosita sifatida izohlaydi [12], [13].

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy baholash metodikasida o‘quv maqsadlariga moslik, aniq mezonlar, muntazam monitoring, raqamli baholash, teskari aloqa va ta’lim sifatini boshqarishga yo‘naltirilgan yondashuvlar ustuvor ahamiyat kasb etadi.

**Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology)**

Ushbu tadqiqot zamonaviy ta’limda nazorat turlari va baholash metodikasining pedagogik mohiyatini aniqlash, baholash jarayonining nazariy asoslarini o‘rganish hamda monitoringga asoslangan yondashuvlarning ta’lim

sifatiga ta’sirini tahlil qilishga qaratildi. Tadqiqotda nazariy tahlil, qiyosiy tahlil, umumlashtirish, tizimli yondashuv, manbalarni tahlil qilish va pedagogik kuzatuv metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqotning metodologik asosini baholash nazariyasi, o‘quv maqsadlarini belgilash, pedagogik diagnostika, ta’lim sifati monitoringi va raqamli baholashga oid ilmiy qarashlar tashkil etdi. Xususan, B.S. Bloom tomonidan ishlab chiqilgan ta’lim maqsadlari taksonomiyasi baholash jarayonini bilim, tushunish, qo‘llash, tahlil qilish va xulosa chiqarish kabi bosqichlar bilan bog‘lash imkonini beradi [12]. Ushbu yondashuv baholash topshiriqlari faqat eslab qolish darajasini emas, balki yuqori darajadagi fikrlash faoliyatini ham qamrab olishi zarurligini ko‘rsatadi.

P. Black va D. Wiliamning formativ baholashga oid tadqiqotlarida baholash o‘quv jarayonini rivojlantiruvchi vosita sifatida talqin qilinadi [13]. Ularning yondashuviga ko‘ra, baholash natijasi o‘quvchiga faqat baho sifatida emas, balki keyingi o‘quv faoliyatini yaxshilashga xizmat qiluvchi teskari aloqa sifatida berilishi lozim. Mazkur qarash tadqiqotda baholashning rivojlantiruvchi vazifasini asoslashda muhim metodologik manba bo‘lib xizmat qildi.

Tadqiqotda zamonaviy ta’lim nazorat turlari va baholash metodikasiga oid o‘quv taqdimot materiali asosiy amaliy manbalardan biri sifatida olindi. Mazkur materialda baholash o‘quv maqsadlariga erishilganlik darajasini oldindan belgilangan mezonlar asosida o‘lchash, natijalarni aniqlash va tahlil qilish jarayoni sifatida izohlanadi [1]. Shu asosda baholashning maqsadi, vazifalari, turlari, shakllari, mezonlari va baholashda uchraydigan xatoliklar tizimli ravishda o‘rganildi.

Tadqiqotning birinchi bosqichida baholash tushunchasining nazariy mazmuni tahlil qilindi. Baholash o‘quv maqsadlariga erishilganlik darajasini aniqlash, natijalarni o‘lchash, tahlil qilish va keyingi ta’limiy faoliyatni rejalashtirishga xizmat qiluvchi pedagogik jarayon sifatida ko‘rib chiqildi [1].

Bu bosqichda baholash faqat ball qo‘yish vositasi emas, balki ta’lim sifatini boshqarish mexanizmi ekanligi asoslandi.

Ikkinchi bosqichda o‘quv maqsadlarining baholash jarayonidagi o‘rni o‘rganildi. O‘quv maqsadlarining yo‘naltiruvchi, umumiy va aniq turlari tahlil qilinib, ularning baholash mezonlarini shakllantirishdagi ahamiyati ochib berildi [1]. Bu yondashuv baholashning aniqligi va xolisligi o‘quv maqsadlarining to‘g‘ri belgilanishiga bog‘liq ekanini ko‘rsatdi.

Uchinchi bosqichda baholashning vaqt jihatidan tashkil etilishi tahlil qilindi. Ta’lim jarayoni boshida, davomida va yakunida amalga oshiriladigan baholash shakllarining vazifalari ko‘rib chiqildi [1]. Boshlang‘ich baholash o‘quvchining dastlabki tayyorgarligini aniqlashga, joriy baholash o‘zlashtirish jarayonini kuzatishga, yakuniy baholash esa umumiy natijani belgilashga xizmat qilishi asoslandi.

To‘rtinchi bosqichda baholash obyekti masalasi o‘rganildi. Nazariy bilimlar, amaliy ko‘nikma va malakalar, faoliyat natijalari hamda shaxsiy fazilatlar baholash obyekti sifatida tahlil qilindi [1]. Bu yondashuv zamonaviy baholash faqat bilimni tekshirish bilan cheklanmasdan, ta’lim oluvchining kompetensiyasini kompleks aniqlashi zarurligini ko‘rsatdi.

Beshinchi bosqichda mezonga asoslangan va me’yorga asoslangan baholash shakllari qiyosiy tahlil qilindi. Mezonga asoslangan baholashda o‘quvchining natijasi oldindan belgilangan talablar asosida aniqlanishi, me’yorga asoslangan baholashda esa natijalar o‘quvchilar o‘rtasida taqqoslash orqali baholanishi o‘rganildi [1]. Tahlil natijasida mezonga asoslangan baholash zamonaviy ta’limda xolislik va shaffoflikni ta’minlashda muhim ahamiyatga ega ekani asoslandi.

Oltinchi bosqichda ta’lim sifatini monitoring qilish va raqamli baholashga oid ilmiy manbalar o‘rganildi. O‘quvchilar bilimini monitoring qilish, baholash algoritmlarini ishlab chiqish, dasturiy majmualar va axborot tizimlaridan foydalanish bo‘yicha tadqiqotlarda baholash natijalarini tizimli qayd etish, qayta

ishlash va tahlil qilish zarurligi ko‘rsatilgan [2], [3], [6], [10]. Mazkur manbalar baholash jarayonida raqamli monitoringdan foydalanish ta’lim sifatini boshqarishda muhim ahamiyatga ega ekanini asoslashga xizmat qildi.

Yettinchi bosqichda baholash jarayonida uchraydigan subyektiv xatoliklar tahlil qilindi. Hayrixohlik xatosi, yuqori talab qo‘yish xatosi, o‘rtacha baho berish xatosi, o‘z fikrini o‘zgartirmaslik xatosi va yoqtirmaslik xatosi baholashning obyektivligiga salbiy ta’sir qiluvchi omillar sifatida ko‘rib chiqildi [1]. Bu tahlil baholashda aniq mezonlar, rubrikalar va dalillarga asoslangan yondashuvdan foydalanish zarurligini ko‘rsatdi.

Sakkizinchi bosqichda baholash tizimlari tahlil qilindi. Besh balli baholash tizimi, reyting tizimi va yuz balli reyting tizimining o‘quvchi faoliyatini muntazam kuzatishdagi imkoniyatlari o‘rganildi [1]. Yuz balli reyting tizimida joriy nazorat, oraliq nazorat va o‘tish bali kabi ko‘rsatkichlarning mavjudligi baholash jarayonini bosqichma-bosqich tashkil etishga yordam berishi aniqlandi.

Tadqiqot metodologiyasi sifat jihatdan tahlil qilishga asoslandi. Chunki baholash jarayoni faqat raqamli ko‘rsatkichlar bilan emas, balki o‘quvchining rivojlanish darajasi, mustaqil fikrlashi, amaliy faoliyati, xatolarini anglash qobiliyati va keyingi o‘quv harakatlarini rejalashtira olishi bilan ham bog‘liqdir. Shu sababli tadqiqotda baholash kompleks pedagogik jarayon sifatida ko‘rib chiqildi.

**Tahlil va natijalar (Analysis and results)**

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, baholash zamonaviy ta’limda ko‘p vazifali pedagogik jarayondir. U o‘quvchining bilim darajasini aniqlash, amaliy ko‘nikmalarini tekshirish, o‘qituvchining metodikasini tahlil qilish va ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Baholash jarayonining asosiy tarkibiy qismlari va ularning o‘zaro bog‘liqligi quyidagi chizmada ifodalangan.




**1-rasm. Baholash jarayoni tahlilining tarkibiy chizilmasi**

Chizmadan ko‘rinadiki, baholash jarayoni o‘quv maqsadlarini aniqlashdan boshlanib, baholash maqsadi, baholash obyekti, baholash shakllari, monitoring hamda xatoliklarni kamaytirish mexanizmlari bilan uzviy bog‘liq holda amalga oshiriladi. Bunda baholash faqat yakuniy ball qo‘yish vositasi sifatida emas, balki ta’lim jarayonining sifatini nazorat qilish, o‘quvchining rivojlanish dinamikasini kuzatish va pedagogik qarorlarni asoslashga xizmat qiluvchi muhim tizim sifatida namoyon bo‘ladi. Baholash jarayonida aniq mezonlar, izohli teskari aloqa va monitoring natijalaridan foydalanish o‘quvchining bilim, ko‘nikma va malakalarini xolis baholash imkonini beradi.

Avvalo, baholash o‘quv maqsadlariga bog‘liq holda tashkil etilishi kerak. O‘quv maqsadi ta’lim jarayoni yakunida kutilayotgan natijani bildiradi [1]. O‘quvchi mavzu yakunida qanday bilim, ko‘nikma va malakaga ega bo‘lishi kerakligi aniq belgilanmasa, baholash natijasi ham to‘liq ishonchli bo‘lmaydi.

Baholashning asosiy maqsadlari uch yo‘nalishda ko‘rinadi. Birinchi yo‘nalish — o‘zlashtirilganlik darajasini aniqlash va davlat ta’lim standartlari talablari bajarilishini tekshirishdir [1]. Ikkinchi yo‘nalish — o‘qituvchi va o‘quvchining ta’lim jarayonidagi xato-kamchiliklarini aniqlash, ta’lim mazmuni

va metodikasini rejalashtirishdir [1]. Uchinchi yo‘nalish — so‘rash va bajartirib ko‘rish jarayonida o‘quvchining xatolarini tuzatish, boshqalar uchun ham saboq bo‘lishini ta’minlashdir [1].

Baholashning ahamiyati kengdir. U orqali o‘zlashtirilganlik to‘g‘risida ma’lumot olinadi, bilim, ko‘nikma va malakalar mustahkamlanadi, mashg‘ulotning qaysi qismiga ko‘proq e’tibor berish kerakligi aniqlanadi. O‘qituvchi o‘z kamchiliklarini anglaydi, o‘quvchi esa o‘zining nimalarga qodir ekanini bilib oladi [1].

Tahlil natijasida baholashda faqat nazariy bilimlarni tekshirish yetarli emasligi aniqlandi. Zamonaviy ta’limda nazariy bo‘limlar bilan bir qatorda amaliy ko‘nikma va malakalar, faoliyat hamda shaxsiy fazilatlar ham baholanishi kerak [1]. Masalan, kasbiy ta’limda o‘quvchi nazariy qoidani aytib bera olishi bilan birga uni real topshiriqni bajarishda qo‘llay olishi ham muhimdir.

Baholash vaqt jihatidan ham to‘g‘ri tashkil etilishi lozim. Ta’lim jarayoni boshida baholash o‘quvchining boshlang‘ich tayyorgarligini aniqlaydi. Ta’lim davomida baholash o‘zlashtirish jarayonini kuzatadi. Ta’lim yakunida baholash umumiy natijani belgilaydi [1]. Bu uch bosqich bir-birini to‘ldiradi.

Baholashning asosiy xususiyatlari sifatida ta’lim maqsadiga yo‘nalganlik, muntazam o‘tkazib borish, pedagogik, psixologik va huquqiy tamoyillarga asoslanish, umumiy qabul qilingan natija standartlariga tayanish ko‘rsatiladi [1]. Bu xususiyatlar baholash jarayonini tizimli va adolatli tashkil etishga yordam beradi.

Baholashda ikki asosiy yondashuv mavjud: mezonga asoslangan baholash va me’yorga asoslangan baholash. Mezonga asoslangan baholashda bilim, ko‘nikma va malakalar oldindan belgilangan hamda barcha uchun bir xil bo‘lgan mezonlar asosida baholanadi. Me’yorga asoslangan baholashda esa ta’lim oluvchilarning natijalari o‘zaro taqqoslanadi [1]. Zamonaviy ta’limda mezonga

asoslangan baholash ko‘proq samarali hisoblanadi, chunki u har bir o‘quvchining aniq natijasini ko‘rsatadi.

Monitoringga asoslangan baholash o‘quvchilar natijalarini tizimli qayd etish, o‘zlashtirish dinamikasini kuzatish, zaif tomonlarni aniqlash va ta’lim jarayoniga o‘z vaqtida tuzatish kiritish imkonini beradi [2], [3], [10]. Bunday yondashuvda baholash natijasi faqat yakuniy ball emas, balki keyingi pedagogik qarorlar uchun asos bo‘ladigan tahliliy ma’lumot sifatida qaraladi.

Dasturiy majmualar va elektron monitoring vositalaridan foydalanish baholash jarayonida inson omiliga bog‘liq ayrim subyektiv xatolarni kamaytirishga yordam beradi [5], [6], [7]. Elektron tizimlar natijalarni saqlash, qayta ishlash, solishtirish va o‘quvchining rivojlanish trayektoriyasini kuzatish imkoniyatini kengaytiradi.

An’anaviy baholash usullari ta’lim jarayonida zarur bo‘lsa-da, ular zamonaviy baholash vositalari bilan uyg‘unlashtirilganda samaradorlik ortadi [4]. Og‘zaki so‘rov, yozma ish, test, amaliy topshiriq, loyiha, portfolio, reyting va elektron monitoring birgalikda qo‘llansa, o‘quvchining bilim va ko‘nikmalari kengroq baholanadi.

Baholash jarayonida turli xatoliklar uchrashi mumkin. Hayrixohlik xatosi o‘quvchi faoliyatini ortiqcha yuqori baholashga olib keladi. Yuqori talab qo‘yish xatosi bahoning haqiqiy natijadan past bo‘lishiga sabab bo‘ladi. O‘rtacha baho berish xatosi o‘quvchilarning individual farqlarini yetarli hisobga olmaslik bilan bog‘liq. O‘z fikrini o‘zgartirmaslik xatosida o‘qituvchi o‘quvchidagi ijobiy o‘zgarishlarni tan olishda sustlik qiladi. Yoqtirmaslik xatosi esa shaxsiy munosabatning bahoga ta’sir qilishidir [1].

Baholashdagi xatoliklarni kamaytirish uchun aniq mezonlar ishlab chiqish, baholash rubrikalaridan foydalanish, topshiriq talablarini oldindan tushuntirish, o‘quvchining ishini aniq dalillar asosida tahlil qilish va natijani izoh bilan berish muhimdir. O‘quvchi faqat nechchi ball olganini emas, nima uchun aynan shu ball qo‘yilganini ham bilishi kerak.

Tahlillar asosida quyidagi natijalarga kelindi:

- baholash yakuniy jarayon emas, u ta’lim faoliyatini boshqaruvchi, tahlil qiluvchi va rivojlantiruvchi pedagogik vositadir.
- o‘quv maqsadlari aniq belgilanganda baholash mezonlari ravshanlashadi, natijalarning obyektivligi va ishonchliligi sezilarli darajada ortadi.
- baholash jarayoni nazariy bilimlar bilan cheklanmasdan, amaliy ko‘nikmalar, faoliyat va shaxsiy fazilatlarni qamrab olishi zarur.
- mezonga asoslangan baholash o‘quvchilar faoliyatini oldindan belgilangan talablar asosida xolis va shaffof baholash imkonini beradi.
- me’yorga asoslangan baholash ayrim saralash vaziyatlarida foydali, ammo individual rivojlanishni to‘liq ifodalab bera olmaydi.
- monitoringga asoslangan baholash o‘quvchilarning o‘zlashtirish dinamikasini muntazam kuzatish va tahlil qilish imkoniyatini kengaytiradi.
- elektron tizimlar baholash natijalarini saqlash, solishtirish, tahlil qilish va pedagogik qaror chiqarishni osonlashtiradi.
- baholashdagi subyektiv xatoliklar o‘quvchi motivatsiyasini pasaytiradi, o‘qituvchi va ta’lim oluvchi o‘rtasidagi ishonchga salbiy ta’sir qiladi.
- reyting tizimi o‘quvchini o‘quv davri davomida muntazam ishlashga, topshiriqlarni vaqtida bajarishga va faollikka undaydi.
- izohli teskari aloqa baholashning rivojlantiruvchi vazifasini kuchaytiradi, o‘quvchiga xatolarini tushunish imkonini beradi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR
## (CONCLUSION/RECOMMENDATIONS)

Zamonaviy ta’limda nazorat va baholash jarayoni ta’lim sifatini oshirishda muhim o‘rin tutadi. Baholash o‘quvchining bilimini aniqlash bilan birga uning amaliy ko‘nikmalarini, mustaqil fikrlashini, faoliyatini va rivojlanish darajasini ham ko‘rsatib beradi. Shu sababli baholash o‘qituvchi uchun ham, o‘quvchi uchun ham muhim axborot manbai hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, baholashning samaradorligi o‘quv maqsadlarining aniqligiga, mezonlarning oldindan belgilanishiga, baholashning muntazam olib borilishiga va o‘qituvchining xolis yondashuviga bog‘liq. Agar baholash faqat baho qo‘yish bilan cheklansa, uning rivojlantiruvchi ahamiyati kamayadi. Baholash natijalari tahlil qilinsa, o‘quvchiga izohli teskari aloqa berilsa, u ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Zamonaviy baholash jarayonida an’anaviy usullar bilan birga raqamli monitoring, elektron test, reyting tizimi, amaliy topshiriqlar, loyiha ishlari va portfoliodan foydalanish maqsadga muvofiq. Bu vositalar o‘quvchilarning bilim darajasini tizimli kuzatish, natijalarni solishtirish, kamchiliklarni aniqlash va pedagogik qarorlarni dalillarga asoslanib qabul qilish imkonini beradi.

Maqola yakunida quyidagi takliflar beriladi:

- har bir mavzu yoki mashg‘ulot uchun aniq, o‘lchanadigan va baholash mezonlariga mos o‘quv maqsadlari ishlab chiqilishi kerak.
- baholash mezonlari dars boshida o‘quvchilarga tushuntirilsa, baholash jarayoni adolatli va shaffof tashkil etiladi.
- nazorat jarayoni nazariy bilimlardan tashqari amaliy ko‘nikmalar, ijodiy faoliyat va mustaqil fikrlashni ham baholashi zarur.
- joriy, oraliq va yakuniy nazorat o‘zaro bog‘liq holda tashkil etilsa, o‘zlashtirish dinamikasi aniq ko‘rinadi.
- mezonga asoslangan baholashdan keng foydalanish o‘quvchilar natijasini xolis aniqlash va tahlil qilish imkonini beradi.
- baholashda shaxsiy munosabat, haddan tashqari talabchanlik va o‘rtacha baho berish xatolaridan saqlanish lozim.
- o‘quvchiga qo‘yilgan baho izoh bilan berilsa, u xatolarini tushunadi va keyingi faoliyatini to‘g‘rilaydi.
- amaliy topshiriqlarni baholashda ish sifati, mustaqillik, vaqtga rioya qilish va xavfsizlik qoidalari hisobga olinishi kerak.

•reyting tizimida ballar taqsimoti aniq, tushunarli va oldindan e’lon qilingan bo‘lsa, adolat ta’minlanadi.

•elektron monitoring vositalari natijalarni saqlash, tahlil qilish va o‘quvchilarning rivojlanishini kuzatishda samarali hisoblanadi.

•baholash natijalari asosida individual ta’lim yo‘nalishlari, qo‘shimcha mashg‘ulotlar va tuzatish ishlari rejalashtirilishi maqsadga muvofiq.

•ta’lim sifatini oshirishda monitoring, diagnostika va tahliliy hisobotlar yagona pedagogik tizim sifatida qo‘llanishi zarur.

Umuman olganda, zamonaviy baholash metodikasi o‘quvchini jazolashga emas, balki uni rivojlantirishga, o‘z ustida ishlashga yo‘naltirishga va ta’lim jarayonini takomillashtirishga xizmat qilishi kerak. Monitoringga asoslangan baholash esa o‘quvchi natijalarini chuqurroq tahlil qilish, ta’lim sifatini boshqarish va pedagogik qarorlarni ilmiy asosda qabul qilish imkonini beradi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

## (REFERENCES)

1. Zamonaviy ta’lim nazorat turlari va baholash metodikasi. O‘quv taqdimot materiali, 16 bet.
2. Aybek Bekturdiev. Maktab o‘quvchilarining bilimini monitoring qilish dasturining tuzilmasini yaratish // O‘zMU Xabarlari, 2026, №4, ISSN 2181-7324 (Print), 94–96-betlar. URL: http://journals.nuu.uz
3. Bekturdiev A.E. Maktab o‘quvchilarning bilim sifatini monitoring qilish va dasturlash algoritmini ishlab chiqish // Fizika, matematika va informatika, ilmiy-uslubiy jurnal, 2025, №3.
4. BA Elmuratovich. Maktab ta’limida bilimni baholashning an’anaviy va zamonaviy usullari // American Journal of Education and Learning, 2026, 392–410-betlar.
5. Bekturdiev A.E. Maktab o‘quvchilarining ta’limini monitoring qilish dasturiy kompleks tuzilmasini yaratish metodikasi // “PEDAGOGS” international research journal, 2025, Volume 74, Issue 1, January.
6. Bekturdiev A.E. Ta’lim sifatini oshirishga yordam beruvchi dasturiy-majmua modelini yaratish metodikasi // “PEDAGOGS” international research journal, 2025, Volume 74, Issue 1, January.
7. Bekturdiev A.E. O‘rta ta’lim sifati monitoringi bo‘yicha maktab markazini yaratish metodikasi // “PEDAGOGS” international research journal, 2025, Volume 74, Issue 1, January.
8. BA Elmuratovich. Ta’lim sifatini oshirish metodikasi // American Journal of Education and Learning, 2025, 170–175-betlar.
9. BA Elmuratovich. Zamonaviy o‘rta maktab modelini yaratish // Pedagog, 2025, 139–143-betlar.
10. Bekturdiev A.E. O‘rta maktab bilimini baholash va monitoring qilish axborot tizimining ishlash algoritmi // Angren universiteti, 2026-yil 24-aprel, 301–306-betlar.

11. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Toshkent: O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2006, 160 bet.
12. Bloom B.S. Taxonomy of Educational Objectives: The Classification of Educational Goals. New York: Longmans, Green, 1956.
13. Black P., Wiliam D. Assessment and Classroom Learning // Assessment in Education: Principles, Policy & Practice, 1998, Vol. 5, No. 1.

# BOLALARNING AQLIY TARBIYASINI SHAKILLANTIRISHDA IBN SONONING QARASHLARI (ALISHER NAVOIY ILMIY-ADABIY MEROSI ASOSIDA)

**Nargiza Ergasheva p.f.f.d. (PhD)**

*Oriental universiteti dotsenti*

***Annotatsiya:*** *Mazkur maqolada Sharq uyg‘onish davrining buyuk allomasi Abu Ali ibn Sinoning bolalar aqliy tarbiyasiga oid qarashlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Ibn Sinoning ilm, tafakkur, aql va bilish jarayoniga doir g‘oyalari Alisher Navoiy asarlarida berilgan baholar va mushtarak qarashlar asosida yoritiladi. Maqolada bolalarda aqliy kamolotni shakllantirishda ilmga muhabbat, mantiqiy tafakkur, ustoz-shogird munosabatlari va tarbiya muhitining o‘rni ochib beriladi. Ibn Sino va Alisher Navoiy qarashlarining bugungi ta’lim-tarbiya jarayonidagi dolzarbligi asoslab beriladi.*

***Kalit so‘zlar:*** *Ibn Sino, Alisher Navoiy, aqliy tarbiya, bolalar tarbiyasi, ilm-ma’rifat, tafakkur, Sharq mutafakkirlari.*

***Аннотация:*** *В статье проводится научно-теоретический анализ взглядов великого восточного мыслителя Абу Али ибн Сины на умственное воспитание детей. Идеи Ибн Сины о разуме, познании, мышлении и науке раскрываются на основе произведений Алишера Навои, в которых высоко оценивается научное наследие ученого. Рассматривается роль умственного развития, любви к знаниям, логического мышления и воспитательной среды в формировании личности ребёнка. Обосновывается актуальность взглядов Ибн Сины и Навои в современной системе образования.*

***Ключевые слова:*** *Ибн Сина, Алишер Навои, умственное воспитание, воспитание детей, наука, мышление, восточная философия.*

***Abstract:*** *This article presents a scientific and theoretical analysis of the views of the great Eastern scholar Abu Ali Ibn Sina on the intellectual development of children. Ibn Sina’s ideas on intellect, cognition, thinking, and knowledge are examined through the lens of Alisher Navoi’s works, where the scholar’s scientific legacy is highly praised. The article reveals the importance of intellectual upbringing, love for knowledge, logical thinking, and educational environment in child development. The relevance of Ibn Sina’s and Navoi’s views in modern education is substantiated.*

***Key words:*** *Ibn Sina, Alisher Navoi, intellectual education, child development, knowledge, thinking, Eastern philosophy.*

## KIRISH

Jamiyat taraqqiyoti inson aql-zakovati va intellektual salohiyatining rivoji bilan chambarchas bog‘liqdir. Shu bois bolalarning aqliy tarbiyasini shakllantirish masalasi qadimdan buyuk mutafakkirlar e’tiborida bo‘lib kelgan. Sharq uyg‘onish davrining yetuk namoyandalaridan bo‘lgan Abu Ali ibn Sino bu borada chuqur ilmiy-falsafiy qarashlarni ilgari surgan. Ibn Sino ilmiy merosi nafaqat tibbiyot va falsafani, balki pedagogik va tarbiyaviy masalalarni ham qamrab oladi. Alisher Navoiy esa o‘z asarlarida Ibn Sinoni “hakimi mutlaq”, “aql va ilm sultoni” sifatida e’zozlab, uning ilmiy qarashlarini yuksak baholagan. Shu jihatdan Ibn Sino aqliy tarbiya haqidagi g‘oyalarini Alisher Navoiy qarashlari bilan bog‘liq holda o‘rganish muhim ilmiy ahamiyatga ega. Ibn Sinoning aqliy tarbiya haqidagi umumiy qarashlari: Ibn Sino inson aqlini Alloh tomonidan berilgan eng oliy ne’mat deb biladi. Uning fikricha, aql orqali inson borliqni anglaydi, ilm egallaydi va kamolotga erishadi. “Donishnoma”, “Kitob ush-shifo” va boshqa asarlarida u bilish jarayonining bosqichlarini izchil bayon qiladi. Ibn Sinoga ko‘ra, bolalarda aqliy tarbiya erta yoshdan boshlanishi lozim. Bola tabiatidagi qobiliyatlar to‘g‘ri yo‘naltirilsa, unda mustahkam tafakkur va bilimga chanqoqlik shakllanadi. Bu fikrlar Alisher Navoiyning ilmni yoshligidan o‘rganish haqidagi qarashlari bilan mushtarakdir. Alisher Navoiy asarlarida Ibn Sinoga munosabat: Alisher Navoiy Ibn Sinoni Sharq ilm-fanining eng buyuk namoyandalaridan biri sifatida ulug‘laydi. “Nasoyim ul-muhabbat” va “Majolis un-nafois” asarlarida u Ibn Sinoning ilmiy salohiyati va aql-zakovati haqida yuksak fikrlar bildiradi. Navoiy Ibn Sinoni nafaqat tabib, balki yetuk mutafakkir va tarbiyachi sifatida baholaydi. Bu baholar Ibn Sinoning aqliy tarbiya haqidagi qarashlarining naqadar chuqur va mukammal ekanini tasdiqlaydi. Navoiy uchun ilm – insonni komillikka yetaklovchi asosiy vosita bo‘lib, bu g‘oya Ibn Sino ta’limoti bilan uyg‘unlashadi. Bolalarda ilmga

muhabbat va tafakkurni rivojlantirish: Ibn Sino ilmga muhabbatni aqliy tarbiyaning asosiy omili deb biladi. U bolani majburlab emas, balki qiziqtirish orqali o‘qitish tarafdori bo‘lgan. Bola o‘z qobiliyatiga mos fanlarni o‘rganishi kerak, deb hisoblaydi. Alisher Navoiy ham ilmni majburiyat emas, balki inson qalbini yorituvchi nur sifatida talqin qiladi. Uning asarlarida ilmga chanqoqlik, o‘rganishga intilish eng oliy fazilat sifatida ulug‘lanadi. Bu jihatdan Navoiy Ibn Sinoning pedagogik qarashlarini davom ettirgan deyish mumkin. Mantiqiy fikrlash va aqlni charxlash masalasi: Ibn Sino mantiq ilmini aqlni tarbiyalovchi muhim vosita deb biladi. U bolalarda sabab-oqibat aloqalarini tushunish, tahlil qilish va xulosa chiqarish ko‘nikmalarini rivojlantirish zarurligini ta’kidlaydi. Navoiy ham insonning aqliy salohiyatini baholashda tafakkur va idrokni asosiy mezon sifatida ko‘radi. Uning asarlarida nodonlik va johillik qoralansa, aql bilan ish tutish ulug‘lanadi. Bu qarashlar Ibn Sino ta’limotining badiiy-falsafiy ifodasi hisoblanadi. Ustoz-shogird munosabatlari va tarbiya muhiti: Ibn Sinoga ko‘ra, aqliy tarbiya samaradorligi ko‘p jihatdan ustozga bog‘liq. Ustoz bilimdon, axloqli va sabrli bo‘lishi lozim. Shuningdek, tarbiya muhitining sog‘lom bo‘lishi bolaning aqliy rivojiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Alisher Navoiy ham ustozni “ma’naviy yo‘l ko‘rsatuvchi” sifatida talqin etadi. Ustoz va shogird o‘rtasidagi hurmat va ishonch aqliy kamolotning muhim sharti ekanini ta’kidlaydi. Ibn Sino qarashlarining zamonaviy ahamiyati: Bugungi ta’lim tizimida bolalarning mustaqil fikrlashi, mantiqiy tahlil qila olishi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ibn Sinoning aqliy tarbiya haqidagi qarashlari zamonaviy pedagogik yondashuvlar bilan hamohangdir. Alisher Navoiy orqali biz Ibn Sino merosining nafaqat ilmiy, balki tarbiyaviy ahamiyatini ham chuqurroq anglaymiz. Bu qarashlar yosh avlodni intellektual yetuk, fikrlash qobiliyati rivojlangan shaxs etib tarbiyalashda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Xulosa qilib aytganda, Ibn Sinoning bolalar aqliy tarbiyasiga oid qarashlari chuqur ilmiy va falsafiy asosga ega. Alisher Navoiy asarlarida bu qarashlarning yuksak baholanishi ularning tarixiy va zamonaviy ahamiyatini yanada oshiradi. Ilmga muhabbat, tafakkur,

mantiqiy fikrlash va ustoz-shogird an’analari bugungi ta’lim tizimi uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ibn Sino. **Donishnoma**. – Toshkent.
2. Ibn Sino. **Kitob ush-shifo**. – Toshkent.
3. Alisher Navoiy. **Majolis un-nafois**. – Toshkent.
4. Alisher Navoiy. **Nasoyim ul-muhabbat**. – Toshkent.
5. Karimov I.A. **Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch**. – Toshkent.
6. Yo‘ldoshev J. **Sharq mutafakkirlarining pedagogik qarashlari**. – Toshkent.

# THE ESSENCE, STRUCTURE, AND SIGNIFICANCE OF COGNITIVE LEARNING SKILLS IN THE PERSONALITY DEVELOPMENT OF SENIOR SCHOOL STUDENTS

*Termez State Pedagogical Institute Department of Pedagogy*

*Acting Professor, PhD in Pedagogical Sciences,*

*Associate Professor* **O.J. Kholmuminova**

**R.N.Qudratova**

*1st-year Master's Student in the Specialty of Theory and History of Pedagogy*

***Abstract:*** *In modern education systems, the development of students' cognitive learning skills has become one of the key priorities aimed at ensuring not only academic success but also the comprehensive formation of personality. Cognitive learning skills represent a complex set of intellectual abilities that enable learners to perceive, process, analyze, and apply knowledge independently. This article explores the essence and structure of cognitive learning skills and examines their significance in the personality development of senior school students. Special attention is paid to the interrelationship between cognitive skills, critical thinking, self-regulation, motivation, and social maturity. The study is based on theoretical analysis of pedagogical and psychological literature and highlights the role of cognitive learning skills in shaping learners' independence, responsibility, creativity, and readiness for lifelong learning. The findings suggest that systematic development of cognitive learning skills contributes significantly to students' intellectual growth and the formation of a well-rounded personality capable of adapting to the challenges of the modern information society.*

***Keywords:*** *cognitive learning skills, learning competence, senior school students, personality development, critical thinking, self-regulation, educational process.*

## INTRODUCTION

The rapid development of science, technology, and information flows in the twenty-first century has significantly transformed the goals and content of education. Modern schools are no longer focused solely on transmitting ready-made knowledge; instead, they aim to develop students' abilities to learn independently, think critically, and apply knowledge creatively in various life

situations. In this context, cognitive learning skills have gained particular importance as a fundamental component of educational competence.

Senior school students occupy a special place in the education system, as this stage coincides with intensive intellectual, emotional, and social development. During this period, learners form stable cognitive interests, professional intentions, and value orientations that largely determine their future life paths. Therefore, the development of cognitive learning skills at this stage plays a crucial role not only in academic achievement but also in the holistic formation of personality.

This article aims to analyze the essence and structure of cognitive learning skills and to reveal their significance in the personality development of senior school students.

The Essence of Cognitive Learning Skills. Cognitive learning skills can be defined as a system of mental actions and intellectual abilities that ensure effective acquisition, processing, and application of knowledge. These skills allow students to actively engage in the learning process, transform information into personal experience, and use it for problem-solving.

From a pedagogical perspective, cognitive learning skills include the ability to:

- understand and interpret educational information;
- analyze, compare, and generalize facts and concepts;
- identify cause-and-effect relationships;
- formulate hypotheses and conclusions;
- apply knowledge in new and non-standard situations.

Psychologically, cognitive learning skills are closely linked to mental processes such as perception, attention, memory, thinking, and imagination. Their development enhances students' intellectual autonomy and contributes to the formation of conscious and purposeful learning activity. Unlike simple memorization, cognitive learning skills emphasize meaningful learning,

reflection, and internal motivation. They transform students from passive recipients of information into active subjects of the educational process.

The Structure of Cognitive Learning Skills. Cognitive learning skills have a complex and multi-component structure. Researchers generally distinguish several interrelated components:

1. Motivational Component

The motivational component reflects students' cognitive interests, learning needs, and internal motivation. It determines the willingness to engage in learning activities and overcome difficulties. For senior school students, motivation is often connected with future professional goals and self-realization.

2. Cognitive-Operational Component

This component includes specific intellectual operations and strategies such as analysis, synthesis, comparison, classification, abstraction, and generalization. These operations form the core of cognitive activity and enable students to work with educational content effectively.

3. Informational Component

The informational component involves the ability to search, select, evaluate, and organize information from various sources. In the modern digital environment, this component is particularly important, as students must navigate large volumes of information critically and responsibly.

4. Reflective Component

Reflection allows students to evaluate their learning processes and outcomes, identify strengths and weaknesses, and adjust strategies accordingly. Reflective skills contribute to self-regulation and continuous improvement of learning activities.

5. Volitional Component

The volitional component includes perseverance, self-control, and responsibility. These qualities help students maintain focus, complete tasks, and achieve learning goals despite challenges.

Together, these components form an integrated system that ensures the effectiveness and sustainability of cognitive learning skills. The Role of Cognitive Learning Skills in the Personality Development of Senior School Students. The development of cognitive learning skills has a profound impact on the personality formation of senior school students. This influence manifests in several key aspects:

Intellectual Development. Cognitive learning skills enhance higher-order thinking abilities such as critical and creative thinking. Students learn to question information, justify opinions, and generate original ideas. This intellectual maturity is essential for academic success and informed decision-making.

Formation of Independence and Responsibility. As students acquire cognitive learning skills, they become more independent in planning and managing their learning activities. This independence fosters a sense of responsibility for learning outcomes and personal development.

Development of Self-Regulation and Reflection. Self-regulation enables students to set goals, monitor progress, and evaluate results. Reflective skills promote self-awareness and realistic self-assessment, which are important characteristics of a mature personality.

Social and Communicative Development. Cognitive learning skills support effective communication, collaboration, and argumentation. Through group work and discussions, students develop respect for others' opinions and the ability to defend their viewpoints constructively.

Preparation for Lifelong Learning. In a rapidly changing world, the ability to learn continuously is a vital personal quality. Cognitive learning skills form the foundation for lifelong learning, adaptability, and professional mobility.

Pedagogical Conditions for Developing Cognitive Learning Skills

Effective development of cognitive learning skills requires purposeful pedagogical conditions, including:

- learner-centered teaching approaches;

- problem-based and inquiry-based learning;
- integration of information and communication technologies;
- creation of a supportive and motivating learning environment;
- encouragement of reflection and self-assessment.

Teachers play a key role in guiding students toward active and conscious learning by designing tasks that stimulate thinking and creativity.

## CONCLUSION

Cognitive learning skills represent a crucial element of modern education and a key factor in the personality development of senior school students. Their essence lies in enabling meaningful, independent, and reflective learning, while their structure encompasses motivational, cognitive-operational, informational, reflective, and volitional components. The development of these skills contributes to intellectual growth, independence, responsibility, social competence, and readiness for lifelong learning. Therefore, systematic and purposeful formation of cognitive learning skills should be regarded as a priority task of contemporary education aimed at preparing students for successful participation in modern society.

## REFERENCES:

1. Bloom, B. S. (1956). Taxonomy of Educational Objectives: The Classification of Educational Goals. New York: Longman.
2. Bruner, J. S. (1966). Toward a Theory of Instruction. Cambridge, MA: Harvard University Press.
3. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Cambridge, MA: Harvard University Press.
4. Piaget, J. (1972). The Psychology of the Child. New York: Basic Books.
5. Zimmerman, B. J. (2002). Becoming a self-regulated learner: An overview. Theory Into Practice, 41(2), 64–70.
6. Anderson, L. W., & Krathwohl, D. R. (2001). A Taxonomy for Learning, Teaching, and Assessing. New York: Longman.
7. OECD. (2019). Future of Education and Skills 2030. Paris: OECD Publishing.
8. Schunk, D. H. (2012). Learning Theories: An Educational Perspective. Boston: Pearson.

# DIFFERENSIAL YONDASHUVNING MAZMUN-MOHIYATI, TAMOYILLARI VA ILMIY ASOSLARI

**Malikova Durdona Oybek qizi**

*Termiz davlat pedagogika instituti talabasi*

*E-mail: malikovadurdona@gmail.com*

***Annotatsiya.*** *Ushbu ilmiy maqolada zamonaviy ta'lim tizimida shaxsga yo'naltirilgan o'qitishning asosi hisoblangan differensial yondashuvning mazmun-mohiyati, fundamental tamoyillari va ilmiy-pedagogik asoslari tizimli tahlil qilingan. Maqolada talaba va o'quvchilarning individual-psixologik xususiyatlari, qobiliyatlari hamda kognitiv uslublariga mos ravishda ta'lim jarayonini tabaqalashtirish mexanizmlari yoritilgan. Shuningdek, Termiz davlat pedagogika institutida o'tkazilgan ikki oylik pedagogik tajriba-sinov ishlari natijalari asosida differensial yondashuvning talabalar mustaqil fikrlashi va o'zlashtirish koeffitsiyentiga ta'siri ilmiy jihatdan baholangan hamda metodik tavsiyalar ilgari surilgan.*

***Kalit so'zlar:*** *differensial yondashuv, tabaqalashtirilgan ta'lim, individual trayektoriya, kognitiv rivojlanish, pedagogik texnologiyalar, motivatsiya, ta'lim samaradorligi.*

***Abstract.*** *This scientific article systematically analyzes the essence, fundamental principles, and scientific-pedagogical foundations of the differentiated approach, which is considered the core of student-centered learning in the modern education system. The paper highlights the mechanisms of differentiating the educational process in accordance with the individual-psychological characteristics, abilities, and cognitive styles of students. Furthermore, based on the results of two-month pedagogical experimental research conducted at the Termez State Pedagogical Institute, the impact of the differentiated approach on students' independent thinking and academic achievement rates was scientifically evaluated, and methodological recommendations were proposed.*

***Keywords:*** *differentiated approach, differentiated education, individual trajectory, cognitive development, pedagogical technologies, motivation, educational efficiency.*

## KIRISH

Bugungi kunda jahon ta'lim makonida unifikatsiyalashgan (barcha uchun bir xil) ta'lim modelidan shaxsga yo'naltirilgan, moslashuvchan va inklyuziv

ta’lim tizimiga o‘tish global tendensiyaga aylandi. O‘zbekiston Respublikasining oliy va professional ta’lim tizimidagi tub islohotlar ham har bir ta’lim oluvchining individual salohiyatini, ichki imkoniyatlarini va intellektual resurslarini maksimal darajada yuzaga chiqarishni bosh maqsad qilib qo‘ygan. Ushbu strategik maqsadni amalga oshirishda esa differensial (tabaqalashtirilgan) yondashuv metodologiyasi markaziy o‘rinni egallaydi.Differensial yondashuv — bu shunchaki o‘quvchilarni guruhlarga ajratish emas, balki ta’lim oluvchilarning yosh, psixologik, kognitiv, neyrofiziologik xususiyatlari hamda professional qiziqishlaridan kelib chiqib, o‘quv jarayonining mazmuni, metodlari, topshiriqlar murakkabligi va baholash mezonlarini tabaqalashtirgan holda tashkil etish tizimidir. Ushbu yondashuv an’anaviy pedagogikadagi "o‘rtacha talaba" tushunchasidan butunlay voz kechib, har bir shaxsga o‘zining individual o‘sish va rivojlanish trayektoriya vizualizatsiyasini yaratish imkonini beradi. Zamonaviy oliy ta’lim guruhlarida talabalarning tayyorgarlik darajasi, axborotni qabul qilish tezligi va fanga bo‘lgan qiziqishi keskin farq qiladi. Bunday sharoitda barcha uchun bir xil andozadagi (shablonli) ma’ruza va amaliy topshiriqlarni qo‘llash ikki tomonlama salbiy oqibatga olib keladi: iqtidorli va kuchli talabalar uchun dars zerikarli hamda kognitiv o‘sishdan to‘xtagan muhitga aylansa, o‘zlashtirishi sustroq bo‘lgan talabalar fandan butunlay ko‘ngli sovushi va o‘ziga bo‘lgan ishonchni yo‘qotishi mumkin. Muammoning ilmiy qo‘yilishi shundan iboratki, ta’lim jarayonini tashkil etishda talabalarning individual-psixologik tiplari (vizual, auditor, kinestetik) va ularning fikrlash xususiyatlari yetarlicha inobatga olinmayapti. Shu sababli, oliy pedagogik ta’limda differensial yondashuvning ilmiy-nazariy asoslarini chuqur anglash, uning tamoyillarini tizimlashtirish va uni real auditoriya sharoitida qo‘llashning pedagogik samaradorligini baholash bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI (LITERATURE REVIEW)

**1.** O‘zbekiston Respublikasining ta’lim sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarida, xususan "Ta’lim to‘g‘risida"gi Qonun va Milliy o‘quv dasturlarida ta’limning barcha bosqichlarida inklyuzivlik, teng imkoniyatlar yaratish va individual yondashuv tamoyillarini joriy etish qat’iy tartibga solingan.

**2.** Sharq mutafakkiri Abu Ali ibn Sino o‘zining pedagogik qarashlarida bolalarni o‘qitishda ularning tabiati, tabiati xususiyatlari, qiziqishi va zehni o‘tkirligiga qarab yondashish lozimligini, har bir insonga o‘z iqtidori va salohiyati darajasida ilm berish to‘g‘riligini alohida ta’kidlagan.

**3.** Didaktika asoschisi Yan Amos Komenskiy "tabiat bilan uyg‘unlik" tamoyilini ilgari surib, ta’lim o‘quvchining yoshi va individual tayyorgarlik darajasiga mutanosib ravishda, bosqichma-bosqich murakkablashib borishi shartligini didaktik qoida sifatida ko‘rsatgan.

**4.** J. Piaje va L. Vigotskiyning kognitiv va ijtimoiy konstruktivizm nazariyalariga ko‘ra, har bir ta’lim oluvchining "Yaqin rivojlanish zonasi" (Zone of Proximal Development) turlichadir. Differensial yondashuv aynan mana shu zonani aniqlashga va har bir talabaga o‘z imkoniyatiga mos "ko‘prik" (scaffolding) yaratishga xizmat qiladi.

**5.** Mashhur pedagog K. Rogers insonparvarlik pedagogikasi doirasida ta’lim jarayoni markazida o‘qituvchi emas, balki o‘ziga xos ehtiyoj, his-tuyg‘u va o‘zgaruvchan qobiliyatlarga ega bo‘lgan subyekt — talaba turishi kerakligini isbotlagan.

## DIFFERENSIAL YONDASHUVNING ASOSIY TAMOYILLARI

**Individual trayektoriya tamoyili:** Har bir talabaning materialni o‘zlashtirish tezligi va uslubiga (vizual, auditor, kinestetik) mos o‘quv muhitini loyihalash.

**Variativlik tamoyili:** O‘quv topshiriqlari, darsliklar va amaliy manbalarning bir necha darajadagi (bazaviy, o‘rta, yuqori/ijodiy) muqobil variantlarini taqdim etish.

**Moslashuvchanlik (Fleksibillik) tamoyili:** Pedagogning dars davomida talabalarning real vaqtdagi o‘zlashtirish dinamikasiga va psixologik holatiga qarab guruhlar tarkibini hamda metodlarini o‘zgartira olishi.

**Muvaffaqiyat hissi tamoyili:** Har bir darajadagi talaba uchun erishish mumkin bo‘lgan strategik maqsadlarni belgilash orqali ularda fanga nisbatan kuchli ichki motivatsiyani shakllantirish.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI (RESEARCH METHODOLOGY)

Pedagogik eksperiment Termiz davlat pedagogika institutida o‘tkazildi. Tadqiqotda jami 50 nafar talaba ishtirok etdi va ular quyidagi ikki guruhga ajratildi:

**Nazorat guruhi (N=25):** Ushbu guruh talabalariga darslar an’anaviy unifikatsiyalashgan ma’ruza va amaliyot shaklida, ya’ni barcha uchun bir xil qiyinchilikdagi topshiriqlar va standart ma’ruza matnlari asosida o‘tildi.

**Tajriba guruhi (N=25):** Ushbu guruhda darslar differensial yondashuv asosida tashkil etildi. Talabalar dastlabki diagnostik testlar va kognitiv so‘rovnomalar orqali 3 ta darajali kichik guruhlarga ajratildi va ularga maxsus moslashtirilgan o‘quv modulleri qo‘llanildi.

**Differensial yondashuvga oid amaliy keys (Topshiriqlar darajasi):**

**A-daraja (Bazaviy):** Mavzuga oid tayanch tushunchalar, qonuniyatlar va terminlarni aniqlash, tushuntirish va reja asosida takrorlash topshiriqlari.

**B-daraja (O‘rta/Tahliliy):** Nazariy bilimlarni tipik muammoli vaziyatlarda qo‘llash, solishtirish, sabab-oqibat aloqalarini tahlil qilish va differensiallash topshiriqlari.

**C-daraja (Yuqori/Ijodiy):** Nostandart muammolarga original yechim topish, mustaqil loyiha yaratish va tanqidiy baholashga yo‘naltirilgan tadqiqotchilik topshiriqlari.

## TAHLIL VA NATIJALAR (ANALYSIS AND RESULTS)

Ikki oylik tadqiqot yakunida olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki, ta’lim jarayonini tabaqalashtirish talabalarning nafaqat o‘zlashtirish koeffitsiyentini, balki fanga bo‘lgan motivatsiyasini ham keskin oshirgan. Nazorat guruhida o‘rtacha ko‘rsatkich 63 ballni tashkil etgan bo‘lsa, innovatsion metodlar qo‘llanilgan tajriba guruhida o‘rtacha ball 89 ballga yetdi.

Talabalarning bilim va kompetensiyalari dinamikasi (Jadval):

| Baholash mezonlari va kognitiv ko‘nikmalar | Nazorat guruhi (An’anaviy) | Tajriba guruhi (Differensial) | O‘sish ko‘rsatkichi |
|---|---|---|---|
| Tayanch tushunchalarni eslab qolish va tushunish | 68% | 92% | +24% |
| Bilimlarni amaliy vaziyatlarda qo‘llay olish | 54% | 88% | +34% |
| Mustaqil tahlil qilish va tanqidiy fikrlash | 48% | 85% | +37% |
| Ijodiy yondashuv va loyiha yarata olish mahorati | 42% | 82% | +40% |

Eng yuqori o‘sish sur’ati ijodiy yondashuv va loyiha yarata olish mahorati mezonida (+40%) kuzatildi. Bu kuchli talabalarga o‘z darajasiga mos yuqori murakkablikdagi topshiriqlar berilishi hamda sust o‘zlashtirayotgan talabalarning bazaviy bosqichdan bosqichma-bosqich o‘sib borishi ta’minlangani samarasidir.

## XULOSA VA TAKLIFLAR (CONCLUSION / RECOMMENDATIONS)

**1.** Differensial yondashuv zamonaviy pedagogikada subyekt-subyekt munosabatlarini qaror toptirishning, talabani ta’limning passiv tinglovchisidan faol ijodkoriga va mustaqil tadqiqotchisiga aylantirishning eng samarali mexanizmi hisoblanadi.

**2.** Tabaqalashtirilgan topshiriqlar tizimi dars jarayonida har bir talabaning psixofiziologik charchash va stress holatiga tushishining oldini oladi, ta’lim muhitining psixologik qulayligini ta’minlaydi.

**3.** Differensial yondashuv o‘qituvchidan yuksak metodik mahorat va darsni loyihalashda chuqur diagnostik tahlil o‘tkazishni talab etadi.

**Amaliy takliflar:**

**Milliy adaptiv kontentni shakllantirish:** O‘zbek tili, o'qish savodxonligi va matematika fanlarining darslik qonuniyatlariga, milliy mentalitetga to‘liq moslashtirilgan, boshlang‘ich sinflarga mo‘ljallangan milliy intellektual o'quv dasturlari va neyrotarmoqli chatbotlarni yaratish hamda amaliyotga tatbiq etish.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES)

**1.** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish bo‘yicha shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PQ-4996-sonli qarori. Toshkent, 2021-yil.

**2.** Avloniy Abdulla. Turkiy Guliston yoxud axloq. — T.: "O‘qituvchi", 1992.

**3.** Vigotskiy L.S. Psixologiya razvitiya rebenka. — M.: Izd-vo Smis, 2005.

**4.** Piaje J. Izbrannie psixologicheskie trudi. — M.: Prosveshenie, 1994.

**5.** Luckin R. Machine Learning and Human Intelligence: The future of education. — London: UCL Press, 2018.

**6.** Norbo‘tayev X.B. Boshlang‘ich ta’limda innovatsion pedagogik texnologiyalar metodologiyasi va tamoyillari. — T.: "Fan va texnologiya", 2022.

**7.** Sodiqova Sh.A. Zamonaviy ta’lim tizimida raqamli didaktika muammolari. — T.: "Tafakkur sarchashmalari", 2023.

**8.** Norbo‘tayev X.B., Malikova D.O. Ta'lim tizimini raqamlashtirish sharoitida pedagogik mahorat // Pedagogik mahorat ilmiy-nazariy jurnali. Buxoro, 2025.

# SUN’IY INTELLEKT VA KELAJAK FALSAFASI

**Bozorov Umid Mustafoyevich**

*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti*

maroqand2750@gmail.com

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada Artificial Intelligence rivojlanishining falsafiy oqibatlari, inson ongiga ta’siri hamda kelajak jamiyati haqidagi asosiy konseptual qarashlar tahlil qilinadi. Sun’iy intellekt faqat texnologik innovatsiya emas, balki insoniyatning o‘zini anglash jarayonini qayta shakllantiruvchi fenomen sifatida ko‘rib chiqiladi. Maqolada shuningdek Philosophy va Futurology doirasidagi asosiy yondashuvlar yoritiladi.*

***Kalit so‘zlar:*** *sun’iy intellekt, ong falsafasi, kelajak jamiyati, post-inson, texnologik rivojlanish*

***Abstract:*** *This article analyzes the philosophical consequences of Artificial Intelligence development, its impact on human consciousness, and key conceptual perspectives on the society of the future. Artificial intelligence is viewed not just as a technological innovation, but as a phenomenon reshaping the process of human self-awareness. The article also highlights key approaches within the fields of Philosophy and Futurology.*

***Keywords:*** *artificial intelligence, philosophy of mind, future society, post-human, technological development.*

***Аннотация:*** *В данной статье анализируются философские последствия развития искусственного интеллекта, его влияние на сознание человека и ключевые концептуальные взгляды на общество будущего. Искусственный интеллект рассматривается не просто как технологическая инновация, а как явление, преобразующее процесс самосознания человека. В статье также освещаются ключевые подходы в области философии и футурологии.*

***Ключевые слова:*** *искусственный интеллект, философия разума, общество будущего, постчеловеческое, технологическое развитие*

## KIRISH

XXI asr insoniyat tarixida texnologik o‘zgarishlar eng yuqori sur’atga chiqqan davr sifatida baholanmoqda. Ayniqsa sun’iy intellekt tizimlarining

tezkor rivojlanishi inson faoliyatining deyarli barcha sohalarini qamrab olmoqda.

Bu jarayon faqat texnik taraqqiyot emas, balki insonning o‘zini anglashiga oid chuqur falsafiy savollarni ham yuzaga chiqaradi: “Ong nima?”, “Aqlning chegarasi bormi?”, “Mashina insonni to‘liq takrorlay oladimi?”

**Sun’iy intellekt: yangi aql shakli.** Sun’iy intellekt inson tomonidan yaratilgan, ammo o‘ziga xos o‘rganish va qaror qabul qilish qobiliyatiga ega tizimdir. U an’anaviy dasturlashdan farqli ravishda tajriba asosida rivojlanadi.

Bugungi kunda AI:

- tibbiyotda tashxis qo‘yadi
- moliya sohasida prognoz qiladi
- san’at va matn yaratadi
- transport tizimlarini boshqaradi

Bu holat “aql” tushunchasining faqat biologik hodisa emasligi haqidagi bahslarni kuchaytirmoqda.

**Ong va mashina muammosi.** Falsafada “ong muammosi” eng murakkab masalalardan biridir. Agar mashina inson kabi fikrlay olsa, u haqiqatan ham ongga egami yoki faqat algoritmik imitatsiyami?

Bu yerda uch asosiy yondashuv mavjud:

**1. Biologik yondashuv**

Ong faqat inson miyasi mahsuli, mashinalar esa uni takrorlay olmaydi.

**2. Funktsional yondashuv**

Agar tizim inson kabi fikrlasa va harakat qilsa, u ongli deb qaralishi mumkin.

**3. Post-insoniy yondashuv**

Kelajakda ong biologik va sun’iy tizimlarning uyg‘unlashuvi sifatida qayta shakllanadi.

**Kelajak ssenariylari.** Futurology doirasida sun’iy intellekt rivojiga oid bir nechta asosiy ssenariylar ilgari suriladi:

**1. Texnologik simbioz.** Inson va AI o‘zaro hamkorlikda yashaydi. Neyrotexnologiyalar yordamida inson kognitiv imkoniyatlari kengayadi.

**2. Avtonom tizimlar davri.** AI tizimlari iqtisodiy va ijtimoiy qarorlarning katta qismini mustaqil qabul qiladi.

**3. Kuchli nazorat modeli.** Jamiyat xavfsizlik va axloqiy me’yorlar asosida AI rivojini qat’iy tartibga soladi.

**4. Post-insoniyat jamiyati.** Inson biologik mavjudotdan ko‘ra ko‘proq raqamli va texnologik ong bilan uyg‘unlashgan mavjudotga aylanadi.

**Axloqiy va ijtimoiy muammolar.** Sun’iy intellekt rivoji bilan birga yangi axloqiy savollar paydo bo‘lmoqda:

Qarorlar uchun javobgarlik kimga tegishli?

AI inson mehnatini to‘liq almashtiradimi?

Shaxsiy ma’lumotlar xavfsizligi qanday ta’minlanadi?

Algoritmlar adolatli qaror qabul qila oladimi?

Bu savollar faqat texnologik emas, balki jamiyatning asosiy qadriyatlariga daxldordir.

## XULOSA

Sun’iy intellekt tizimlarining shiddatli taraqqiyoti shunchaki navbatdagi texnologik inqilob emas, balki insoniyat sivilizatsiyasini tubdan o‘zgartiruvchi global hodisadir. Ushbu jarayon biologik aql va raqamli tizimlar o‘rtasidagi chegaralarni xiralashtirib, an’anaviy falsafiy, ijtimoiy va huquqiy qarashlarni qayta ko‘rib chiqishni taqozo etmoqda.

Mavzuni ilmiy-falsafiy jihatdan tahlil qilish asosida quyidagi yakuniy to‘xtamlarga kelish mumkin:

**Texnologik hamkorlik ustuvorligi:** Sun’iy intellektning inson o‘rnini butkul egallashi emas, balki inson kognitiv salohiyatini kengaytiruvchi simbiotik hamkor sifatida rivojlanishi jamiyat taraqqiyoti uchun eng maqbul va xavfsiz ssenariydir.

**Huquqiy va axloqiy regulyatsiya:** Algoritmlarning adolatliligi, axborot xavfsizligi hamda sun’iy intellekt qabul qilgan qarorlar uchun mas’uliyat masalalarini qat’iy huquqiy me’yorlar asosida tartibga solish texnologik rivojlanish bilan parallel ravishda amalga oshirilishi shart.

**Insoniy mohiyatning saqlanishi:** Mashinalar algoritmik va mantiqiy vazifalarni qanchalik mukammal bajarmasin, chuqur his-tuyg‘u, empatiya, axloqiy ong va subyektiv kechinmalar kabi xususiyatlar insoniyatning o‘ziga xos fundamental qadriyati bo‘lib qoladi.

Sun’iy intellektning kelajagi va uning insoniyatga keltiradigan nafi texnologiyaning imkoniyat darajasiga emas, balki global hamjamiyatning ushbu qudratli vositadan qanchalik mas’uliyatli, dono va umuminsoniy qadriyatlar doirasida foydalana olishiga bog‘liqdir.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. **Komilov S., Raxmatov Sh.** Sun'iy intellekt asoslari: Mashinaviy o'qitish. – Toshkent: «Fan va texnologiya», 2021. – 240 b.
2. **Russell S.** Insonga mos sun'iy intellekt va nazorat muammosi (Human Compatible: Artificial Intelligence and the Problem of Control) / Tarjimon A. Ahunjanova. – Toshkent: «Cosmos» nashriyoti, 2019. – 320 b.
3. **Yusupbekov N.R., Aliyev R.A., Aliyev R.R., Yusupbekov A.N.** Boshqarishning intellektual tizimlari va qaror qabul qilish. – Toshkent: «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi», 2015. – 412 b.
4. **Shermuhamedova N.** Inson falsafasi. – Toshkent: «Noshir», 2013. – 288 b.
5. **Olimov Z., Rahmatov A.** Sun'iy intellekt va uning amaliy qo'llanilishi. – Toshkent: «Innovatsiya», 2022. – 185 b.
6. **Russell S., Norvig P.** Artificial Intelligence: A Modern Approach (4 th Edition). – Pearson, 2020. – pp. 102-145.
7. **Bostrom N.** Superintelligence: Paths, Dangers, Strategies. – Oxford University Press, 2014. – pp. 22-58.

# DEVELOPMENT OF COMPUTER LINGUISTICS AND COMPUTER LINGUODIDACTICS

**Ph.D. Fattahova D.A.**

*NUUZ*

***Abstract****: This article provides a scientific analysis of the formation and development of computer linguistics and computer linguodidactics. The author, first of all, reveals the essence of the concept of "linguodidactics": its place as a general theory of language teaching, the introduction of the term into scientific circulation by academician N.M.Shansky, as well as the study of similarities and differences between languages, the main tasks such as the analysis of language structure are highlighted. The article is based on the need to study foreign languages in the context of modern information technologies and a market economy, as well as the state policy aimed at developing this field—Resolution of the President of the Republic of Uzbekistan No. PP-1875 dated December 10, 2012, "On measures to further improve the system of studying foreign languages." The study examines the relationship between the terms "linguodidactics" and "methodology," the issue of their synonymous use, and comparatively analyzes the views of scholars such as I.L. Bim and A.A. Mirolyubov on the object and subject of foreign language teaching methodology. The article acquires theoretical and practical significance due to its focus on solving pressing problems at the intersection of linguistics and pedagogy.*

***Keywords:*** *computer linguistics, computer linguodidactics, linguodidactics, methodology, foreign language teaching, general theory of language teaching, information technologies.*

## INTRADUCTION

To clarify the concept of "computer" linguodidactics, it is first necessary to dwell on the term "linguodidactics." Linguodidactics (Lat. *lingua* - "language"+ Greek. *didacticos* -"education") is a general theory of language teaching. The term akad. Introduced by N. M. Shansky in the process of describing language for educational purposes. The main task of linguodidactics is to study the corresponding and different aspects of languages, analyze the structure of the language being studied, and solve problems on the border of linguistics and pedagogy.

Special attention is paid to language teaching within the continuous education system. In the context of a modern market economy and the development of information technologies, there is a need to learn a foreign language. Knowledge of foreign languages and the study of intercultural communication tools have become a requirement of the times. The Resolution of the First President of the Republic of Uzbekistan "On measures to further improve the system of learning foreign languages" adopted on December 10, 2012[46]is a state document defining the prospects of this field.

Linguodidactics is used to express the process of language teaching, or more precisely, learning foreign languages. There are also cases where the terms linguodidactics and methodology are evaluated synonymously.

Foreign language learning methodology is an independent discipline that emerged in the mid-20th century. Evaluating methodology as a part of didactics standing between pedagogy and pedagogical psychology, I.L. Bim cites the educational process as the object of methodology, including programs, textbooks, teaching aids, and forms that form the basis of teacher and student activities and interaction between them.

A.A. Mirolyubov emphasized the development of foreign language teaching methodology not only in pedagogy, didactics, and pedagogical psychology but also in linguistics and youth pedagogy. Issues related to the study of this field and development problems constitute the subject of the methodology. A.A. Mirolyubov divides the problems of foreign language teaching methodology into four groups:

1) problems related to defining a foreign language as a subject of study, that is, determining the purpose and content of learning a foreign language;

2) problems related to teacher activity: the development of teaching and upbringing methods and techniques, the formation and use of educational tools,

[46] PQ-1875-son. 2012- yil 10- dekabr, Toshkent sh.

forms of organizing the educational process, and the monitoring of educational achievements;

3) problems related to student activity: educational tools and the effectiveness of educating and acquiring knowledge;

4) problems aimed at developing methodological disciplines: history of science, its relationship with related disciplines, research methods.[47]

From the above, it is clear that the methodology of teaching foreign languages is interested in methods of teaching a foreign language, that is, as N.D. Galskova notes, "methodology as a science studies the process of teaching and learning a language." [48]

At the same time, it is necessary to take into account the attitude of students to the language, communication within the framework of the new linguoculture. Therefore, the goal of the foreign language teaching methodology consists of methods for studying the system of foreign language construction based not only on formal structure—codes—but also on understanding the world picture and mastering mental characteristics in that language.

Linguodidactics is a new field formed on the basis of the views of G.I.Bogin, I.I.Khaleeva, N.D.Galskova, G.I.Bogina, and reflects the essence of linguistic science. I.I. Khaleeva defines the term "linguodidactics" as "the mechanism of interaction of the individual as a social phenomenon of the nature of language and language, which justifies the components of education, educational content"[49].

Unlike the philosophy of language, psychology, linguistics, psycholinguistics, theory of language acquisition, intercultural communication,

[47]Миролюбов А.А. История отечественной методики обучения иностранным языкам. - М: СТУПЕНИ, ИНФРА-М, 2002. –С.12-13.

[48]Гальскова Н.Д. Еще раз о лингводидактике / Н.Д. Гальскова // Иностранные языки в школе. 2008. - № 8. - С. 2.

[49]Халеева И.И. Основы теории обучения пониманию иноязычной речи (подготовка переводчиков): Моногр.– М.: Высш. школа, 1989.–С.199.

and other disciplines, linguodidactics solves the following problems that are not part of the methodology's study tasks:

1) interpretation of the level of mastery of the studied language and the linguistic landscape of the world of native speakers in different educational conditions;

2) analysis of the study and assimilation of linguocultural experience, which is determined by the current state and development of the language;

3) justification of the nature of the allowed shortcomings (cultural, linguocultural and linguistic);

4) studying language features in the context of multilingualism, multiculturalism, age and individual characteristics of students;

5) analyze and substantiate the factors that determine perfect and imperfect language acquisition. [50]

In recent years, linguodidactics has been actively used in computer systems. Conferences on linguodidactics are being organized.[51]

4. Computer linguodidactics and the importance of using computer technologies in the educational process.

The rapid development of computer technologies has raised the educational process to a new level, which, in turn, necessitates a revision of the content, methods, and forms of education and its further enrichment with new knowledge and skills. Currently, work is being carried out in higher educational institutions to create the scientific foundations of new pedagogical technologies, classify them, determine their methodological significance, and implement them into the educational process. The organization of advanced pedagogical technologies in

[50]Гальскова Н.Д. Еще раз о лингводидактике / Н.Д. Гальскова // Иностранные языки в школе. 2008. - № 8. - С. 8-9.

[51]Тил системаси ва ҳозирги замон лингводидактикаси. Республика илмий-амалий анжумани материаллари (Самарқанд шаҳри, 2011 йил, 25-26 март). – Самарқанд: СамДЧТИ нашри, 2011. – 270 б.

combination with computer technologies and the creation of multimedia lessons on this basis is becoming the main direction.

Another important method of language learning is carried out using computer technologies. As a result of the development of science and technology, special computer programs were created for language teaching. They provide descriptions of verbs, tenses, modal verbs, and necessary sentence patterns."[52] Computer programs for language teaching play an important role in modern educational technology. Some of these programs come with an e-teacher.

There are two different approaches to using teacher linguistic automation:

1) behavioural approach - a software-based learning system focused on learning mechanisms that take into account all aspects of the existing traditional learning system, evaluating it based on tasks after completing a specific section of grammar, as well as monitoring knowledge based on lexical minimums. This is based on the behaviorism formula **"stimulus** – **reaction** – **reinforcement"** . Teaching methods act as a "stimulus," which influences the learner and reinforces knowledge.

2) cognitive-intellectual approach - a set of practical tasks such as creating universal software for CALL (CALL Software), providing the learning system with a dictionary database, grammar manuals, **automatic proofreaders, speller ,** and enriching it with **audio** and **visual effects** .

**The main directions of computer linguodidactics** are as follows: *Presentation technology*, i.e., conducting the lesson as an exhibition, is the easiest way to use the computer in class. For this, the teacher will need only a computer and a multimedia projector. Using the MS Power Point program, slides are created on the computer for the upcoming lesson and a demonstration package is prepared.

[52]*Borbala Richter*. First steps in theoretical and applied linguistics.-Budapest, 2006.-B.19.

- a computer version (copy) of a specific textbook for the Uzbek language subject, which uses only voice and text from multimedia tools.

*Electronic multimedia textbook* - a software and methodological complex that ensures the mastery of a training course or its major section using a computer, either with the teacher's help or independently.

Multimedia

Language teachers have been avid technology users for a very long time. Gramophone plates were the first technological tools used by language teachers to provide students with recordings of native speakers, and foreign radio broadcasts were used to create recordings on reel-to-reel tape recorders. Examples of technological aids used in foreign language lessons include slide projectors, film projectors, cinema projectors, videocassette recorders, and DVD players. In the early 1960s, integrated courses (often described as multimedia courses) began to appear. Examples of such courses are Ecouter et Parler (consisting of a textbook and tape recordings) [10] and Deutsch durch die audiovisuelle Methode (consisting of an illustrated textbook, tape recordings, and a film tape based on the Structuro-Global Audio-Visual method).[11]

In the 1970s and 1980s, standard microcomputers were unable to produce sound and had low graphics performance. This was a step back for language teachers who were already accustomed to using various information tools in foreign language lessons. The emergence of the multimedia computer in the early 1990s was a major breakthrough because it made it possible to combine text, images, voice, and video on a single device, and to combine the four basic skills of listening, speaking, reading, and writing (Davies 2011). (Section 1).

Examples of CALL programs for multimedia computers that have been published on CD-ROMs and DVDs since the mid-1990s are described by Davies (2010: Section 3).[12] CALL programs are still being published on CD-ROMs and DVDs, but web-based multimedia CALL has now virtually displaced these media.

After the arrival of Multimedia CALL, multimedia language centers began to appear in educational institutions. Although multimedia tools provide many opportunities for language learning by integrating text, images, sound, and video, these opportunities are often not fully utilized. One of the main promises of CALL is its ability to individualize learning, but as with the Linguophone labs introduced into educational institutions in the 1960s and 1970s, using the capabilities of multimedia centers has often become a student-centered practice (Davies 2010: Section 3.1).[12] There is therefore a risk that multimedia centers will behave in the same way as Linguophone labs. After a period of boom in the 1970s, the lingaphone laboratories rapidly declined. Davies (1997: p. 28) blames the blame mainly on teachers not being trained to use Linguaphone labs, both in terms of usage and in terms of developing new methodologies, but there were other factors as well, such as low reliability, lack of materials, and lack of good ideas.[13]

Managing a multimedia language center requires not only staff with knowledge of foreign languages and language teaching methodologies, but also employees with technical know-how and budget management skills, as well as the ability to combine all of this in creative ways. A center manager typically needs assistants to provide technical support, manage resources, and even tutor students. Media centers help with self-learning and potential self-management, but this is often misunderstood. The mere presence of a multimedia center does not automatically lead to students acquiring independent knowledge. It is very important to spend a significant amount of time developing materials and creating a favorable environment for self-study. Unfortunately, administrators often buy hardware to meet the center's needs, allocating 90 percent of its budget to hardware and neglecting software and staff training needs.

*Electronic dictionary* - a program built on the basis of conventional dictionaries, enriched with multimedia tools. An electronic dictionary can be

created in various directions, it is used to increase the student's vocabulary, to translate.

*Training audio programs, electronic language courses* are generally effective educational technologies for second language learners. In computer programs that teach correct pronunciation, the place and method of sound articulation are shown using animation, a reference speech is heard, the student's own pronunciation is recorded, and then it is compared with the norm of the literary language. Additionally, the "Karaoke" system can be included in the list of audio programs. It is convenient to use it for recreation or holding an event.

*Universal Testing Program* is a computer program consisting of test assignments and a rating system for a major section of Uzbek language lessons. Its convenience lies in the fact that based on a single software package, various tests can be conducted; that is, by simply changing the text, the program can be applied to various topics.

*Electronic virtual library* – one of the extensive capabilities of a multimedia room, a network-connected library containing electronic copies or electronic multimedia textbooks.

*The Internet network*can be effectively used by Uzbek language learners: collecting information during independent learning, mastering topics, writing abstracts and essays on a given topic, and more. Additionally, a student can communicate with their teacher or peers via email—a system that facilitates sending information from one computer to another.

*Working with video materials* is of particular importance in language teaching. This tool of information technology can be used in various ways.

*Distance education* is a method of distance learning through the Internet, and in this regard, test experiments are being conducted in certain fields in our republic[53].

[53]Po‘latov A., Muhamedova S. Kompyuter lingvistikasi. - T., 2007. -B.66-67.

In computer linguodidactics, which is an automated language learning system, the following types of tasks are used:

a) Close the sentence – fill in the empty cells. This involves studying the fields of semantics + grammar;

b) crossword puzzles and word games;

c) word-hunting using email (based on creating various emails or electronic stories - maze);

d) exercises on automatic translation and editing of texts;

e) conducting diagnostic tests on various sections of grammar;
a) using standard training courses on CD-ROM.

There are various ways to use the computer in lessons. The use of these and a number of other computer technologies in the process of language teaching gives high results.

The process of automation and computerization has encompassed not only various sectors of production but also the fields of culture and education. The rapid development of computer technologies has elevated the educational process to a new level, which in turn has necessitated a revision of the content, methods, and forms of education, further enriching it with new knowledge and skills.

In particular, an effective automatic system for diagnosing knowledge and teaching foreign languages in the educational process has been developed.

The 20th century went down in history as the era of the scientific revolution, the century of computers and automation. During this period, humanity succeeded in easing its hard labor through its own intellect. That is, the efficiency of the production process increased several times over, and labor productivity increased. Humanity has achieved the automation of large factories and enterprises.

The word "automation" in Latin means "self-moving." A system is a set of mechanisms based on independent movement, aimed at performing various

operations, and programmed to operate according to this principle. As is well known, large corporations, such as automobile manufacturing plants, have extensive automation systems. Due to the optimality of this system, it is being gradually implemented in other spheres of society. Currently, automated language teaching systems have been developed. Language teaching is carried out using specialized curricula.

The place of any language is determined by its status in society and the state. Language can be a means of international communication. This refers to international languages that are widespread within the framework of globalization, reflect aspects of universal human culture, and perform social functions to the maximum extent. The social life of the country and its dynamic development, linked to new goals and ideas, require the study of one or more modern foreign languages. Knowledge of languages, primarily as a means of international communication, provides an individual with broad opportunities for social life. Today, in the era of market economy and the development of information technologies, human resources emerge as the primary strategic factor of economic and social development.

## REFERENCES

1. Resolution of the President of the Republic of Uzbekistan "On measures for the further development of the higher education system" // "Narodnoye Slovo" newspaper, April 21, 2017.
2. Бим И.Л. Методика преподавания иностранных языков как наука и проблемы школьного учебника: опыт системно-структурного описания. - М.: Russian Language, 1977. – P.21.
3. Миролюбов А.А. История отечественной методики обучения иностранным языкам. - М: STAGE, INFRA-M, 2002. -P.12-13.
4. Galskova N.D. Once again on linguodidactics / N.D. Galskova // Foreign languages in school. 2008. - No. 8. - P. 2.
5. Khaleeva I.I. Fundamentals of the theory of teaching the understanding of foreign language speech (training of translators): Monograph.
6. Galskova N.D. Once again about linguodidactics / N.D. Galskova // Foreign languages in school. 2008. - No. 8. - P. 8-9.
7. Language system and modern linguodidactics. Materials of the Republican Scientific and Practical Conference (Samarkand, March 25-26, 2011). - Samarkand: SamDCHTI Publishing House, 2011. – 270 p.
8. Borbala Richter. First steps in theoretical and applied linguistics.

9. Pulatov A., Muhamedova S. Computer Linguistics. - Тошкент, 2020. - Б. 66-67.
10. Shaumyan S.K. Theoretical foundations of transformational grammar // New in linguistics. Vip.I. - P. 408.
11. Shafrin Yu. Fundamentals of Computer Technology. Schoolboy's Handbook. - Bishkek. 2000.
12. Швейцер А.Д. Современная социолингвистика. Problem. Method. – М.: Nauka, 1976. – P. 148.
13. Швейцер А.Д., Никольский Л.Б. Введение в социолингвистику. – М.: Higher School, 1978. – P. 117.

# ҚОРАҚАЛПОҒИСТОН БЛОГОСФЕРАСИДА «ONE-TO-MANY» ВА «MANY-TO-MANY» КОММУНИКАЦИЯ МОДЕЛЛАРИНИНГ ҚЎЛЛАНИЛИШИ ВА УЛАРНИНГ ЖАМОАТЧИЛИК ФИКРИНИ ШАКЛЛАНТИРИШДАГИ ЎРНИ

**Б.О.Гулимова**

*ассистент ўқитувчи*

*Бердақ номидаги Қорақалпоқ давлат университети*

***Абстракт:*** *Ушбу мақолада блогосферанинг замонавий медиа маконидаги ўрни, унинг коммуникация хусусиятлари ҳамда «One-to-Many» ва «Many-to-Many» коммуникация моделларининг амал қилиш жараёнлари таҳлил қилинган. Шунингдек, ушбу коммуникация моделлари назарияси асосида блогерлар ва инфлюенсерларнинг жамоатчилик фикрини шакллантиришдаги таъсири ёритилган.*

***Abstract:*** *This article examines the role of the blogosphere in the contemporary media landscape, analyzes its communication characteristics, and explores the functioning of the "One-to-Many" and "Many-to-Many" communication models. Furthermore, based on these communication models, the study highlights the influence of bloggers and influencers on the formation of public opinion.*

***Таянч сўзлар:*** *блогосфера, блогер, коммуникация, «One-to-Many», «Many-to-Many», фикр етакчиси, инфлюенсер, рақамли медиа*

***Keywords:*** *blogosphere, blogger, communication, «One-to-Many», «Many-to-Many», opinion leader, influencer, digital media.*

## КИРИШ

XXI аср ахборот-коммуникация технологияларининг жадал ривожланиши, барча соҳаларга чуқур кириб бориши ахборот яратиш, тарқатиш ва қабул қилиш жараёнларини тубдан ўзгартирди. Интернет тармоғининг кенгайиши, мобиль қурилмаларнинг оммалашиши ҳамда ижтимоий медиа платформаларининг ривожланиши ахборот алмашинувининг янги шаклларини вужудга келтира бошлади. Бу жараёнлар натижасида анъанавий оммавий ахборот воситалари билан бир қаторда рақамли медианинг турли кўринишлари шаклланиб,

жамоатчиликнинг ахборотга бўлган эҳтиёжини тўлароқ ва кенгроқ қондиришда муҳим ўрин эгаллай бошлади.

Замонавий рақамли медиа муҳитининг муҳим таркибий қисмларидан бири сифатида блогосфера шаклланди. Блогосфера интернетдаги блоглар, блогерлар ва уларнинг ўзаро ахборот алмашинуви муносабатларидан ташкил топган рақамли информация макони ҳисобланади. Бугунги кунда блогосфера нафақат ахборот тарқатиш майдони сифатида, балки жамоатчилик фикрини шакллантиришда, ижтимоий муносабатларга таъсир кўрсатиш ва фуқаролик фаоллигини рағбатлантиришда ҳам бутун дунёга ўз таъсирини кўрсатмоқда.

Сўнгги йилларда блогосферанинг таъсир доираси сезиларли даражада кенгайиб, у анъанавий медианинг муҳим алтернатив формасига айланди. Айниқса, маҳаллий ва глобал аҳамиятга эга воқеаларни тезкор ёритишда, турли нуқтаи назарларнинг эркин билдирилишида ва аудитория билан бевосита мулоқотини амалга оширишда блогосферанинг аҳамияти янада кенгайди. Натижада блогерлар ва рақамли контент яратувчилар жамоатчилик фикрини шакллантирувчи муҳим субъектлар сифатида майдонга чиқмоқда.

Блогосферанинг ўзига хос хусусиятларидан бири шундаки, унда ахборот оқими анъанавий оммавий коммуникация воситаларидаги каби бир томонлама эмас, балки кўп томонлама характерга эга. Рақамли платформалар аудиторияга нафақат ахборотни қабул қилиш, балки уни баҳолаш, муҳокама қилиш, қайта тарқатиш ва янги контент яратиш имкониятини ҳам тақдим этмоқда. Бу эса коммуникация жараёнларининг мазмун ва шакл жиҳатидан ўзгаришига олиб келмоқда. Шу нуқтаи назардан блогосфера фаолиятини коммуникация назариялари асосида таҳлил қилиш муҳим аҳамият касб этади. Айниқса, рақамли ахборот муҳитида ахборотнинг қандай тарқалиши, аудитория билан ўзаро муносабатларининг шаклланиши ҳамда блогерларнинг коммуникация

жараёнидаги ролининг ўрганилиши долзарб ҳисобланади. Блогосферада кечаётган мазкур жараёнларни таҳлил қилиш учун коммуникациянинг асосий моделлари, жумладан «One-to-Many» ва «Many-to-Many» моделларини ўрганиб чиқиш зарурати туғилади. Мазкур моделлар назарияси рақамли медиа муҳитда ахборот оқимининг хусусиятларини ва аудитория иштирокининг даражасини кенгроқ ва чуқурроқ тушунтиришда хизмат қилади.

Коммуникация назариясига кўра ахборотнинг аудиторияга етказилишини тушунтиришда энг кенг тарқалган ва анъанавий оммавий ахборот воситалари фаолиятига хос бўлган моделлардан бири – «One-to-Many» (бирдан кўпчиликка) модели қўлланилади. Модель коммуникация шаклининг дастлабки кўринишларидан бири бўлиб, ахборот бир манба томонидан яратилиб, кўп сонли аудиторияга етказилади. Бунда аудитория асосан ахборотни қабул қилувчи субъект сифатида иштирок этади.

«One-to-Many» модели оммавий коммуникациянинг классик кўриниши ҳисобланади[54]. Телевидение, радио, газета ва журналлар, шунингдек расмий ахборот агентликлари ҳамда давлат ахборот порталлари ҳам ўз фаолиятини асосан мазкур модель асносида олиб боради. Аудитория эса ахборотни қабул қилувчи ролини бажаради, унинг ахборот яратиш жараёнидаги иштироки чекланган бўлади. Яъни:




Рақамли технологиялар ривожланиши оммавий коммуникациянинг деярли барча шакллари мазкур модель асосида ўз фаолиятини амалга оширган. Шунингдек, ахборот оқимини назорат қилиш имконияти ҳам асосан медиа ташкилотлар ва профессионал журналистлар қўлида бўлган. Шу сабабли ҳам жамоатчилик фикри кўп жиҳатдан

[54]McQuail D. McQuail's Mass Communication Theory. London: Sage Publications, 2010.

оммавий ахборот воситалари томонидан тақдим этилган кун тартиби асосида шаклланган.

Блогосферанинг дастлабки ривожланиш босқичларида ҳам «One-to-Many» модели устунлик қилган. Илк блоглар асосан шахсий веб-саҳифалар шаклида бўлиб, уларда муаллиф ўз фикрлари, кузатувлари ёки маълумотларини аудиторияга тақдим этган. Бу жараёнда блогер ахборот манбаи сифатида иштирок этган бўлса, ўқувчилар ахборотни қабул қилувчи аудитория вазифасини бажарган. Шу боис дастлабки блогларнинг коммуникация жараёни кўп жиҳатдан анъанавий оммавий ахборот воситаларига яқин бўлган.

Блогосферанинг дастлабки ривожланиш босқичларида «One-to-Many» коммуникация моделининг устунлик қилгани Қорақалпоғистон блогосферасининг пайдо бўлиш даврлари мисолида ҳам яққол намоён бўлади. 2009-йилларга келиб интернет ва мобиль алоқанинг кенгайиши натижасида маҳаллий фойдаланувчилар орасида блогерлик ва ижтимоий тармоқларда контент яратиш фаоллиги ортиб борди. Бироқ, мазкур даврда блогосфера ҳозирги даражада шаклланмаган бўлиб, асосий ахборот оқими алоҳида блогерлар ёки канал маъмурлари томонидан яратилар ва аудиторияга етказилар эди.

Ҳудудда «One-to-Many» коммуникация моделининг устунлик қилганлигини Қорақалпоғистон блогосферанинг пайдо бўлиш даври 2009-2013 йиллар оралиғида дастлабки блогерлик фаолиятини олиб борган Бухарбай Тлеўмуратов (http://kkreporter.livejournal.com, http://kkreporter.blog.com, http://kkblogger.ucoz.org, https://kkreporter.wordpress.com; http://kkreporter.hibblogger.net); Б.Қалмуратов (www.aynaline.uml.com, www.megaline.uz, www.rezerv.megaline.uz) ва шу давр оралиғида тревел (саёҳат) соҳасида информация бериб борувчи (www.around-karakalpakstan.blogspot.com,

www.karakalpaktourisms.blogspot.com, www.kalpak-travel.com) материаллари мисолида кўришимиз мумкин.

Бухарбай Тлеўмуратов блогларида ушбу давр оралиғидаги газета форматига сиғмаган ижтимоий ҳаётдаги ҳар хил мавзуларга асосланган танқидий материалларнинг профессионал ва субъект сифатидаги шахсий фикр ва муносабат билдириш мақсадида бериб борилганлигини тадқиқодимиз давомида аниқладик. У ҳаётдан кўз юмгунга қадар хар кунлик ижтимоий аҳамиятга эга актуал мавзулар доирасида ёзилган материалларини Қорақалпоғистон Республикасидаги етакчи ижтимоий-сиёсий газеталаридан «Еркин Қарақалпақстан» газетасида ва ўзининг шахсий блогларида бериб борган.

Бундан ташқари 2010-2012-йиллар оралиғида Б.Қалмуратовнинг блогидаги материаллари мисолида ҳам «One-to-Many» коммуникация модели намуналарини кўзатдик. Унинг Корақалпоғистон блогосферасида ўз ижодини олиб борганлиги тўғрисидаги илмий далилларни С.Есемуратованинг диссертация ишида ҳам кўришимиз мумкин. Унинг «2010 йили www.aynaline.uml.com блоги очилди. Сайтда технология янгиликлари берилиб борилган. 2012 йили блогернинг шахсий яна битта www.megaline.uz блоги ўз фаолиятини бошлади»[55]

Тадқиқотимиз давомида Қорақалпоғистонда 2013 йилларда тревел (саёхат) йўналишида информация бериб борувчи www.around-karakalpakstan.blogspot.com, www.karakalpaktourisms.blogspot.com, www.kalpak-travel.com веб-сайт кўринишидаги блогларнинг фаолият олиб борганлигини аниқладик. Бу кўринишдаги блоглар фаолияти ҳам дастлаб «One-to-Many» коммуникация модели назарияси асосида эди.

Мазкур моделнинг асосий афзалликларидан бири ахборотни тез ва кенг қамровли тарқатиш имконияти ҳисобланади. Бир манба қисқа вақт

[55] С.Есемуратова «Пуқаралық журналистика ҳәм СММ менен ислесиў» оқыў-қолланба Ташкент-2022, 32-бет

ичида катта аудиторияни қамраб олиши мумкин. Шунингдек, ахборот оқимининг марказлашганлиги контент сифати ва таҳририй назоратни таъминлаш имконини беради.

Бироқ, «One-to-Many» модели айрим чекловларга ҳам эга. Хусусан, аудиториянинг ахборот яратиш ва муҳокама қилиш жараёнидаги иштироки нисбатан паст бўлади. Ахборот асосан бир томонлама ҳаракатланади ва фойдаланувчиларнинг фикр билдириш имкониятлари чекланади. Бундай камчиликлар Қорақалпоғистон блогосферасининг дастлабки веб-сайт шаклидаги блогларида ҳам кўзатилди. Чунки, шу давр оралиғида аудиториянинг кўпчилиги интернет ва интернетдан фойдаланиш буйича тушунчалари ҳали шаклланмаганлиги боис ўзатилаётган информацияга муносабат фақат бир томонлама қолиб кетарди.

Шундай қилиб, «One-to-Many» коммуникация модели анъанавий оммавий ахборот воситалари ва блогосферанинг дастлабки ривожланиш босқичлари учун хос бўлган коммуникация шакли ҳисобланади. Қорақалпоғистон блогосферасининг илк шаклланиш даврида ҳам маҳаллий блоглар асосан мазкур модель асосида фаолият юритган. Бироқ ижтимоий тармоқларнинг функционал имкониятларининг кенгайиши ва фойдаланувчилар фаоллигининг ортиши аудиториянинг коммуникация жараёнидаги ролини ўзгартириб юборди. Натижада ахборотни тарқатувчи ва қабул қилувчи ўртасидаги чегараларни қисқартириб, блогосферада кўп томонлама мулоқотни таъминловчи «Many-to-Many» коммуникация модели шаклланишига замин яратилди.

Ушбу модель рақамли медианинг замонавий хусусиятларини ўзида ифодалайди. Фойдаланувчиларнинг нафақат истеъмолчи, балки унинг фаол яратувчиси сифатидаги иштирокини таъминлайди. Яъни:




Ушбу назарияда аудитория ахборотни пассив қабул қилувчиси эмас, балки фаол иштирокчиси сифатида намоён бўлмоқда. Энди фойдаланувчилар хабарларга муносабат билдириши, шарҳ ёзиши, маълумотларни қайта тарқатиши ёки мустақил равишда янги контент яратиши мумкин. Шу ўринда блогернинг ўзи ҳам информация тарқатувчи ва уни қабул қилувчи рўлига ўтади. Ижтимоий тармоқларда эълон қилинган ҳар қандай ахборотга блогернинг учун ўз томонидан ҳам муносабат билдира олиш имкониятига эга бўлади. Ҳаттоки, жамиятда рўй бераётган ижтимоий воқеа-ҳодисанинг бевосита иштирокчисига ҳам айланиши мумкин.

Шу тариқа коммуникация жараёни икки томонлама эмас, балки кўп томонлама тус олади. Замонавий блогосфера айнан мазкур коммуникация модели асосида фаолият юритади. Масалан, блогер томонидан эълон қилинган хабар фойдаланувчилар томонидан муҳокама қилинади, қайта тарқатилади ва бошқа платформаларда ҳам эълон қилиниши мумкин. Натижада ахборотнинг таъсир доираси кенгаяди ҳамда янги икки томонлама муносабатнинг шаклланиши рўй беради.

Албатта, «Many-to-Many» модели жамоатчилик фикрини шакллантириш жараёнига ҳам сезиларли таъсирини кўрсатиши табийий. Агар анъанавий медиада ахборот кун тартиби асосан таҳририятлар томонидан белгиланган бўлса, рақамли муҳитда аудиториянинг ўзи ҳам ахборот оқимига таъсир кўрсатиш имкониятига эга.

Қорақалпоғистон блогосфераси мисолида ҳам мазкур жараёнларни кўзатиш мумкин. Хусусан, маҳаллий Telegram каналлари, ижтимоий тармоқ саҳифалари ва блог платформалари атрофида шаклланган аудитория фақат тайёр хабарларни қабул қилиб қолмай, балки турли

хабарлар юбориш, ахборотни қайта ишлаш, мурожаатлар қолдириш, ижтимоий муаммоларни кўтариш ва муҳокамаларда иштирок этиш орқали фаол иштирокчига айланди. Айниқса, маҳаллий каналларга юборилаётган фото ва видеолар, аҳоли мурожаатлари ҳамда ижтимоий масалалар бўйича билдирилаётган фикрлар рақамли коммуникациянинг кўп томонлама хусусиятини намоён этади ва бундай мулоқотларни енгиллаштиради.

Масалан, Қорақалпоғистондаги етакчи блоглар https://tme/Hoja_uz, @Turtkul24news (инстаграм ижтимоий тармоғи), https://t.me/ne_janaliq, https://t.me/Qaraqalpaqstan_xawazi, **https://t.me/beruniyyangiliklarkanali**, @shuhrat_saidahmad (инстаграм ижтимоий тармоғи) ва бошқа блог каналлари фаолиятида ҳам «Many-to-Many» коммуникация моделининг айрим элементларини кузатиш мумкин. Каналда эълон қилинган хабарлар фойдаланувчилар томонидан бошқа платформаларга тарқатилади, аҳоли томонидан юборилган мурожаатлар асосида янги материаллар тайёрланади. Шу тариқа маҳаллий ва глобал муаммолар бўйича жамоатчилик фикрининг шаклланишига сабаб бўлади. Бу ҳолат каналнинг нафақат ахборот тарқатувчи, балки аҳоли ва ахборот манбалари ўртасидаги коммуникацион кўприк вазифасини ҳам бажараётганини кўрсатади.

Шундай қилиб, «Many-to-Many» коммуникация модели замонавий блогосферанинг асосий хусусиятларидан бири ҳисобланади[56]. Мазкур модель ахборот тарқатиш жараёнида аудиториянинг юқори даражадаги иштироки ва жамоатчилик фикрининг кўплаб субъектлар таъсирида шаклланиши билан ажралиб туради. Бу эса замонавий рақамли медианинг анъанавий оммавий коммуникация воситаларидан фарқ қилувчи муҳим жиҳатларидан бири ҳисобланади.

## ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

[56] Personal Influence
Katz E., Lazarsfeld P. F. *Personal Influence: The Part Played by People in the Flow of Mass Communications*. — New York: Free Press, 1955.

1. Lazarsfeld P., Berelson B., Gaudet H. The People’s Choice. New York: Columbia University Press, 1944.
2. Katz E., Lazarsfeld P. Personal Influence: The Part Played by People in the Flow of Mass Communications. New York: Free Press, 1955.
3. McQuail D. McQuail’s Mass Communication Theory. London: Sage Publications, 2010.
4. С.Есемуратова «Пуқаралық журналистика ҳәм СММ менен ислесиў» оқыў-қолланба Ташкент-2022, 32-бет.
5. Дўстмуҳаммад Х. Ахборот: мўъжиза, жозиба, фалсафа. Тошкент: Янги аср авлоди, 2013.
6. Wikipedia. Blogosphere.
7. Encyclopaedia Britannica. Blog.

# ВЛИЯНИЕ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ НА КАЧЕСТВО ВОСПРИЯТИЯ И УСВОЕНИЯ ЗНАНИЙ УЧАЩИМИСЯ

**Тулаганова Гулжахон Эркин кизи**

*Республиканский центр социальной адаптации детей*

johonawww@gmail.com

***Аннотация***. *В настоящей статье рассматривается проблема влияния цифровых технологий на когнитивные процессы восприятия и усвоения знаний в современной образовательной среде. На основе анализа теоретических подходов и эмпирических исследований обосновывается диалектический характер этого влияния: цифровая среда одновременно создаёт как новые возможности для оптимизации обучения, так и риски, связанные с когнитивной перегрузкой, снижением умственной работоспособности и трансформацией мыслительных процессов.*

***Ключевые слова:*** *цифровые технологии, восприятие знаний, усвоение знаний, когнитивная нагрузка, клиповое мышление, цифровая дидактика, когнитивная эргономика, умственная работоспособность.*

***Abstract.*** *This article examines the impact of digital technologies on the cognitive processes involved in the perception and acquisition of knowledge within the contemporary educational environment. Based on an analysis of theoretical approaches and empirical studies, the paper substantiates the dialectical nature of this impact: the digital environment simultaneously creates new opportunities for optimizing learning while also posing risks associated with cognitive overload, reduced mental performance, and the transformation of thinking processes.*

***Keywords:*** *digital technologies, knowledge perception, knowledge acquisition, cognitive load, clip thinking, digital didactics, cognitive ergonomics, mental performance.*

## ВВЕДЕНИЕ

Цифровая трансформация образования стала одним из наиболее значимых вызовов для современной педагогической науки и практики. Проникновение цифровых технологий в учебный процесс достигло такого уровня, что объём информации, получаемой учащимися из цифрового пространства, не только сопоставим, но зачастую и превосходит объём информации из традиционных источников [6, с. 124]. В этих условиях

закономерно возникает вопрос о том, как цифровая среда влияет на качество восприятия и усвоения знаний - фундаментальные когнитивные процессы, лежащие в основе образовательной деятельности.

Актуальность исследования обусловлена противоречием между широким внедрением цифровых технологий в образование и недостаточной теоретической осмысленностью их воздействия на познавательную сферу учащихся. Многочисленные исследования в основном акцентированы на изучении отдельных ситуаций взаимодействия с интернет-пространством или методических особенностях обучения с использованием информационно-коммуникативных технологий [8, с. 90]. Системный анализ влияния цифровой среды на когнитивные процессы остаётся недостаточно разработанным.

Цель статьи - теоретическое обоснование механизмов влияния цифровых технологий на качество восприятия и усвоения знаний учащимися с позиций когнитивной психологии, психологии образования и цифровой дидактики.

С позиций когнитивной эргономики, эффективность обучения зависит от того, насколько образовательная среда соответствует когнитивным возможностям и ограничениям человека [3, с. 15]. Внимание и рабочая память рассматриваются как ограниченные ресурсы, и когда учебная среда требует от учащихся одновременной обработки множества информационных потоков, возникает когнитивная перегрузка, приводящая к снижению продуктивности и ухудшению результатов обучения [4, с. 230].

Теория когнитивной нагрузки, разработанная Дж. Свеллером, предоставляет концептуальный аппарат для анализа этого феномена. Согласно данной теории, когнитивная нагрузка подразделяется на три типа: внутреннюю (интринсивную), обусловленную сложностью самого

материала; внешнюю (экстранную), порождаемую способом представления информации; и релевантную (германную), связанную с процессами построения когнитивных схем [1, p. 12]. В цифровой образовательной среде внешняя когнитивная нагрузка может существенно возрастать за счёт сложности интерфейсов, множественности информационных каналов и необходимости переключения между различными цифровыми инструментами [2, с. 100].

Исследования показывают, что иммерсивные и гибридные технологии - виртуальная (VR), дополненная (AR) и расширенная реальность (XR), а также AI-поддерживаемые симуляции - предлагают богатый опыт взаимодействия, но одновременно могут вводить когнитивную перегрузку, когда множественные элементы дизайна комбинируются без учёта когнитивных ограничений учащихся [5, p. 15]. При этом, как подчёркивают К. Пата и соавторы, результаты обучения определяются не степенью иммерсивности технологии самой по себе, а согласованностью между этапами обучения, требованиями к решению проблем, сенсорной вовлечённостью и социальной организацией учебного процесса [5, p. 5].

Эмпирические исследования фиксируют существенные изменения в познавательной деятельности современных учащихся. Как отмечают Е.С. Богомолова и соавторы, у школьников, активно использующих цифровые устройства, наблюдается снижение уровня обобщения и абстрагирования, неумение правильно аргументировать и критически объяснять происходящее [6, с. 128]. Учащиеся испытывают трудности с длительной концентрацией на учебной информации, что отражается в низком коэффициенте усвоения знаний [7, с. 80].

В исследовании, проведённом на выборке из 150 старшеклассников, установлено, что уровень информатизации в течение суток составляет в среднем 9 часов 50 минут. При этом 88% учащихся читают только

электронные (виртуальные) тексты информационного характера, а 67,2% получают эмоциональное удовольствие во время поиска новой информации в сети Интернет [6, с. 125-126]. Это формирует зависимость от постоянного обновления информации, получившую название синдром упущенной выгоды, что объясняется дофаминовым механизмом подкрепления при взаимодействии с цифровыми стимулами [7, с. 82].

Особого внимания заслуживает феномен клипового мышления, который исследователи рассматривают как когнитивный стиль, формирующийся в условиях цифровой среды. Клиповое мышление характеризуется фрагментарностью восприятия, сниженной способностью к установлению причинно-следственных связей, поверхностностью анализа и трудностями в построении развёрнутых умозаключений. Как показывают данные, только 42% опрошенных учащихся справляются с заданиями, проверяющими логические и комбинаторные способности, лишь 31% способны оценить содержание текста относительно целей автора, и только 47% могут интерпретировать смысл фразы на основе контекста [6, с. 129-30].

В то же время нельзя игнорировать и позитивные аспекты влияния цифровой среды на когнитивное развитие. Исследования показывают, что мыслительные, аттенционные и мнемические способности учащихся, имеющих опыт работы в виртуальной среде, отличаются более высокой эффективностью в определённых аспектах. У них развиваются навыки быстрого переключения между задачами, обработки больших объёмов визуальной информации и многозадачности. Однако эти преимущества сопряжены с риском недостаточного развития когнитивно-перцептивных процессов при постоянной виртуальной коммуникации [7, с. 85-86].

